

2026-yil, 15-avgust 15(83)-son




Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**O'zbekiston xalq shoiri
Usmon Azim — 76 yoshda!**





DOLZARB MAVZU

ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI FARHOD BORGAN MANZILLAR XARITASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni syujeti asosida bosh qahramon Farhod bosib o'tgan manzillar ketma-ket tartibda tahlil qilingan. Har bir manzilda qahramon qo'lga kiritgan timsoliy ashyolarning tasavvufiy talqini mavjud yondashuvlar asosida umumlashtirilib jadval va xarita shaklida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Farhod va Shirin", Farhod, tasavvufiy talqin, suluk, manzil, ramz, Bisutun.

Annotation: this article analyzes, in sequential order, the locations traversed by the protagonist Farhad in Alisher Navoi's epic poem *Farhad and Shirin*. The Sufi interpretations of the symbolic objects acquired by the hero at each location are synthesized based on existing approaches and presented in the form of a table and a map.

Key words: Alisher Navoi, Farhod va Shirin, Farhod, Sufi interpretation, "suluk" (spiritual path), location, symbol, Bisutun.

Аннотация: в данной статье последовательно анализируются места, которые посещает главный герой Фархад в поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин». На основе существующих подходов обобщаются суфийские толкования символических предметов, обретаемых героем в каждой из этих локаций, и представляются в виде таблицы и карты.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Фархад и Ширин», Фархад, суфийская интерпретация, *сулук*, место действия, символ, Бисутун.

Kirish. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni nafaqat ishqiy-romanik syujeti, balki chuqur falsafiy-tasavvufiy qatlami bilan ham o'zbek mumtoz adabiyotshunosligida doimiy tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Dostonda Farhodning bolalikdan yigitlikkacha bo'lgan tarbiyasi, ilm-hunar egallashi, so'ngra Yunon safari, dengiz sayohati va, nihoyat, Armaniston voqealari izchil bir yo'l – sayohat syujeti sifatida qurilgan. Mazkur doston sarguzasht asarlarning mukammal namunasi sifatida ham talqin etiladi. [8:642] Farhod bosib o'tgan yo'l tasavvufiy adabiyotda solikning haqiqatga tomon boradigan botiniy safari bilan tipologik yaqinlik kasb etadi.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi Farhod yo'lidagi barcha manzillarni birinchi marta yagona ketma-ket xarita va jadval shaklida tizimlashtirish hamda har bir manzildagi ramziy ashyoning tasavvufiy talqinini umumlashtirishdan iborat.

Asosiy qism. Doston matniga tayanadigan bo'lsak, Farhodning yo'li ikki katta bosqichdan iborat: birinchisi – Chin va Yunon mamlakatlaridagi sinov-safar (ilm va qudrat egallash bosqichi), ikkinchisi – Armaniston va Besutun tog'idagi ishq-mehnat bosqichidir. Har ikki bosqich orasida muhim burilish nuqtasi sifatida Iskandar oynasida Shirin husnining aks etishi turadi.

1-jadval. Joy nomlarining dostonidagi va hozirgi shakllari

№	Dostondagi (asardagi) nomi	Hozirgi geografik / ilmiy izohi	Voqea qisqacha mazmuni
1	Chin mamlakati	Qadimgi Xitoy imperiyasi (mumtoz manbalarda "Chin" shimoliy Xitoyni bildiradi)	Farhodning vatani; Qorandan tosh yo'nish, Moniydan naqqoshlik san'atini o'rganadi
2	Chin xazinasini	Ramziy makon (aniq geografik nuqtasi ko'rsatilmagan)	Otasining xazinasida Iskandar oynasini topadi
3	Yunon mamlakati	Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)	Tilsimni yechish uchun qo'shin bilan yo'lga chiqadi
4	Suhaylo hakim g'ori	Ramziy-afsonaviy manzil (Yunon tog'larida)	Donishmand Suhaylo bilan uchrashib, yo'l-yo'riq oladi
5	Ajdaho vodiysi	Ramziy-afsonaviy manzil	Ajdarni yengib, Faridun xazinasini qo'lga kiritadi
6	Ahraman o'rmoni	Ramziy-afsonaviy manzil	Dev Ahramanni o'ldirib, Sulaymon uzugini oladi

№	Dostondagi (asardagi) nomi	Hozirgi geografik / ilmiy izohi	Voqea qisqacha mazmuni
7	Suqrot tog'i / bulog'i	Ramziy-afsonaviy manzil	Xizr bilan uchrashadi, Jomi Jamni qo'lga kiritadi
8	Suqrot g'ori	An'anaviy ravishda qadimgi Yunonistondagi faylasuflar maskani bilan bog'lanadi	Hakim Suqrot bilan suhbatlashadi, hikmat oladi
9	Chin (qaytish)	Qadimgi Xitoy	Iskandar oynasida Armaniston vodiysi va Shirin husnini ko'rib hushidan ketadi
10	Dengiz	Ramziy makon; ba'zi tadqiqotchilar Xitoy dengizlariga ishora sifatida talqin qiladi	Hakimlar maslahati bilan davolanish safariga chiqadi, bo'ronda kema halokati
11	Noma'lum sohil	Ramziy makon	Taxta ustida suzib, sohilga chiqadi
12	Armaniston vodiysi / Bisutun tog'i	Eronning hozirgi Kermanshoh (Kermanshah) viloyatidagi haqiqiy Bisutun (Behistun) tog'i; tarixan Armaniston hududiga tutash mintaqa	Tog'ni kesib ariq ochadi, "Bahr un-najot" hovuzi va bog' bunyod etadi, Shirin bilan uchrashadi
13	Salosil qo'rg'oni	Ramziy qal'a nomi (adabiy ixtiro, aniq tarixiy-geografik prototipi qat'iy ko'rsatilmagan)	Xusrav tomonidan asir olinib, zanjirsiz zindonga qamaladi

Dostonda Chin mamlakati tarbiya va hunar bosqichi sifatida tasvirlangan. Farhod zohiriy ilm-hunarlarini shu zaminda o'rganadi. Tasavvufda zohiriy ilmni egallash solikning botiniy yo'lga kirishidan oldingi tayyorgarlik, ya'ni shariat va odob bosqichi sifatida talqin etiladi. Iskandar oynasi botiniy ko'zgu ramzi bo'lib, Farhod otasining xazinasida oltin-javohirlarga emas, balki Iskandar oynasiga qiziqadi; oynada g'ayrioddiy manzaralarni ko'radi. Ko'zgu tasavvuf adabiyotida an'anaviy ravishda qalb ramzi sifatida talqin etiladi: solikning qalbi qanchalik poklansa, unda haqiqat shunchalik ravshan aks etadi. Farhodning oltin-javohirga emas, balki oynaga intilishi dunyoviy boylikdan botiniy ma'rifatga ustuvorlik berish ramzi sifatida tushuniladi.

Suhaylo hakim g'ori murshidga ehtiyoj ramzi bo'lib, u botiniy xilvat, solikning tashqi dunyodan chekinib, ichki tayyorgarlik ko'rish maskani sifatida talqin qilinadi. Donishmand bilan uchrashuv murshidi komilga ergashish zaruratining ramzi hisoblanadi; samandar yog'i esa solikni yo'ldagi "yonuvchi" sinovlardan (nafs o'tidan) asraydigan ma'naviy vosita sifatida sharhlanadi.

Ajdaho vodiysi nafs ammora bilan kurash ramzi bo'lib, Farhod vodiydagi ajdarni yengib, uning g'oridan Faridun xazinasini topadi va uni otasi hamda qo'shiniga in'om qiladi. Mazkur holatning tasavvufiy talqini esa quyidagicha: ajdarni yengish nafs bilan kurash bosqichining timsoli hisoblanadi. Xazinani o'ziga emas, boshqalarga baxsh etish esa Farhodning ta'magirlikdan xoli, saxovatli komil inson sifatidagi qiyofasini kuchaytiradi.

Dev Ahraman zardushtiylik va umuman qadimgi Sharq tasavvurlaridagi yovuzlik kuchi, tasavvufiy talqinda esa vasvasa va shubha ramzi sifatida mashhur. Uni yengish orqali qo'lga kiritilgan Sulaymon uzugi botiniy hokimiyat, ya'ni nafs va olam ustidan qo'lga kiritilgan ma'naviy qudrat ramzidir.

Farhod bir buloq boshida Xizr bilan uchrashadi va uning ta'limi natijasida dunyoni ko'rsatuvchi Jomi Jamni qo'lga kiritadi. "Suqrot – kamolot cho'qqisini egallagan komil inson, o'zi bir joyda o'tirsa ham, lekin ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. U barcha zohiriy va botiniy bilimlarning jamuljami. Jamshid jomi, Iskandar ko'zgusi uning ko'ngil ko'zgusi oldida xira" [4:63]. G'orda yashovchi hakim bilan yuzma-yuz suhbat — solikning murshidi komil huzurida yakuniy ma'rifatga erishuvi, ya'ni suluk yo'lining ilmiy hikmatga oid bosqichi yakunlanishining timsoli hisoblanadi. "Suqrot piri komil timsoli bo'lib, usiz Farhod o'z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali, deb ta'riflaydi. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o'z farzandiday e'zozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u o'z suluk(yo'l)ining davomini ko'rgan edi".[7:110]


Vataniga qaytgan Farhod yana oynaga qarab, unda Armaniston vodiysini va Shirin husnini ko'rib hushidan ketadi. Bu dostonning eng muhim burilish nuqtasi: shu lahzadan e'tiboran Farhodning yo'li ilm-qudrat izlashdan ishq izlashga tomon yo'nalishini o'zgartiradi. Ko'pchilik navoiyshunoslar aynan shu voqeani dostonidagi "ishq falsafasi"ning boshlanish nuqtasi sifatida belgilaydilar.

Dengiz, umuman tasavvufiy ramziyotda, cheksizlik va nafsning yo'q bo'lishi bilan bog'liq obraz sifatida talqin etiladi. Kema halokati va Farhodning yakka o'zi taxta ustida qolishi solikning barcha tayanchlaridan (ota, qo'shin, yaqinlar) mahrum bo'lib, yolg'iz Haq bilan yuzma-yuz qolish sinovi, ya'ni fano bosqichining boshlanishi sifatida tushuniladi. Armaniston yurtiga yetib kelgan Farhod tog'ni kesib ariq ochadi, "Bahr un-najot" (najot dengizi) hovuzini qazib, atrofida bog' barpo etadi. Qattiq tosh an'anaviy

ravishda nafsning qattiqligi va qiyinchiliklar ramzi sifatida talqin etiladi. Ochilgan suv va "Bahr un-najot" nomi esa Haqqa yetishuv yo'lidagi ilohiy inoyatning ramzi sifatida sharhlanadi.

Xusrav tomonidan hiyla bilan asir olingan Farhod Salosil qo'rg'oniga, ya'ni zanjirsiz zindonga qamaladi. Bu tasavvufdagi "zohiran band, botinan ozod" tamoyilining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi.

1-rasm. Farhod yurgan yo'llar xaritasi



Xulosa. Yuqorida ko'rib chiqilgan manzillar tizimi shuni ko'rsatadiki, Farhodning zohiriy sayohatidan ishq-mehnat yo'lga o'tishi botiniy suluk yo'lining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Har bir manzilda qo'lga kiritilgan ashyo ketma-ket ravishda ma'rifat, qudrat, hikmat va, nihoyat, ishq-najot martabalarining ramziy bosqichlarini tashkil etadi. "Muazzam "Xamsa"da Navoiy orzu-idealidagi komil insonlarning butun bir turkumiga duch kelamiz, – deydi atoqli adabiyotshunos olim Ergash Ochilov, – ular orasida tarixiy shaxslar ham, shoir tomonidan yuksak mahorat bilan yaratilgan obrazlar ham bor". [5:123]

Quyida taklif etilgan xarita va jadval doston matnini tizimli va vizual tarzda taqdim etishda, shuningdek keyingi tadqiqotlarda qiyosiy-tipologik tahlil uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bizningcha, Farhod bilan bog'liq barcha sarguzashtlar haqiqiy solikning kamolot tomon bosib o'tgan mashaqqatli yo'lidir. Tilsimotlar, to'siq va g'ovlar uni pir tomonga yetib borishida, uning irodasini, sidq-u vafosini sinovdan o'tkazishda bir vosita, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 534-b.
2. Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Ваҳдат ул-вужуд проблемаси бўйича). Филол.фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1998. – 295 б.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009. – 448 б.
4. Комилов Н. Суқрот – комил инсон тимсоли. // Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 7-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – В.63
5. Ochilov E. Komillikning ikki yo'li. Navoiyning ijod olami. – Toshkent: Fan, 2001. 123-b.
6. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 216 б.
7. Сирожиiddинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Тошкент: Тамаддун, 2018. – 520 б.
8. Сулаймонов М., Ғойиббойева Р. Туркий халқлар адабиётида роман жанрининг пайдо бўлишида Навоий ижодининг ўрни. // Турк дунёси модернизми. – Борнова, 2023. – Б. 641-647.

Maysara ESANOVA,
 Qarshi shahar 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
esanovamaysara1@gmail.com



NAVOIYNING MIRIY IJODIGA ADABIY TA'SIRI

Annotatsiya: maqolada Navoiyning Miriy ijodiga bo'lgan ta'siri yoritib beriladi. Inchunun Miriy an'anaviy va zamonaviy adabiyotni o'zaro sintezlashtirgan shoir sifatida Navoiyning o'ziga birinchi darajali ma'naviy ustoz sifatida ko'rganligi qayd etiladi. Miriy dostonnavislikda Navoiyning izidan borib xamsachilikka monand tarzda katta va kichik hajmli dostonlar yaratganligi tahlil etilgan. Miriy o'z lirikasida Navoiyning izdoshi ekanligini ko'rsatganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, yangi davr adabiyoti, shoir, doston, dostonnavislik, adabiyotshunos, g'azalnavislik, tadqiqot, adabiy meros, liro-epik.*

Аннотация: в статье рассматривается влияние Навои на творчество Мирия. Отмечается, что Мирий — поэт, синтезировавший традиции классической и современной литературы, — считал Навои своим главным духовным наставником. В работе анализируется, как Мирий следовал примеру Навои в жанре дастана (поэмы), создавая произведения как крупной, так и малой формы в манере, свойственной великому мастеру. Также освещается то, как Мирий проявлял себя последователем Навои в своей лирической поэзии.

Ключевые слова: *классическая литература, современная литература, поэт, дастан, жанр дастана, литературовед, жанр газели, исследование, литературное наследие, лиро-эпический жанр.*

Annotation: the article examines Navoi's influence on the creative work of Miriy. It notes that Miriy, a poet who synthesized traditional and modern literature, regarded Navoi as his primary spiritual mentor. The study analyzes how Miriy followed in Navoi's footsteps in the realm of "dastan" (narrative poem) writing, creating both long and short-form "dastans" in a manner akin to the master. It also highlights how Miriy demonstrated his status as a follower of Navoi in his lyrical poetry.

Key words: *classical literature, modern literature, poet, "dastan", "dastan" writing, literary scholar, "ghazal" writing, research, literary heritage, lyrico-epic.*

Kirish. Klassik adabiyotimiz tarixida mislsiz meros qoldirgan ijodkorlarimizning vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini targ'ib qiluvchi asarlari madaniyatimiz va ma'naviyatimizning rivojlanish yo'llarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy ma'naviy merosimizni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib bormoqda. Istiqlol yillarida klassik adabiyotimizni ko'p tomonlama teran va chuqur tahlil qilishga keng imkoniyat ochildi. Va shuning barobarida milliy adabiy merosimizni yanada teranroq tadqiq qilish, uning badiiy-adabiy qiymatini, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan e'tibor va amaliy ishlar ham nihoyatda kuchaydi.

Asosiy qism. Navoiyning Miriy ijodiga ta'sirini yoritishda *biografik, tarixiy-qiyosiy, retrospektiv tahlil* uslubidan, ijodkorning badiiy merosini o'rganishda *struktural, qiyosiy tahlil* uslublaridan foydalanildi.

Yangi davr adabiyoti (XIX asrning 2-yarmi va XX asrning boshi) namoyandalari ijodiga ustozlar lirikasi barakali va mahsuldor ta'sir o'tkazdi. Ular Lutfiy va Navoiyning, Bobur va Mashrabning, Munis va Ogahiyning, shuningdek, Hofiz va Jomiy, Fuzuliy va Bedil kabi qardosh adabiyot klassiklarining ilg'or an'alari hamda ijobiy tajribalarini o'rganish, o'zlashtirish orqali o'z davrlarining mashhur asl shoirlari bo'lib yetishdilar. Ayniqsa, ulug' Alisher Navoiyning lirik ijodi ular uchun g'oyaviy yetuklik va badiiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.

Miriyning “Shabi bisti yakumi mohi muharram voqeai xob didan” nomli tojikcha masnaviysi 50 baytdan ortiq boʻlib, unda shoirning ijod maydoniga, ayniqsa, dostonchilikka alohida adabiy-maʼnaviy tayyorgarlik bilan kirib kelgani maʼlum boʻladi. Masnaviy mumtoz adabiyotda anʼanaga aylangan tush koʻrish usuli asosida yozilgan boʻlib, oʻziga xos kichikkina syujet chizigʻiga ega. Unda shoirning tushida kechgan voqealar, jumladan, uning ijodga

boʻlgan ishtiyoqi, joʻshqinligi, maʼnaviy ustozlari Jomiy, Navoiylarga boʻlgan muhabbati tasviri berilgan. Yozilishicha, bir kecha ijodkor tush koʻradi. Tushida 40 kishidan iborat ajoyib insonlar guruhi uning eʼtiborini tortadi. Ularning har bir soʻziga mahliyo boʻlgan shoir bevosita bu davra ishtirokchisiga aylanib, u yerda ustoz Navoiy bilan suhbat quradi. Navoiy oʻzini tanishtirib, unga rahnamo ekanligini taʼkidlaydi:

Masnaviydan parcha	Mazmuni
<i>Manam Miri Alisheri Navoiy,</i>	– Men – Mir Alisher Navoiyman,
<i>Amiram bo tu, xud miri navoiy.</i>	Senga amir boʻlsam-da, oʻzim bir kuychi mirman.
<i>Pai dastiriyat umrest dastam,</i>	Seni qoʻllash uchun bir umr qoʻlimni choʻzganman,
<i>Qalam bar kaf kuni, man safxabastam [1:305].</i>	Sen qalamni qoʻlga olsang, men sahifa qoʻyuvchi boʻlaman.

Shunda Miriy oʻzini Navoiy poyiga tashlab, ijod uchun maʼnaviy ustozining roziligini oladi. Yaʼni Navoiy shunday deydi:

Masnaviydan parcha	Mazmuni
<i>Tuli ruxsat ba ruxsori tu shud vo,</i>	Ruxsat guli sening yuzingda ochildi,
<i>Bichin azxar guliston dasta gulxo[1:306].</i>	Endi har gulistondan guldastalar tergin.

Masnaviyda ijodkor tushlarini talqin qilish orqali oʻz borligʻida kechayotgan ruhiy oʻzgarishlarni tahlil etib, ijodiy qobiliyatini tarbiyalab boradi. Adabiyotshunos A.Majidiy Navoiyning Miriy ijodiga boʻlgan adabiy taʼsiri haqida shunday yozadi: “... U (Miriy) Navoiyni bir necha qatla tushida koʻrib, adabiy taʼlim olgʻon. Shunday tushlarini juda koʻp gʻazallarida yozadi. Bu toʻgʻrida uning “Sharbatnoma” degan yarim manzum bir asari ham boʻlgʻon” [2:45-46].

Darhaqiqat, Miriy “Kaki Kuhzod” asarida: “*Navoiy ruhidan oʻlsa madad, Yana qilmasa lutf Firdavsiy rad*”[3], deya eʼtirof etishi, uning ustozlari orasidan eng koʻp Navoiyga ixlos qoʻygan shoir boʻlganligini dalillaydi [4:203-204].

Adabiyotshunos olim M.Mahmudov Miriyning dostonnavislik salohiyati xususida fikr yuritib, Miriyning “Yuzing” radifli gʻazalida “besh oli abo” (Muhammad paygʻambar, Hazrat Ali, Bibi Fotima, Imom Hasan va Imom Husayn) madad qilsalar, Xamsa uslubida besh juzv yaratishga qodirligi haqida yozganini keltirib oʻtadi va dostonlarini “Xamsa” darajasida yuksak baholaydi”[5].

Akademik B.Valixojayev ushbu fikrga zid oʻlaroq, Miriyning dostonlari Navoiy dostonlariga muayyan maʼnoda yaqin boʻlsa-da, xamsachilik anʼanasiga javob bera olmasligini qayd etadi. Inchunun,

shoirning “Qissai Salim Javhariy” dostoni “Sabʼai sayyor”ga, “Majididdin va Faxrunniso” dostoni “Farxod va Shirin”ga, “Rustam va Suhrob” dostoni “Layli va Majnun”ga hamohang uslubda bitilgan boʻlsa-da, ularni “Xamsa” dostonlarining darajasida deya olmaymiz, deydi [6:37].

Zero, professor Qurdosh Qahramonov “Nizomiy ijodi talqiniga doir” maqolasida mualliflar Sh.Sirojiddinov va G.Ashurovalarning “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va gʻoyaviy-badiiy asos” (2022-y) monografiyasini tahlil qiladi. Unda “Xamsa”chilik va dostonnavislik haqida fikr yuritib, “dostonlardagi aksariyat obrazlar birinchi marta badiiy asarda mukammal sayqal topganini yozar ekan, ularning keyinchalik Sharq dostonchiligida anaʼanaviy obrazlarga aylanganini taʼkidlaydi. Mazkur taʼkidining davomida “dostonchilik borasida Miriy nomini ham eʼtirof etib, “Bugina emas, Xusrav Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ochilmurod Miriy kabi sanʼatkorlar uni yangi taraqqiyot choʻqqisiga koʻtardi”, – deb yozadi[7:11].

Miriy Firdavsiy, Nizomiy, Saʼdiy, Navoiy va Bedillardan ijodiy ozuqa olib, ularning anʼanalarini davom ettirdi. Miriyning doston yaratishga kirishishi Navoiy anʼanasiga toʻla mos keladi. Buni quyidagi qiyosiy debochadan bilsak boʻladi:

Navoiyning “Xamsa” yozishga kirishishi	Miriyning doston yaratishga kirishishi
Emas oson bu maydon ichra turmoq,	“Maro ham nazmi Sa’dū orzu ast,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.	Chu Firdavsiy tamanno mī ba mī ast.
Kerak sher oldida ham sheri jangi,	Buvad mofizzamiram chun Nizomi
Agar sher o’lmasa, bori palangi.	Manam rangin burun oram chu Chomi,
	Ba taxti nukta binshinam chu Xusrav
	Zanam bar gan’i ma’ni siqqai nav”.

Keltirilgan parchada Miriy o’tmishdagi ustozlariga hurmat izhor qilish bilan birga o’zining ham ular yaratgan go’zal badiiy obidalar singari asarlar bitmoqchi ekanligini, “ma’no ganji (xazinasi) eshigiga yangi muhr” bosmoqchiligini, ya’ni o’sha daholar kabi dostonlar yaratishga yeng shimarganini aytadi. Bunday jiddiy ijodiy ishga katta tayyorgarlik ko’rgan Miriy uning nihoyatda mas’uliyatli ekanini ham tushungan. Miriy “Anvori Suhayliy”, “Kaki kuhzod”, “Qissai Salimi Javhariy”, “Rustam va Suhrob”, “Majdiddin va Faxriniso” kabi dostonlarni o’zbek tilida yozgan bo’lsa, “Ra’no va Zebo” poemasi esa tojik tilida yozadi.

Xulosa va takliflar. Miriy qaysi bir adabiy fakt bilan yondashmasin, qaysi bir badiiy yodgorlikni qayta yaratmasin, hamma vaqt Alisher Navoiyning tamoyillariga sodiq qolib, ustozlari singari adabiy an’analarni sintezlashtirishga, xalqlar do’stligini kuylash, adabiy hamkorlikni davom ettirishga intiladi. Miriy ijodida dostonnavislik markaziy o’rinni egalladi hamda o’z davrida dostonnavislikda yuksak darajaga erisha oldi. Alqissa, bu borada dostonnavislikdagi xizmatining mahsuli o’laroq, adabiyotshunoslar tomonidan Xusrav Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy nomlari bilan bir qatorda e’tirof etilishiga asos bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miriy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. 306-b.
2. Majidiy A. Miriyning boshqa asarlari to’g’risida. // Maorif va o’qituvchi, 1927, 7-8-son, 45-46-betlar.
3. “Kaki Kuhzod” dostoni. // https://wikisource.org/wiki/Kaki_Kuhzod
4. Esanova M.A. XIX asr ikkinchi yarmidagi adabiy-madaniy hayot va Miriy. // Ilm sarchashmari, 8-son (avgust 2025), Urganch, 2025. 203-204-b. // [BDwwCfNPb0yizfPXnAWny5USyMiqHRFKJH8YIDrv.pdf](#)
5. Mahmudov M. Shoir Miriy (Biografiya va lirika). Filol. fan. nomz.... dis. – Toshkent, 1970. 240-b.
6. Valixojayev B. Miriyning “Ra’no va Zebo” poemasi haqida. // O’zbek klassik va sovet adabiyotining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. 35-47-betlar.
7. Qurdosh Qahramonov. Nizomiy ijodi talqiniga doir. // “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: “BROK CLASS SERVIS”, 2024. 318-b.

Madina QOSIMOVA,
Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA AYOL OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida ayol obrazining asosiy ko'rinishlari ona, xotin-qizlar, momo-kampir obrazlari, shuningdek, ayol va Vatan tushunchalarining badiiy uyg'unligi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, ayol nafaqat go'zallik va ilhom timsoli, balki milliy qadriyatlar, ma'naviy poklik va davomiylik ramzi sifatida ham talqin etiladi. Abdulla Oripov ijodini o'rgangan tadqiqotchilar shoir ayol obrazini yaratishda ortiqcha mubolag'a va sun'iy ta'rif-tavsiflarga berilmasligini, aksincha ramz va timsollar orqali tabiiy, hayotiy obrazlar yaratishga intilganini alohida qayd etadilar.

Kalit so'zlar: "Ayol", "Qizlarim", Badiiy obraz, Abdulla Oripov, Obrazli tafakkur, Ayol va Vatan obrazlarining uyg'unligi, Xotin-qizlar obrazi — hayotiylik va prototiplilik.

Annotation: this article analyzes the main representations of female figures in Abdulla Oripov's poetry, including the images of the mother, women, and elderly women (grandmothers), as well as the artistic harmony between the concepts of womanhood and the homeland, based on scholarly literature. As emphasized in literary studies, a woman is interpreted not only as a symbol of beauty and inspiration but also as a representation of national values, spiritual purity, and continuity. Researchers who have studied Abdulla Oripov's works particularly note that, in portraying female characters, the poet avoids excessive exaggeration and artificial descriptions. Instead, he strives to create natural and lifelike images through the use of symbols and artistic imagery.

Key words: «Woman», «My Daughters», artistic image, Abdulla Oripov, figurative thinking, the harmony of the images of woman and the homeland, the image of women—lifelikeness and prototypicality.

Аннотация: в данной статье на основе научной литературы анализируются основные формы художественного воплощения женского образа в поэзии Абдуллы Арипова, включая образы матери, женщин и пожилых женщин (бабушек), а также художественная гармония между образами женщины и Родины. Как отмечается в литературоведении, женщина рассматривается не только как символ красоты и вдохновения, но и как воплощение национальных ценностей, духовной чистоты и преемственности поколений. Исследователи, изучавшие творчество Абдуллы Арипова, особо подчеркивают, что при создании женских образов поэт избегает чрезмерной гиперболизации и искусственных описаний. Напротив, он стремится создавать естественные и жизненно достоверные художественные образы с помощью символов и художественной образности.

Ключевые слова: «Женщина», «Мои дочери», художественный образ, Абдулла Арипов, образное мышление, гармония образов женщины и Родины, образ женщины — жизненная достоверность и прототипичность.

O'zbek adabiyotining XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi eng yirik vakillaridan biri, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi teran falsafiy mushohada, milliy ruh va yuksak badiiy mahorat bilan ajralib turadi. Shoir lirikasida Vatan, ona tabiat, insonparvarlik, e'tiqod kabi mavzular qatorida ayol obrazi ham alohida o'ringa ega. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, ayol nafaqat go'zallik va ilhom timsoli, balki milliy qadriyatlar, ma'naviy poklik va davomiylik ramzi sifatida ham talqin etiladi. Abdulla Oripov ijodini o'rgangan tadqiqotchilar shoir ayol obrazini yaratishda ortiqcha mubolag'a va sun'iy ta'rif-tavsiflarga berilmasligini, aksincha ramz va timsollar orqali tabiiy, hayotiy obrazlar yaratishga intilganini alohida qayd etadilar.

Badiiy obraz vositasida fikrlash (va ifodalash) san'atning spetsifik, ya'ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo'lib, u obrazlilik deb yuritiladi. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zini anglagan mohiyatini va o'zining anglayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi [1]. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "obrazli tafakkur" deb yuritiladi. Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Oradagi farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fandagi va badiiy adabiyotdagi tafakkur tarzini qiyoslab ko'rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko'raylik [1]. A.Oripovning mashhur "Ayol"she'rida

ikkinchi jahon urushi tufayli eridan yosh beva qolgan, endi umrini farzandiga bag'ishlagani holda sadoqat bilan yashab o'tayotgan ayol haqida so'z boradi. Shoir ko'z oldimizda konkret ayolni gavdalandiradi, uning fojea taqdiri, yolg'izlikda kechayotgan mashaqqat-u alam-iztirobga to'liq turmushini bir nechtagina yorqin badiiy detal yordamida tasvirlash orqali umuman urush haqida, uning oqibatlarini — xalqimiz boshiga keltirgan kulfatlar haqida, og'ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Oradagi farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fandagi va badiiy adabiyotdagi tafakkur tarzini qiyoslab ko'rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko'raylik. A.Oripovning mashhur "Ayol" she'rida ikkinchi jahon urushi tufayli eridan yosh beva qolgan, endi umrini farzandiga bag'ishlagani holda sadoqat bilan yashab o'tayotgan ayol haqida so'z boradi. Shoir ko'z oldimizda konkret ayolni gavdalandiradi, uning foje taqdiri, yolg'izlikda kechayotgan mashaqqat-u alam-iztirobga to'liq turmushini bir nechtagi- na yorqin badiiy detal yordamida tasvirlash orqali umuman urush haqida, uning oqibatlarini xalqimiz boshiga keltirgan kulfatlar haqida, og'ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Tadqiqotchi U. Boboqulova ta'kidlashicha, shoir ayollarni turli xarakter xususiyatlariga ko'ra

tasvirlaydi: mehnatkash va jafokash, yuksak aql egasi, mehribon va g'amxo'r, jamiyatda faol va o'z kasbiga sodiq, ota-onaga mehribon farzand, sadoqat va matonat ramzi. Bu xilma-xillik shoirning ayol obraziga bir yoqlama emas, balki ko'p qirrali, hayotiy yondashuvdan dalolat beradi. Abdulla Oripov lirikasida ona obrazi markaziy o'rin tutadi. Adabiyotshunoslar barcha ayollarning ona bo'lavermasligini, ammo ona tushunchasining shoir ijodida alohida muqaddaslik kasb etishini ta'kidlaydilar. "Haj daftari" turkumiga kirgan "Ona" she'rida ona obrazi diniy-irfoniy mazmun bilan boyitilgan bo'lib, unda onalarga hurmat-ehtirom ilohiy burch darajasiga ko'tariladi. "O'zbek onasi" she'rida esa ona eng muqaddas ziyoratgohga qiyoslanadi — bu orqali shoir Vatan va Ona tushunchalarini bir-biriga bog'liq, bir-birisiz mukammal bo'lolmaydigan poetik zanjir sifatida talqin etadi. Abdulla Oripov ijodida ona mavzusi markaziy o'rin tutadi — bu shunchaki lirik mavzu emas, balki shoirning butun dunyoqarashini, milliy va falsafiy tafakkurini ifodalovchi ustuvor tamoyildir. "O'zbek onasi" she'rida ham ona obrazi oddiy inson sifatida emas, balki millatning ma'naviy tayanchi, muqaddaslik timsoli sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, "O'zbek onasi" she'rida ona eng muqaddas sajdagohga qiyos qilinadi — bu shoirning onaga bo'lgan munosabatida diniy-irfoniy ma'noning kuchli aks etganini ko'rsatadi. Obraz tizimi va badiiy talqin

She'rdagi ona obrazi ikki qatlamda namoyon bo'ladi:

1. Individual-shaxsiy qatlam — o'z onasiga, ayni bir insonga bo'lgan farzandlik mehri, sog'inch, minnatdorlik tuyg'ulari.

2. Umumlashma-milliy qatlam — "o'zbek onasi" tushunchasi orqali butun bir xalqning ayollik ideali, sabr-toqat, fidoyilik, mehr-shafqat kabi milliy xarakter xususiyatlari mujassamlashtiriladi.

Bu ikki qatlamning uyg'unlashuvi Oripov poetikasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi: shoir konkret obraz orqali mavhum-falsafiy g'oyaga chiqadi. Tadqiqotchilar bu haqda shunday yozadi: ona obrazi Abdulla Oripov she'riyatida alohida o'rin tutuvchi badiiy hodisadir, bu mavzudagi she'rlarida shoir ona obrazini ilohiy tuyg'u va mukammal badiiylik uyg'unligida tasvirlaydi. Qiyoslash va metafora. Onaning muqaddas maqomga (sajdagoh, jannat kabi tushunchalarga) qiyoslanishi Sharq mumtoz she'riyatidagi tasavvufiy an'analarni yodga soladi. Bu Oripovga xos xususiyat — u zamonaviy mavzularni mumtoz obrazlar vositasida ifodalaydi, natijada she'r zamonaviylik bilan an'anaviylikni uyg'unlashtiradi. Xalq og'zaki ijodi bilan aloqadorlik. Oripov ijodida xalq iborolari, maqol va idiomalarning she'riy vazn va qofiya talabiga moslashtirilib qo'llanilishi uning uslubiy mahoratini ko'rsatadi. Bu "O'zbek onasi" kabi she'rlarda ham milliylik ruhini kuchaytiradi —

ona obrazi orqali xalq donishmandligi, og'zaki an'ana ifodalanadi. Emotsional-lirik ohang. She'r intim, samimiy ohangda yozilgan bo'lib, shaxsiy sog'inch va minnatdorlik hissi bilan yo'g'rilgan. Bunga misol tariqasida shoirning boshqa bir onaga bag'ishlangan misralarini keltirish mumkin, ular ham shu xil samimiy uslubni namoyish etadi. Tadqiqotchilar shuningdek, "Jannat" she'rida hadis mazmuni asosida ona haqidagi irfoniy qarashning badiiy ifodasi yaratilganini qayd etishadi: shoir ona oldidagi mehr-oqibatni jannatga erishuv vositasi sifatida ko'rsatadi. Shu tariqa ona obrazi Abdulla Oripov ijodida nafaqat oilaviy, balki umuminsoniy va diniy-falsafiy mazmun kasb etadi. Alohida ta'kidlash joizki, boshqa tadqiqotlarda ham (jumladan, lirikada obraz tasnifi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda) ona obrazi bilan bog'liq she'rlarda bolalik xotiralari, samimiy kechinmalar va milliy tarbiya masalalari chuqur tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, Abdulla Oripov ijodida xotin obrazi ko'proq badiiy to'qima xarakterga ega bo'lsa, qizlar obrazi ko'pincha real prototiplarga tayanadi. Shoirning xorijiy safarlari taassurotlari asosida yozilgan "Habash qiz", "Kamilla", "Jamayka" kabi she'rlari, shuningdek yaqinlariga bag'ishlangan "Ko'ngil mulki", "Singlim", "Vatan mehri", "Saodat" kabi bag'ishlov-she'rlari hayotiy voqelikning ilhomboxsh in'ikosidir. Bunday she'rlarda irqi va dini har xil bo'lgan insonlarning tub mohiyatan bir ekanligi haqidagi falsafiy fikr ilgari suriladi. Abdulla Oripov ijodini o'rgangan olimlar shoir she'riyatida Vatan tushunchasining ko'pincha ayol-onaga obrazi orqali ifodalanishini ta'kidlaydilar. Vatanni Onaga, Onani esa muqaddas ziyoratgohga qiyoslash orqali yaratilgan poetik obrazlar tizimi shoir dunyoqarashining o'zagini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, ba'zi tadqiqotlarda "anor" kabi an'anaviy ramziy obrazning ham Abdulla Oripov ijodida ayollarga, xalq fidoyiligiga va oilaviy qadriyatlarga nisbatan yangi ma'no kasb etib qo'llanilgani ko'rsatilgan — bu shoirning mumtoz an'analarni zamonaviy mazmun bilan boyitish mahoratidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov lirikasida ayol obrazi ko'p qatlamli va serqirra badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ijodida ayol obrazi ona, xotin-qiz, momo-kampir kabi turli timsollarda gavdalanib, milliy ruh, umuminsoniy qadriyatlar va diniy-falsafiy mushohada bilan uyg'unlashadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, shoir ayol obrazini yaratishda sun'iy mubolag'adan yiroq bo'lib, hayotiy va real timsollarga, shuningdek, ramziy-metaforik ifoda vositalariga tayanadi. Bu esa Abdulla Oripov ijodini o'zbek adabiyotida ayol mavzusining eng teran va badiiy jihatdan yetuk namunalaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Qur'onov. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent, "Navoiy universiteti" 2018.
2. Boboqulova U. Abdulla Oripov she'riyatida ayol obrazining badiiy talqini // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — ToshDO'TAU, 2-bosqich tayanch doktoranti maqolasi.
3. Lirikada obraz tasnifi va talqini (Abdulla Oripov she'riyati misolida) // InLibrary ilmiy-adabiy jurnali.
4. Abdulla Oripov she'riyatida millat ruhi ifodasi // CyberLeninka ilmiy maqolalar bazasi, 2021.
5. Abdulla Oripov she'riyatida Vatan obrazi talqinlari // ResearchGate ilmiy nashri, 2020.
6. Anor obrazining badiiy talqini o'zbek she'riyatida (Abdulla Oripov ijodi misolida) // FarDU ilmiy xabarlar, Farg'ona davlat universiteti.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 2000.

Nafisa NAZAROVA,
Urganch tumani 6-sonli maktab o'qituvchisi

O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA OILAVIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va "Nur borki, soya bor" romanlari misolida oilaviy qadriyatlar hamda zamonaviy antropologik tafakkurning badiiy talqini tadqiq etiladi. Asarlarda oila institutining inson ma'naviy kamolotidagi o'rni, qahramonlarning oilaviy munosabatlari, axloqiy tanlovlari va ruhiy kechinmalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *O'tkir Hoshimov, oilaviy qadriyatlar, zamonaviy antropologik tafakkur, badiiy antropologiya, oila instituti, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, qahramon obrazi, psixologik tahlil, badiiy talqin, "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor".*

Annotation: this article examines the artistic interpretation of family values O'tkir Hoshimov's novels "Ikki eshik orasi" and "Nur borki, soya bor." The study analyzes the role of the family institution in the spiritual development of an individual, the family relationships of the characters, their moral choices, and psychological experiences from an anthropological perspective.

Key words: *O'tkir Hoshimov, family values, modern anthropological thinking, literary anthropology, family institution, national values, spirituality, character image, psychological analysis, artistic interpretation, "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor".*

Аннотация: в данной статье исследуется художественная интерпретация семейных ценностей романах Уткира Хашимова «Между двумя дверями» («Ikki eshik orasi») и «Где есть свет, там есть тень» («Nur borki, soya bor»). На основе антропологического подхода анализируются роль семьи в духовном становлении личности, семейные взаимоотношения героев, их нравственный выбор и внутренние переживания.

Ключевые слова: *Уткир Хашимов, семейные ценности, современное антропологическое мышление, литературная антропология, институт семьи, национальные ценности, духовность, образ героя, психологический анализ, художественная интерпретация, «Между двумя дверями», «Где есть свет, там есть тень».*

Bugun milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, oila institutining jamiyattaraqqiyotidagi o'rni, shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri hamda oilaviy qadriyatlarning badiiy adabiyotda aks etish mexanizmlarini bugungi adabiyotshunoslikning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Zero, badiiy asar insonning nafaqat estetik didini shakllantiradi, balki uning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tafakkurining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri O'tkir Hoshimov ijodida inson va jamiyat, oila va shaxs, mehr va vijdon, sadoqat va mas'uliyat masalalari alohida badiiy-falsafiy talqin etilgan. Adibning "Ikki eshik orasi" va "Nur borki, soya bor" romanlari o'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlarini yoritishda muhim o'rin tutadi. Ushbu asarlarda oilaviy munosabatlar, avlodlar davomiyligi, ota-ona va farzand o'rtasidagi rishtalar, insonning ma'naviy tanlovi hamda ruhiy kechinmalari badiiy voqelik orqali chuqur ochib berilgan.

So'nggi yillarda adabiyotshunoslikda antropologik yondashuv badiiy matnni inson omili, uning ruhiy olami,

madaniy qadriyatlari va hayot falsafasi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etishga xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv asosida O'tkir Hoshimov romanlarini tahlil qilish yozuvchi yaratgan obrazlarning ma'naviy qiyofasi, oilaviy qadriyatlarga munosabati va milliy tafakkurning badiiy ifodasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va "Nur borki, soya bor" romanlari misolida oilaviy qadriyatlarning badiiy talqini hamda zamonaviy antropologik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga urindik. O'tkir Hoshimov romanlaridagi oilaviy qadriyatlar zamonaviy antropologik tafakkur nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinib, qahramonlar xarakteri, ularning ma'naviy-axloqiy tanlovlari hamda milliy qadriyatlarning badiiy konsepsiyasi o'zaro uzviy bog'liqligini sezish mumkin.

O'tkir Hoshimov o'zbek nasrida inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar va milliy qadriyatlarni chuqur badiiy tadqiq etgan adiblardan biridir. Yozuvchi ijodida oila shunchaki ijtimoiy birlik emas, balki insonning ma'naviy-axloqiy kamolotini belgilovchi muhim makon sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, "Ikki eshik orasi" va "Nur borki, soya bor" romanlarida oilaviy qadriyatlar antropologik tafakkur bilan

uzviy bog'liq holda yoritilgan. Ushbu asarlarda insonning ichki olami, ruhiy kechinmalari, oilaga bo'lgan munosabati hamda axloqiy tanlovi badiiy konsepsiyaning asosini tashkil etadi.

Muallif qahramonlarni murakkab hayotiy vaziyatlarga duchor etish orqali ularning insoniy fazilatlarini, oiladagi o'rnini va ma'naviy dunyosini ochib beradi. "Ikki eshik orasi" romanida urush va urushdan keyingi davr voqealari fonida oilaning jamiyat hayotidagi orni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Urush tufayli ko'plab oilalarning parokanda bo'lishi, yaqinlaridan ayrilgan insonlarning ruhiy iztiroblari hamda og'ir sinovlarga qaramay insoniylikni saqlab qolishga intilishi romanning bosh g'oyalaridan biridir. Asarda Orif oqsoqol obrazi xalq donishmandligi, sabr-toqat va oilaparvarlik timsoli sifatida gavdalanadi. U oilani jamiyatning eng muqaddas maskani deb biladi va yosh avlodni hamjihatlik hamda mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga intiladi. Shu orqali yozuvchi milliy oilaviy qadriyatlarning davomiyligini badiiy asoslaydi.

Romandagi Qora amma obrazi esa o'zbek ayolining matonati, fidoyiligi va oilaga sadoqatini ifodalovchi yorqin timsoldir. Uning urush yillaridagi sabr-toqati, farzandlari va yaqinlariga bo'lgan mehr-muhabbati oilaning ma'naviy tayanchi aynan ayol ekanligini ko'rsatadi. Muallif ushbu obraz orqali o'zbek ayolining antropologik qiyofasini yaratadi. Qora amma nafaqat o'z oilasining, balki mahalla va jamiyatning ham ma'naviy tayanchiga aylanadi.

"Nur borki, soya bor" romanida esa oilaviy qadriyatlar zamonaviy hayot sharoitida yuzaga kelayotgan ma'naviy muammolar bilan bog'liq holda yoritiladi. Muallif qahramonlarning ichki kechinmalari, vijdon azobi, mehr va kechirim o'rtasidagi ruhiy kurashlarini tasvirlar ekan, oilaning mustahkamligi insonning axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Romandagi oilaviy

ziddiyatlar oddiy maishiy kelishmovchilik emas, balki insonning o'z vijdoni bilan kurashi sifatida talqin qilinadi.

Har ikkala romanda ham ota-ona va farzand munosabatlari alohida badiiy ahamiyat kasb etadi. Ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasidagi mas'uliyat, avlodlar davomiyligi va oilaviy birdamlik o'zbek xalqining milliy qadriyatlari sifatida talqin etiladi. Yozuvchi qahramonlar taqdiri orqali oilada mehr va ishonch yo'qolsa, inson ma'naviy inqirozga yuz tutishini, aksincha, mehr-oqibat va sadoqat oilani saqlab qoluvchi eng muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. O'tkir Hoshimov qahramonlari individual xaraktergina emas, balki muayyan davrning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ifodalovchi badiiy tiplar hisoblanadi. Ularning har biri o'z oilasi, jamiyati va vijdoni oldidagi mas'uliyat orqali shakllanadi. Muallif insonning haqiqiy qadr-qimmatini uning boyligi yoki mavqei bilan emas, balki oilasiga, yaqinlariga va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanishini badiiy asoslaydi. Shuningdek, yozuvchi har ikkala romanda inson ruhiyatini psixologik tasvir vositalari orqali chuqur ochib beradi. Ichki monologlar, ruhiy iztiroblar, xotiralar va falsafiy mushohadalar qahramonlarning antropologik qiyofasini yaratishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Bu jihat O'tkir Hoshimov nasrining zamonaviy antropologik tafakkur bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

Demak, "Ikki eshik orasi" va "Nur borki, soya bor" romanlari o'zbek oilasining ma'naviy qiyofasi, milliy qadriyatlarning badiiy talqini hamda inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beruvchi yuksak badiiy asarlardir. Ushbu romanlarda oilaviy qadriyatlar shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va milliy o'zlikni saqlashning muhim omili sifatida talqin etilgan. Shu bois mazkur asarlar zamonaviy antropologik tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2006.
3. Qozoqboy Yo'ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Ibrohim Haqqul. E'tiqod va ijod. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti. Yangi O'zbekistonda oila va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2022.
6. Filologiya masalalari ilmiy jurnali. O'tkir Hoshimov ijodiga bag'ishlangan maqolalar. – Toshkent, 2021–2024.



TILSHUNOSLIK



Sarvinoz MARDONOVA,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi,

f.f.f.d. (PhD)

TILSHUNOSLIKDA SO'Z YASALISHINING MUSTAQIL SATH SIFATIDAGI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida so'z yasalishining mustaqil til sathi sifatidagi ilmiy-nazariy talqini tahlil qilinadi. So'z yasalishining shakllanish bosqichlari, uning til tizimidagi o'rne hamda leksikologiya va morfologiya bilan munosabati yoritiladi. Tadqiqotda so'z yasalishining alohida soha sifatida qaralishi bilan bog'liq nazariy qarashlar, o'zbek tilshunosligida ushbu masalaning o'rganilishi va rivojlanish jarayoni tahlil etiladi. Shuningdek, yasovchi asos, yasovchi vosita, yasalma birlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolada so'z yasalishi tilning lug'aviy boyishini ta'minlovchi muhim mexanizm ekanligi hamda uning mustaqil sath sifatida o'rganilishi zarurligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tilshunosligi, so'z yasalishi, mustaqil sath, yasama so'z, yasovchi asos, qo'shimcha, morfema, leksikologiya, morfologiya, til tizimi.

Аннотация: в данной статье рассматриваются научно-теоретические основы интерпретации словообразования как самостоятельного уровня в узбекском языкознании. Анализируются этапы формирования учения о словообразовании, его место в языковой системе и взаимосвязь с лексикологией и морфологией. Освещаются основные научные взгляды на изучение словообразовательных процессов, а также особенности исследования данной области в узбекском языкознании. Раскрывается сущность таких понятий, как производящая основа, словообразовательное средство и производное слово. Обосновывается значение словообразования как важного механизма развития словарного состава языка.

Ключевые слова: узбекское языкознание, словообразование, самостоятельный уровень, производное слово, основа, аффикс, морфема, лексикология, морфология.

Annotation: this article analyzes the theoretical interpretation of word formation as an independent linguistic level in Uzbek linguistics. It discusses the formation stages of word formation theory, its position in the language system, and its relationship with lexicology and morphology. The study examines scientific approaches to word formation processes and reveals the essence of such concepts as word-forming base, word-forming elements, and derived words. The article emphasizes the importance of word formation as a significant mechanism contributing to the enrichment of the lexical system of the Uzbek language.

Key words: Uzbek linguistics, word formation, independent level, derived word, word-forming base, affix, morpheme, lexicology, morphology.

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab va doimiy harakatdagi tizimdir. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy o'zgarishlar, avvalo, tilning lug'aviy qatlamida o'z aksini topadi. Til taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning yangi so'zlar bilan boyib borish jarayonidir. Bu jarayon ikki asosiy yo'l orqali amalga oshadi: boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlar hosil qilish. So'z yasalishi ana shu ichki imkoniyatlarning eng muhim ko'rinishlaridan biridir. U tilning mavjud birliklari asosida yangi

lug'aviy birliklarni yuzaga keltirish qonuniyatlarini o'rganadi. Shuning uchun ham so'z yasalishi masalasi nafaqat leksikologiya, balki grammatika, xususan, morfologiya bilan ham bevosita bog'liq holda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida so'z yasalishining maqomi masalasi uzoq vaqt davomida ilmiy bahslarning markazida bo'lib kelgan. Dastlab so'z yasalishi morfologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik uning o'ziga xos obyekti, birliklari va qonuniyatlari mavjudligi asoslab berildi. Natijada so'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida shakllandi.

Soʻz yasallashining til tizimidagi oʻrni. Soʻz yasallashi yangi soʻz hosil qilish jarayonini hamda ushbu jarayonni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimini anglatadi. A. Hojiyev taʼkidlaganidek, soʻz yasallashi oʻzining maxsus tekshirish obyektiga ega boʻlgan mustaqil sohadir. [1] Uning obyekti yangi lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan yasama soʻzlar va ularning tarkibiy qismlaridir. Soʻzning tabiatini turli tilshunoslik boʻlimlari turlicha oʻrganadi. Masalan, leksikologiya soʻzning maʼnosi, qoʻllanish doirasi va lugʻaviy xususiyatlarini tahlil qilsa, morfologiya soʻzlarning grammatik shakllarini oʻrganadi. Soʻz yasallashi esa soʻzning qanday vositalar yordamida hosil boʻlganini, yasovchi birliklarning oʻzaro munosabatini tekshiradi.

Masalan:

ishchi = ish + chi

bilimli = bilim + li

gulzor = gul + zor

Ushbu birliklarda yangi maʼno hosil boʻlish jarayoni aniq koʻrinadi. Shuning uchun soʻz yasallashi faqat morfologik shakl oʻzgarishi emas, balki yangi lugʻaviy birlik yaratish jarayonidir.

Q. Sapayev soʻz yasallashini til tizimidagi alohida hodisa sifatida baholab, uning asosiy vazifasi yangi leksik maʼnoli birliklarni hosil qilishdan iborat ekanini qayd etadi. [2]

Tilshunoslik tarixida soʻz yasallashining mustaqil maqomi masalasi muhim nazariy muammolardan biri boʻlgan. Chunki soʻz yasallashida ham leksik, ham grammatik xususiyatlar mavjud. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar uni morfologiya tarkibida, ayrimlari esa leksikologiya doirasida koʻrganlar. Biroq keyingi ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, soʻz yasallashi nafaqat soʻz shakllarini oʻzgartirish, balki yangi nomlash birliklarini yaratish bilan shugʻullanadi. Demak, uning asosiy vazifasi grammatik shakl hosil qilish emas, balki yangi leksik birlik yaratishdan iborat. A. Gʻulomov tomonidan ilgari surilgan “soʻz yasallashi mustaqil fan boʻlishi kerak” degan fikr oʻzbek tilshunosligida ushbu masalaning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. [3] Soʻz yasallashining morfologiya va leksikologiya bilan munosabati. Soʻz yasallashining mustaqil sath sifatidagi mohiyatini anglash uchun uning boshqa til sathlari bilan munosabatini belgilash muhimdir. Xususan, soʻz yasallashi koʻpincha morfologiya va leksikologiya bilan aloqador holda oʻrganiladi. Buning sababi shundaki, yangi soʻzlarning hosil boʻlishida morfemalar, qoʻshimchalar,

grammatik shakllar va lugʻaviy maʼnolar oʻzaro munosabatga kirishadi. Morfologiya soʻzlarning grammatik shakllari, turkumlari va grammatik kategoriyalarini oʻrgansa, soʻz yasallashi yangi lugʻaviy birliklarning yuzaga kelish jarayonini tadqiq qiladi. Masalan, **kitoblar**, **kitobim**, **kitobning** kabi birliklarda shakl oʻzgarishi mavjud boʻlib, ular morfologiyaning obyekti hisoblanadi. Ammo **kitobxon**, **kitobchi**, **kitobiy** kabi birliklarda yangi lugʻaviy maʼno yuzaga kelgani uchun ular soʻz yasallashi doirasida oʻrganiladi. Shu jihatdan soʻz yasallashi morfologiya bilan umumiy jihatlarga ega boʻlsa-da, uning asosiy vazifasi grammatik shakl emas, yangi leksik birlik yaratishdir. Leksikologiya bilan munosabatida esa soʻz yasallashi lugʻat tarkibining boyishi jarayonini taʼminlaydi. Yangi hosil boʻlgan yasama soʻzlar tilning lugʻaviy tizimiga kirib boradi va maʼlum davr mobaynida faol yoki nafaol birlikka aylanishi mumkin. A. Hojiyevning taʼkidlashicha, soʻz yasallashini faqat leksikologiya yoki morfologiya tarkibiga kiritish uning mohiyatini toʻliq ochib bermaydi. Chunki soʻz yasallashining oʻziga xos birliklari, vositalari va qonuniyatlari mavjud. [1]

Soʻz yasallashining asosiy birliklari. Soʻz yasallashi tizimida asosiy tushunchalar sifatida **yasovchi asos**, **yasovchi vosita** va **yasalma birlik** tushunchalari qoʻllanadi. Yasovchi asos yangi soʻz hosil qilish uchun xizmat qiladigan mustaqil maʼnoli qismdir. Yasovchi vosita esa ushbu asosga qoʻshilib, yangi maʼnoli birlik hosil qiluvchi element hisoblanadi.

Masalan:

paxtakor: paxta — yasovchi asos; -kor — yasovchi vosita; paxtakor — yasalma birlik.

suvchi: suv — asos; -chi — yasovchi qoʻshimcha; suvchi — yasalma.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz yasashda affiksatsiya usuli eng faol usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, **-chi**, **-li**, **-lik**, **-la**, **-siz**, **-kor**, **-zor** kabi qoʻshimchalar koʻplab yangi soʻzlar hosil qilish imkoniyatiga ega.

Masalan: mehnat + kash → mehnatkash; doʻst + lik → doʻstlik; tuz + li → tuzli; gul + la → gulla.

Bu kabi yasalmalar hozirgi til nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, ularning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi maʼno munosabati aniq seziladi.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz yasallashi tadqiqining rivojlanishi. Oʻzbek tilshunosligida soʻz yasallashi masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kengroq tadqiq etila boshlandi. Dastlab soʻz yasallashi morfologiya tarkibida oʻrganilgan boʻlsa, keyinchalik

uning mustaqil soha ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu yo'nalishda A. G'ulomov, A. Hojiyev, Q. Sapayev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy qarashlarida so'z yasashining nazariy asoslari, yasama so'zlarning tarkibi, so'z yasash usullari va tarixiy taraqqiyot jarayonlari keng yoritilgan. A. Hojiyev o'z tadqiqotlarida o'zbek tilidagi so'z yasash tizimini, yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlarini va so'z yasash modellarini batafsil tahlil qilgan. [2] Olimning fikricha, so'z yasashi til taraqqiyotining ichki imkoniyatlarini namoyon qiluvchi muhim hodisalardan biridir. Q. Sapayev esa hozirgi o'zbek tilidagi so'z yasash jarayonlarini tizimli ravishda o'rganib, uning boshqa til hodisalari bilan aloqador jihatlarini ko'rsatib bergan. [3]

So'z yasashida tarixiy taraqqiyot va zamonaviy yondashuvlar. Til taraqqiyoti davomida so'zlarning tarkibi va ma'nosida turli o'zgarishlar yuz beradi. Ayrim so'zlar hozirgi davr nuqtayi nazaridan soddaga ko'rinsa-da, tarixan ular murakkab tarkibga ega bo'lgan bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim qo'shimchalar qadimgi davrlarda faol yasovchi vosita bo'lgan, keyinchalik esa o'z mahsuldorligini yo'qotgan. Bu jarayon so'z yasashining diaxron jihatini tashkil etadi. Shuningdek, til tarixida **soddalanish** hodisasi

ham muhim o'rin tutadi. Soddalanish natijasida ilgari asos va qo'shimchadan tashkil topgan birliklar vaqt o'tishi bilan ajralmas holga keladi.

Masalan: **bugun** (bu + kun); **sakson** (sakkiz + o'n); **qishloq** (tarixiy tarkib jihatdan murakkab birlik).

Bunday hodisalar so'z yasashini faqat hozirgi til holati asosida emas, balki tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek tilshunosligida so'z yasashi uzoq vaqt davomida turli ilmiy qarashlar asosida o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u tilshunoslikning mustaqil sathi sifatida e'tirof etiladi. So'z yasashining o'z obyekti, birliklari, vositalari va qonuniyatlari mavjudligi uning mustaqil soha ekanligini ko'rsatadi. So'z yasashi leksikologiya va morfologiya bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ulardan farqli ravishda yangi lug'aviy birliklarni yaratish jarayonini tadqiq qiladi. Yasovchi asos, yasovchi qo'shimcha va yasalma birliklar ushbu tizimning asosiy tarkibiy qismlaridir. O'zbek tilining rivojlanishida so'z yasash jarayonlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular til lug'at boyligining kengayishi va yangi tushunchalarning ifodalanishini ta'minlaydi. Shu sababli so'z yasashini sinxron va diaxron jihatdan tadqiq qilish o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
2. Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasash tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
3. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
4. G'ulomov A. O'zbek tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar. – Toshkent.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
6. Abdurahmonov G', Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent.

Muzaffar OBILOV,
UBS dotsenti, PhD
Dilnoza YOQUBBOYEVA,
NamDCHTI magistranti

“DISKURS” TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TA’RIFI VA TALQINI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy tilshunoslikda «diskurs» tushunchasini ta’riflashga oid lingvistik yondashuvlar ko’rib chiqiladi. Y.Kubryakova, T.Deyk, N.Arutyunova, V.Karasik, E.Benvenist, V.Zveginsev, M.Fuko, Y.Stepanov kabi olimlarning qarashlari tahlil qilinadi, shuningdek, «diskurs» va «matn» tushunchalari o’rtasidagi munosabat masalasi yoritiladi.

Kalit so’zlar: *diskurs, matn, tilshunoslik, kommunikatsiya, kontekst, diskurs-tahlil*

Annotation: the article examines linguistic approaches to defining the concept of “discourse” in modern linguistics. The views of scholars such as E.Kubryakova, T. van Dijk, N.Arutyunova, V.Karasik, E.Benveniste, V.Zvegintsev, M.Foucault, and Y.Stepanov are analyzed, and the relationship between the concepts of “discourse” and “text” is also discussed.

Key words: *discourse, text, linguistics, communication, context, discourse analysis*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические подходы к определению понятия «дискурс» в современном языкознании. Анализируются взгляды таких учёных, как Е.С.Кубрякова, Т. ван Дейк, Н.Д.Арутюнова, В.И.Карасик, Э.Бенвенист, В.А.Звегинцев, М.Фуко, Ю.С.Степанов, рассматривается соотношение понятий «дискурс» и «текст».

Ключевые слова: *дискурс, текст, лингвистика, коммуникация, контекст, дискурс-анализ*

«Diskurs» tushunchasining aniq ta’rifini shakllantirish masalasi hozirgi kunga qadar tilshunoslikdagi bahsli masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Zamonaviy til nazariyasi doirasida bu tushuncha nafaqat sof lingvistik, balki fanlararo mohiyat kasb etib, falsafa, sotsiologiya, psixologiya kabi sohalar bilan uzviy bog’liq holda talqin etiladi. Aynan shu sababdan diskursni bir qolipga solib ta’riflash imkonsizdek tuyuladi, va bu holat tadqiqotchilar oldida yangi-yangi savollarni qo’yishda davom etmoqda. Shu bilan birga, tushunchaning ko’p qatlamliqligi uni tilshunoslikning eng dolzarb va istiqbolli tadqiqot yo’nalishlaridan biriga aylantirgan, chunki diskurs tahlili orqali tilni nafaqat mavhum tizim sifatida, balki jonli ijtimoiy amaliyot sifatida o’rganish imkoniyati yaratiladi.

Y.Kubryakova ta’kidlaganidek, tilshunoslikda diskurs mohiyatini to’liq ochib bera oladigan yagona ta’rif haligacha mavjud emas [1: 15]. Bu fikr, aslida, ko’pchilik olimlarning umumiy pozitsiyasini aks ettiradi: diskurs shunchalik ko’p qirrali hodisaki, uni bitta ta’rif doirasiga sig’dirish deyarli mumkin emas. T.Deyk diskursni «kommunikativ hodisa» sifatida talqin etib, uning ijtimoiy kontekstda ro’y beradigan muloqot jarayoni ekanligiga e’tibor qaratadi [2: 27]. Bunday yondashuv diskursni statik birlik emas, balki dinamik, ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog’liq jarayon sifatida ko’rish zaruratini ko’rsatadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, kommunikativ hodisa sifatidagi diskurs tushunchasi nutq ishtirokchilarining maqsadlarini, ularning ijtimoiy rollarini va muloqot sharoitini ham qamrab oladi, bu esa diskursni sof grammatik tahlildan farqli o’laroq, pragmatik nuqtayi nazardan o’rganishni taqozo etadi.

N.Arutyunova esa diskursga «kontekstga bog’langan til» ta’rifini bergan holda uning lingvistik xususiyatlarini ustuvor o’ringa qo’yadi [3: 136]. Bu ta’rif, avvalgi ikki olimning qarashlaridan farqli o’laroq, diskursning sof til birligi sifatidagi tabiatiga urg’u beradi. V.Karasik bu hodisani «og’zaki va yozma shakldagi nutq» sifatida izohlaydi [4: 5]. Ko’rinib turibdiki,

har bir olim diskursni o’z tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda talqin etadi – bu esa tushunchaning ko’p qatlamliqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, diskurs tahliliga bag’ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ikki asosiy yo’nalish shakllangan: birinchisi – diskursni struktur-lingvistik hodisa sifatida o’rganuvchi yo’nalish, ikkinchisi – uni ijtimoiy amaliyot va hokimiyat munosabatlari kontekstida tahlil qiluvchi yo’nalish. Ushbu ikki yo’nalish o’rtasidagi farq, aslida, diskurs tushunchasining nazariy chegaralarini belgilashda asosiy qiyinchilik manbai hisoblanadi.

Diskurs tushunchasi dastlab tilshunoslikka fransuz tilshunosi E.Benvenist tomonidan «discours» so’ziga yangi terminologik ma’no berish orqali kirib kelgan. Etimologik jihatdan bu so’z lotin tilidagi «discursus» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, dastlab «yugurish», keyinchalik «suhbat», o’rta asrlar lotin tilida esa «mulohaza yuritish» ma’nolarini anglatgan [5: 41]. Bizning fikrimizcha, diskursni yagona ta’rif orqali to’liq ifodalash mushkuldir. Chunki u ko’p qirrali hodisa bo’lib, lisoniy omillar bilan bir qatorda psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ham uning shakllanishida muhim rol o’ynaydi. Bundan tashqari, diskursning tarixiy taraqqiyotini kuzatish shuni ko’rsatadiki, ushbu tushuncha vaqt o’tishi bilan tobora kengroq mazmun kasb etib bormoqda – agar dastlab u faqat nutqiy faoliyatning bir ko’rinishi sifatida qaralgan bo’lsa, hozirgi kunda u ijtimoiy institutlar, mafkuraviy tizimlar va madaniy amaliyotlarni ham qamrab oluvchi murakkab tushunchaga aylangan.

V.Zveginsev diskursni «bulutlar ortiga yashiringan lisoniy hudud» deb ta’riflaydi [6: 89]. Mazkur metaforik tavsif orqali olim diskursni aniq mezonlar asosida tahlil qilishning nechog’lik mushkul ekanini ko’rsatib beradi. Bizningcha, Zveginsevning ushbu ta’rifi diskurs mohiyatini to’liq ochib berish imkonsiz ekanligini anglatmaydi, balki an’anaviy lingvistik yondashuvlarni zamonaviy fanlararo metodlar bilan boyitish zarurligiga ishora qiladi. M.Fuko

diskursni bir paytning o'zida ham jarayon, ham natija sifatida talqin qiladi. Jarayon sifatida diskurs muayyan mavzular bo'yicha fikr almashinuvining aniq belgilangan usullari va tamoyillarini qamrab oladi. Natija sifatida esa u ijtimoiy voqelikni aks ettiradi [7: 118]. Fukoning ushbu qarashi diskurs tushunchasiga falsafiy-sotsiologik nuqtayi nazardan yondashuvning yorqin namunasi bo'lib, unda diskurs shunchaki til hodisasi emas, balki bilim va hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Y.Stepanov diskursni til hamda ijtimoiy-madaniy omillar orasidagi o'zaro bog'liqlikni namoyon etuvchi hodisa tarzida o'rganib, uni «maxsus grammatik va leksik qoidalarga amal qilish orqali yaratilgan mental olam» deb ta'riflaydi [8: 44]. Bu ta'rif diskursni nafaqat kommunikativ, balki kognitiv hodisa sifatida ham ko'rish imkonini beradi, chunki har bir diskurs turi o'ziga xos mental olam – tushunchalar, qadriyatlar va munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Diskurs va matn munosabati masalasi ham tilshunoslar orasida keng muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. Diskurs kommunikativ faoliyatning dinamik jarayoni bo'lsa, matn uning statik mahsuli hisoblanadi. Diskurs ekstralingvistik omillarni, ya'ni kontekst, ishtirokchilar va maqsadni o'z ichiga olsa, matn til birliklarining yaxlit yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. E.Benvenist diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday izohlaydi: diskurs maksimal darajadagi dinamik tushuncha bo'lib, unda fikr shakllanishi kuzatiladi, matn esa bayon etilgan fikr, ya'ni muloqot mahsulidir [5: 57]. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, matnni diskursning “muzlatilgan” ko'rinishi, ya'ni muayyan bir vaqt va sharoitda yuzaga kelgan kommunikativ jarayonning yozma yoki nutqiy izi deb hisoblash mumkin. Biroq matn va diskursni faqat qarama-qarshi qo'yish orqali tahlil qilish bu ikki tushunchaning lisoniy mohiyatini to'liq anglashimizga xalaqit berishi mumkin. Matn va diskurs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlik, ularning bir-birini to'ldirishi ham g'oyat muhim jihat hisoblanadi – zero, har qanday matn muayyan diskursiv sharoitda yaratiladi va, o'z navbatida, kelgusi diskursiv jarayonlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Diskurs tushunchasiga oid turli tilshunoslik maktablari vakillarining nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Kontekstual tahlil metodi diskurs va matn munosabatini

yoritishda, ularning o'zaro ta'sirini ochib berishda qo'l keldi. Shuningdek, tadqiqot davomida turli nazariy maktablarning metodologik asoslari qiyoslandi, bu esa diskurs tushunchasining fanlararo tabiatini yanada aniqroq ko'rsatish imkonini berdi.

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, diskurs tushunchasi tilshunoslikda yagona va umumiy tan olingan ta'rifga ega emas – har bir olim uni o'z tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqib talqin etadi. Ikkinchidan, diskursni ta'riflashda ikkita asosiy tendensiya kuzatiladi: bir guruh olimlar (Deyk, Karasik) uni kommunikativ-ijtimoiy jarayon sifatida, boshqa guruh (Arutyunova) esa sof lisoniy hodisa sifatida talqin qiladi. Uchinchidan, diskurs va matn tushunchalari o'rtasidagi farq ularning dinamik va statik tabiatida namoyon bo'ladi, biroq bu ikki tushuncha bir-biridan uzilgan holda emas, balki o'zaro bog'liqlikda mavjud bo'ladi. To'rtinchidan, M.Fuko va Y.Stepanovning qarashlari diskursni nafaqat til, balki ijtimoiy-madaniy voqelikning aks-sadosi sifatida ko'rish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, diskurs tushunchasi murakkab va ko'p qirrali lingvistik-fanlararo hodisa bo'lib, uni yagona ta'rif doirasiga solish mushkuldir. Turli tilshunoslik maktablari vakillarining qarashlarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, diskursni faqat sof til hodisasi sifatida yoki faqat ijtimoiy amaliyot sifatida qarash bir tomonlama yondashuv bo'lib qoladi – aksincha, u ana shu ikki jihatning uzviy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Diskurs va matn o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish esa ushbu tushunchaning mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi, chunki bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'yish o'rniga ularning dialektik bog'liqligini e'tirof etish nazariy jihatdan ancha samaralidir. Shuningdek, olib borilgan tahlil diskurs tadqiqotlarining fanlararo xususiyatini yana bir bor tasdiqladi – zamonaviy lingvistika endilikda diskursni faqat grammatik yoki leksik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va kognitiv omillar bilan uzviy bog'liq murakkab hodisa sifatida o'rganishga intilmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda diskursning turli janrlar (siyosiy, ilmiy, ommaviy axborot) va sohalaridagi namoyon bo'lish xususiyatlarini, shuningdek, uning zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitidagi transformatsiyasini, ijtimoiy tarmoqlar va yangi media matnlaridagi o'ziga xosligini o'rganish dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda, bu esa nazariy tilshunoslikni amaliy tadqiqotlar bilan yanada yaqinlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. – М.: ИНИОН РАН, 2000. С. 5–13.
2. Dijk T.A. van. Studies in the Pragmatics of Discourse. – The Hague: Mouton, 1981. 331 p.
3. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. С. 136–137.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. 477 с.
5. Benveniste E. Problems in General Linguistics. – Miami: University of Miami Press, 1971. 317 p.
6. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во МГУ, 1976. 307 с.
7. Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 1972. 245 p.
8. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, дискурс, факт и принцип причинности // Язык и наука конца XX века. – М.: РГГУ, 1995. С. 35–73.

Inabat ALLAMBERGANOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilnoza SHAYXIMANOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARIDA ANTAGONIST (SALBIY) OBRAZLAR

Annotatsiya: bu maqolada qoraqalpoq dostonlarida uchraydigan ijobiy va salbiy obrazlar haqida gapiriladi. Bulardan salbiy obrazlar dostonlardagi konfliktli holatlarning kelib chiqishiga ko'proq sababchi bo'lishi, salbiy obrazlar "antagonistlar" atamasi bilan ham mashhur ekanligi aytiladi. Dostonlardagi "antagonistlar" bosh qahramonga, ijobiy obrazlarga qarama-qarshi bo'lgan, turli ko'rinishga ega yovuz kuchlardir. Maqolada shunday yovuz kuchlar qoraqalpoq qahramonlik va ijtimoiy-hayotiy dostonlari misolida ko'rib chiqildi va ularni turlarga bo'lib ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: dostonlar, antagonist, bosqinchilar, mifologik obrazlar, sotqin obrazi, zolim podshoh va vazirlar, "Alpomish" dostoni, Toyshixon, maston momo, Ulton qul, kundoshlar

Аннотация: в данной статье рассматриваются положительные и отрицательные образы, встречающиеся в каракалпакских дастанах. Из них отмечается, что негативные образы в большей степени являются причиной возникновения конфликтных ситуаций в дастанах, негативные образы также известны под термином «антагонисты.» В дастанах «антагонисты» - это злые силы, противостоящие главному герою, положительным образам, имеющие различные проявления. В статье рассматриваются такие злые силы на примере каракалпакских героических и социально-жизненных эпосов, которые делятся на виды.

Ключевые слова: дастаны, антагонист, захватчики, мифологические образы, образ предателя, деспотический царь и визири, дастан «Алпамыш», Тайшихан, мастон момо, Ултон кул, соперники.

Annotation: this article discusses positive and negative images found in Karakalpak epics. It is said that negative characters are more likely to be the cause of conflict situations in epics, and negative characters are also known by the term "antagonists." The "antagonists" in the dastans are evil forces of various manifestations that oppose the main character and positive images. The article examines such evil forces using the example of Karakalpak heroic and socio-life epics and categorizes them into types.

Key words: epics, antagonist, invaders, mythological characters, traitor's image, tyrannical king and ministers, "Alpomish" epic, Taishikhan, mastan momo, Ultan slave, rivals.

Kirish. Qoraqalpoq folklorida har bir janr o'z obrazlar tizimi va syujetiga ega bo'lib, dostonlar bu borada yetakchi o'rin tutadi. Eposlarda voqealar rivoji va konfliktlar aynan qahramonlarning o'zaro harakatlari orqali yuzaga chiqadi. Xalq dostonlaridagi keng qamrovli obrazlar tizimi an'anaviy ravishda ikki yirik guruhga – ijobiy va salbiy tiplarga ajratiladi.

Ijobiy obrazlar (botirlar, alplar, pirlar) ezgulikka intiluvchi, xalq tinchligi va farovonligini himoya qiluvchi qahramonlar sifatida gavdalanadi. Salbiy personajlar (zolim shohlar, Maston momo, devlar) esa ularga qarshi qo'yiladi. Folklordagi obrazlar yozma adabiyotga nisbatan soddaroq bo'lsa-da, asarning badiiy estetik qimmatini ta'minlashda, xalqona g'oyalarni ifodalashda bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar va munozara. Xalq dostonlarida ijobiy qahramonlarga zid ravishda yovuzlik, makkorlik va sotqinlik kabi illatlarni mujassam etgan salbiy personajlar – antagonistlar mavjud. Qadimgi yunon tilidan "raqib, qarama-qarshi tomon" ma'nosini bildiruvchi ushbu termin dastlab rus folklorshunosligida Baba Yaga, O'lmas Kasheshey, o'gay ona kabi qahramonlarga nisbatan keng qo'llanilgan.

Antagonistlar inson yoki maxluq qiyofasidagi demonologik obrazlar, xonlar va tashqi yovlar shaklida namoyon bo'ladi. Ularning dostonidagi asosiy vazifasi ezgu ishlarga to'sqinlik qilish, hasadgo'ylik, hiyla-nayrang bilan botirlarni yo'ldan urish hamda jamiyat qonunlarini buzishdan iborat. Salbiy obrazlar faqatgina bosh qahramon yo'lga to'siq bo'lib qolmay, balki markaziy personajlar

xarakterining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Ularning insofsiz xatti-harakatlari dostonlar syujet chizig'ini harakatlantiruvchi va g'oyaviy to'qnashuvni ta'minlovchi muhim omil sanaladi.

Salbiy personajlar dostonda asosiy qahramonlar bo'lgan botirlarga, ezgu niyatli insonlarga qarshi chiqish uchun turli yovuzliklardan foydalanuvchilardir. Yovuz kuchlar qanchalik darajada botirlarning yo'liga to'siq bo'lsa ham doston so'ngida ular baribir mag'lubiyatga uchraydi. Ertaklarda yomonlik ustidan yaxshilik har doim g'alaba qozongani singari doston so'ngida ham yaxshilar yovuz niyatli kimsalarni yengib murod-maqsadiga yetadi. Har qanday asarda antagonistlar o'zlarining yovuz xatti-harakatlari bilan g'alabaga erishmoqchi bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, ular bunday tor dunyoqarashi va noto'g'ri fikrlashidan har doim mag'lubiyatga uchraydi.

Dostonlardagi salbiy tipdagi obrazlar botirlar, qahramonlar oldida turgan katta bir sinov bo'lib keladi. Ular yovuzlik va tartibsizliklarni o'zida aks ettirgan bo'ladi.

Xalq dostonlarida salbiy obrazlarning turlari juda ko'p. Ularning ba'zilar mifologik qiyofaga ega har xil maxluqlar bo'lsa, ba'zilar odam qiyofasidagi salbiy tipdagi personajlardir. Shuning bilan birga, eposlarda insonlarga qasd qilish, yovuzlik o'ylash, yomonlik o'ylash kabi yo'llarda yurgan ayollar obrazini ham uchratamiz. Bunday antagonistik obrazlar dostonlarda xatti-harakatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ularni quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

Mifologik salbiy obrazlar. Bu guruhga salbiy sifatlarga ega bo'lgan, botirlar yo'liga dushman bo'luvchi, turli magiyalik kuchlarga ega ajdar, dev, jez tirnoq, pari va h.k. kabi mifologik obrazlarni kiritamiz. Ular o'zlarining yovuzliklari, odamlarga zarar yetkazishlari, botirlarga dushmanlik o'ylash kabi harakatlari bilan mashhur.

Mifik obrazlar mifik davrda yashab, mifik olamdagi hamma narsani yasovchi, tiriklikning hamma narsasini dunyoga keltiruvchi kuch {8:124}. Dunyo xalqlari folklorida qadimdan kelayotgan mifologik obraz va mifologik syujetlar ko'pchilik xalqlarning og'zaki adabiyotida uchraydi. Mifologik obrazlar eng qadimgi manbalardan beri mavjud. Masalan, jahon xalqlari folkloridagi devlar, yovuz iblislar, shaytonlar, bir ko'zli siklop va uch boshli ajdarholar yovuzlikning asosiy ramzi bo'lgan. Ularning eposdagi asosiy maqsadi ijobiy personajlarning harakatlariga to'sqinlik qilish va shu orqali mamlakatni, hukmronlikni o'z qo'liga olish bo'lgan.

Zolim podshohlar va ularning tarafdorlari. Xalqqa tazyiq ko'rsatuvchi xonlar va ularning aqlsiz vazirlari

dostonlarda antagonist obrazlardan biri bo'lib, ular xalqning ezgu niyatlariga qarshi chiqib, tinch o'tirgan elni bosib olishga urinadilar. Asosiy maqsadlari xalqni talash, bosib olish, boylik orttirish va bosib olingan yerlarda o'z hukmronligini o'rnatish. Bunday tipga xonlar bilan birgalikda ularning yovuz sarkardalari va makkor vazirlari ham kiradi. Ayrim hollarda podshoh faqat nomigagina el boshqaruvchi bo'lib, uning o'rniga xalqni, askarlarni vazirlari boshqaradi.

Xonlarning salbiy harakatlari qahramonlik dostonlari misolida yaqqol ko'rinadi. Masalan, "Alpomish" dostonidagi xon va uning vazirlarining Alpomishga nisbatan qilgan yomonliklari haqida olimlar asarlarida: "... Dostonda podshoh va uning tarafdorlarining obrazi an'anaviy shaklda kuchli nafrat bilan tasvirlanadi. Podshoh adolatsizlik, zulmning belgisi sifatida harakat etsa, uning qorrandozi, maston kampiri, yoqimsiz vazirlari zulmni amalga oshiruvchi qurollar sifatida amalga oshiriladi" {3:215} degan fikrlar bildirilgan. Haqiqatdan ham, "Alpomish" dostonida xon va uning atrofidagilar, maston momo o'zaro til biriktirib, dushmanlik qilishlari, Alpomishning yo'liga to'siq bo'lishlari bu fikrning yaqqol dalili. Dostonidagi Toyshixon va uning sarkardalarini shunday salbiy tipdagi obrazga kiritib bo'ladi.

Toyshixon obrazi boshqa ko'pchilik dostonlardagi kabi zulm timsoli hisoblanadi. U hamma qatori Barchinoyga oshiq bo'lib, shuncha xotini bo'lishiga qaramay unga uylanish maqsadida sovchi yuboradi. Qarajon Taban yo'lga ketganda ham, Alpomish Barchinni eliga olib ketgandan so'ng ham nomardlik qilib, Barchinning ota-onasini qo'y orqasiga solib azob beradi.

Shuningdek, dostonda Toyshixon qo'rqqoqlik qilib, ot chopishda o'zi qatnashmay sarkardasi Ko'kamanni yuboradi. Uning bu harakatlaridanoq o'ylagani faqat yomonlik, zarar yetkazish ekanligi ma'lum bo'ladi. Yana xonda ko'rolmaslik ustun. Masalan: "Tayshixan toy berip atqan Dárbent joldirín awzı eken, arjağı menen berjağı 8 kúnlik jol eken. Tayshixan zulımlıq etip, 800 atlı jállat jibergen eken:

– Dárbenttirín awzın arlırlar, Qara at shıqsa súyrep qaytırınlar, namıs bir edi, Tarlan shıqsa da súyrep qaytırın, dep, ozqan bolsa Bayshubar, attı baylap atırınlar...." {5:42} – deb Boychiborning o'zib ketishidan xavotirlanib, qasd qilmoqchi bo'ladi.

"Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar" deganidek, Toyshixon Alpomish kelyapti deganidan, undan qutulishning yo'lini izlaydi. Lekin o'z elidan Alpomishga teng keladigan botir topilmaydi. So'ngra maston momo bilan birlashib,

Alpomishni hiyla yo'li bilan yengmoqchi bo'ladi. Shuningdek, xuddi shunday xarakterga ega bo'lgan xon obrazi "Qo'blon", "Qirq qiz", "Sharyar", "Edige", "Bozo'g'lon" va boshqa dostonlarda ham bor.

Xonlar har doim o'zining aytganini bajartirishga intiladi. Ayniqsa, dostonlarda podshohlarning haddan tashqari ko'p xotin olishi uning salbiy xususiyatlarini yana ham orttiradi. Masalan, "Qo'blon" dostonida zolim podshoh Oqshoxonning zulmi bilan birga, ko'p xotin olsa ham, yana ko'nglidagidek xotin izlashi ochib beriladi.

Aqshaxanday zalim xan,
 Elge patsha bolgan so'ni,
 Elinde suliw qiz bolsa,
 Korse dep intizar bolip,
 Elinde suliwman degen,
 Nashar bolsa jiynadi,
 Kewlindegidey bolmadi,
 Jane alsam qirqin dep,
 Ke'nesxor'ga oylasti.... {6:406}

Lekin, barcha dostonlarda podshohlarning xarakteri bir xil emas. Ayrim dostonlarda ijobiy ish-harakatlari bilan xalqqa o'rnak bo'ladigan podshohlar ham bor.

Sotqinlar. Dostondagi eng xavfli shaxslarning biri va'dasida turmagan va xalqni sotgan odamlar bo'ladi. Bunday sotqin obrazi qahramonlik dostonlari tarkibida ko'p uchraydi. Sotqin obrazida aksariyat hollarda qullar, xonning vazirlari, sarkardalari, ayrim hollarda qahramonning yaqin deb bilgan odamlari ham bo'ladi.

"Alpomish" dostonida 7 yildan beri Alpomishning daragi bo'lmagandan so'ng, uning ko'p qulining boshlig'i egasiga qarshi chiqadi. Qarovsiz qolgan Barchinoyi xotinlikka olmoqchi bo'ladi, Alpomishning ota-onasini, singlisini mol keyiniga solib azoblaydi: *"At olse sawir miyras, aga olse je'nge miyras, Alpamis agam olipti, je'ngem magan miyras bolip, agamni' orninda patshaliq dawran sureyin, eldi jiynap, qiriq kun toy berip, aq nekesin qiyririp, shariyatqa isin siydrip, je'ngemdi ozim alaman, degen Ultanga bir qiya payda boldi.*

*Xanliq qulga jetip,
 Baysinni' elin jiynadi,
 Ultanqul qiya oyladi.
 Ulli toydi basladi,
 Baybori baydi maskepshi qildi,
 Enesi sorli gun boldi,
 Qarindasi Qansulwga,
 Aparip jilqi baqtirdi...." {5:68}*

Bosqinchilar, tashqi kuchlar. Chet el bosqinchilari dostonlarda botirlarning asosiy dushmani hisoblanadi. Botirlar ulardan o'z yurtini himoya qilish maqsadida, bosqinchilar qo'lga tushgan qallig'ini olib qaytish uchun kurashga tushadilar. Masalan, "Qirq qiz", "Qo'blon", "Er Sho'ra" va boshqa qahramonlik dostonlarida bosh qahramonlar o'sha chet el bosqinchilariga qarshi kurashib, mardliklarini ko'rsatadi.

Kundoshlar. Ko'p xotin olishlik dostonlarda podshohlarga xos bo'lib, bu kundoshlar orasidagi dushmanchiliklar, hasadgo'yliklarni keltirib chiqaradi. Kundoshlarning salbiy harakatlari, yovuzliklari ayniqsa, "Sharyor" va "Munliq-Zarliq" dostonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. "Sharyor" dostonida 9 xonim kundoshlar Gulshoraga suiqasd qilib, unga kun bermaydi, "Munliq-Zarliq" dostonida esa xonning 40 xotini Qanshayimga yomonlik o'ylaydi. Biroq doston so'ngida ular qilgan yomonliklari uchun o'z jazosini oladi.

Xulosa. Qoraqalpoq xalq dostonlarida salbiy obrazlarning bir nechatiplari mavjud bo'lib, ular dostonlarda har xil ko'rinishga ega. Salbiy obrazlar asosan, doston bosh qahramoniga qarama-qarshi harakatlangani uchun ham jahon xalqlari folklorida ularga "antagonistlar" atamasi berilgan. Har qanday epik janrda bunday obrazlarning bo'lishi tabiiy. Chunki asarda qahramonlar ziddiyatlarga duch kelmasa, ularni yengib o'tmasa, asarning qimmati bo'lmaydi deb o'ylaymiz. Ayniqsa, bunday xarakter ko'proq dostonlarga xos. Shu sababli maqolamizda qahramonlik va ijtimoiy-hayotiy dostonlardagi "antagonist" obrazlarni ko'rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис, "Қарақалпақстан", 1988.
2. Мақсетов Қ. Қарақалпақ фольклористикасы. – Нөкис, "Қарақалпақстан", 1989.
3. Мақсетов Қ., Тажимуратов А. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкис: "Қарақалпақстан", 1979.
4. Сағитов И.Т. Қарақалпақ қаҳарманлық эпосы. – Нөкис, 1963.
5. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 1–8 том. – Нөкис: "Қарақалпақстан", 2007.
6. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 9–13 том. – Ташкент: "Маънавият", 2009.
7. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 14–26 том. – Нөкис: "Илим", 2010.
8. Калкабаева С. Коркем образ поэтикасы. Вестник КазНУ.
9. Louis E. Catron. Antagonist // Elements of Playwriting. 1993.



ADABIYOTSHUNOSLIK

USMON AZIM IDIOSTILINING KORPUS ASOSIDAGI EVOLYUTSION TAHLILI

Annotatsiya: janriy tafovutlar til birliklarining tanlanishi, sintaktik qurilish, obrazlilik darajasi va pragmatik yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korpus materiallari tahlil qilinayotganda har bir janrning funksional xususiyatlari hisobga olinadi. Bunday yondashuv janrga xos belgilarni muallifning individual uslubiy xususiyatlaridan farqlaydi va evolyutsion xulosalarning ishonchligini oshiradi.

Kalit so'zlar: *mualliflik korpusi, janriy tarkib, idiosstil, ijodiy evolyutsiya, individual uslub, poetik tafakkur.*

Аннотация: жанровые различия оказывают непосредственное влияние на выбор языковых единиц, синтаксическую организацию текста, степень образности и его прагматическую направленность. Поэтому при анализе материалов корпуса учитываются функциональные особенности каждого жанра. Такой подход позволяет разграничить жанрово обусловленные признаки и индивидуальные стилевые особенности автора, а также повышает достоверность выводов об эволюции его творчества.

Ключевые слова: *авторский корпус, жанровый состав, идиостиль, творческая эволюция, индивидуальный стиль, поэтическое мышление.*

Annotation: genre differences have a direct impact on the selection of linguistic units, syntactic organization, the degree of imagery, and the pragmatic orientation of a text. Therefore, the functional characteristics of each genre are taken into account when analyzing corpus materials. Such an approach makes it possible to distinguish genre-specific features from the author's individual stylistic characteristics and enhances the reliability of conclusions regarding the evolution of the author's creative work.

Keywords: *authorial corpus, genre composition, idiosstyle, creative evolution, individual style, poetic thinking.*

Usmon Azim mualliflik korpusi janr jihatidan muvozanatli tarkibga ega. Uning asosiy qismini balladalar, nasriy asarlar, tarjimalar, suhbatlar, dramatik asarlar, dostonlar va baxshiyona turkumidagi matnlar tashkil etadi. Janrlarning bunday xilma-xilligi muallif idiostilini faqat she'riy nutq doirasida emas, balki turli kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo'ladigan yaxlit uslubiy tizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Mualliflik korpusining dastlabki tahlili Usmon Azim poetik lug'atining muhim xususiyati konkret va abstrakt leksikaning o'zaro uyg'unligida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Balladalar turkumiga kiruvchi matnlarda tabiat hodisalari, kosmik obrazlar va insonning ichki ruhiy olami bir-biri bilan uzviy bog'langan semantik tizimni hosil qiladi. Bunda **osmon, yulduz, bulut, yomg'ir, yer, bog', gul, daraxt** kabi tabiatga oid birliklar oddiy tasvir vositasi sifatida emas, balki poetik tafakkurning konseptual tayanchlari sifatida qo'llanadi.

Masalan, "Yozgi ballada"da poetik makon kosmik obrazlar orqali quriladi. *Osmon tushib keldi,*

yulduzlar bilan gaplashdik, ilhom, ijod, satrlar, ildiz kabi birliklar bitta semantik zanjirni hosil qiladi. Ushbu zanjirda ijod jarayoni tabiat hodisalari bilan parallel tasvirlanadi: ilhomning paydo bo'lishi o'sish, ildiz otish va yulduzlar bilan muloqot metaforalari orqali ifodalanadi. Natijada tabiat va ijod bir-birini to'ldiruvchi konseptual maydon sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga o'xshash hodisa "Yomg'ir haqida ballada"da ham kuzatiladi. Bu asarda **yomg'ir** tabiiy hodisa emas, balki lirik subyektning ovozig aylaniriladi. Birinchi shaxs nomidan olib borilgan bayon ("Men – yomg'ir") jonlantirish asosida qurilgan bo'lib, yomg'ir obraziga insoniy kechinmalar yuklanadi. Matnda **bulut, osmon, kuz, oyna, tuproq, hijron, sog'inch** kabi birliklar o'zaro bog'lanib, tabiat hodisasini psixologik holatning badiiy ekvivalenti sifatida talqin etadi.

Mazkur kuzatishlar Usmon Azim poetikasida tabiat leksikasi dekorativ vazifani emas, balki konseptual vazifani bajarishini ko'rsatadi. Tabiat obrazlari lirik qahramonning ruhiy holatini ochib beruvchi semantik

markazga aylanadi. Shu jihatdan tabiat maydoni muallif idiostilining eng barqaror leksik qatlamlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Biroq ushbu xulosaning umumiyliigi keyingi bosqichlarda butun mualliflik korpusi bo'yicha olingan statistik ma'lumotlar asosida tekshiriladi.

Ijodiy evolyutsiyaning dastlabki belgisi. Korpusdagi dastlabki materiallar yana bir muhim tendensiyaning ko'rsatadi. Dastlabki balladalarda poetik tasvir ko'proq tashqi makon – *osmon, yer, yomg'ir, daraxt, bog'* kabi obrazlar orqali tashkil etilsa, keyingi yillarda yozilgan matnlarda (masalan, 2020-yil sanasi bilan berilgan **“Yomg'ir haqida yana bir ballada”**) ichki kechinma va falsafiy mushohada kuchayadi. Bu matnda sog'inch, ayriliq, visol va taqdir kabi mavhum tushunchalar markaziy o'rin egallaydi, tabiat obrazlari esa ularni ifodalovchi ramziy vositaga aylanadi.

Bu holat muallif idiostili taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin: **konkret tabiat manzaralaridan konseptual va falsafiy poetik tafakkur sari siljish.** Albatta, bu xulosa faqat uchta matnga emas, balki keyingi bosqichlarda butun korpus bo'yicha o'tkaziladigan statistik va qiyosiy tahlilga tayangan holda yakuniy shakllantiriladi.

Mazkur ikki ballada qiyoslanganda muhim stilistik farq ham kuzatiladi. “Yozgi ballada”da tabiat obrazlari ko'proq ijodiy ko'tarinkilik, hayotbaxshlik va ruhiy uyg'onish bilan bog'lansa, “Yomg'ir haqida ballada”da ayni obrazlar sog'inch, hijron va ichki iztirobni ifodalash vositasiga aylanadi. Demak, bir xil leksik maydon turli poetik vazifalarni bajaradi. Bu holat Usmon Azim idiostilining muhim belgilaridan biri – semantik ko'pqatlamlilikni namoyon etadi.

Zero, balladalar korpusining dastlabki tahlili tabiat leksikasi Usmon Azim poetikasida uch asosiy vazifani bajarishini ko'rsatadi: poetik makonni tashkil etish, lirik subyektning ruhiy holatini ifodalash hamda mavhum konseptlarni obrazli shaklda modellashtirish. Keyingi bosqichda ushbu leksik maydonning muallif ijodining turli davrlarida qanday o'zgarishi korpusning to'liq statistik tahlili asosida aniqlanadi.

Obrazlar tizimining evolyutsiyasi. Mualliflik korpusining dastlabki qiyosiy tahlili Usmon Azim poetikasida obrazlar tizimi barqaror yadroni saqlab qolgan holda mazmun va vazifa jihatidan bosqichma-bosqich rivojlanganini ko'rsatadi. Ijodning turli davrlariga mansub balladalarda tabiat, inson va vaqt obrazlari muntazam uchrasa-da, ularning semantik



yuklamasi bir xil emas. Bu holat individual uslubning faqat leksik tarkib orqali emas, balki obrazlarning konseptual o'zgarishi orqali ham rivojlanishini ko'rsatadi.

Dastlabki balladalarda poetik makon ko'proq tashqi olam tasviri orqali shakllantiriladi. *Osmon, daraxt, yomg'ir, shamol, bog'* va *qush* obrazlari real voqelik bilan chambarchas bog'langan holda qo'llanadi. Lirik subyekt tabiatni kuzatuvchi sifatida namoyon bo'lib, tabiat hodisalari uning hissiy kechinmalariga fon yaratadi: peyzaj va ruhiy holat o'rtasida parallelizm yuzaga keladi.

Keyingi davr matnlarida esa mazkur obrazlarning semantik vazifasi o'zgaradi. Tabiat endi voqelikni tasvirlash vositasi emas, balki falsafiy mushohadaning tashuvchisiga aylanadi. Masalan, *yomg'ir* vaqtning o'tkinchiligi, *daraxt* inson umrining davomiyligi, *osmon* esa cheksizlik va ruhiy ozodlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Zero, aniq predmetni ifodalovchi leksema asta-sekin mavhum konseptning badiiy modeliga aylanadi.

Mazkur tendensiya Usmon Azim idiostilining muhim evolyutsion belgilaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Chunki poetik tasvirning markazi tashqi voqelikdan ichki tafakkurga siljiydi. Buning natijasida obrazlar tizimi ham murakkablashib, ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'ladi.

Konseptual dominantalarning kengayishi. Balladalarining qiyosiy kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki,

muallif ijodining dastlabki bosqichlarida hissiy-ekspressiv mazmun ustunlik qilsa, keyingi davrlarda konseptual umumlashtirish kuchayadi. Buni, avvalo, mavhum otlarning qo'llanish chastotasi va ularning poetik vazifasi orqali kuzatish mumkin.

Dastlabki matnlarda *muhabbat, yoshlik, tabiat, sog'in* kabi tushunchalar ko'proq individual kechinmalar bilan bog'liq holda ifodalanadi. Lirik qahramon voqelikni bevosita his etadi va uning munosabati konkret obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Keyingi davrlarda esa *umr, vaqt, xotira, taqdir, haqiqat, vijdon* kabi umumlashgan konseptlar poetik tafakkurning markaziga chiqadi. Bu esa individual hissiyotdan falsafiy mushohadaga o'tish jarayonini aks ettiradi.

Ayniqsa, *vaqt* konsepti muallif poetikasida evolyutsion xarakterga ega. Dastlab vaqt fasllar, kun va tun almashinuvi kabi tabiiy hodisalar orqali ifodalansa, keyinchalik u inson hayoti, tarixiy xotira va mavjudlikning falsafiy mezoni sifatida talqin qilinadi: vaqt poetik makonni tashkil etuvchi unsur dan konseptual markazga aylanadi.

Mazkur o'zgarish Usmon Azim idioshtilining semantik rivojlanishini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bois keyingi bosqichlarda vaqt konseptining korpus bo'yicha qo'llanish dinamikasi statistik tahlil qilinib, uning evolyutsiyasi aniq sonli ko'rsatkichlar orqali yoritiladi.

Obrazlar tizimining semantik murakkablashuvi. Mualliflik korpusining qiyosiy tahlili Usmon Azim idioshtilida obrazlar tizimi faqat miqdor jihatidan emas, balki semantik tuzilishi nuqtayi nazaridan ham taraqqiy etganini ko'rsatadi. Dastlabki ijod namunalarida bitta obraz, odatda, bitta asosiy poetik vazifani bajaradi. Masalan, *yomg'ir* tabiat hodisasini, *osmon* cheksizlikni, *daraxt* hayotni ifodalaydi. Obrazning semantik chegaralari nisbatan aniq bo'lib, u matnning umumiy mazmuni bilan bevosita bog'langan holda qo'llanadi.

Keyingi davr matnlarida esa bitta obraz bir vaqtning o'zida bir necha semantik qatlamni birlashtira boshlaydi. Masalan, *yomg'ir* nafaqat tabiat hodisasi, balki xotira, ayriliq, poklanish yoki vaqtning o'tishi kabi turli konseptlarni ham ifodalashi mumkin. Shunga o'xshash tarzda *osmon* obrazi ilhom, erkinlik, taqdir va ilohiylik semalarini o'zida mujassamlashtiradi: bitta leksema turli kontekstlarda turlicha konseptual yuklama kasb etadi.

Mazkur hodisa obrazlarning **polisemantik kengayishi** sifatida tavsiflanishi mumkin. Bunda yangi obrazlar yaratilmaydi, aksincha, mavjud obrazlarning semantik salohiyati kengayadi. Bu esa Usmon Azim poetikasining evolyutsiyasini belgilovchi muhim uslubiy qonuniyatlardan biridir.

Metaforik tafakkurning rivojlanishi. Korpus materiallari metaforaning Usmon Azim idioshtilidagi o'rni ijod davomida tobora kuchayganini ko'rsatadi. Dastlabki matnlarda metaforalar ko'proq alohida poetik tasvir yaratish vazifasini bajaradi. Ular ko'pincha bitta misra yoki kichik kontekst doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Keyingi davr asarlarida esa metafora matnning kompozitsion tamoyiliga aylanadi. Bunda butun asar bitta konseptual metafora asosida qurilishi kuzatiladi. Ayrim obrazlar matn boshidan oxirigacha takrorlanib, yangi semantik qirralar bilan boyib boradi: metafora alohida badiiy vosita emas, balki matnning ichki semantik strukturasi vazifasini bajaradi.

Bunday yondashuv muallif tafakkurining obrazlilik darajasi ortganini ko'rsatadi. Konseptual metaforalar sonining ortishi poetik nutqning ko'p qatlamli talqin qilinishiga olib keladi va o'quvchini faol interpretatsiyaga undaydi.

Individual poetik lug'atning barqarorlashuvi. Mualliflik korpusining yana bir muhim xususiyati individual poetik lug'atning bosqichma-bosqich shakllanishidir. Dastlabki asarlarda turli mavzularga oid leksik birliklar nisbatan erkin qo'llansa, keyingi davrlarda muallifga xos bo'lgan ayrim leksemalar muntazam takrorlanadigan poetik belgiga aylanadi.

Bunday birliklar oddiy yuqori chastotali so'zlar emas. Ular muallifning konseptual olamini ifodalovchi tayanch nuqtalardir. Har safar yangi kontekstda qo'llanishiga qaramay, ular umumiy poetik tizim bilan semantik bog'liqligini saqlab qoladi. Shu tariqa individual poetik lug'at shakllanadi va idioshtilning eng barqaror qatlamlaridan biriga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Usmon Azim idioshtilining taraqqiyoti yangi so'zlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud poetik lug'atning yangi semantik munosabatlar hosil qilishi orqali tavsiflanadi. Taraqqiyotning asosiy belgisi leksik tarkibning keskin almashinuvida emas, balki uning ichki konseptual qayta tashkil topishida namoyon bo'ladi.

Xamza XAITOV,

Buxoro davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari doktori, professor

XALQ KULGUSINING YOZMA ADABIYOT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq kulgisi – askiya, lof, latifalar ta'sirida yaratilgan asarlarda voqelikning nasriy, she'riy, dramatik turlarda, roman, qissa, kulgi, hikoya, doston, she'riy latifa, she'riy lof, parodiya, hangoma, hajviya, satira, komediya, intermedia kabi turli janriy ko'rinishlarda ifodalanishiga xos badiiy-estetik xususiyatlarni oydinlashtirilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, adabiyot, kulgi, inson, og'zaki ijod, falsafa, hosildorlik, oila, farzand, turmush g'oyalari, ezgulik, yaxshilik, tiriklik, haqiqat, quvonch, baxt, shodmonlik himoyachilari.

Аннотация: в статье раскрываются художественно-эстетические особенности изображения действительности под влиянием узбекского народного юмора (таких его форм, как аския, *лоф* и анекдоты) в прозаических, поэтических и драматических произведениях, а также в различных жанрах, включая романы, повести, юмористические рассказы, эпические поэмы, стихотворные анекдоты и небылицы, пародии, юмористические сказания, памфлеты, сатиру, комедии и интермедии.

Ключевые слова: национальные ценности, литература, юмор, личность, устная традиция, философия, созидание, семья, дети, жизненные представления, добродетель, добро, жизнелюбие, истина, радость, счастье, мастера веселья.

Annotation: this article clarifies the artistic and aesthetic features inherent in the expression of reality in prose, poetry, drama, in various genres such as novels, short stories, humorous stories, epics, poetic anecdotes, poetic lofs, parodies, hangoma, humor, satire, comedy, interludes in works created under the influence of Uzbek folk laughter - askiya, lof, anecdotes.

Key words: national values, literature, laughter, man, oral creativity, philosophy, fertility, family, children, life ideals, defenders of goodness, goodness, vitality, truth, joy, happiness, cheerfulness.

Kirish. Mustaqillikning istiqbolli islohotlari tufayli xalqimizning ko'pgina qadimiy va milliy qadriyatlari qatorida xalq kulgi san'ati an'analari ham tiklana boshlandiki, natijada askiyachilik, lof va latifago'ylik kabi betakror og'zaki ijod durdonalarining badiiy estetikasi, ularning yozma adabiyot poetik taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga qiziqish ortdi.

Sharq adabiyoti durdonalarida kulgi – insonning ikkinchi tabiati, – deb e'tirof etiladi. Ana shu sabablar ta'sirida ilk asrlarda xalq kulgi madaniyatiga bag'rikenglik (nisbatan bag'rikenglik, albatta) munosabat an'anasi shakllandi. Bu an'ana yashashda davom etdi, ammo tobora ko'proq yangi cheklovlar uchur bo'ldi. Yana bir bor ta'kidlab o'tamizki, kulgining Uyg'onish nazariyasi (shuningdek, biz tavsiflagan qadimiy manbalar) kulgi ortida ijobiy, jonlantiruvchi, ijodiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish bilan tavsiflanadi. Bu kulgining keyingi nazariyalari va falsafalaridan keskin ajralib turadi. Biz tavsiflagan qadimiy an'ana Uyg'onish davri nazariyasi va kulgi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, kulgi adabiy an'anasi uni gumanistik g'oyalarning asosiy oqimiga kiritdi.

Adabiyotlar sharhi. Turkiy ajdodlarimizning an'anaviy tafakkurida kulgi yangi hayotni chorlovchi va baxtli turmush belgisi bo'lgan. U hosildorlik, oila, farzand, turmush g'oyalari bilan uyg'unlashib, mifopoetik an'anada tiriklikning umumiy ramzi bo'lgan. Kulgi yig'i kabi ko'pgina xalq marosimlarining tarkibiy yoki ta'qiqlangan elementi bo'lgan.

"Avesto"da Ahuramazda, Mitra kabilar ezgulik, yaxshilik, tiriklik, haqiqat, quvonch, baxt, shodmonlik himoyachilari, Ahriman yovuzlik, yomonlik, g'am, kulfat, baxtsizlik hukmdori sifatida talqin qilangani ma'lum. Qolaversa, zardushtiylik bilan

bog'liq diniy marosimlar, mavsumiy bayramlar va sayllarda "Avesto" matnini ijro etuvchi mug'lar san'ati bilan bir qatorda mifologik syujetlar asosida yaratilgan lavhalarini namoyish etib beruvchi teatrlashgan namoyish ijrochiligi, avestoxonlik an'anasi, ramziy o'yinlar va norasmiy o'yinlar muhim o'rin tutgan. Bu an'ananing asosiy mohiyati xalqimizning turli xil urf-odatlar, marosimlari folklori, mifologiyasida hunarmandchilik san'ati musiqa madaniyati, teatrlashgan tomosha san'atiga singib ketgan. Avesto ijrochiligi bilan bog'liq o'yin va namoyishlar mavsumiy namoyish o'yinlari, maqom ijrochiligi, qayroq va zang bilan ijro qilinadigan raqslar, qilich, pichoq, kaltak va boshqa predmetlar bilan o'ynaladigan erkak raqslari, hayvonlarga taqlid asosida shakllangan pontamim raqslar, doira va surnay raqslari qarsak o'yinlari va boshqa an'anaviy tomosha san'ati elementlari zardushtiylik e'tiqodiga aloqador tomosha san'ati elementlari yotadi¹.

Barcha xalqlar madaniyatida kulgi kulti darajasiga ko'tarilgan timsollar mavjud. O'zbeklar orasida Xo'ja Nasriddin Afandi mana shunday kulgi kulti darajasiga ko'tarilgan ezgulik va haqiqat homiysidir. Shuning uchun uning timsoli asosida xalq manfaatlar har doim kulgi vositasida himoya qilinadi. Aytishlaricha, Xudo yig'ini ot, it, insonga, kulgini esa faqat odamzodga ato etgan emish. Qur'onning "Van najm" (Yulduzga qasam) surasida "Kuldiruvchi ham, yig'latuvchi ham Uning O'zidir", – degan oyat mavjud. Qadimiy inonchlarga ko'ra, kulgi faqat hayot yo'ldoshi bo'lib qolmay, uni yaratuvchi hamdir. Shuning uchun qadimda kulgi va hazil kunlari tashkil qilingan. Kulgi kunlarining tashkil

¹ Avesto. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. 23-bet.

qilinishi va o'tkazilishi esa, o'z-o'zidan, kulgi magiyasiga ishonchni ifoda etuvchi hayotiy mifologik asoslarga egadir².

Mahmud Qoshg'ariy asarida kulgi haqida quyidagi ma'lumot ham alohida e'tiborni tortadi: "Kug" – bu bir xil kulgiki, turli shahar xalqi orasida mashhur bo'lib, aytib yuriladi. Bu yil bu kug keldi, bu yil bu kulgi chiqdi³.

Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul-haqoyiq" asarida esa hazil so'zi qo'llangani e'tiborni tortadi:

Nodir va suzuk ozdir, hazil ko'p bo'ladi,

Chuz atlas noyob bo'ladi, arzoni bo'zdir⁴.

Tarixiy manbalar qadimda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida shohlar, qirollar, rojalar, graflar-u knyazlarning maxsus saroy qiziqchilari bo'lganligini tasdiqlaydi. Jahonning barcha qiziqchilari hukmdorlarni kulgi va hazil, masxarabozlik niqobida bemalol tanqid qilaverganlar. Balki hukmdorlar ham o'z xato va nuqsonlarini eslatib turuvchi qiziqchilarga ehtiyoj sezganlar. O'rni kelganda saroy masxarabozlari orqali hukmdorlar o'zlari bexabar bo'lgan voqea-hodisalardan xabardor bo'lib, kamchilik va xavfni bartaraf qilishgan. Mana shu holatda kulgi siyosiy vazifa ham bajargan. Saroy masxarabozi tomonidan aytilgan ochiq tanqid hech qachon shaxs sha'niga putur yetkazmagan. O'tmishda har bir hukmdorning saroyida maxsus kuldiruvchilar; qiziqchi va masxarabozlar faoliyat yuritishgan.

Birgina Alisher Navoiy ijodi misolida kuzatadigan bo'lsak, shoir asarlarida xalq tomoshalariga nisbatan "La'b", "tarab", "lahv", "o'yun", "bozi", "tamoshoh", "shu'bada", "lahn", "jashn", "bazzm", "nag'ma", "musha'bid" kabi qator so'zlar qo'llanganidan ham ko'rishimiz mumkin. Navoiy davrida ko'chma sahnaga nisbatan "rahba" atamasi ishlatilgan. A.Navoiy hazil va mutoyiba ustalarini "hazzol" deb ko'rsatgani, "Majolis un-nafois"da ba'zilariga nisbatan "hajv va hazl sari moyil", yana qaysilarigadir "mazox va mutoyiba mizojig'a g'olibdur" deya ta'rif bergani kuzatiladi. Manbalarda qayd etilishicha, Muqimiyning oriq ot, eski aroba, hotekis va loy yo'llar haqida yigirmadan ortiq satirasi mavjudligi ta'kidlanadi.

2 Nurillayeva S. Kulgi kunlarini tashkil etishning hayotiy mifologik asoslari // Nasriddin Afandining dunyo kulgi madaniyatidagi o'rni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2019. –B.149-151.

3 Qoshg'ariy Mahmud Devoni lug'otit turk. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2017. – B. 368.

4 Ahmad Yugnakiy Hibbatul haqoyiq. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B.31.

Qiziqchilar haqidagi dastlabki lavhalar hind eposi "Ramayana"da ham uchraydi. Ayrim manbalarda afsonaviy Sulaymon payg'ambar davrida qiziqchilar faoliyati mavjud bo'lgan deyiladi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi va san'atkorlar o'zbek xalqining tomosha san'ati haqidagi fikr-mulohazalarini maqola tarzida ham bayon etishga uringanlar. Bu o'rinda G'afariyning "O'zbek xalq teaturasi", A.Qodiriyning "Kulgu haqida" (1926-yil) nomli maqolalarini tilga olish mumkin. Zero, ularda ilk marotaba tomosha san'ati, uning yetakchi turi bo'lmish masxaraboz va qiziqchilar teatri to'g'risida obyektiv fikr yuritiladi. Xususan, Abdulla Qodiriyning mulohazalari e'tiborli, chunki u kulgi, ya'ni satira va yumor bilan bog'liq bo'lgan san'at ko'rinishlarini ijtimoий hayot, sinfiylik nuqtai nazaridan talqin etushga intiladi⁵.

XIX asrning oxiri XXasrning boshlariga kelib hazil – mutoyiba, askiya va latifalarga asoslangan jurnallar chop qilina boshlandi. Turkistondagi ana shunday turdagi ilk hajviy nashr 1917–yil iyul oyidan e'tiboran chiqa boshlagan "Chayon" (jurnal muharririya qo'ygancha "Chayan") jurnali bo'ldi⁶. Bu jurnal kulgi jurnali edi, – deb ma'lumot beradi, A.Avloniy o'zining "Bugungi o'zbek matbuotining tarixi" maqolasida. Jurnalning mas'ul muharriri Ibrohim Tohiriy edi. "Bu jurnal ko'brak yerli xalq masalasiga ahamiyat bergani uchun suv yo'qligi va til tatarchaligiga qaramasdan xalq orasida anchagina e'tibor qozondi va umrida bir qancha ulamo va boylarning yarasini tilib tuz tiqdi"⁷. Shu tariqa kulgi madaniyati o'zbek adabiyotining nodir namunalariga kirib kela boshladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy nasr, she'riyat va dramaturgiya badiiy taraqqiyotiga folklorning askiya, latifa, lof singari janrlarining g'oyaviy-estetik, poetik-kompozitsion xususiyatlarining o'zaro sintezlashuvi va stilizatsiyasi natijasidagi ta'siri ko'zga tashlanar ekan, bunda xalq og'zaki qiziqchilik, masxarabozlik san'ati, satira va yumor kulgi tiplari ham yuzaga chiqadi. Natijada kulgiga asoslangan asarlarning etnomadaniy va didaktik, satirik va yumoristik, kinoyaviy kontekst sifatidagi matn pragmatikasi ham ko'zga tashlanadi.

5 Зафарий Ф. Ўзбек халқ театруси, "Билим ўчоғи" журналі 1923. №2-3; А. Қодирий. Кичик асарлар.– Ф.Ғулом номидаги Ўзадабийнашр. –Т., 1969. –В. 181-183.

6 Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий матбуотининг илк нашрлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. №6. 2021. –Б. 3

7 "Туркистон" газетаси, 1924йил 24 июль.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avesto. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. 23-bet.
2. Nurillayeva S. Kulgi kunlarini tashkil etishning hayotiy mifologik asoslari // Nasriddin Afandining dunyo kulgi madaniyatidagi o'rni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2019. 149-151-b.
3. Qoshg'ariy Mahmud Devoni lug'otit turk. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2017. 368-bet.
4. Ahmad Yugnakiy. Hibbatul haqoyiq. – Toshkent: Akademnashr, 2019. 31-bet.
5. Зафарий Ф. Ўзбек халқ театруси, "Билим ўчоғи" журналі 1923. №2-3; А.
6. Қодирий. Кичик асарлар. – Ф.Ғулом номидаги Ўзадабийнашр. – Т., 1969. 181-183-b.
7. Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий матбуотининг илк нашрлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: №6. 2021. –Б. 38. "Туркистон" газетаси, 1924йил 24 июль.

Ramil XOJAMURATOV,

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

POETIK OBRAZNI SHAKLLANTIRISHDA REFRENING AHAMIYATI

(O'zbek va qoraqalpoq she'riyati misolida)

Annotatsiya: maqolada refrenning she'r kompozitsiyasini yaxlitlash, matn qismlari o'rtasida kogeziy aloqa o'rnatish va markaziy obraz semantikasini bosqichma-bosqich rivojlantirish xususiyatlari shoirlar A.Oripovning "Birinci muhabbatim" va T.Jumamuratovning "Atli qizlarning qutliqlao'yi" she'rlari misolida qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: refren, poetik obraz, takror, semantik dinamika, kogeziya, kompozitsiya, qiyosiy tipologiya, o'zbek she'riyati, qoraqalpoq she'riyati.

Аннотация: в статье на сравнительно-типологической основе, на примере стихотворений поэты А.Орипова "Моя первая любовь" и Т.Жумамуратова "Приветствие девушек-всадниц", проанализирована роль рефрена в обеспечении композиционной целостности стихотворения, установлении когезивных связей между частями текста и поэтапном развитии семантики центрального образа.

Ключевые слова: рефрен, поэтический образ, повтор, семантическая динамика, когезия, композиция, сравнительная типология, узбекская поэзия, каракалпакская поэзия.

Annotation: the article employs a comparative-typological approach to analyze the role of the refrain in ensuring the compositional integrity of a poem, establishing cohesive links between its parts, and progressively developing the semantics of the central image, drawing on Abdulla Oripov's "My First Love" and T. Zhumamuratov's "The Greeting of the Horsewomen."

Key words: refrain, poetic image, repetition, semantic dynamics, cohesion, composition, comparative typology, Uzbek poetry, Karakalpak poetry.

Qiyosiy adabiyotshunoslik va lingvopoetikada she'riy matnda obrazni shakllantiruvchi vositalarning funksional xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shunday vositalardan biri refren bo'lib, u she'r kompozitsiyasini birlashtiradi, emotsional ta'sirni kuchaytiradi va markaziy g'oyani kitobxon xotirasida mustahkamlaydi. Refren faqat ohangdorlikni ta'minlovchi takror emas; u har bir yangi kontekstda obraz mazmunini qayta faollashtiruvchi semantik mexanizmdir.

O'zbek va qoraqalpoq she'riyatida refren orqali muhabbat, Vatan, tarixiy xotira, milliy qadriyat va xalqlar do'stligi obrazlari ta'sirchan ifodalanadi. Biroq mazkur vositaning ikki qardosh adabiyotdagi umumiy va o'ziga xos obraz yaratish imkoniyatlari qiyosiy yo'sinda kam tadqiq etilgan. Biz ushbu maqolamizda shoirlar A.Oripov va T.Jumamuratov she'rlari misolida refrenning kompozitsion, semantik va badiiy-estetik vazifalarini aniqlashni maqsad qilganmiz. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvopoetik, struktural-semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olim A.P.Kvyatkovskiy refrenni she'riy asarning muayyan o'rinlarida, odatda, band oxirida muntazam takrorlanadigan so'z, ibora yoki misraga asoslangan kompozitsion usul sifatida ta'riflaydi [1]. Uning genezisi xalq qo'shiqlari va musiqiy-poetik janrlarga borib taqaladi.

Olimlar D.Quronov, Z.Mamajonov va M.Sheraliyeva ham refrenni folklordan yozma adabiyotga o'tgan, har bir banddan keyin aynan qaytariladigan naqorat hamda mumtoz she'riyatdagi tarje' san'atiga muvofiq hodisa sifatida izohlaydilar [4, 250]. Olim Y.M.Lotman ta'kidlaganidek, takrorlangan element shaklan avvalgi birlikka teng bo'lsa ham, yangi matniy pozitsiyada aynan o'sha mazmunni takrorlamaydi: uning qo'shni birliklar, kompozitsion o'rin va kitobxon idroki bilan munosabati o'zgaradi [2, 39–43]. Taniqli olim R.O.Yakobson poetik nutqda ekvivalentlik munosabatining tanlash o'qidan birikish o'qiga ko'chishini ko'rsatadi; natijada tovush, so'z va sintaktik qurilish takrori ketma-ketlikni badiiy tashkil etish tamoyiliga aylanadi [3, 358]. Olimlar M.A.K.Hallidey va R.Hasan nazariyasiga ko'ra, matn kogeziyasi bir qismni ikkinchi qism orqali anglashga imkon beruvchi semantik munosabatdir [5, 1–6]. Demak, refren kompozitsion takror, leksik kogeziya va obraz semantikasi rivoji kesishgan nuqtada voqelanadi.

Refrenning semantik tabiati "shakliy barqarorlik – mazmuniy o'zgaruvchanlik" munosabatiga asoslanadi. Takrorlanuvchi birlikning fonetik va leksik tarkibi saqlanadi, ammo u har bir bandda yangi predikat, psixologik holat, makon-zamon munosabati va madaniy assotsiatsiya bilan bog'lanadi. Shu sababli refren bir vaqtning

o'zida bandlarni birlashtiradi, markaziy obrazni qayta faollashtiradi, emotsional ohangni barqarorlashtiradi va uning kontekstual ma'nosini kengaytiradi. "Refren" bilan "referent"ni farqlash zarur: refren – matnda takrorlanuvchi kompozitsion birlik, referent esa ifoda ishora qilayotgan shaxs, predmet, hodisa yoki tushunchadir.

Shoir A.Oripovning "Birinci muhabbatim" she'rida "birinci muhabbatim" birikmasi har bir bandning obrazi va kompozitsion markaziga aylanadi:

*Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim* [6; 8].

Birinchi bandda refren "esga oldim" va "xayolga toldim" predikatlari bilan bog'lanib, o'tmishga mansub intim-biografik kechinmani ifodalaydi. Oyning bo'zarib botishi, Zuhro yulduzning xira xandasi va kechki sokinlik voqelikning betaraf tasviri emas, balki lirik subyekt ruhiyatining tashqi proyeksiyasidir. Tabiat manzarasi xotirani emotsional jihatdan tayyorlaydi va muhabbat obraziga ma'yuslik ohangini yuklaydi.

Keyingi bandlarda bir xil refren yangi predikativ vaziyatlarga kirib, kechinmaning ichki evolyutsiyasini ko'rsatadi: "yo'qotdim" muhabbatdan ayrilishni, "parvo qilmadim" uning qadrini vaqtida anglamaslikni, "yig'layman" yo'qotishning ruhiy oqibatini, "kimga suyangayman?" esa muhabbatning ma'naviy tayanchga aylanganini bildiradi. Quyidagi bandda bu aksiologik mazmun ayniqsa kuchayadi:

*Yo'lin yo'qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G'ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay,
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim* [6].

"Suyangay" fe'lining uch marta parallel qo'llanishi shaxsiy kechinmani umuminsoniy qonuniyat darajasiga ko'taradi. Ammo "men kimga suyangayman?" savoli umumiy hukmni yana shaxsiy fojiaga aylantiradi: boshqalar muhabbatga suyanishi mumkin, lirik subyekt esa uni yo'qotgan. Shu tariqa refren semantikasi xotira – yo'qotish – kech anglash – iztirob – ma'naviy ehtiyoj – muqaddas qadriyat yo'nalishida rivojlanadi.

Birikmaning morfologik tuzilishi ham obraz yaratishga xizmat qiladi. "Muhabbat" mavhum tushuncha bo'lsa, -im egalik qo'shimchasi uni lirik subyektning shaxsiy kechinmasiga aylantiradi. "Birinci" sifati tuyg'uning faqat xronologik dastlabkiligini emas, takrorlanmasligi va xotiradagi alohida maqomini ham anglatadi. Natijada refren nominativ yadro, emotsional kulminatsiya va kompozitsion bog'lovchi vazifalarini bir vaqtda bajaradi.

Qoraqalpoq shoiri T.Jumamuratovning "Atly qyzlardyñ qutlyqlao'ly" she'rida "Xosh kelipsiz xorezmli doslarým" misrasi bandlar oxirida muntazam takrorlanadi:

*Jorg'a minip, at kekilin taradyq,
Xosh kelipsiz horezmli doslarým,
Keledi dep jollarýña qaradyq,
Xosh kelipsiz horezmli doslarým* [7, 73].

Dastlabki bandda refren mehmonni kutib olish va samimiy salomlashish mazmunini ifodalaydi. "Jorg'a minio'", "jolg'a qarao'", "xosh kelio'" birliklari kutish va uchrashuv vaziyatini shakllantiradi. Keyingi bandda "doslyq", "jyrek", "salem", "qaraqalpaq xalqým" leksemalari refrenni shaxsiy muloqot doirasidan chiqarib, xalq nomidan aytilgan jamoaviy murojaatga aylantiradi:

*Räziyneni tasyrdyñyz altynnan,
Kergen sayyn doslyq jyrek balqy'gan,
Qyzg'yn sälem qaraqalpaq xalqymnan,
Xosh kelipsiz xorezmli doslarým* [7, 73].

Bu yerda lirik "men" o'rnini umumlashgan etnomadaniy subyekt egallaydi. "Xorezmli doslarým" muayyan mehmonlarnigina emas, tarixan yaqin xalq vakillarini anglata boshlaydi. "Biriñ – dayy bolsa, biriñiz – jiyeñ, / Biriñ – quda bolsa, biriñiz –kyyeo'" misralaridagi "dayy", "jiyeñ", "quda", "kyyeo'" qarindoshlik nomlari ikki xalq munosabatini rasmiy qo'shnichilikdan oilaviy yaqinlik darajasiga ko'taradi. "Tar zamanda bireo' bireo'ge syyeo'" misrasi esa refren semantikasiga tarixiy xotira va sinovdan o'tgan o'zaro yordam ma'nosini kiritadi.

Keyingi bandlardagi "apa-singli", "ini", "qurdas", "ag'a", "tatyö' qo'qsy", "emir sherik", "ag'ayin" birliklari yagona qarindoshlik va do'stlik semantik maydonini hosil qiladi. Refren ushbu maydonning markaziy nominatsiyasi sifatida tarqoq obrazlarni xalqlar birligi makroobraziga birlashtiradi. Uning mazmuniy harakati kutib olish – samimiy salom – xalqlar do'stligi – qarindoshlik – tarixiy hamjihatlik – doimiy qo'shnichilik bosqichlarida amalga oshadi.

Qiyosiy tahlillarni jadvalda keltiramiz.

Tahlil mezon	A. Oripov "Birinci muhabbatim"	T. Jumamuratov "Atly qyzlardyñ qutlyqlao'ly"
Asosiy refren	birinchi muhabbatim	Xosh kelipsiz xorezmli doslarým
Nutq va subyekt	intim-psixologik; individual "men"	ijtimoiy-kommunikativ; xalq nomidan so'zlovchi subyekt
Markaziy obraz	birinchi muhabbat	xalqlar do'stligi

Vaqt modeli	o'tmishdan bugunga qaytuvchi xotira	tarixiy o'tmish va hozirgi uchrashuv birligi
Semantik harakat	xotiradan muqaddas qadriyatga	salomlashishdan xalqlar birligiga
Kogeziya vositalari	refren, egalik shakli, psixologik predikatlar	refren, qarindoshlik nomlari, sintaktik parallelizm
Ustuvor vazifa	psixologik-aksiologik	ijtimoiy-kommunikativ va etnomadaniy

Qiyosiy tahlil har ikki she'rdagi refrenning umumiy kompozitsion-kogeziv vazifalarini ko'rsatadi: u bandlarni birlashtiradi, markaziy obrazni qayta faollashtiradi, ritmik kutilma va emotsional ohangni barqarorlashtiradi. Farq obrazning harakat yo'nalishida ko'rinadi. Oripov she'rida refren introspektiv xususiyat kasb etib, subyektning o'tmishga qaytishi, kechinmani qayta baholashi va yo'qotilgan muhabbatni oliy ma'naviy mezon sifatida anglashiga xizmat qiladi. Jumamuratov she'rida esa u ekstravertiv va kommunikativ yo'nalishda bo'lib, muayyan uchrashuvni tarixiy xotira, qarindoshlik va xalqlar do'stligi bilan bog'laydi.

Ikki refrenda ham egalik shakli obraziy faollikka ega: "muhabbatim" individual mansublikni, "doslarim" esa ijtimoiy yaqinlik va jamoaviy daxldorlikni ifodalaydi. Birinchisida egalik qo'shimchasi obrazni shaxsiylashtirsa, ikkinchisida u adresatni "o'z" doirasiga kiritib, ikki xalq o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Demak, morfologik o'xshashlik turli kontekstlarda psixologik va ijtimoiy semantikani yuzaga chiqaradi.

Umuman olganda, refren poetik matnda tayyor mazmunni mexanik takrorlovchi unsur emas, balki markaziy

obraz semantikasini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi lingvopoetik mexanizmdir. Uning lug'aviy shakli barqaror qolgan holda, kontekstual mazmuni har bir bandda yangi predikat, assotsiatsiya, makon-zamon munosabati va baholovchi belgi hisobiga kengayadi.

"Birinci muhabbatim" she'rida refren xotiradan iztirobga, iztirobdan ma'naviy iqrorgacha bo'lgan ichki harakatni ifodalaydi; natijada birinchi muhabbat biografik kechinmadan ruhiy tayanch va muqaddas qadriyatga aylanadi. "Atly qyzlardyñ qutlyqlao'ly" she'rida esa uning semantik qamrovi mehmonlarni kutib olishdan xalqlar do'stligi, qarindoshlik, tarixiy hamjihatlik va doimiy qo'shnichilikka kengayadi.

Shunday qilib, o'zbek va qoraqalpoq she'riyatida refren obraz rivojining ikki modelini namoyon etadi: individual-psixologik model obrazni lirik subyektning ichki kechinmalari asosida chuqurlashtiradi; jamoaviy-etnomadaniy model esa uni tarixiy xotira va ijtimoiy munosabatlar doirasida umumlashtiradi. Har ikki holatda refren shakliy takror va semantik o'zgarish birligini ta'minlovchi kompozitsion-kogeziv vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Квятковский А.П. Поэтический словарь / науч. ред. И. Роднянская. — Москва: Советская энциклопедия, 1966. 376 с.
2. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. — Ленинград: Просвещение, 1972. 272 с. С. 39–43.
3. Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language / ed. T.A. Sebeok. — Cambridge, MA: MIT Press, 1960. P. 350 – 377.
4. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2010. Б. 250.
5. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976. 374 p. P. 1–6.
6. Оripов А. Биринчи муҳаббатим // Танланган асарлар: тўрт жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
7. Жумамуратов Т. Толқинда: қосықлар топламы. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1970. Б. 73.
8. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. — 2-е изд. — Москва: Просвещение, 1988. 192 с. С. 22–25.

Umidjon YIGITALIYEV,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
yigitaliyevumidjon35@gmail.com
Sadoqat SOTVOLDIYEVA,
Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

POETIK MATN VOQELIK BADIY TASVIRINING KOGNITIV IDROKIDA SHAXSNING O'RNI **(Dilshodi Barno lirikasi misolida)**

Annotatsiya: mazkur maqolada poetik matn voqelik badiiy tasvirining kognitiv idrokida shaxs tushunchasining voqelanishi muammosi Dilshodi Barno g'azallari misolida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *poetik matn, badiiy tasvir, badiiy matn, kognitiv idrok, shaxs, konsept.*

Аннотация: в статье рассматривается вопрос реализации понятия «личность» в рамках когнитивного восприятия художественного отображения действительности в поэтических текстах на примере газелей Дилшоди Барно.

Ключевые слова: *поэтический текст, художественный образ, художественный текст, когнитивное восприятие, личность, концепт.*

Annotation: the article examines the realization of the concept of "personality" within the framework of the cognitive perception of the artistic depiction of reality in poetic texts, using the ghazals of Dilshodi Barno as a case study.

Key words: *poetic text, artistic image, literary text, cognitive perception, personality, concept.*

Kirish. O'zbek lingvopoetikasi taraqqiyotida poetik, ayniqsa, mumtoz lirik matnlarning badiiy strukturasi, asardagi voqelikning badiiy tasviri va uning kognitiv idrok qilinishida *shaxs*ning, boshqacha aytganda, kitobxonning o'rne masalasini tadqiq etish mazkur ilmiy axborotning bosh maqsadi sanaladi.

Darhaqiqat, badiiy asarning tuzilishiga yuqorida qo'yilgan talab asosida yondashish uning g'oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik, didaktik quvvati, so'zning badiiy asarda san'at maqomidagi mavqeyi, adiblarning xalq tili va adabiy tildan mohirona foydalanish natijalari bo'lgan badiiy matnni yuzaga keltirishini o'rganishga doir tadqiqotlar ko'payishiga sabab bo'ldi. Badiiy matnni ayni badiiy til aspektida tadqiq qilish muayyan asar muallifining estetikasi hamda tildan foydalanish mahoratini, o'ziga xos uslubini aniqlash imkonini yaratdi. Shuningdek, bu kabi izlanishlar tilning kumulyativ funksiyasini davrlararo badiiy-stilistik tadqiq etish sari yo'l ochdi. Bu esa lingvopoetik tadqiqotlarda kitobxonning idrokini tadqiq etish masalasi dolzarb muammolardan biri ekanligi ta'kidlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'zbek lingvopoetikasining muhim vazifalaridan biri mumtoz va zamonaviy adabiyot ijodkorlari qalamiga mansub badiiy matnlarni lisoniy tadqiq qilishdir. Bunday tadqiqotlar doirasida o'zbek tilshunosligida olib borilgan ishlarning ba'zilar tilimizning umumiy tomonlariga, ayrimlari muayyan bir ijodkor asarlari tiliga tegishliligi bilan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida badiiy matn tili masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, she'riy asarlar tilini o'rganishga doir ishlar mavjud bo'lsa-da, ularning salmog'i nasriy asarlar tili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga nisbatan ancha kam hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda adiblarning nasriy asarlari bilan bir qatorda she'riy va dramatik asarlarning tili, ayniqsa, lingvopoetika bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bu sohada tadqiqotlarning jonlanishiga turtki berishiga ishonch hosil qila oladi[7;21].

Ma'lumki, mumtoz poetik matnlarda voqelik badiiy tasvirini *shaxs* (matn muallifi emas, aksincha, kitobxon – U.Y.) tomonidan idrok etilishi kognitiv obrazlilik, metaforizatsiya, ta'sirchanlik, denotatning vizual tasviri hamda formal holatning ta'minlanishi uchun xizmat qiladi. Modomiki, mumtoz poetik matnlarning kognitiv va assotsiativ strukturasi tadqiq etish [4:91] bugungi kunda shu yo'nalishdagi muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur mulohazalarimizning tasdig'i sifatida jahon va o'zbek lingvopoetistlari tomonidan o'rganilgan ayrim tadqiqotlarga nazar solaylik.

XX asrning so'nggi choragida jahon lingvopoetikasida A.Lipgart, O.Axmanova, V.Zadarnova, L.Polubichenko, I.Galperin, N.Bobenkolarning tadqiqotlarida matn yaratuvchisi va uni qabul qiluvchi kitobxon – *shaxs* o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarga qaratildi. Biroq yana bir rus tilshunosining "Лингвистика поэтического текста" asarida esa matn tahlilining yangi bosqichga o'tganligi alohida ta'kidlanadi[11:58].

O'zbek lingvopoetikasining taraqqiyotida X.Doniyorov, S.Karimov, J.Lapasov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, M.Yo'ldoshevlarning bir qator tadqiqotlari badiiy matnning lingvistik taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilishiga yangi zamin yaratdi. Chunonchi, prof. N.Mahmudov Oybek asarlarining til xususiyatlariga qaratilgan maqolasida shoir she'riyatida qo'llangan o'xshatishlarni lingvopoetik tadqiq qilgan bo'lsa, X.Doniyorov va B.Yo'ldashevlar "Adabiy til va badiiy stil" nomli asarida[2:41] badiiy asar lingvopoetikasini o'rganish ilmiy-nazariy aspektida tadqiq etilgan bo'lib, unda mumtoz va zamonaviy poetik ijodkorlar – Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad singari yozuvchi va shoirlar asarlarining badiiy uslubi, lisoniy xususiyatlari haqida atroflicha mulohaza bildirganlar. Tilshunos olim B.Umurqulov o'zining "Poetik nutq leksikasi" nomli asarida [12:25] badiiy adabiyot tili adabiy tilga bevosita ta'sir qilib, til madaniyatining

taraqqiyoti, rivojlanishini ta'minlab beruvchi asosiy vosita ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, J.Lapasov "Badiiy matn va lisoniy tahlil" asarida [8:59] badiiy matnda qo'llanuvchi barcha so'zlarni "tasviriy vositalar" deb ataydi va ularni haqli ravishda ikki tarkibga ajratadi: 1) betaraf so'zlar, eskirgan so'zlar, neologizmlar, shevaga xos so'zlar va boshqa shunga o'xshashlarni birlashtiruvchi **leksik vositalar**; 2) troplar, figuralar va boshqalarni o'z ichiga olgan **ekspressiv-uslubiy vositalar**[8:71].

Bugungi kunda shu aspektga ilg'or tadqiqotlar olib borayotgan tilshunos M.Yo'ldoshev esa "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" monografiyasida [5:63] badiiy matnning lisoniy tahlili jarayonida qo'llanuvchi tamoyillar haqida so'z yuritir ekan, quyidagi omillarni sanab o'tadi: 1) shakl va mazmun birligi; 2) makon va zamon birligi; 3) xususiylikdan umumiylikka o'tish. Bu omillardan anglashiladiki, muallif badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda qanday unsurlarga e'tiborni qaratish kerakligi haqidagi mulohazalarni o'rni bilan bosqichma bosqich tushuntirib borishni nazarda tutgan.

Natijalar.

Yuqorida bildirilgan ilmiy mulohazalar asosida muayyan ijodkor — Dilshodi Barnoning o'zbek tilidagi g'azallarini bir turkumga birlashtirgan "Sabotul bashar" turkumidagi g'azallari matnida ifodalangan voqelik badiiy tasvirining kognitiv idrokida shaxsning o'rni masalasini tadqiq qilamiz. Chunonchi:

*Bu muhabbat jomidur, deb dahrin chiqdi nido,
"Yor aksini mayda ko'r, deb jomidin chiqdi sado"
Xonaqoh ahlig'a aydim: "Alvido ey so'filar"
Dayra klirdim, rindliqdin emdi qilg'um ibtido.
Oshiqini gul urib band aylasa ma'shuq agar,
Shukr qilg'ay, bo'lmasam, deb, bandidin hargiz judo
Jannatu do'zah barobar oshiqi zor oldida,
Anga maqsuddur faqat bir "Ka'si anvorul xudo".
Garchi Barno zordur bir orazi yor oldida,
Ishq imomig'a hamisha aylamishdir iqtido[3:18].
Bu yerg'a ahli inson erdi zoro,
Zulmni pesha aylab, kirdi Doro,
Jahonning qismati nasli bashardin,
Na Sulton qudrati, na qurbi varo.*

yoki

yoxud

*Bu Turoni bashar berganda oro
Sanamlar vo qachon bor erdi oro.
Bashar ilkida mum o'lg'onda xoro,
Yo'q erdi Ka'ba, Rum, Shomu Buxoro.
Tutulmasdin burun Hojaru Saro,
Yahud, kofir yo'q erdi ham nasoro.
Jahonga kelmasidin bu Guloro,
Na Dilbar bor erdi-yu, na Dilaro.
Biron kun bo'lmadim umrimda Dilshod,
Bu kajrav birla hech qilmay madoro[3:19].*

E'tibor berilsa, badiiy matndagi husni ta'lil va talmeh san'atlari asosida shakllantirilgan leksik vositalar (*muhabbat jomi, so'fi, mazhab, oshiq, ma'shuq, jannat, do'zah, Barno, imom, inson. Doro, bashar, sulton, sanam, Soro, Hojar, Yahud, Guloro, Dilbar, Dilor, Dilshod* va hokazolar) ortida turgan **lisoniy ongning** kognitiv idroki faoliyati, unda voqelik obrazi (**shaxs** badiiy tafakkuri)ning hosil bo'lishi juda ta'sirchan tasvirlangan.

Dilshodi Barnoning g'azallari matnida keltirilgan psixologik holat faqat o'zbek mumtoz shoirlarining badiiy-mental tafakkuriga xos bo'lishi, ayol shoirlarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos uslubda ifodalaganligi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqqa tortilgan g'azallar matnining kognitiv tahlili, badiiy chizgisi orqali ayni paytda "jins" yoki "gender" konseptiga ham ishora qilmoqda[4:47],

Xullas, o'zbek madaniyatida *gender* yoki *jins* tushunchalarining kognitiv idrokida mentalitet mezonini muhim sanalgan[4:27]. Zero, sharq musulmon olamida, jumladan, o'zbek erkak va ayollarining shariat nuqtayi nazaridan muloqot darajasi ham keskin farqlangan. Bu holat, biz yuqorida tahlilga tortgan Dilshodi Barno lirikasida ham ko'zga tashlanib turibdi.

Mumtoz poetik matnlarda gender muammosi esa bu alohida tadqiqni talab etadi. Biroq mazkur ilmiy axborotda tadqiq etilishi maqsad qilingan muammo — *poetik matnda voqelik badiiy tasvirining kognitiv idrokida shaxsning o'rni* Dilshodi Barno g'azallari misolida kognitiv-psixologik va lingvopoetik aspektga o'z yechimini topdi, deb hisoblash mumkin. Boshqacha aytganda, ilmiy axborotda keltirilgan dalillar sharhi kelgusida shu aspektdagi, ya'ni mumtoz shoirlar ijodining kognitiv-pragmatik va lingvopoetik tadqiqini olib borish uchun manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmanova, O. Cross-Cultural Communicational Translation of World Classics / O. Akhmanova, V. Zadornova // Literature in Translation. — New Delhi, 1988.
2. Doniyorov X. Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. — Toshkent: Fan, 1988.
3. Dilshod Barno. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. — Toshkent, 1972. 19-bet.
4. Yigitaliyev U. O'zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi. — Toshkent: LESSON-PRESS nashriyoti, 2023. 91-bet.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. — Toshkent, 2007.
6. Задорнова, В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. — М., 1984.
7. Липгарт, А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: дис. ... д-ра филол. наук. — М., 1996.
8. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
9. Mahmudov N. Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1985. N6. 48-51-b.
10. Полубиченко, Л.В. Топология смысла при переводе художественной литературы // Смысл и значение на лексическом и синтаксическом уровнях. — Калининград, 1986. — С.115.
11. Трофимова Ю. М. Лингвистика поэтического текста: монография. Саранск: Издательство Мордовского университета, 2015. — 172 с.
12. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. — Toshkent: Fan, 1990. 172-bet.

Э.Н. ЕШНИЯЗОВА,

к.ф.н., доцент кафедры русского языка и литературы
Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза
ORCID 0009-0002-1586-1199

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В ПОВЕСТИ М.БУЛГАКОВА “СОБАЧЬЕ СЕРДЦЕ”

Аннотация: в данной статье рассматривается повесть М.Булгакова «Собачье сердце» в контексте магического реализма, выявляется необходимость использования данного приема для изображения определенных событий реальной действительности, определяется многоуровневое изображение сатирического, а также фантастическое изображение абсурда и реальности.

Ключевые слова: *творчество, повесть, магический реализм, магия, преобразование, запрет, проблематика, идея.*

Annotation: this article examines M. Bulgakov's novella "The Dog's Heart" within the context of magical realism, identifying the necessity of using this technique to depict certain events of real reality, defining the multi-level depiction of satire, as well as the fantastic depiction of absurdity and reality.

Key words: *creativity, novella, magical realism, magic, transformation, prohibition, problematics, idea.*

Annotatsiya: ushbu maqolada M.Bulgakovning "It yuragi" qissasi magik realizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi, unda real voqelikdagi muayyan hodisalarni tasvirlash uchun mazkur usuldan foydalanish zarurati ochib beriladi, shuningdek, satirik tasvirning ko'p qatlamlihamda absurd va haqiqatning fantastik ifodasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ijod, qissa, magik realizm, sehr, evrilish, ta'qiq, muammo, g'oya.*

М.А.Булгаков — один из самых талантливых русских писателей 20-х годов XX века. Он является автором таких прозаических произведений как «Дьяволида», «Роковые яйца», «Собачье сердце», «Мастер и Маргарита», драматических произведений как «Зойкина квартира», «Дни Турбиных» и т.д.

Творчество М.А.Булгакова отличается своеобразным подходом к изображению реальной действительности. Прозаик одним из первых в русской литературе XX века начал активно внедрять в свои творения приемы магического реализма. В произведениях писателя фантастические события происходят, казалось бы, в самой обыденной обстановке и воспринимается читателями как часть реальной естественной жизни. Магия у М.Булгакова служит могучим инструментом для раскрытия скрытых, неизвестных и тайных сторон действительности. Чудеса, происходящие на страницах его произведений помогают писателю выявить сущность героев, показать противоречия реальной действительности.

Повесть «Собачье сердце» была написана М.Булгаковым в 1925 году, она была запрещена

и распространялась только в рукописном виде. Только в 1987 году она была официально опубликована в Советском Союзе.

Несмотря на то, что повесть «Собачье сердце» М.Булгакова была запрещена и была опубликована только в 80-х годах XX века интересовала многих литературоведов, творчество М.Булгакова, а также повесть «Собачье сердце» была предметом многих научных исследований начиная с 80-х годов прошлого столетия [11], также эти исследования ведутся и на современном этапе [2;7], стоит отметить, что исследования в сравнительном плане начаты и отечественными исследователями [4].

В повести «Собачье сердце» автор объединяет реальность и абсурдность или иллюзии. Например центральное событие повести, т.е. превращение пса по кличке Шарик в человека является фантастикой, которая нарушает законы природы и человеческого бытия. Перед читателями стоит вопрос о границах возможного и этичности научных экспериментов. С другой стороны автор показывает социальные изменения, происходящие в современном для писателя

обществе, где предпринимается попытка искусственно создать тип «нового человека».

Нужно отметить, что сюжет повести является фантастическим, так как превращение, хотя и операционным путем, собаки в человека немислимо, образ Шарикова можно считать гротескным, эти приемы, а именно, фантастический сюжет и гротескный образ дает возможность автору высмеять недостатки господствующей власти и показать абсурдность происходящих в стране перемен. Хотя профессор Преображенский желает улучшить организм, его эксперимент направлен на омоложение человека, в результате данного эксперимента появляется некий человек, который угрожает его собственной жизни и благополучию, т.е. самые хорошие намерения профессора приводят к противоположным результатам. По сему следует такой вывод, что перед законами природы не может устоять даже продвинутая наука.

Если взглянуть на историю развития русской литературы, каждая эпоха знаменуется тем, что создается образ героя своего времени, начиная с творчества А.Пушкина можно проследить создание образа героя – современника, например, Евгений Онегин, у М.Лермонтова – Г.Печорин, у И.Тургенева – Е.Базаров, у И.Гончарова – И.Обломов, у Ф.Достоевского – Р.Раскольников, у Н.Чернышевского – Рахметов, у М.Булгакова – П. Шарикова.

Как считает исследователь творчества М.Булгакова И.Ерыкалова: «Повесть «Собачье сердце» является фантастическим символом, который послужил основой для раскрытия остро стоящих проблем советского времени. Превращение собаки в человека символизировало рождение новой жизни, представителя новой культуры, человека нового времени. Таким образом, фантастический символ в повести М. Булгакова помог раскрыть авторский замысел и передать читателю глубокий смысл [3;56].

Магическое превращение собаки в человека становится основой для глубокой социальной критики. Образ Шарикова воплощает сатиру на попытки создания «нового человека» революционными методами. М.Булгаков показывает, что культура и интеллигентность не могут быть привиты насильственно.

Автор «Булгаковской энциклопедии» Б.Соколов пишет: «Операцию над Шариком профессор проводит во второй половине дня 23 декабря, а очеловечивание пса происходит в ночь на 7 января, так была закончена запись в дневнике, который вел доктор Борменталь. Таким образом, весь процесс превращения собаки в человека происходит с 24 декабря до 6 января от католического до православного Сочельника. Происходит Преображение, только не Господне. Новый человек Шариков появляется в ночь с 6 января на 7 января, в Православное Рождество, но Полиграф Полиграфович – воплощение не Христа, а дьявола, взявший себе имя вымышленного «святого» в новых советских «святцах», предписывающих праздновать День полиграфиста. Шариков – в какой-то мере жертва полиграфической продукции – книг с изложением марксистских догм, которые дал ему читать Швондер. Оттуда «новый человек» вынес только тезис о примитивной уравниловке – «взять все да и поделить» [5; с.447]

Магическая операция профессора Преображенского терпит крах именно потому, что игнорирует естественные законы развития личности. Особого внимания заслуживает изображение сатирического в повести, она многоуровневая. На поверхности - комическое изображение Шарикова и его проделок, например, Шариков не может забыть свои собачьи рефлексy, гоняется за кошками. Глубже - критика социального эксперимента, пытающегося изменить человеческую природу административными мерами, например, домком Швондер со своими товарищами приходит к профессору Преображенскому, требует, чтобы профессор отдал комнаты, далее Шариков при помощи Швондера становится заведующим подотделом очистки города Москвы от бродячих животных, собирается расписаться с машинисткой и выселить Борменталья из приемной, так как в приемной Шариков будет жить с этой барышней, когда девушка узнает правду о Шарикове и уходит, тот угрожает машинистке сокращением штатов. Третий уровень сатиры в повести - это философские размышления о соотношении природного и культурного в человеке, по своей природе собака Шарик, после своего

преображения все равно не теряет животные инстинкты, донором для Шарика был некий Клим Чугункин, который по жизни был невоспитанным человеком, дебоширом, алкоголиком, все его качества передаются Шарикову.

Поведение Шарикова в повести символизирует поведение людей, которые пришли к власти и «стали всем из ничего». Таким образом, автор показывает, что построение социализма как масштабный эксперимент власти над народом может привести к хаосу и разрушению, если люди не готовы изменить свой внутренний мир и принять новые ценности и нормы поведения [9;713].

Операция символизирует Октябрьскую революцию. Попытка большевиков «вывести» нового советского человека из отсталых слоев общества приводит к разрушению культуры. Шариков поворачивается против своего создателя. Низшие инстинкты (пьянство, хамство Клима Чугункина) побеждают воспитание.

Таким образом, главный смысл эксперимента профессора Преображенского - это иллюстрация **невозможности насильственного изменения человеческой природы** и законов эволюции. М. Булгаков через медицинский опыт показывает катастрофу искусственного создания «нового человека».

«Собачье сердце» – это первый шаг М. А. Булгакова к магическому реализму. Как и в романах, которые писатель написал позже, в повести «Собачье сердце» *глубокий философский смысл сочетается с удивительным художественным мастерством, реальность и иллюзия переплетаются, рациональность и абсурдность сопоставляются, а мечта и реальность объединяются* [10; с. 171].

Несмотря на то, что прошло почти сто лет, но Шариков остаётся с нами. В каждом времени возникают свои утопии, свои попытки «переделать» человека, свои конфликты между культурой и варварством, между индивидуальностью и социальным давлением.

Писатель М.Булгаков напоминает: сохранение человеческого достоинства, памяти и культурных ценностей - единственный способ избежать деградации личности и общества.

По-нашему мнению, повесть «Собачье сердце» объединяет все грани Булгакова: он и врач, и писатель, и сатирик, и романтик. Он мастерски сочетает научную точность, психологическую наблюдательность и художественную метафору, создавая произведение, которое остаётся актуальным для читателей почти столетие спустя.

Литература:

1. Булгаков М.А. Собрание сочинений : в 5 т. / М. А. Булгаков. – М. : Худож. лит., 1989. – Т. 2 : Дьяволиада;Роковые яйца; Собачье сердце; Рассказы; Фельетоны.
- 2.Варламов А.Н. Михаил Булгаков. – М.: Молодая гвардия, 2020. (Жизнь замечательных людей: сер. биогр.; вып. 1841).
3. Ерыкалова И. Фантастика Булгакова. Творческая история. Текстология. Литературный контекст Текст. / И. Ерыкалова. – СПб.: СПбГУП, 2007. – С. 284.
- 4.Мансурова Н.Б. Магический реализм в художественной литературе: генезис и принципы развития (на примере творчества Г.Г.Маркес, М.Булгакова и узбекских писателей), – Бухара 2025.
5. Соколов Б. Булгаковская энциклопедия, – М.: Локид; Миф, 1996
6. Соколов Б. Михаил Булгаков, – М.: «Знание» 1991
7. Соколов Б. Три жизни Михаила Булгакова, – М.: «Эллис Лак», 1997.
- 8.Трунин К. М. Булгаков. Критика и анализ литературного наследия.– М.: 2019
- 9.Чемурзиева Л.М. Фантастические символы и их роль в повести М.А. Булгакова «Собачье сердце»// Вестник науки, 2023 №6 (63), Т.3. стр 710 – 714
- 10.Чжан, Минь. Об эстетическом стиле романов – М.: А. Булгакова / МиньЧжан // Академический обмен. 2008. – № 3. – С. 169–171.
- 11.10. Яновская Л. М. Творческий путь Михаила Булгакова – М.: Советский писатель, 1983.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Nafosat ZARIPBOYEVA,
O'zMU mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: nafosat2502@mail.ru

MEDIA KOMMUNIKATSIYADA GENDER STEREOTIPLARNING YANGI SHAKLLARI VA FUNKSIONAL O'ZGARISHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy media kommunikatsiya makonida gender stereotiplarning yangi shakllari, ularning shakllanish omillari hamda funksional o'zgarishlari sotsiolingvistik va diskursiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy gender tasavvurlarining raqamli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya kanallari ta'sirida qanday transformatsiyaga uchrayotgani ochib beriladi.

Kalit so'zlar: media kommunikatsiya, gender stereotiplar, media diskurs, sotsiolingvistika, gender transformatsiyasi, kommunikativ strategiyalar, raqamli media, gender identifikatsiyasi, diskurs tahlili.

Аннотация: в данной статье исследуются новые формы гендерных стереотипов и их функциональные изменения в современной медиакommunikации с позиций социолингвистического и дискурсивного подходов. Анализируется процесс трансформации традиционных представлений о гендерных ролях под воздействием цифровых медиа, социальных сетей и современных коммуникационных платформ. Особое внимание уделяется языковым единицам, метафорическим моделям, стереотипным образам и новым коммуникативным стратегиям, посредством которых конструируются образы мужчин и женщин в медиадискурсе.

Ключевые слова: медиакommunikация, гендерные стереотипы, медиадискурс, социолингвистика, гендерная трансформация, коммуникативные стратегии, цифровые медиа, гендерная идентичность, дискурсивный анализ.

Annotation: this article examines the new forms of gender stereotypes and their functional transformations in contemporary media communication from sociolinguistic and discourse-oriented perspectives. The study explores how traditional perceptions of gender roles are changing under the influence of digital media, social networks, and modern communication platforms. Particular attention is paid to linguistic units, metaphorical models, stereotypical representations, and emerging communicative strategies used to construct male and female identities in media discourse.

Key words: media communication, gender stereotypes, media discourse, sociolinguistics, gender transformation, communicative strategies, digital media, gender identity, discourse analysis.

Kirish. XXI asr axborot jamiyatida media kommunikatsiya insonlarning ijtimoiy ongi, qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantiruvchi eng ta'sirchan kommunikativ mexanizmlardan biriga aylandi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarning jadal rivojlanishi natijasida media makon nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy voqelikni yaratish, talqin qilish va baholash jarayonida muhim rol o'ynaydigan diskursiv muhit sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, media kommunikatsiyada gender munosabatlarining ifodalanishi, gender stereotiplarning shakllanishi va transformatsiya jarayonlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Media kommunikatsiya va gender stereotiplari masalasi Simone de Beauvoir, Judith Butler, Norman Fairclough, Deborah Tannen hamda R.W. Connell kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli jihatlardan yoritilgan. Ularning ishlaridagi genderning ijtimoiy konstruktiv tabiati, media diskursning jamoatchilik ongiga ta'siri hamda kommunikativ strategiyalarning gender munosabatlarini

shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. So'nggi yillarda media lingvistikasi va diskurs tahlili doirasida raqamli media muhitida gender stereotiplarining transformatsiyasiga qiziqish ortmoqda. O'zbek tilshunosligida gender va media diskursi bo'yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, media kommunikatsiyada gender stereotiplarining yangi shakllari va funksional o'zgarishlarini lingvistik nuqtayi nazardan kompleks o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sotsiolingvistik, mediadiskursiv, lingvopragmatik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Zamonaviy media platformalari va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan genderga oid matnlar, sarlavhalar hamda kommunikativ birliklar tahlil qilinib, ularning leksik-semantik va funksional xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, o'zbek, rus va ingliz tillaridagi media materiallari qiyosiy o'rganilib, gender stereotiplarining yangi shakllari, ularning kommunikativ vazifalari va raqamli media muhitidagi transformatsiya jarayonlari baholandi.

Tahlillar va natijalar. Media va diskurs munosabatlarini tadqiq qilgan Norman Fairclough diskursni ijtimoiy

voqelikni aks ettiruvchi emas, balki uni shakllantiruvchi omil sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, tildan foydalanish ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat va mafkuraviy qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, media diskurs jamoatchilik ongini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi (Fairclough, 1995).[3] Shu jihatdan gender stereotiplarni media matnlarda o'rganish nafaqat til hodisalarini, balki ijtimoiy ma'nolarning yaratilish mexanizmlarini tahlil qilish imkonini beradi. Media kommunikatsiya va gender munosabatlari masalasida Deborah Tannenning tadqiqotlari ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Olimaning fikricha, erkak va ayol nutqiy strategiyalaridagi farqlar ijtimoiy tajriba, madaniy me'yorlar hamda kommunikativ muhit ta'sirida shakllanadi (Tannen, 1990).[4] Mazkur qarash zamonaviy media kommunikatsiyada gender belgilarining qanday lingvistik vositalar orqali ifodalanishini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek ijtimoiy media diskursida keng uchraydigan gender birliklari qatoriga:

- “oqila ayol”;
- “mehribon ona”;
- “zamonaviy ayol”;
- “mas'uliyatli erkak”;
- “oilaparvar ota”

kabi konseptual birliklarni kiritish mumkin. Mazkur birliklarning semantik tarkibi o'zbek jamiyatining gender haqidagi an'anaviy tasavvurlarini aks ettirish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar asosida yangi mazmun bilan boyib bormoqda. “Oqila ayol” konsepti va uning media diskursdagi talqini. O'zbek lingvomadaniyatida “oqila ayol” tushunchasi uzoq tarixiy davr mobaynida ayollik idealining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu birlik tarkibida aql, odob, sabr-toqat, oilaviy mas'uliyat va ma'naviy yetuklik kabi semantik belgilar mujassamlashgan. An'anaviy diskursda “oqila ayol” ko'proq oilaning ichki barqarorligini ta'minlovchi, farzand tarbiyasida faol ishtirok etuvchi va oilaviy qadriyatlarini saqlovchi shaxs sifatida tasvirlangan. Biroq zamonaviy media diskursda ushbu konsept yangi mazmun bilan kengaymoqda. Bugungi

postlarda “oqila ayol” nafaqat oilaviy munosabatlarda, balki ta'lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotda faol bo'lgan shaxs sifatida ham namoyon qilinmoqda. Demak, zamonaviy talqinda “oqila ayol” modeli:

- an'anaviy qadriyatlar (mehr, oila, tarbiya);
- zamonaviy kompetensiyalar (bilim, kasbiy rivojlanish, mustaqillik) birligi asosida shakllanmoqda.

Bu holat gender stereotiplarning butunlay yo'qolishini emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashayotganini ko'rsatadi.

“Mehribon ona” konseptining transformatsiyasi. O'zbek media diskursida eng faol qo'llanadigan gender birliklardan biri “mehribon ona” konseptidir. Mazkur birlik o'zbek madaniyatida onalik maqomining yuqori ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. An'anaviy modelda “mehribon ona” obrazi:

- farzand tarbiyasi;
- oilaviy g'amxo'rlik;
- fidoyilik;
- sabr-toqat

kabi belgilar orqali tavsiflangan.

Shunday qilib, “oqila ayol”, “mehribon ona”, “zamonaviy ayol”, “mas'uliyatli erkak”, “oilaparvar ota” kabi birliklar o'zbek media diskursida gender stereotiplarning yangi shakllarini ifodalovchi lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo'lib, ular milliy identitet va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarning uyg'unligini aks ettiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy media kommunikatsiyada gender stereotiplari an'anaviy ko'rinishini saqlab qolish bilan birga, yangi ijtimoiy va kommunikativ sharoitlar ta'sirida funksional jihatdan o'zgarib bormoqda. Raqamli media muhitida gender obrazlari yangi lingvistik va multimodal vositalar orqali ifodalanib, ijtimoiy identifikatsiya hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bois media diskursida gender stereotiplarining yangi shakllari va ularning funksional xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslik, sotsiolingvistika va media tadqiqotlari uchun dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beauvoir, S. de. The Second Sex. — New York: Vintage Books, 1949.
2. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. — New York: Routledge, 1990.
3. Fairclough, N. Media Discourse. — London: Edward Arnold, 1995.
4. Tannen, D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. — New York: William Morrow, 1990.
5. Kirilina, A. V. Gender: lingvisticheskie aspekty. — Moskva: Institut sotsiologii RAN, 1999. — S. 45–52.
6. Connell, R. W. Masculinities. 2nd Edition. — Berkeley: University of California Press, 2005. — pp. 71–74.
7. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York: Routledge, 1990. — pp. 33–34.

Dilnoza RAXIMOVA,

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti

"Chet tillar" kafedrasida o'qituvchisi

TDU, "Chet tillar" kafedrasida dotsenti, PhD

Sh.A.Bekmurotova taqrizi asosida

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA ADAPTIV-INTEGRATIV O'QITISH YONDASHUVI VA NOFILOLOGIK TALABALARDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR TIZIMI

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida adaptiv-integrativ o'qitish yondashuvining nazariy-metodologik asoslari hamda uning nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda uchraydigan lingvistik, psixologik, motivatsion, metodik, texnologik va kasbiy qiyinchiliklar tizimli ravishda tavsiflanib, ularni bartaraf etishning adaptiv mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, adaptiv-integrativ yondashuv raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari hamda ESP metodikasi bilan uyg'unlashgan holda talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: adaptiv o'qitish, integrativ yondashuv, raqamli ta'lim muhiti, ESP, nofilologik talabalar, kommunikativ kompetensiya, sun'iy intellekt, LMS, adaptiv ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi.

Аннотация: в статье рассматриваются теоретико-методологические основы адаптивно-интегративного подхода к обучению в цифровой образовательной среде и его значение в процессе обучения иностранному языку студентов нефилологических направлений. Проанализирована система лингвистических, психологических, мотивационных, методических, технологических и профессиональных трудностей, возникающих у студентов, а также предложены адаптивные механизмы их преодоления. Результаты исследования показывают, что интеграция цифровых платформ, технологий искусственного интеллекта и методики ESP способствует развитию коммуникативной компетенции студентов, формированию индивидуальной образовательной траектории и повышению качества обучения.

Ключевые слова: адаптивное обучение, интегративный подход, цифровая образовательная среда, ESP, студенты нефилологических направлений, коммуникативная компетенция, искусственный интеллект, LMS, индивидуальная образовательная траектория.

Annotation: this article examines the theoretical and methodological foundations of the adaptive-integrative teaching approach in the digital learning environment and its significance in foreign language instruction for non-philological university students. The study analyzes linguistic, psychological, motivational, methodological, technological, and professional learning difficulties experienced by students and proposes adaptive mechanisms for overcoming these challenges. The findings indicate that integrating digital platforms, artificial intelligence technologies, and the ESP approach contributes to developing communicative competence, supporting individualized learning pathways, and improving the overall quality of higher education.

Key words: adaptive learning, integrative approach, digital learning environment, ESP, non-philological students, communicative competence, artificial intelligence, learning management systems, personalized learning.

Jahon oliy ta'lim tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya ta'lim mazmuni, metodlari va texnologiyalarini tubdan yangilash zarurati yuzaga keltirdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, bulutli platformalar, adaptiv o'quv tizimlari va ta'limni boshqarish tizimlarining (Learning Management Systems – LMS) keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayoni an'anaviy auditoriya modeli doirasidan chiqib, moslashuvchan, shaxsga yo'naltirilgan

hamda individual ehtiyojlarni hisobga oluvchi yangi pedagogik paradigmaga o'tmoqda.

Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda ta'limning samaradorligi nafaqat o'quv materialining mazmuniga, balki talabani individual xususiyatlari, bilim darajasi, o'quv ehtiyojlari, motivatsiyasi va kasbiy faoliyatiga moslashtirilgan metodik yechimlarga ham bog'liq ekanligi alohida ta'kidlanmoqda. Shu nuqtai nazardan adaptiv-integrativ o'qitish yondashuvi oliy ta'limning

dolzarb metodik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Adaptiv-integrativ yondashuvning asosiy mohiyati o'quv jarayonini talabning individual imkoniyatlariga moslashtirish bilan bir qatorda, turli pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, fanlararo integratsiya hamda kasbiy kompetensiyalarni yagona didaktik tizim asosida uyg'unlashtirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv ayniqsa nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun muhim hisoblanadi, chunki ular xorijiy tilni lingvistik maqsadlarda emas, balki kelajakdagi kasbiy faoliyat vositasi sifatida o'rganadilar.

Bugungi kunda arxitektura, muhandislik, qurilish, axborot texnologiyalari va boshqa texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida qator murakkab muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida umumiy til tayyorgarligining pastligi, kasbiy terminologiyaning murakkabligi, muloqot amaliyotining yetishmasligi, o'quv motivatsiyasining pasayishi, auditoriya soatlarining cheklanganligi, o'qitish metodlarining individual ehtiyojlarga yetarli darajada moslashmaganligi hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarining turlicha rivojlanganligi alohida ajralib turadi.

Mazkur muammolarni an'anaviy reproduktiv o'qitish metodlari yordamida bartaraf etish tobora qiyinlashmoqda. Shu sababli raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlarini adaptiv pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifaga aylanmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari, LMS platformalari, adaptiv gipermedia, virtual simulyatsiyalar va analitik monitoring vositalari talabalarning bilim darajasini doimiy tahlil qilish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish hamda o'qitish jarayonini real vaqt rejimida moslashtirish imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya ta'lim jarayonining barcha komponentlarini yangicha tashkil etishni talab qilmoqda. Xususan, ta'lim mazmunini individuallashtirish, o'quv faoliyatini moslashtirish hamda talabalarning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish metodikasini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor

yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan adaptiv-integrativ o'qitish yondashuvi raqamli ta'lim muhitida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik tizim sifatida shakllanmoqda.

"Adaptiv" tushunchasi lotincha *adaptatio* – moslashish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ta'lim jarayonini talabning individual xususiyatlari, bilim darajasi, o'quv ehtiyojlari, qobiliyati va o'zlashtirish sur'atiga moslashtirishni anglatadi. Integrativ yondashuv esa turli fanlar, metodlar, pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning o'zaro uyg'unlashgan holda yagona didaktik tizimni tashkil etishini nazarda tutadi. Mazkur ikki yondashuvning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan adaptiv-integrativ o'qitish modeli talabning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan zamonaviy ta'limni ta'minlaydi.


Raqamli ta'lim muhiti ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik platformani yaratadi. Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canvas, Padlet, Quizizz, Canva kabi platformalar o'quv materiallarini boshqarish, individual topshiriqlarni tashkil etish, bilimlarni baholash va o'quv jarayonini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu platformalar yordamida o'qituvchi har bir talabning o'zlashtirish darajasi, faoliyati va qiyinchiliklarini kuzatib borishi hamda zarur hollarda ta'lim mazmunini moslashtirishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi adaptiv o'qitish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Al asosidagi tizimlar talabalar faoliyati haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ularning bilim darajasini aniqlaydi, o'zlashtirishdagi bo'shliqlarni belgilaydi va individual tavsiyalar ishlab chiqadi. Natijada ta'lim jarayoni bir xil mazmundagi standart darslardan shaxsga yo'naltirilgan, dinamik va moslashuvchan o'qitish modeliga o'tadi.

Tahlillar natijasida nofilologik yo'nalish talabalari xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida lingvistik, psixologik, motivatsion, metodik hamda texnologik xarakterdagi qator qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi. Ushbu muammolarni an'anaviy o'qitish metodlari orqali to'liq bartaraf etish imkoniyati cheklanganligi sababli adaptiv-integrativ yondashuvni raqamli ta'lim muhitiga tatbiq etish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеев Н.А. Адаптивные образовательные технологии в высшей школе. – М.: Юрайт, 2021. – 318 с.
2. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – 3rd ed. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2022. – 726 p.
3. Brusilovsky P. Adaptive Hypermedia // User Modeling and User-Adapted Interaction. 2001. – Vol. 11. – № 1–2. – P. 87–110.
4. Dabbagh N., Fake H. College Students' Perceptions of Personal Learning Environments // Educational Technology Research and Development. 2017. – Vol. 65. – № 1. – P. 19–38.
5. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2022. – 48 p.
6. Абдуқодиров А.А. Таълимда ахборот технологиялари. – Тошкент: Фан, 2020. 312 б.
7. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. 240 б.



TADQIQOTLAR

Elbek KURBANOV,

Andijon davlat chet tillari instituti

kurbanov_elbek@yahoo.comORCID ID: <https://orcid.org/0009-0001-1640-9404>

SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslari fanlararo yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sud lingvistik ekspertizasida semantik, pragmatik va diskursiv tahlil usullarining o'zaro integratsiyasi yoritilib, ekspertiza jarayonini izchil tashkil etishga xizmat qiluvchi integral metodologik model taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud lingvistik ekspertizasi, yurislingvistika, metodologiya, semantik tahlil, pragmatik tahlil, diskursiv tahlil, ekspert interpretatsiyasi, kommunikativ tahlil, metodologik model, fanlararo yondashuv.

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и методологические основы судебно-лингвистической экспертизы с междисциплинарной точки зрения. Рассматривается интеграция методов семантического, прагматического и дискурсивного анализа в рамках судебно-лингвистической экспертизы и предлагается интегральная методологическая модель для облегчения систематической организации процесса экспертной оценки. Результаты исследования способствуют повышению научной обоснованности и надежности экспертных заключений.

Ключевые слова: судебно-лингвистическая экспертиза, судебная лингвистика, методология, семантический анализ, прагматический анализ, дискурсивный анализ, экспертная интерпретация, коммуникативный анализ, методологическая модель, междисциплинарный подход.

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of forensic linguistic expertise from an interdisciplinary perspective. It examines the integration of semantic, pragmatic, and discursive analysis methods within forensic linguistic expertise and proposes an integral methodological model to facilitate the systematic organization of the expert examination process. The research findings contribute to enhancing the scientific validity and reliability of expert conclusions.

Key words: forensic linguistic expertise, forensic linguistics, methodology, semantic analysis, pragmatic analysis, discursive analysis, expert interpretation, communicative analysis, methodological model, interdisciplinary approach.

Kirish. Sud lingvistik ekspertizasi tilshunoslik va huquqshunoslik tutashgan nuqtada shakllangan fanlararo ilmiy yo'nalish bo'lib, huquqiy ahamiyatga ega matnlarni ilmiy asosda tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Raqamli kommunikatsiyaning kengayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan nizoli matnlarning ortishi ekspertiza metodologiyasini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish, lingvistik tahlil metodlarining o'zaro integratsiyasini aniqlash hamda ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydigan metodologik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinib, ekspertiza jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi integral metodologik yondashuv asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslarini fanlararo yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqotning metodologik negizini yurislingvistika, pragmalingvistika, matn lingvistikasi, diskurs tahlili va kognitiv tilshunoslikning nazariy tamoyillari tashkil etdi [2, 5, 15.].

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, semantik, pragmatik, diskursiv tahlil hamda lingvistik interpretatsiya metodlaridan

kompleks foydalanildi. Tavsifiy va qiyosiy-tipologik metodlar sud lingvistik ekspertizasiga oid ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda metodologik yondashuvlarni qiyoslash imkonini berdi. Semantik tahlil til birliklarining huquqiy ahamiyatga ega ma'no xususiyatlarini, pragmatik tahlil esa nutqning kommunikativ maqsadi, implitsit mazmuni va adresatga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi [7,8.]. Diskursiv tahlil konfliktli matnlarning kommunikativ tuzilishi va kontekstning rolini, lingvistik interpretatsiya esa til birliklari hamda ekstralingvistik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishda qo'llanildi [4, 11.].

Tadqiqot materiali sifatida sud lingvistik ekspertizasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar hamda huquqiy ahamiyatga ega matnlar tahlil qilindi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, sud lingvistik ekspertizasining nazariy asoslarini tizimlashtirish va metodologik tamoyillarini aniqlashga xizmat qildi [1, 9].

Tadqiqot natijalari. Tahlillar sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslari fanlararo va kompleks yondashuvga tayanishini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, til birliklarini faqat leksik yoki grammatik jihatdan tavsiflash ekspertiza uchun yetarli emas. Ilmiy asoslangan ekspert xulosasi semantik, pragmatik, diskursiv va kommunikativ tahlil natijalarining o'zaro integratsiyasi orqali shakllanadi [5, 15–23-b.; 7, 109–131-b.].

Tadqiqot davomida sud lingvistik ekspertizasining integral metodologik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ekspertiza jarayonini o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat yagona tizim sifatida talqin qiladi. Qiyosiy tahlillar semantik, pragmatik va

diskursiv metodlarning alohida qo'llanilishi ekspert xulosasining to'liq ilmiy asoslanganligini ta'minlamasligini, ularning kompleks qo'llanilishi esa tahlilning aniqligi va ishonchligini oshirishini ko'rsatdi.

1-jadval. Sud lingvistik ekspertizasining integral metodologik modeli

Tahlil obyekti	Asosiy metod	Natija
Til birliklari	Leksik-semantik tahlil	Ma'no va huquqiy ahamiyat aniqlanadi
Nutq	Pragmalingvistik tahlil	Kommunikativ maqsad va implitsit mazmun belgilanadi
Diskurs	Diskursiv va kontekstual tahlil	Vaziyat hamda kontekst ta'siri baholanadi
Ekspert xulosasi	Kompleks interpretatsiya	Ilmiy asoslangan ekspert xulosasi shakllantiriladi

Taklif etilgan model asosida ekspertiza jarayonining algoritmik ketma-ketligi ishlab chiqildi. Unda har bir bosqich keyingi bosqich uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa ekspert interpretatsiyasining izchilligini ta'minlab, subyektiv talqin ehtimolini kamaytiradi. Olingan natijalar integral metodologik yondashuv sud lingvistik ekspertizasining nazariy asoslarini tizimlashtirish, ekspert tahlilini standartlashtirish hamda lingvistik dalillarni huquqiy baholashning yagona mexanizmini shakllantirish imkonini berishini ko'rsatdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari sud lingvistik ekspertizasining metodologik asoslari fanlararo yondashuvga tayanishini tasdiqladi. Aniqlanishicha, semantik, pragmatik va diskursiv tahlilning kompleks qo'llanilishi ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi hamda ishonchligini ta'minlaydi [5, 7.]

Taklif etilgan integral metodologik model mavjud yondashuvlardan metodlarning yagona tizimga birlashtirilgani bilan farqlanadi. Bunday yondashuv lingvistik tahlil, kommunikativ interpretatsiya va huquqiy baholash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda ekspert tahlilining izchilligini oshiradi [2.; 8..]

Shuningdek, raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi sud lingvistik ekspertizasining tadqiqot obyektlarini kengaytirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va multimodal matnlarning ko'payishi an'anaviy ekspertiza metodlarini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois korpus lingvistikasi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan matn tahlili imkoniyatlarini sud lingvistik ekspertizasi metodologiyasiga integratsiya qilish ushbu yo'nalishning istiqbolli vazifalaridan biri hisoblanadi [10, 11.].

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati sud lingvistik ekspertizasida semantik,

pragmatik va diskursiv tahlil usullarini yagona metodologik tizimga birlashtiruvchi integral model ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv ekspert interpretatsiyasining ilmiy mezonlarini aniqlashtirish hamda lingvistik va huquqiy baholash o'rtasidagi bog'liqlikni izohlash imkonini beradi.

Tadqiqotning *amaliy ahamiyati* ishlab chiqilgan modelni konfliktli matnlar, haqorat, tuhmat, tahdid va nafrat nutqini ekspertizadan o'tkazishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Natijalardan sud ekspertlari, filolog-ekspertlar hamda *"Sud lingvistik ekspertizasi"*, *"Yurislingvistika"*, *"Pragmalingvistika"* va *"Diskurs tahlili"* fanlarini o'qitishda metodik manba sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot sud lingvistik ekspertizasining nazariy-metodologik asoslarini tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijasida sud lingvistik ekspertizasi semantik, pragmatik va diskursiv tahlilning integratsiyasiga asoslangan fanlararo yo'nalish ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan integral metodologik model ekspertiza jarayonini izchil tashkil etish, ekspert interpretatsiyasining obyektivligi va ilmiy ishonchligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Qiyosiy tahlillar kompleks yondashuv alohida metodlarga tayangan mavjud modellarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya va multimodal diskurslarning kengayishi sud lingvistik ekspertizasi metodologiyasini takomillashtirish zaruratini kuchaytirayotgani aniqlandi. Taklif etilgan model sud lingvistik ekspertizasi amaliyotida, ilmiy tadqiqotlarda hamda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonida metodik asos sifatida qo'llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London: Routledge, 2010. 290 p.
2. Coulthard M., May A. (Eds.). The Routledge Handbook of Forensic Linguistics. – 2nd ed. – London: Routledge, 2020. 624 p.
3. Olsson J. Forensic Linguistics. – 2nd ed. – London: Continuum, 2008. 312 p.
4. Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago: University of Chicago Press, 2005. 320 p.
5. Tiersma P.M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. 337 p.
6. Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. – Oxford: Blackwell, 2003. 352 p.
7. Shuy R.W. Linguistics in the Courtroom. – Oxford: Oxford University Press, 2006. 208 p.
8. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. 168 p.
9. Searle J.R. Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
10. van Dijk T.A. Discourse and Context. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. 267 p.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMALARIDA AYOLLAR OBRAZINING TIPOLOGIYASI VA POETIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasida yaratilgan ayollar obrazlarining tipologik va poetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi dramaturgning “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi” hamda “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi” dramalari misolida ayol obrazlarining badiiy talqinini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, poetik tahlil, tarixiy-qiyosiy hamda germinenvtik metodlardan foydalanildi. Natijada Hamza dramaturgiyasidagi ayol obrazlari ma’rifatparvar, jabrdiyda, kurashchi va ijtimoiy faollik timsollari sifatida namoyon bo’lishi aniqlandi. Muallif ayol qahramonlar xarakterini dialog, monolog, konflikt va ramziy detallar vositasida badiiy mukammallashtirgani ko’rsatildi. Tadqiqot natijalari jadid dramaturgiyasida ayol obrazlari poetikasini o’rganishda muhim ilmiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *Hamza Hakimzoda Niyoziy, dramaturgiya, ayollar obrazi, tipologiya, poetika, jadid adabiyoti, konflikt, gender, badiiy obraz.*

Аннотация: в данной статье исследуются типологические и поэтические особенности женских образов, созданных в драматургии Хамзы Хакимзаде Ниязи. Основная цель исследования заключается в раскрытии художественной интерпретации женских персонажей на материале драм «Ядовитая жизнь, или Жертвы любви», «Дело Майсары» и «Один эпизод из тайн паранджи, или Дело яллачи». В ходе исследования использованы сравнительно-типологический, поэтический, историко-сравнительный и герменевтический методы анализа. В результате установлено, что женские образы в драматургии Хамзы представлены как символы просвещения, жертвенности, борьбы и социальной активности. Показано, что драматург раскрывает характеры своих героинь посредством диалогов, монологов, драматического конфликта и системы символических художественных деталей. Полученные результаты вносят вклад в изучение поэтики женских образов в джадидской драматургии и могут служить теоретической основой для дальнейших исследований в области узбекского литературоведения.

Ключевые слова: *Хамза Хакимзаде Ниязи, драматургия, женские образы, типология, поэтика, джадидская литература, конфликт, гендер, художественный образ.*

Annotation: this article examines the typological and poetic features of female characters in the dramas of Hamza Hakimzoda Niyoziy. The study focuses on Poisonous Life or Victims of Love, Maysara’s Case, and A Scene from Behind the Veil or The Case of the Female Entertainers. Comparative-typological, historical-comparative, hermeneutic, and poetic analysis methods were employed. The findings reveal that Hamza portrays women as symbols of enlightenment, social struggle, victimhood, and moral courage. The study also demonstrates that the playwright develops female characters through dialogue, monologue, conflict, and symbolic artistic devices. The results contribute to the study of female character poetics in Jadid drama.

Key words: *Hamza Hakimzoda Niyoziy, drama, female characters, typology, poetics, Jadid literature, conflict, gender.*

Kirish (Introduction). XX asr boshlarida o’zbek adabiyotida yuz bergan jadidchilik harakati milliy tafakkur va badiiy ijod taraqqiyotida muhim bosqichni boshlab berdi. Bu davr adiblari jamiyat taraqqiyotiga to’squinlik qilayotgan ijtimoiy muammolarni, xususan, savodsizlik, eskicha urf-odatlar, xotin-qizlar huquqsizligi va diniy mutaassiblikni badiiy asarlar orqali tanqid qildilar. Mazkur jarayonda Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturg sifatida alohida o’rin egallaydi.

Hamza dramaturgiyasining muhim jihatlaridan biri ayol obrazlarini zamon ruhiga mos ravishda yangicha talqin qilganidadir. Uning dramalarida ayol faqat oilaviy munosabatlar ishtirokchisi sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun kurashuvchi, ma’rifat tarafdori va insoniy qadr-qimmat sohibasi sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi” hamda “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi” dramalarida ayollar obrazlari ijtimoiy adolatsizlikni ochib beruvchi asosiy badiiy vositaga aylangan.

Hamza dramaturgiyasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ayollar obrazlarining tipologiyasi va poetik xususiyatlarini kompleks ravishda tahlil qilish masalasi huzur dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda gender tadqiqotlari, poetik tahlil va tipologik yondashuvlarning rivojlanishi ushbu masalani yangi metodologik asoslarda qayta ko'rib chiqish imkonini bermoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Hamza Hakimzoda Niyoziy dramalarida ayollar obrazlarining tipologik guruhlari hamda ularning poetik xususiyatlarini aniqlash, obraz yaratish vositalari va ularning badiiy-estetik funksiyasini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari jadid dramaturgiyasida ayol obrazlari evolyutsiyasini chuqurroq anglashga hamda Hamza dramaturgiyasining badiiy xususiyatlarini yangi ilmiy yondashuvlar asosida baholashga xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar (Materials and methods).

Mazkur tadqiqotning asosiy manbalarini Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari", "Maysaraning ishi" hamda "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" dramalari tashkil etadi. Mazkur asarlar Hamza dramaturgiyasida ayollar obrazining badiiy talqini, ijtimoiy vazifasi va poetik xususiyatlarini o'rganish uchun asosiy matn sifatida tanlandi. Shuningdek, jadid adabiyoti, dramaturgiya nazariyasi, poetika, gender adabiyotshunosligi hamda badiiy obraz muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar ham nazariy manba sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyyosiy metod. Ushbu metod orqali Hamza dramaturgiyasining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar, jadidchilik harakatining ma'rifiy g'oyalari hamda XX asr boshlarida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi o'rganildi. Dramalarda aks etgan ayollar obrazlari o'sha davr tarixiy voqeligi bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Tipologik metod. Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida ayollar obrazlarini xarakteri, ijtimoiy mavqei, badiiy vazifasi va g'oyaviy yukiga ko'ra guruhlarga ajratish amalga oshirildi. Natijada Hamza dramalaridagi ayol qahramonlar ma'rifatparvar ayol, jabrdiyda ayol, kurashchi ayol va ijtimoiy faol ayol kabi tipologik guruhlarga ajratildi.

Poetik tahlil metodi. Dramalarda ayol obrazlarini yaratishda qo'llangan badiiy vositalar – dialog, monolog, konflikt, ramziy detallar, portret, nutq individualligi va kompozitsion yechimlar tahlil qilindi. Bu metod orqali

muallifning obraz yaratish mahorati va individual uslubi ochib berildi.

Germenevtik metod. Asar matni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qayta talqin qilinib, ayollar obrazlarining ichki ma'naviy dunyosi, ruhiy kechinmalari va g'oyaviy mazmuni izohlandi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik metodi. Hamza yaratgan ayollar obrazlari o'zbek jadid dramaturgiyasidagi boshqa ayol obrazlari bilan qiyoslandi. Bu orqali dramaturgning milliy dramaturgiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va badiiy yangiliklari aniqlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy poetika nazariyasi, obrazlar tipologiyasi, gender adabiyotshunosligi hamda badiiy matn tahliliga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tahlillar davomida ilmiy xolislik, tizimlilik va matnga tayangan holda xulosa chiqarish tamoyillariga amal qilindi.

Mazkur metodlarning o'zaro uyg'unligi Hamza dramaturgiyasida ayollar obrazining tipologik xususiyatlari va poetik tabiati haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Natijalar (results). Tadqiqot natijalari Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasida ayollar obrazi tasviri tasodifiy emas, balki muallifning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda yaratilgan yaxlit badiiy tizim ekanligini ko'rsatdi. Tahlil qilingan dramalarda ayollar syujet rivojini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki ijtimoiy muammolarni ochib beruvchi va muallif g'oyasini ifodalovchi markaziy obrazlar hisoblanadi.

1.1 Ayollar obrazining tipologiyasi

Tahlil natijasida Hamza dramalaridagi ayol obrazlarini quyidagi tipologik guruhlarga ajratish mumkin:

1. **Jabrdiyda ayol obrazi.** Ushbu tipdagi qahramonlar eskicha urf-odatlar, majburiy nikoh, ijtimoiy tengsizlik va ayollarning huquqsizligi oqibatida azob chekadi. Ayniqsa, "Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari" dramasida ayol taqdiri fojiali tus oladi. Muallif shaxsiy baxtidan mahrum etilgan ayol hayoti orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlikni fosh etadi.

2. **Kurashchi ayol obrazi.** "Maysaraning ishi" dramasidagi Maysara obrazi Hamza dramaturgiyasidagi eng faol va jasoratli ayol timsolidir. U aql-zakovati, topqirligi va qat'iyati bilan adolatsizlikka qarshi kurashadi. Maysara obrazida ayolning nafaqat oiladagi, balki jamiyatdagi faol mavqeyi ham ifodalanadi.

3. **Ma'rifatparvar ayol obrazi.** Hamza dramalarida ilmiy, ongli va zamonaviy fikrlovchi ayol obrazi

jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin qilinadi. Bunday qahramonlar eskilikka qarshi ma’rifat bilan kurashadi va yangi hayot g’oyalarini qo’llab-quvvatlaydi.

4. **Ijtimoiy faol ayol obrazi.** “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi” dramasida ayollar faqat shaxsiy hayot doirasida emas, balki jamiyatdagi o’zgarishlarning faol ishtirokchilari sifatida tasvirlanadi. Ularning erkinlikka intilishi muallifning ijtimoiy qarashlarini ifodalaydi.¹

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, Hamza ayol obrazlarini yaratishda bir qator poetik vositalardan samarali foydalangan.

Birinchidan, dialog ayol qahramonlarning xarakterini ochishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Dialoglar orqali qahramonlarning dunyoqarashi, ruhiy holati va jamiyatga munosabati ochiladi.

Ikkinchidan, konflikt ayol obrazlarining ichki va tashqi kurashini ifodalaydi. Hamza dramalarida ayol qahramonlar ko’pincha eski dunyo bilan yangi tafakkur o’rtasidagi ziddiyat markazida turadi.

Uchinchidan, monologlar qahramonlarning ichki kechinmalarini yoritishda muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Monologlar orqali ayollarning iztirobi, umidi va kelajakka bo’lgan ishonchi badiiy jihatdan kuchli ifodalanadi.

To’rtinchidan, dramaturg ramziy detallar va sahna vositalari orqali ayollarning ruhiy holatini chuqurlashtiradi. Paranji, uy muhiti va turli maishiy detallar oddiy predmet emas, balki ayollarning ijtimoiy ahvoli va erkinlikka intilishining ramzi sifatida talqin etiladi.

1.2. Tadqiqotning ilmiy natijalari

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Hamza dramaturgiyasida ayollar obrazi markaziy poetik kategoriya sifatida shakllangan.
2. Ayol obrazlari ijtimoiy vazifasi va badiiy funksiyasiga ko’ra bir necha tipologik guruhlariga ajraladi.
3. Dramaturg obraz yaratishda dialog, monolog, konflikt va ramziy detallardan tizimli ravishda foydalangan.
4. Hamza yaratgan ayol qahramonlar jadid dramaturgiyasida yangi badiiy-estetik bosqichni boshlab bergan.
5. Ayollar obrazi orqali muallif ma’rifat, adolat va inson erkinligi g’oyalarini ilgari surgan.

¹ Hamza Hakimzoda Niyoziy. (1988). To’la asarlar to’plami (2-jild). Toshkent: Fan.

Muhokama(discussion). Tadqiqot natijalari Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasida ayollar obrazi tasviri faqat ijtimoiy muammolarni yoritishga xizmat qilmay, balki muallifning estetik idealini ifodalovchi muhim badiiy kategoriya ekanligini ko’rsatdi. Dramalarda ayol obrazlari syujet rivojining faol ishtirokchisi bo’lib, konfliktning shakllanishi va yechimida hal qiluvchi o’rin egallaydi.²

Avvalgi ilmiy tadqiqotlarda Hamza dramaturgiyasi asosan jadidchilik mafkurasi, ma’rifatparvarlik g’oyalari va ijtimoiy tanqid nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Biroq ayollar obrazining tipologik tizimi hamda poetik qurilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatni tizimli ravishda tahlil qilishi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari” dramasida ayol obrazi fojiali taqdir timsoli sifatida gavdalansa, “Maysaraning ishi” dramasida Maysara mutlaqo yangi tipdagi faol va tashabbuskor ayol qahramon sifatida namoyon bo’ladi. “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi” dramasida esa ayollar obrazi ijtimoiy erkinlik va ma’rifat g’oyalari bilan uzviy bog’langan holda tasvirlanadi. Bu esa Hamza dramaturgiyasida ayol obrazlarining evolyutsion taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi.

Poetik tahlil natijalari Hamzaning obraz yaratish uslubi dialog va konflikt tizimiga asoslanganini ko’rsatdi. Dialoglar qahramonlarning dunyoqarashi va xarakterini ochishga xizmat qilsa, konflikt eski va yangi dunyoqarash o’rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Monologlar esa ayol qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalarini ochib beruvchi muhim poetik vosita sifatida qo’llanilgan.

Shuningdek, dramaturg ramziy detallar orqali ayollarning ijtimoiy holatini badiiy umumlashtirishga erishadi. Paranji, oila muhiti, sud va mahalla kabi makonlar nafaqat voqea sodir bo’ladigan joy, balki ayol erkinligi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ramziy ifodasi sifatida ham talqin qilinadi. Bu jihat Hamza dramaturgiyasining poetik imkoniyatlarini yanada boyitadi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy gender adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hamza yaratgan ayol qahramonlar o’z davri uchun yangicha tafakkur egasi sifatida tasvirlangan bo’lib, ular jamiyatdagi o’zgarishlarning faol subyektiga aylantirilgan. Shu bois dramaturg ayol

² Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989

obrazini faqat maishiy muammolar bilan cheklamay, uni milliy uygʻonish va maʼrifat gʻoyalarining tashuvchisi darajasiga koʻtargan.³

Demak, olib borilgan tahlillar Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasida ayollar obrazining tipologiyasi va poetik xususiyatlari oʻzbek jadid dramaturgiyasi taraqqiyotida muhim estetik hodisa ekanini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar kelgusida jadid dramaturgiyasida gender masalalari, obraz poetikasi hamda qiyosiy dramaturgiya yoʻnalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa (conclusion). Mazkur tadqiqot Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasida ayollar obrazining tipologiyasi va poetik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida dramaturg yaratgan ayol qahramonlar nafaqat syujet rivojining muhim tarkibiy qismi, balki asarning gʻoyaviy-badiiy mazmunini ochib beruvchi asosiy estetik vosita ekanligi aniqlandi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Hamza dramalaridagi ayol obrazlarini jabrdiyda ayol, maʼrifatparvar ayol, kurashchi ayol va ijtimoiy faol ayol kabi tipologik guruhlarga ajratish mumkin. Mazkur tiplar dramaturgning xotin-qizlar taqdiri, ularning jamiyatdagi oʻrni hamda insoniy qadr-qimmatiga oid qarashlarini badiiy jihatdan ifodalashga xizmat qiladi.

³ Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.

Tadqiqot davomida Hamza obraz yaratishda dialog, monolog, konflikt, ramziy detal va kompozitsion yechimlardan mahorat bilan foydalangani aniqlandi. Ushbu poetik vositalar ayol qahramonlarning individual xarakterini, ruhiy olamini hamda ijtimoiy mavqeini ochishda muhim badiiy funktsiyani bajaradi. Ayniqsa, “Maysaraning ishi” dramasidagi Maysara obrazi oʻzbek dramaturgiyasida faol va mustaqil fikrlovchi ayol timsolining yorqin namunasi sifatida ajralib turadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Hamza dramaturgiyasida ayollar obrazi evolyutsion taraqqiyotga ega ekanini koʻrsatdi. “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari” dramasida ayolning fojiali taqdiri markazga qoʻyilgan boʻlsa, keyingi dramalarda u jamiyatdagi oʻzgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Bu holat dramaturgning estetik qarashlari va jadidchilik gʻoyalarining rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi Hamza dramaturgiyasidagi ayollar obrazlari ilk bor tipologik va poetik jihatdan oʻzaro bogʻliq holda kompleks tahlil qilinganidadir. Olingan natijalar jadid dramaturgiyasini, gender adabiyotshunosligini hamda obraz poetikasini oʻrganishga oid ilmiy tadqiqotlarni yangi nazariy xulosalar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Toʻla asarlar toʻplami (2-jild). –Toshkent: Fan, 1988.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Toʻla asarlar toʻplami (3-jild). –Toshkent: Fan, 1988.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Toʻla asarlar toʻplami (4-jild: Dramalar va maqolalar). –Toshkent: Fan, 1988.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.
5. Qosimov, B. Milliy uygʻonish: Jasorat, maʼrifat, fidoyilik. –Toshkent: Maʼnaviyat, 2002.
6. Karimov, N. XX asr oʻzbek adabiyoti. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1999.
7. Rahmonov, M. Hamza Hakimzoda Niyoziy va oʻzbek teatri. –Toshkent, 1959
8. Sultonov, Y. Hamza. –Toshkent, 1979.
9. Qayumov, L. Saylanma (2 jild). –Toshkent. 1983.
10. Hamza Hakimzoda ijodi problemalari. –Toshkent: Fan, 1990.
11. Rajabov, A. Oʻzbek dramaturgiyasi tarixi. –Toshkent: Fan, 1985.
12. Oʻzbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Fan, 2006.
13. Qosimova, R. Oʻzbek dramatik asarlarida obrazlar nutqi. –Toshkent: Fan, 1998.
14. Tursunov, T. Oʻzbek teatr tarixi. –Toshkent: Art Press, 2010.
15. Sharafiddinov, O. Jadidlar haqida mulohazalar. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1993.
16. Boltaboyeva, G. Hamza ijodida mumtoz sheʼriyat anʼanalari. OʻzMU xabarlari. 2024.
17. Usmonbekova, E. Hamza Hakimzoda Niyoziy dramalarida ijtimoiy muammolarning badiiy talqini. Taʼlim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2026

Tursunoy JARKINOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'DJTU katta o'qituvchisi
tursunoyjarkinova@gmail.com



BOTIRXON AKROMOV VA MIXLI SAFAROV TADQIQOTLARIDA 60-70-YILLAR SHE'RIYATI TALQINI

Annotatsiya: 60-70-yillar she'riyati xususida bir necha munaqqidlar tadqiqot olib borgan. Ushbu maqolada B.Akromov va M.Safarovning ushbu davr she'riyatiga xolis munosabati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *lirik portret, poetik usul, ranglar simbolikasi, konflikt, folklor*

Аннотация: ряд критиков проводили исследования поэзии 1960-х и 1970-х годов. В данной статье рассматриваются объективные взгляды Б. Акромов и М. Сафарова на поэзию этого периода.

Ключевые слова: *лирический портрет, поэтический метод, цветовая символика, конфликт, фольклор.*

Annotation: several critics have conducted research on the poetry of the 1960s and 1970s. This article examines the objective perspectives of B. Akromov and M. Safarov regarding the poetry of this period.

Key words: *lyrical portrait, poetic method, color symbolism, conflict, folklore.*

Akromov Botirxon uning lirik portret yaratish borasidagi mahorati haqida: "Umuman, A.Oripov she'riyati chuqur podkastga, ko'p qirrali-polisemik ma'nolarga ega bo'lgan obrazlari, shu jumladan, obraz – portretlari bilan ajralib turadi. Uning "Alloma", "Alisher", "Bag'ishlov", "Mayakovskiyga", Nekrasov hasrati", "Hamza monologi", "General", "Otello", "Alvido, ustoz!", "Hamid Olimjon xotirasiga", "Karvon" kabi she'rlarida Beruniy, Navoiy, Gorkiy, Nekrasov, Mayakovskiy, Hamza, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirtemir, Sobir Rahimov, Abror Hidoyatov obrazlari – o'ziga xos, betakror lirik portretlari yaratiladi. Ularda ba'zan bevosita aniq, xarakterli faktlar badiiy o'zlashtirilsa, ba'zan bilvosita – shoirning o'sha aziz siymolar haqidagi o'y-xayollari umumlashtiriladi" [1:34], – deydi.

Shoir "Otello", "Alvido, ustoz" she'rlarida qahramon portretini hazin-foje' xarakterida chizib beradi. "Alvido, ustoz" dagi "Sarbonim, ne uchun ko'tarmaysan bosh... Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan o'zbek she'riyatini pahlavoniga...Yorug' bu olamda bormikin axir, Shoir vafotidan ortiqroq motam" satrlarida tragik ruhni shunday singdirganki, qahramonga ehtirom g'urur, faxr-iftixor tuyg'ulari bilan uyg'unlashib ketgan. Shoirning xotirasi nafaqat tasavvurimizda gavdalangan, balki qalbimizda mangu muhrlangan.

Muallif Rauf Parfining lirik portretlar yaratish mahoratini alohida baholaydi. Haqiqatdan ham, Rauf Parfi ijodida ham bashariyatning yetuk siymolariga bag'ishlab yaratilgan poetik obrazlarni uchratish mumkin. Uning "Nozimning sadosi", "Oybek xotirasiga", "Verlen", "Betxoven", "Bayronning so'nggi safari", "Aleksandr Ul'yanov", "Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv", "Yegishe Charens xotirasiga", "Pablo Neruda o'limiga", "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i" she'rlarida individual poetik usul yordamida lirik qahramonga chizgilar beradi. Musavvirona tasavvurlar va ranglar simbolikasi vositasida shoir o'zining tengsiz iste'dodini namoyish eta olgan.

Tadqiqotda lirik portretning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning aniq proobrazga ega bo'lishida deb belgilangan. Bu yerda masala faktlarning hujjatli aniqligida emas, balki uning badiiy o'zlashtirilishida, obraz-portretning muhim unsurga aylanishida, kitobxonning qalbida his-hayajonni uyg'otishdadir. Lirik obrazlarda shoir shaxsiyatini belgilaydigan xususiyatlar bilan zamondosh kechinmalari ifodalangan jihatlar uyg'unlashgan holatda bo'y ko'rsatadi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi lirik portretlari bu jihatdan o'z vazifasini bajargan deya olamiz.

Muallif lirik portretlarning adabiyotdagi o'rnini davrning yetakchi ijodkorlari, aniqrog'i, yoshlari misolida ochib beradi. Muallif Abdulla Oripov ijodiga alohida yondashadi: shoir she'rlarida poetik tafakkurning ikki muhim xususiyati sanalmish mazmundorlik va obrazlilik masalasi xususida to'xtaladi. Rauf Parfi ijodiga xos xususiyatlar sifatida esa uning she'riyatidagi chuqur o'ychanlik, ba'zan qattiq iztirobli, foje' kayfiyat ustun kelishi, klassik musiqa asarlaridagi sirli teranlikning uchrashi alohida ta'kidlanadi: "Rauf Parfi she'riyatida san'atning turli sohalariga oid badiiylilik elementlarini ilg'ab olish qiyin emas. Unda hayratomuz yorqin tasviriylilik – ranglar, chiziqlar, jilolar tiniqligi, nurlar, soyalar, ularning odatiy va odatdan tashqari ko'rinishlaridan ruhiyat manzaralarini chizish, bugina emas, olamning turli tovush-ohanglari, sado va aks-sadolarini ham o'sha tasviriylilik bilan suvratlash ajralib turadi. Faqat Raufga xos poetik tafakkur me'yori, mushohada tarzi go'yo imkonsiz tuyulgan joyda ajoyib bir imkoniyat yashiringanini badiiy kashf etishga qodir"[2:192].

XX asr 60-70-yillaridagi ijodiy jarayon qay tarzda kechganligi, badiiy ijod maydoniga kirib kelgan yangi avlod vakillarining yutuq va kamchiliklari xususida munaqqid Mixli Safarovning "Dunyo kirmoqdadir shoir qalbiga" risolasida alohida to'xtalib o'tilgan. U davrga xos bo'lgan bir necha xususiyatlarni sanab o'tadi.

Uning yozishicha, yoshlar she'riyati uchun internatsionalizm an'alarining ma'lum yo'nalishda davom etishi xos.

60-70-yillarda insonparvarlikka chorlovchi she'rlarning ko'plab yaratilishi ijtimoiy hayotdagi muhim tamoyillar adabiyotda ham o'z in'ikosini topayotganligidan dalolat beradi. Xususan, Erkin Vohidovning "Kavkaz she'rlari" turkumiga kiritilgan she'rlarida Ozarbayjon va Armanistonga qilgan safaridan olgan taassurotlari, qardosh xalqlarning tabiatiga muhabbat, ularning qahramonona yaratuvchilik faoliyatiga olqish ruhi ustuvor. "Fuzuliy haykali qoshida" she'rida shoirning ozarbayjon xalqining madaniyatiga ehtirom tuyg'usi yaqqol bo'y ko'rsatib turadi. Mavzular miqyosining kengayishi ham internatsionallikni boyitishga yuksak hissasini qo'shayotganligini Erkin Vohidov, Barot Boyqobilov, Husniddin Sharipov, Jamol Kamol, Muhammad Alining she'rlari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, Jamol Kamol:

Qalbingdagi o't-ku ganji muqaddas,

Qo'lingdagi o'tdan qo'rqaman, – deya hasratlanishida bashariyatning qalbidagi vayronkorlik tuyg'usidan tashvishda ekanligini sezamiz.

60-70-yillar yoshlar lirikasi uchun konfliktlikning jonlanishi, yangicha maqom kashf eta borishi xos. Uni munaqqid shunday asoslaydi: "Yoshlar she'riyatida konfliktlar rang-barang mazmunga va asosga ega. Ishqiy, intim kechinmalardagi ziddiyatli holatlardan tortib, umuminsoniy ahamiyatga ega siyosiy-g'oyaviy konfliktlar ham ular she'riyatida o'z ifodasini topayotir"[3:12]. Abdulla Oripov, Rauf Parfi she'rlarida esa o'zgacha tusdagi, ya'nikim, g'oyaviy asosi pishiq, pafosining yo'nalishi ayricha bo'lgan konflikt uchrashini ta'kidlaydi. Abdulla Oripovning "Uyqu" she'rida lirik qahramon bashariyat garchi fan-texnika taraqqiyotida yuksak maralarga erishayotgan bo'lsa-da, insoniylik nuqtayi nazaridan ancha ortda qolayotganligidan azoblanadi. Shu ikki narsani qarama-qarshi qo'yadi. Rauf Parfi esa "Kosmos" she'rida osmon faqat fan nuqtayi nazaridan o'rganiladigan narsa emas, tabiatning odamzod qalbiga zavq bag'ishlaydigan go'zal mo'jizalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shoirning e'tiqodiga ko'ra, insoniylik shaxs kamolotining birlamchi asoslaridan sanaladi.

Mixli Safarov yoshlar ijodida xalq poetik an'alariga moyillik ham ancha kuchli ekanligini aytib, savol-javob, shartlilik usullaridan mahorat bilan foydalanish ko'nikmalari ularda shakllanayotganidan mamnun bo'ladi: "Erkin Vohidov esa "Kosmonavt va shoir" she'rida xalq ertak va qo'shiqlarida ko'p uchraydigan shartli savol-javob usulidan foydalanadi. Ammo shoir xalq ijodidan faqat shu usulning o'zinigina olmagan, bu savol-javobga xos sodda, xalqchil ruhni ham saqlagan". Bunda shoir vatanga bo'lgan muhabbatini savol-javob zamiridagi

chuqur ma'no orqali anglashimiz mumkin, ya'niki shoir kosmosga uchadigan bo'lsa, yerdagi barcha go'zal narsalarni olishga qaror qiladi, ona yerdan bir siqim tuproq olmasdan fazolarga ham uchmasligini aytib o'tadi. She'rda yosh ijodkor qalbidagi vatanparvarlik, yurti sevishtuyg'ulari jo'sh urayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Abdulla Oripovda esa xalq ijodining g'oyaviy an'alariga moyillik ko'rinadi. Xalqning qahramonlari, ularning fazilatlarini aks etgan rivoyatlar, motivlarni qayta ishlaydi, undagi g'oyani rivojlantiradi. "Qasmdara" balladasida o'hu ketidan jarga sakragan pahlavonning ortga qaytishi uchun el oqsoqolining bergan odilona maslahati asqotadi. Donishmand aytgan bu usul ovchining daradan chiqishiga cheksiz kuch bag'ishlaydi. Bunda folklorga xos bo'lgan shartlilik usulidan o'rinli foydalanilganligini ko'ramiz. Bu she'rlardagi tabiiylik ularning yanada jozibali bo'lishiga, kitobxonga sodda va ravon tarzda tushunilishiga asos bo'lgan deya olamiz. Muhammad Alining "Yuragim" turkumiga kirgan o'n bir sakkizligida hayotga teran nigoh bilan qarayotgan, dunyoni falsafiy mushohada qilayotgan lirik qahramonning turli holati qalamga olinadi. Undagi bir sakkizlikda jahon adabiyotining nodir namunasi sanalmish Prometey rivoyati orqali odamlar qalbining ezgulikka ishonchi baland ekanligini aytadi. Jigarini tinmasdan cho'qiyotgan Prometeyning halok bo'lishiga odamlarning ishongisi kelmaydi:

Bizga ayon, burgut had bilmas,

Prometey ayon qolmog'i dushvor.

Lekin, ajab, bizlarning-chi burgutmas,

U insonga ishonchimiz ulug'vor.

Munaqqid Mixli Safarov "An'ana va an'anaviylik" maqolasida esa klassik she'riyatimizning g'azal, ruboiy, to'rtlik va fard kabi janrlarida o'z kuchini sinab ko'rayotgan yoshlar xususida fikr yuritadi. Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni"dagi lirik qahramon chuqur insoniy fazilatlarining egasi bo'lishi bilan birga ruhiy uyg'oq qalb sohibi hamdir. Muallif Erkin Vohidovning mumtoz she'riyatimiz uchun xos bo'lgan an'anaviy obrazlarni o'zgacha tarzda jonlantirayotganiga ham e'tibor qaratadi: Klassik she'riyatda "sham" va "parvona" obrazlari ham keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha sham – ma'shuqa, parvona – uning vasliga talpinuvchi oshiq timsoliga aylangan. Erkin Vohidov g'azallarida bu an'anaviy obrazlar ham boshqa mazmunlar bilan yangicha munosabatga kirishadi. Uning "Do'st bilan obod uying..." g'azalida qaddi rost sham rostgo'y do'stning ramziga, parvona esa bu do'stning koyish-u ozorlaridan qo'rqmaydigan kishiga qiyos etiladi. Tanqidchi devonda "Vazni yengil" fikrlar, gapga asoslangan g'azallar ham uchrashini kamchilik sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ақромов Б. Оламнинг бутунлиги: лирикада образ муаммоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 34.
2. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 534 б.
3. Сафаров М. Дунё кирмоқдадир шоир қалбига. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. Б. 12.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqi, 2010. 369-b.

Xadicha MAMATQULOVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
mamatkulovaxadicha@gmail.com

AMERIKA VA O'ZBEK NASRIDA HAYVON OBRAZINING SEMANTIK VA POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Amerika adabiyotidagi Jek London, Ernest Seton-Tompson, Farley Mowat kabi yozuvchilar hamda o'zbek adabiyotidagi Normurod Norqobilov, Shukur Xolmirzayev, To g'ay Murod, Said Ahmad, Murod Muhammad Do'st va Sunnatillo Anorboyev kabi adiblarning asarlarida hayvon obrazining semantik hamda poetik xususiyatlari, badiiy vazifasi, va estetik funksiyasi tahlil qilinadi. Amerika nasrida hayvon obrazi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni ko'rsatsa, o'zbek nasrida esa axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarining badiiy ifodasiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hayvon obrazi, Amerika nasri, O'zbek nasri, semantika, poetika, badiiy obraz, antropomorfizm.

Аннотация: в данной статье анализируются семантические и поэтические особенности образа животных, их художественная роль и эстетическая функция в произведениях американских писателей Джека Лондона, Эрнеста Сетона-Томпсона и Фарли Моуэта, а также узбекских писателей Нормурода Норкобилова, Шукура Холмирзаева, Тугая Мурада, Саида Ахмада, Мурода Мухаммада Дўста и Суннатилло Анорбоева. В американской прозе образ животного служит средством раскрытия взаимоотношений человека и природы, тогда как в узбекской прозе он используется для художественного воплощения нравственных ценностей и человеческих добродетелей.

Ключевые слова: образ животного, американская проза, узбекская проза, семантика, поэтика, художественный образ, антропоморфизм.

Annotation: this article examines the semantic and poetic characteristics, artistic role, and aesthetic function of animal imagery in the works of American writers such as Jack London, Ernest Thompson Seton, and Farley Mowat, as well as Uzbek writers Normurod Norqobilov, Shukur Xolmirzayev, To g'ay Murod, Said Ahmad, Murod Muhammad Do'st, and Sunnatillo Anorboyev. In American prose, the image of the animal primarily serves to depict the relationship between humans and nature, whereas in Uzbek prose it functions as an artistic means of expressing moral values and human virtues.

Key words: animal image, American prose, Uzbek prose, semantics, poetics, literary image, anthropomorphism.

Kirish. Jahon adabiyotida hayvon obrazi eng qadimiy badiiy obrazlardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotidagi ilk bosqichlaridanoq hayvon obrazi miflarda, afsonalarda va ertaklarda muhim o'rin egallagan. Adabiyotda hayvonlar faqatgina tabiatning bir bo'lagi emas, balki sadoqat, makkorlik, jasorat hamda mehr-shafqat kabi tushunchalarni o'z ichiga olib, hayvonlarda bu kabi hislatlar insonlar bilan taqqoslashda ifodalangan. Deyarli barcha davr adabiyotida qadimiy dostonlardan tortib zamonaviy asarlargacha hayvonlar orqali insonlarning ichki kechinmalari, xulq-atvori, fazilatlarini ko'rsatib berilgan. Masalan, it – vafodorlik, g'amxo'rlik, bo'lsa tulki – ayyorlik, makkorlik kabi tuy g'ularda ifodalab berilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida realizm hamda naturalizm rivojlanishi natijasida hayvon obraziga yangicha yondashuv yuzaga keldi. Endilikda hayvonlar faqat ramziy yoki allegorik vosita emas, balki tabiatiga, instinktlariga va individual xulq-atvoriga ega tirik mavjudot sifatida tasvirlana boshladi. Bu jarayonda Jek London, Ernest

Seton-Tompson, Anna Sewell va Farley Mowat kabi yozuvchilarning hissasi katta bo'ldi. Amerika adabiyotida hayvon obrazining markaziy o'ringa chiqishi yovvoyi tabiatning saqlanib qolganligi va evolyutsion qarashlarning kuchli ta'siri bilan izohlanadi. O'zbek nasrida esa hayvon obrazi xalq og'zaki ijodi, mifologik qarashlar va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Hayvon obrazining semantik xususiyatlari.

Amerika nasrida hayvon tabiatning ajralmas bir qismi, va hahvon va inson o'rtasidagi oppozitsiyani ko'rsatib beruvchi omil deb tasvirlanadi. Masalan, **Ernest Seton Thompsonning "Lobo"** hikoyasida markaziy obraz bo'ri bo'lib, u nafaqat yirtqich, balki to'da sardori sifatida boshqa bo'rilarga g'amxo'r, Blanca urg'ochisiga nisbatan sodiq hayvon deb ta'kidlanadi. Hikoyaning eng ta'sirli qatlamlaridan biri Lobo va uning jufti Blanca o'rtasidagi sadoqatdir. Lobo barcha ehtiyot choralariga qaramay, juftini qutqarish uchun tuzoqqa yaqinlashadi va aynan shu sadoqati uning qo'lga tushishiga sabab bo'ladi. Bu

hayvonlarda ham muhabbat va vafodorlik kabi tuyg'ular mavjudligini ko'rsatadi. "Har bir hayvonning o'ziga xos fe'l-atvori va individualigi mavjud"¹ (Seton, 1898). Asarda inson va yovvoyi tabiat o'rtasidagi ziddiyat markaziy o'rin egallaydi. Lobo chorvadorlar uchun xavfli yirtqich bo'lsa-da, muallif uni yovuz mavjudot emas, balki tabiat qonunlariga muvofiq yashayotgan hayvon sifatida tasvirlaydi. Bu orqali insonning tabiatga hukmronlik qilishga intilishi tanqid qilinadi.

Jek Londonning "Ajodlar nidosi" romanida esa Bak ismli it inson ko'rsatgan g'amxo'rlikiga qaramasdan yovvoyi tabiatni tanlaydi. Bu yerda hayvon obrazi genetik xotira, instinkt va erkinlik timsolidir. "O'rmon qa'ridan sirli bir nido yangrar edi. Har gal u bu nidoni eshitganida, uning qalbi hayajonga to'lar, olov va insonlar yashaydigan makonni ortda qoldirib, o'rmon bag'riga oshiqardi." (London, 1903, Bo'lim 7). Roman davomida Bakning ajdodlaridan meros bo'lib kelgan instinktlari asta-sekin uyg'onadi. U ov qilish, xavfni sezish va omon qolish kabi tug'ma qobiliyatlarini qayta kashf etadi. Bu evolyutsion xotira va biologik meros g'oyasini ifodalaydi.

Farley Mowatning "Never Cry Wolf" ("Yig'lama bo'ri") asarida bo'rilar haqidagi stereotiplar rad etiladi. Bo'rilar vahshiy hayvon timsolida emas, balki oilasiga e'tiborli, tartibli hayot kechirishlarini ko'rsatiladi. Mowat bo'rilar o'z oilalariga g'amxo'rlik qilishini, bolalarini himoya qilishini ko'radi. Bo'rilar hayvonlarni emas Aksincha kasal va zaif hayvonlarni sichqonlar, lemminglar va boshqa mayda kemiruvchilar ovlashadi. Aslida bug'ularning kamayib ketishi bo'rilar emas, balki odamlar yani ovchilar sabab bo'layotganligini tushunib yetadi. Ovchilar va mo'yna savdosi bilan shu g'ullanuvchilar bo'rilar yo'q qilayotganlarini tushunadi. Tadqiqotchining bo'rilar bo'lgan munosabati qo'rquvdan hurmatga aylanadi. Muallif bo'rilar kiyik va boshqa o'txo'r hayvonlar populyatsiyasini tabiiy ravishda tartibga solishini ko'rsatadi. Bu orqali bo'ri tabiatdagi biologik muvozanatni saqlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi² (Mowat, 1963).

Ikkinchidan, bo'ri haqiqat va ilmiy bilish semantikasini ifodalaydi. Asar davomida muallif bo'rilar haqidagi afsona va noto'g'ri qarashlarni kuzatish hamda ilmiy dalillar orqali rad etadi. Natijada bo'ri obrazi insonning tabiat haqidagi tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishga undovchi ramzga aylanadi.

Yana bir **Jek Londonning romani "White Fang" ("Oqso'yloq")** ham murakkab semantik xususiyatlarga

ega. Oqso'yloq yarim bo'ri va yarim it bo'lib hayotning og'ir zarbalaridan chiniquqan, odamlarning shavqatsizligi tufayli og'ir hayot kechiradi. Kuchli va moslashuvchan mavjudotgina omon qolishi mumkinligi asarning asosiy falsafiy g'oyalaridan biridir. Ammo asarda insonlarni faqat yovuzlik timsoligina emas balki mehribon odamlar ham bor ekanligini ko'rsatadi. Ishonch va mehr semantikasi Oq So'yloqning Weedon Scott bilan munosabatlari orqali ochiladi. Asar davomida zo'ravonlik ta'sirida vahshiylashgan hayvon mehr va g'amxo'rlik tufayli insonlarga ishonishni o'rganadi. Bu o'zgarish shuni ko'rsatadiki, muhit va tarbiya biologik instinkt bilan bir qatorda shaxsning xulq-atvorini ham shakllantiradi. Oq So'yloq obrazi evolyutsiya, moslashuv va tabiat qonunlarining badiiy ifodasi hisoblanadi³ (London, 1906).

O'zbek nasrida hayvon obrazi milliy tafakkur, xalq og'zaki ijodi va qadimiy mifologik tasavvurlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Hayvonlar aksariyat hollarda tabiatning oddiy vakillari sifatida emas, balki insonning ma'naviy olami, axloqiy qadriyatlari va milliy xarakterini ifodalovchi badiiy timsollar sifatida tasvirlanadi. Shu bois o'zbek nasrida hayvon obrazining semantik qatlamlari ramziy va falsafiy mazmun bilan boyitilgan (Quronov, 2018). Normurod Norqobilov ijodida hayvon obrazi markaziy badiiy komponentlardan biri hisoblanadi. Uning **"Oqbo'yin", "Qora bo'ri", "Ena bo'ri" va "Changalzor iti"** asarlarida hayvonlar faqat voqealar ishtirokchisi emas, balki insoniy fazilatlarining badiiy ifodachisi sifatida gavdalanadi. Muallif bo'ri obrazini erkinlik, matonat, mustaqillik va tabiat qonunlariga sodiqlik ramzi sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, **"Ena bo'ri"** va **"Qora bo'ri"** asarlarida bo'rining o'z bolalarini himoya qilishi, yashash uchun kurashi va tabiatga sodiqligi orqali onalik instinkti, jasorat hamda ozodlik g'oyalari yoritiladi (Norqobilov, 2021). **"Changalzor iti"** va **"Oqbo'yin"** asarlarida esa it obrazi sadoqat, vafodorlik, fidoyilik va inson bilan ma'naviy yaqinlik timsolidir. Muallif itning egasiga cheksiz sadoqatini tasvirlash orqali inson va hayvon o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni ochib beradi. Bu obraz orqali mehr-oqibat, ishonch va insonparvarlik g'oyalari ifodalanadi.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida ot obrazi oddiy transport vositasi emas, balki inson ruhiyatining badiiy davomchisi sifatida talqin etiladi. Asarda ot insonning quvonchi, armoni va iztiroblarini his etuvchi, uning ruhiy kechinmalariga hamohang yashovchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. Ot obrazi o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va erkinlikka intilishining ramziga aylanadi (To g'ay Murod, 1986).

1 Seton-Thompson, E. *Wild Animals I Have Known*. New York: Scribner, 1898.

2 Mowat, F. *Never Cry Wolf*. Toronto: McClelland & Stewart, 1963.

3 London, J. *White Fang*. New York: Macmillan, 1906.

Said Ahmadning “Ot bilan suhbat” hikoyasida esa hayvon obrazi insonning ichki dunyosini anglash vositasi vazifasini bajaradi. Ot bilan ramziy muloqot orqali qahramon o‘z hayotini, vijdonini va ma’naviy qadriyatlarini qayta baholaydi. Bu asarda ot obrazi insonning ruhiy poklanishi, xotira va vafodorlik semantikasini o‘zida mujassamlashtiradi (Said Ahmad, 1988).

Shunday qilib, o‘zbek nasrida bo‘ri, it va ot obrazlari ko‘p qatlamli semantik mazmunga ega. Ular biologik mavjudot sifatida emas, balki erkinlik, matonat, sadoqat, vafodorlik, milliy o‘zlik, insonparvarlik va ma’naviy poklik kabi umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarning badiiy timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu jihat o‘zbek nasrini Amerika nasridan farqlovchi muhim semantik xususiyatlardan biridir.

Hayvon obrazining poetik xususiyatlari.

Amerika nasrida hayvon obrazi, avvalo, realistik va naturalistik poetika asosida yaratiladi. **Jek London “The Call of the Wild”** va **“White Fang”** asarlarida hayvonlarning ruhiy kechinmalarini ularning tabiiy instinktlari bilan uyg‘un holda tasvirlaydi. Muallif tabiat manzaralari, ichki psixologik tasvir va dinamik syujet orqali hayvonning xarakterini bosqichma-bosqich ochib beradi. Hayvonlar insonlashtirilmaydi, balki ularning xatti-harakati biologik qonuniyatlar asosida izohlanadi (London, 1903; London, 1906).

Ernest Seton-Thompson poetikasining muhim jihati hayvon individualligini yaratishdir. Uning **“Lobo”** hikoyasida bo‘ri nafaqat yirtqich, balki o‘z xakteri, hissiyoti va hayotiy tajribasiga ega qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Peyzaj tasviri, dramatik konflikt va psixologik tasvir vositalari orqali Lobo obrazi fojiaiy qahramon darajasiga ko‘tariladi (Seton, 1898).

Farley Mowat esa **“Never Cry Wolf”** asarida hujjatli realizm va publitsistik poetika elementlarini uyg‘unlashtiradi. Muallif ilmiy kuzatishlarni badiiy tasvir bilan birlashtirib, bo‘rining tabiiy hayotini estetik jihatdan ishonarli tasvirlaydi. Tabiat tasvirlari va muallif kuzatuvlari asarning poetik yaxlitligini ta‘minlaydi (Mowat, 1963).

O‘zbek nasrida hayvon obrazining poetikasi esa milliy folklor, ramziylik va liriklik bilan ajralib turadi. **Normurod Norqobilov** asarlarida bo‘ri va it obrazlari tabiat tasvirlari bilan uzviy bog‘langan holda beriladi. Muallif metafora, personifikatsiya, ramz va psixologik parallelizm kabi badiiy vositalardan foydalanib, hayvonlarning ichki holatini inson kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada hayvon obrazi tabiat va inson ruhiyatini bog‘lovchi estetik vositaga aylanadi. **Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom”** qissasida lirik poetika ustunlik qiladi. Ot obrazi keng dasht manzaralari, tovush va harakat tasvirlari bilan uyg‘unlashib, insonning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Muallif peyzaj va hayvon tasvirini parallel qo‘llash orqali kuchli emotsional ta‘sirga erishadi (Tog‘ay Murod, 1986).

Said Ahmadning “Ot bilan suhbat” hikoyasida esa ramziy dialog, ichki monolog va falsafiy mushohada poetik vositalari muhim o‘rin tutadi. Ot bilan ramziy suhbat orqali qahramonning vijdoni, xotiralari va ma’naviy olami ochib beriladi. Bu poetik usul hayvon obrazining falsafiy mazmunini yanada chuqurlashtiradi (Said Ahmad, 1988).

Qiyosiy jihatdan qaralganda, Amerika nasrida hayvon obrazining poetikasi ko‘proq realistik tasvir, naturalistik aniqlik va psixologik tahlilga asoslangan bo‘lsa, O‘zbek nasrida ramziylik, liriklik, folklor poetikasi va milliy estetik tafakkur ustunlik qiladi. Har ikkala adabiyotda ham hayvon obrazi voqealar rivojini ta‘minlovchi personaj bo‘lish bilan birga, muallifning falsafiy qarashlari va estetik idealini ifodalovchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. London, J. *White Fang*. New York: Macmillan, 1906.
2. London, J. *The Call of the Wild*. New York: Macmillan, 1903.
3. Mowat, F. *Never Cry Wolf*. Toronto: McClelland & Stewart, 1963.
4. Seton-Thompson, E. *Wild Animals I Have Known*. New York: Scribner, 1898.
5. Norqobilov, N. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, turli nashrlar.
6. Tog‘ay Murod. *Ot kishnagan oqshom*. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
7. Said Ahmad. *Ot bilan suhbat*. –Toshkent: O‘zbekiston.
8. Karimov, N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent.
9. Quronov, D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. –Toshkent: Akademnashr.

Janabay MARZIYAEV,
Qoraqalpogʻ davlat universiteti
j.marziyayev@gmail.com

EKOLOGIK ONG, TA'LIM VA MADANIYAT – EKOLOGIK JURNALISTIKANING ASOSIY YO'NALISHLARI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada ekologik jurnalistikaning nazariy asoslari hamda uning ekologik ong, ekologik ta'lim va ekologik madaniyatni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Ekologiya va jurnalistika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy, ijtimoiy, huquqiy hamda pedagogik nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, ekologik ta'limning xalqaro tajribasi, ekologik savodxonlikning davlat siyosati va fuqarolik faolligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida baholangan. Tadqiqot natijalari ekologik jurnalistika nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki jamiyatda ekologik mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim kommunikativ mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekologik jurnalistika, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish.

Аннотация: в статье анализируются теоретические основы экологической журналистики и её роль в формировании экологического сознания, экологического образования и экологической культуры. Неразрывная связь между экологией и журналистикой рассматривается с философской, социальной, правовой и педагогической точек зрения. Также на основе научных источников оценивается международный опыт экологического образования и влияние экологической грамотности на государственную политику и гражданскую активность. Результаты исследования показывают, что экологическая журналистика является не только средством распространения информации, но и важным коммуникативным механизмом, формирующим экологическую ответственность в обществе.

Ключевые слова: экологическая журналистика, экологическое сознание, экологическое образование, экологическая культура, устойчивое развитие.

Annotation: the article analyzes the theoretical foundations of ecological journalism and its role in the development of ecological consciousness, ecological education, and ecological culture. The relationship between ecology and journalism is examined from philosophical, social, legal, and educational perspectives. The study also evaluates international experience in environmental education and public participation, as well as the influence of ecological literacy on environmental protection policies. The findings demonstrate that ecological journalism functions not only as a means of information dissemination but also as an effective instrument for shaping public ecological awareness and promoting sustainable development. The article concludes that the integration of ecological education, ecological culture, and responsible journalism contributes to strengthening environmental responsibility within society.

Key words: ecological journalism, ecological consciousness, ecological education, ecological culture, sustainable development.

Kirish. XXI asrda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashni dolzarb vazifaga aylantirdi. Bu muammolarni hal etishda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Ayniqsa, ekologik jurnalistika ekologik bilimlarni ommalashtirish, jamiyatda mas'uliyatli munosabatni shakllantirish va ekologik qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim vosita hisoblanadi [2]. Zamonaviy ekologiya fanlararo yo'nalish sifatida falsafa, huquq, iqtisodiyot va jurnalistika bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda [3]. Shu bois tadqiqot ekologik jurnalistikaning ekologik ong, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishdagi kommunikativ imkoniyatlarini ilmiy jihatdan baholashga qaratildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda ekologik jurnalistika, ekologik ong, ekologik ta'lim va ekologik madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik nazariy hamda qiyosiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro ekologik hujjatlar va ekologik kommunikatsiyaga oid tadqiqotlar o'rganildi. Tadqiqotda

tarixiy-komparativ, tizimli tahlil, kontent-tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Nazariy asos sifatida E. Gekkel [1], N. Reymer [2], N. Moiseyev [4], V. Buxarev [5], Z. Xusanov [6], A. Malikova [7] va Yu. Markovning [8] ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek, 1992-yilgi Rio deklaratsiyasi [9] hamda ekologik ta'lim bo'yicha zamonaviy xalqaro tadqiqotlar umumlashtirildi. Olingan natijalarning ishonchligi turli ilmiy yondashuvlarni o'zaro solishtirish va kompleks tahlil qilish orqali ta'minlandi.

Natija. Tadqiqot natijalari ekologik jurnalistikaning zamonaviy jamiyatda faqat ekologik axborotni tarqatuvchi vosita emas, balki ekologik ongni shakllantiruvchi, ekologik ta'limni rivojlantiruvchi va ekologik madaniyatni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritayotganini ko'rsatdi.

Birinchidan, ekologik jurnalistika ekologik bilimlarni keng ommaga yetkazish orqali fuqarolarning atrof-muhitga nisbatan munosabatini o'zgartirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida

tahlil qilingan nazariy manbalar ekologik muammolar haqida muntazam va ilmiy asoslangan axborot berilishi jamiyatda ekologik savodxonlikning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ekologik jurnalistika inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni keng jamoatchilikka tushunarli shaklda yetkazib, ularning sabab va oqibatlarini izohlash orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ekologik ongning shakllanishi ekologik ta'lim va ekologik madaniyat bilan uzviy bog'liq ekanini aniqlandi. Tadqiqotda tahlil qilingan ilmiy qarashlarga ko'ra, ekologik ong insonning tabiatga bo'lgan bilimlari, qadriyatlari va xulq-atvorining uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Shuning uchun ekologik jurnalistika ekologik ta'lim tizimining muhim kommunikativ komponenti sifatida faoliyat yuritadi. Ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan ekologik materiallar aholining ekologik dunyoqarashini kengaytiradi va ekologik muammolarni shaxsiy mas'uliyat darajasida anglashiga yordam beradi [5; 6].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik madaniyat ekologik bilimning amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Ekologik madaniyat shakllangan jamiyatlarda fuqarolar ekologik qonunchilikka rioya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishga moyil bo'ladi. Shu sababli ekologik jurnalistikaning asosiy vazifalaridan biri ekologik bilimlarni kundalik hayot bilan bog'lash va ekologik mas'uliyatni ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tarishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy ishlanmalar ham tahlil qilindi. Jumladan, *Frontiers in Public Health* jurnalida chop etilgan meta-tahlil natijalari aholining ekologik savodxonligi oshgani sari davlat ekologik siyosatiga jamoatchilik bosimi kuchayishini ko'rsatgan [11]. Bunday sharoitda hukumatlar ekologik qonunchilikni takomillashtirish, chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga ko'proq e'tibor qaratishga majbur bo'lmoqda. Mazkur holat ekologik jurnalistikaning demokratik boshqaruv mexanizmlaridagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Shuningdek, Gretsiyada o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ekologik ta'limning yosh guruhlarida ekologik xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqotga ko'ra, 26–29 yoshdagi respondentlarda ekologik odatlar 18–21 yoshdagi yoshlarga nisbatan ancha barqaror shakllangan [12]. Bu esa ekologik bilimning amaliy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Natijalar ekologik ta'lim uzluksiz va bosqichma-bosqich olib borilgandagina ekologik madaniyatni shakllantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston tajribasi ham ekologik ong va ekologik jurnalistika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. So'nggi yillarda ekologiyani muhofaza qilishga oid qator qonunlar qabul qilinishi, daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etilishi hamda fuqarolik tashabbuslarining kuchayishi jamiyatda ekologik ongning o'sib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur

jarayonlarda ommaviy axborot vositalari va internet nashrlari muhim kommunikativ maydon vazifasini bajardi. Ekologik muammolar bo'yicha jurnalistik surishtiruvlar, jamoatchilik muhokamalari va fuqarolik tashabbuslarining keng yoritilishi ekologik qarorlar qabul qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik jurnalistika quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- ekologik bilimlarni ommalashtiradi;
- ekologik muammolar yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantiradi;
- ekologik qonunchilikning rivojlanishiga axborotiy ko'mak beradi;
- fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi;
- ekologik ta'lim va ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ekologik jurnalistika barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligini, u ekologik ong, ekologik ta'lim va ekologik madaniyatning o'zaro integratsiyasini ta'minlovchi samarali kommunikativ mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ko'rsatdi.

Munozara. Mazkur tadqiqot natijalari ekologik jurnalistikaning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatdi. Tahlillar ekologik jurnalistika ekologik muammolar haqida axborot berish bilan cheklanmasdan, ekologik qadriyatlarni shakllantirish, ekologik ta'limni qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolarning ekologik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qilayotganini tasdiqladi. Shu jihatdan ekologik jurnalistikani barqaror rivojlanish konsepsiyasining kommunikativ mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Olingan natijalar N. Reymersning ekologiyani inson va atrof-muhit o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida talqin qiluvchi nazariyasi bilan mos keladi [2]. Darhaqiqat, ekologik muammolar faqat biologik jarayonlar bilan bog'liq emas, balki iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas aloqador. Shu sababli ekologik jurnalistika ham fanlararo yondashuv asosida rivojlanishi zarur. Maqolaning dastlabki manbasida ham ekologiyaning biologik fan doirasidan chiqib, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq kompleks fan sifatida shakllangani asoslab berilgan.

Shuningdek, tadqiqot ekologik ongning rivojlanishi ekologik ta'limning uzluksizligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. V. Buxarev, Z. Xusanov va A. Malikovanning ilmiy qarashlariga ko'ra, ekologik madaniyat faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning kundalik hayotida namoyon bo'ladigan ekologik mas'uliyat va xulq-atvor tizimidir [5; 6; 7]. Mazkur tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni tasdiqlaydi. Ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borilayotgan ekologik mavzular aholining ekologik xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro tajribalar ham ekologik jurnalistikaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. *Frontiers in Public Health* jurnalida chop etilgan meta-tahlil hamda Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar ekologik savodxonlik oshgan sari ekologik qonunchilikning takomillashishi va fuqarolik faolligining kuchayishini ko'rsatmoqda [10]. Bu esa ekologik jurnalistika ekologik boshqaruv tizimining muhim elementi ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ommaviy axborot vositalari ekologik muammolarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish orqali davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini ham oshiradi.

O'zbekiston tajribasi ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi. So'nggi yillarda ekologik qonunchilikning takomillashuvi, daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etilishi, fuqarolarning ekologik tashabbuslari hamda ekologik muammolarning OAVda keng yoritilishi ekologik jurnalistikaning jamiyatdagi ta'siri kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va mustaqil jurnalistik platformalar ekologik muammolarni tezkor yoritish orqali fuqarolik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, ekologik jurnalistikaning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Jumladan, jurnalistlarning ekologiya sohasidagi bilim darajasi, ilmiy ekspertlar bilan hamkorligi, ekologik ma'lumotlarning ishonchligi hamda ekologik mavzularni ommabop va tushunarli shaklda yoritish uslublari ekologik kommunikatsiyaning sifatini belgilaydi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ekologik jurnalistika bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish, jurnalistlarning ekologik savodxonligini oshirish va ekologik media loyihalarni qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli kommunikatsiyalar ekologik jurnalistikaga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimediali kontent, infografikalar, podkastlar, interaktiv xaritalar va sun'iy intellekt asosidagi vizual vositalar ekologik axborotlarni aholiga yanada tushunarli va ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qilmoqda. Natijada ekologik jurnalistika nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki ekologik ta'limning innovatsion platformasiga ham aylanmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ekologik jurnalistika ekologik ong, ekologik ta'lim va ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'zaro integratsiyalashgan tizimning muhim bo'g'ini ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishning izchil rivojlanishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ekologik jurnalistikaning jamiyatda ekologik ong, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishdagi muhim o'rnini tasdiqladi. Aniqlanishicha, ekologik jurnalistika nafaqat ekologik muammolar haqida axborot beruvchi vosita, balki aholida ekologik mas'uliyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini targ'ib etuvchi samarali kommunikatsiya tizimi hamdir. Ekologik ta'lim va madaniyatning izchil rivojlanishi fuqarolarning tabiatga ongli munosabatini mustahkamlaydi. Xalqaro tajriba hamda O'zbekiston amaliyoti ekologik savodxonlikning ortishi ekologik siyosat va jamoatchilik faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu sababli ekologik jurnalistikani rivojlantirish, media mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish va raqamli ekologik kommunikatsiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy hamda amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Геккель Э. Общая морфология организмов. – Берлин, 1866.
2. Реймерс Н. Ф. Экология (теории, законы, правила, принципы и гипотезы). – М.: Россия молодая, 1994.
3. Гирусов Э. В. Основы социальной экологии. – М.: Изд-во РУДН, 1998.
4. Моисеев Н. Н. Судьба цивилизации. Путь Разума. – М.: Языки русской культуры, 1999.
5. Бухарев В. В. Экологическое сознание как фактор устойчивого развития общества // *Вестник Московского университета*. – 2010. – № 2. – С. 45–53.
6. Хусанов З. А. Экологическое сознание и экологическая культура личности // *Экологический вестник*. – 2016. – № 4. – С. 18–24.
7. Маликова А. Р. Экологическая культура личности: сущность и содержание // *Современные проблемы науки и образования*. – 2018. – № 5. – С. 112–118.
8. Марков Ю. Г. Экологическое образование и воспитание молодежи. – М.: Просвещение, 2008.
9. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. – New York: United Nations, 1992.
10. Ardoin N. M., Bowers A. W., Gaillard E. Environmental education outcomes for conservation: A systematic review // *Biological Conservation*. – 2020. – Vol. 241. – Article 108224.
11. *Frontiers in Public Health*. Environmental literacy and public participation in environmental governance: systematic review // *Frontiers in Public Health*. – 2023. – Vol. 11.
12. Zafeiroudi A., Hatzigeorgiadis A. The Impact of Environmental Education on Sustainable Development, Environmental Consciousness and Pro-environmental Behaviour // *Sustainability*. – 2023. – Vol. 15. – No. 18.

Fayyoz BO'RIYEVA,
 Qarshi davlat universiteti
 Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi
fayozaburiyeva@icloud.com
 Orcid Id: 0009-0006-2242-4930

AQLIY FAOLIYATGA DOIR SUBSTANDART FE'LLARNING EVALUATIV-KONNOTATIV PARADIGMASI: BAHOLASH KATEGORIYASI VA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYA MEXANIZMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada aqliy faoliyatni ifodalovchi substandart fe'llarning evaluativ-konnotativ xususiyatlari hamda ularning baholash kategoriyasi va pragmatik presuppozitsiya mexanizmlari kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi substandart mental fe'llarning semantik, aksiologik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida deskriptiv, qiyosiy-tipologik, semantik, pragmatik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar substandart mental fe'llarning nafaqat aqliy holat va tafakkur jarayonlarini, balki so'zlovchining baholovchi munosabati, emotsional pozitsiyasi hamda kommunikativ niyatini ifodalovchi muhim pragmatik vosita ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu birliklarning mazmuni pragmatik presuppozitsiya va kontekst omillari bilan uzviy bog'liq ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari evaluativ semantika, pragmatik lingvistika, kognitiv tilshunoslik va diskurs tahlili yo'nalishlaridagi nazariy qarashlarni yangi empirik ma'lumotlar bilan boyitadi hamda qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *substandart mental fe'llar, aqliy faoliyat, evaluativ semantika, konnotativ ma'no, baholash kategoriyasi, pragmatik presuppozitsiya, kognitiv pragmatika, pragmatik lingvistika, kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, aksiologiya, kommunikativ niyat, implikatura, inferensiya, semantik tahlil, lingvopragmatika, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili, evaluativ-konnotativ paradigma.*

Annotation: this article examines the evaluative-connotative paradigm of substandard mental verbs and the mechanisms of evaluation and pragmatic presupposition from a cognitive-pragmatic perspective. The study comparatively analyzes the semantic, axiological, and pragmatic features of substandard mental verbs in Uzbek and English. Descriptive, comparative, semantic, pragmatic, and discourse analysis methods were employed. The findings reveal that these verbs not only denote mental processes but also convey the speaker's evaluative attitude, emotional stance, and communicative intention. Their interpretation largely depends on pragmatic presupposition and discourse context. The results contribute to cognitive linguistics, evaluative semantics, pragmatics, discourse studies, comparative linguistics, and translation studies by providing new insights into the functioning of substandard mental verbs.

Аннотация: в статье исследуется оценочно-коннотативная парадигма субстандартных ментальных глаголов, а также механизмы категории оценки и прагматической пресуппозиции с позиций когнитивно-прагматического подхода. Проводится сопоставительный анализ семантических, аксиологических и прагматических особенностей субстандартных ментальных глаголов узбекского и английского языков. Используются описательный, сопоставительно-типологический, семантический, прагматический и дискурсивный методы исследования. Результаты показывают, что данные глаголы выражают не только мыслительные процессы, но и оценочное отношение, эмоциональную позицию и коммуникативное намерение говорящего. Их интерпретация определяется прагматической пресуппозицией и дискурсивным контекстом. Полученные результаты расширяют исследования в области когнитивной лингвистики, оценочной семантики, прагматики и сопоставительного языкознания.

Kirish. So'nggi yillarda tilshunoslikda til birliklarini faqat ularning denotativ ma'nosi orqali emas, balki baholash, emotsional-ekspressivlik va pragmatik xususiyatlari bilan birgalikda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Antropotsentrik paradigma doirasida til inson tafakkuri, emotsional holati va ijtimoiy-kommunikativ faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, leksik birliklarning evaluativ va konnotativ xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy kognitiv tilshunoslik hamda pragmatik lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aqliy faoliyatni ifodalovchi mental fe'llar insonning bilish, tushunish, anglash, idrok etish, xotirlash, unutish, tasavvur qilish va fikrlash kabi murakkab psixik jarayonlarini ifodalovchi muhim leksik-semantik birliklardir. Biroq ushbu fe'llarning adabiy me'yor doirasidan tashqarida qo'llanadigan substandart shakllari nafaqat mental holatni, balki so'zlovchining baholovchi munosabati, emotsional pozitsiyasi va kommunikativ maqsadini ham ifodalaydi. Aynan shu jihat ularning evaluativ-konnotativ tabiatini belgilaydi [2].

Substandart mental fe'llarning semantikasi denotativ ma'no bilan chegaralanmaydi. Ularning mazmunida ijobiy yoki salbiy baholash, kinoya, istehzo, mensimaslik, hayrat, achinish, g'azab yoki hazil kabi qo'shimcha konnotativ komponentlar mujassam bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi boshi qotmoq, tomi ketmoq, miyasi aynimoq, es-hushidan ayrilmoq kabi birliklar yoki ingliz tilidagi freak out, lose it, space out, go nuts fe'llari so'zlovchining voqelikka munosabatini aks ettiruvchi evaluativ ma'no bilan tavsiflanadi. Bunday birliklarning pragmatik mazmuni ko'pincha nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va presuppozitsion bilimlar orqali shakllanadi[1; 3].

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot aqliy faoliyatga doir substandart fe'llarning evaluativ-konnotativ paradigmasi hamda ularning baholash kategoriyasi va pragmatik presuppozitsiya mexanizmlarini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy kognitiv tilshunoslik, evaluativ semantika, pragmatik lingvistik va diskurs tahlili nazariyalariga asoslanadi. Metodologik yondashuv til birliklarining semantik mazmuni, konnotativ komponentlari va kommunikativ funksiyalarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari aqliy faoliyatga doir substandart fe'llarning evaluativ-konnotativ paradigmasi o'zbek va ingliz tillarida murakkab semantik-pragmatik tizimni tashkil etishini ko'rsatdi. Tahlil davomida ushbu fe'llarning baholash kategoriyasi, konnotativ ma'no va pragmatik presuppozitsiya bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, ularning qo'llanishi kommunikativ vaziyat, diskurs turi va lingvomadaniy omillar ta'sirida o'zgarishi kuzatildi.

Birinchi navbatda, substandart mental fe'llarning evaluativ xususiyatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur birliklarning aksariyati salbiy baholash komponentiga ega. O'zbek tilidagi boshi qotmoq, tomi ketmoq, miyasi aynimoq, es-hushidan ayrilmoq kabi fe'llar insonning aqliy yoki ruhiy holatini salbiy baholash orqali ifodalasa, ingliz tilidagi lose it, go nuts, freak out, space out birliklari ham shunga o'xshash evaluativ ma'noni yuzaga keltiradi. Biroq ayrim birliklar kontekstga qarab ijobiy yoki neytral baholashni ham ifodalashi aniqlandi.

Konnotativ tahlil natijalari substandart mental fe'llarning semantik tuzilishida emotsional-ekspressiv komponent ustunligini ko'rsatdi. Mazkur birliklar orqali so'zlovchi voqelikka nisbatan hayrat, istehzo, kinoya, norozilik, achinish

yoki hazil kabi munosabatlarni ifodalaydi. Ayniqsa, internet diskursi va og'zaki so'zlashuv nutqida ushbu fe'llarning ekspressiv imkoniyatlari sezilarli darajada yuqori ekani kuzatildi [5].

Pragmatik tahlil natijasida substandart mental fe'llarning mazmuni ko'p hollarda pragmatik presuppozitsiya asosida talqin qilinishi aniqlandi. Tinglovchi yoki o'quvchi mazkur birliklarning haqiqiy ma'nosini anglash uchun muayyan kontekst, umumiy bilim va madaniy tajribaga ega bo'lishi zarur. Masalan, o'zbek tilidagi tomi ketgan birikmasi har doim ham ruhiy kasallikni emas, balki noodatiy yoki kutilmagan xatti-harakatni baholovchi vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi lose it birligi ham kontekstga qarab jahli chiqish, ruhiy nazoratni yo'qotish yoki haddan tashqari hayajonlanishni anglatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari o'zbek va ingliz tillarida baholash kategoriyasining umumiy pragmatik mexanizmlari mavjudligini ko'rsatdi. Har ikki tilda substandart mental fe'llar kommunikativ ta'sirni kuchaytirish, so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalash va tinglovchiga emotsional ta'sir o'tkazish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ularning lingvomadaniy xususiyatlarida muayyan tafovutlar kuzatildi. O'zbek tilida baholash ko'proq obrazli iboralar va frazeologik birliklar orqali ifodalansa, ingliz tilida qisqa, dinamik va idiomatik fe'llar ustunlik qiladi.

Diskurs tahlili natijalari substandart mental fe'llarning qo'llanish chastotasi norasmiy kommunikativ muhitda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, kundalik muloqot, badiiy dialoglar, internet forumlari va ijtimoiy tarmoqlarda ushbu birliklar faol ishlatiladi. Rasmiy ilmiy yoki huquqiy matnlarda esa bunday fe'llarning qo'llanishi deyarli uchramaydi. Bu holat ularning kommunikativ uslub bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida substandart mental fe'llarning evaluativ-konnotativ funksiyalari quyidagi asosiy guruhlariga ajratildi:

- *ijobiy baholash funksiyasi;*
- *salbiy baholash funksiyasi;*
- *emotsional-ekspressiv funksiya;*
- *kinoyaviy va istehzoli funksiya;*
- *kommunikativ ta'sirni kuchaytirish funksiyasi;*
- *shaxslararo munosabatlarni ifodalash funksiyasi;*
- *pragmatik presuppozitsiyani faollashtirish funksiyasi.*

Fe'l	Til	Evalutiv ma'no	Konnotativ xususiyat	Pragmatik vazifa
Boshi qotmoq	O'zbek	Salbiy	Hayrat, qiyinchilik	Vaziyatni baholash
Tomi ketmoq	O'zbek	Salbiy	Kinoya, istehzo	Emotsional ta'sir
Miyasi aynimoq	O'zbek	Salbiy	Salbiy, norozilik	Salbiy munosabat
Lose it	Ingliz	Hissiy zo'riqish	Hissiy zo'riqish	Kommunikativ ta'sir
Freak out	Ingliz	Salbiy vahima	Vahima, hayajon	Emotsional baholash
Space out	Ingliz	Neytral/salbiy	Diqqatning susayishi	Vaziyatni tavsiflash

Muhokama. Tadqiqot natijalari aqliy faoliyatga doir substandart fe'llarning evaluativ-konnotativ paradigmasi zamonaviy kognitiv tilshunoslik va pragmatik paradigmaning asosiy nazariy qarashlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar mazkur fe'llar nafaqat mental jarayonlarni ifodalovchi leksik birliklar, balki baholash, emotsional ta'sir va kommunikativ strategiyalarni amalga oshiruvchi murakkab pragmatik vositalar ekanligini tasdiqlaydi. Ularning semantik tuzilishi denotativ ma'nodan tashqari konnotativ va evaluativ komponentlarni ham o'z ichiga oladi.

Konnotativ ma'noning shakllanishi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan insonning tajribasi, madaniy bilimlari va konseptual tizimi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari substandart mental fe'llarning konnotativ komponenti ularning lug'aviy ma'nosidan ko'ra ko'proq kommunikativ vaziyat va diskurs sharoitiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli bir xil fe'l turli kontekstlarda turlicha baholash ma'nosini ifodalashi mumkin. Bu holat evaluativ semantikaning dinamik tabiatini tasdiqlaydi.

Pragmatik presuppozitsiya mexanizmlarining tahlili natijasida substandart mental fe'llarning to'liq interpretatsiyasi tinglovchi va so'zlovchi o'rtasidagi umumiy bilimlar hamda kommunikativ tajribaga bog'liqligi aniqlandi. S. Levinson va H. P. Grays nazariyalariga muvofiq, presuppozitsiya va implikatura nutqning yashirin mazmunini anglashda muhim omil hisoblanadi. Masalan, "tomi ketgan" yoki "lose it" kabi birliklar haqiqiy ma'nosida emas, balki kontekst asosida kinoya, tanqid yoki kuchli emotsional holatni anglatishi mumkin. Demak, ularning pragmatik mazmuni nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari va vaziyatni idrok etishiga tayanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari o'zbek va ingliz tillarida baholash kategoriyasining umumiy kognitiv asoslari mavjudligini ko'rsatdi. Har ikkala tilda ham substandart mental fe'llar shaxsning ruhiy holatini baholash, emotsional munosabat bildirish va tinglovchiga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, ularning lingvomadaniy ifodalanishida muayyan farqlar kuzatildi. O'zbek tilida baholash ko'proq obrazli frazeologik birliklar va milliy madaniyatga xos metaforalar orqali ifodalansa, ingliz tilida qisqa idiomatik fe'llar va so'zlashuv birliklari ustunlik qiladi. Bu esa baholashning universal kognitiv mexanizmlari bilan bir qatorda tilga xos madaniy omillar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot aqliy faoliyatga doir substandart fe'llarning evaluativ-konnotativ paradigmasini, baholash kategoriyasi va pragmatik presuppozitsiya mexanizmlarini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari substandart mental fe'llar nafaqat insonning aqliy faoliyati va psixologik holatini ifodalovchi leksik birliklar, balki baholash, emotsional-ekspressivlik va kommunikativ ta'sirni yuzaga keltiruvchi muhim pragmatik vositalar ekanligini ko'rsatdi. Tahlil natijasida substandart mental fe'llarning semantik tuzilishida evaluativ va konnotativ komponentlar ustuvor o'rin egallashi aniqlandi. Mazkur birliklar orqali so'zlovchi voqelik, shaxs yoki hodisaga nisbatan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatini ifodalaydi. Ayniqsa, salbiy baholash, kinoya, istehzo, hayrat va emotsional munosabatni aks ettiruvchi fe'llarning qo'llanishi o'zbek va ingliz tillarida keng tarqalganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allan, K. (1986). Linguistic meaning (Vols. 1–2). Routledge & Kegan Paul.
2. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge University Press.
3. Awdry, H. (2013). Pragmatics and discourse. Routledge.
4. Bednarek, M. (2006). Evaluation in media discourse: Analysis of a newspaper corpus. Continuum.
5. Cruse, D. A. (2011). Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics (3rd ed.). Oxford University Press.
6. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). Cognitive linguistics. Cambridge University Press.
7. Crystal, D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). Blackwell.
8. Evans, V. (2009). How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction. Oxford University Press.
9. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive linguistics: An introduction. Edinburgh University Press.
10. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In Linguistics in the Morning Calm (pp. 111–137). Hanshin.
11. Geeraerts, D. (2010). Theories of lexical semantics. Oxford University Press.
12. Gibbs, R. W. (1994). The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding. Cambridge University Press.

Naziraxon QODIROVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
mustaqil izanuvchisi

PERSUAZIVLIK TUSHUNCHASINING LISONIY VA LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada persuzivlik tushunchasining lingvistik va lingvopragmatik mohiyati ilmiy diskurs doirasida tahlil qilinadi. Persuziv kommunikatsiyaning kommunikativ strategiya bilan uzviy bog'liqligi, uning umumiy va xususiy strategiyalari hamda ilmiy matnda namoyon bo'lish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, persuzivlikning argumentatsiya va suggestivlik bilan o'zaro munosabati hamda ilmiy matnda muallif pozitsiyasini asoslashdagi funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari persuzivlikning ilmiy diskursning ajralmas lingvopragmatik kategoriyalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *persuzivlik, ilmiy diskurs, kommunikativ strategiya, lingvopragmatika, argumentatsiya, suggestivlik, adresant, adresat, nutqiy ta'sir.*

Аннотация: в данной статье анализируется лингвистическая и лингвопрагматическая сущность понятия персуазивности в рамках научного дискурса. Рассматривается неразрывная связь персуазивной коммуникации с коммуникативной стратегией, освещаются её общие и частные стратегии, а также механизмы их реализации в научном тексте. Кроме того, раскрываются взаимосвязь персуазивности с аргументацией и суггестивностью, а также её функциональная роль в обосновании авторской позиции в научном тексте. Результаты исследования свидетельствуют о том, что персуазивность является одной из неотъемлемых лингвопрагматических категорий научного дискурса.

Ключевые слова: *персуазивность, научный дискурс, коммуникативная стратегия, лингвопрагматика, аргументация, суггестивность, адресант, адресат, речевое воздействие.*

Annotation: this article examines the linguistic and linguopragmatic nature of the concept of persuasion within the framework of scientific discourse. It explores the intrinsic relationship between persuasive communication and communicative strategy, highlighting its general and specific strategies as well as the mechanisms of their realization in scientific texts. Furthermore, the study analyzes the relationship between persuasion, argumentation, and suggestiveness, and reveals the functional significance of persuasion in substantiating the author's position in scientific discourse. The findings demonstrate that persuasion constitutes one of the integral linguopragmatic categories of scientific discourse.

Key words: *persuasion, scientific discourse, communicative strategy, linguopragmatics, argumentation, suggestiveness, addresser, addressee, speech influence.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutqning faqat axborot uzatish vositasi sifatidagi funksiyasi emas, balki uning kommunikativ ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ham alohida tadqiq etilmoqda. Til vositasida amalga oshiriladigan har qanday muloqot ma'lum pragmatik maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, adresant o'z kommunikativ niyatini amalga oshirish uchun turli lingvistik va ekstralingvistik vositalardan foydalanadi. Ayniqsa, ilmiy diskursda muallifning asosiy vazifasi yangi bilimni bayon qilish bilangina cheklanmay, balki uning ilmiy asoslanganligini isbotlash va o'quvchini ushbu xulosalarni qabul qilishga ishonitirishdan iboratdir. Shu jihatdan persuzivlik ilmiy muloqotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Persuzivlik masalasi dastlab reklama, siyosiy va publitsistik diskurslar doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda uning ilmiy diskursdagi o'rnini ham alohida e'tibor qozonmoqda. Chunki ilmiy matnning muvaffaqiyati nafaqat ilmiy yangilikning mavjudligi, balki ushbu yangilikning dalillar, argumentlar va mantiqiy izchillik asosida o'quvchiga yetkazilishiga ham bog'liqdir. Natijada persuzivlik ilmiy matnning mazmunini yaxlitligi, argumentativ tuzilishi va

pragmatik samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tilshunoslikda persuziv diskurs va nutqiy ta'sir nazariyasini o'rganishga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan olimlar qatoriga **Aristotel, J. Ostin, J. Serl, A.A. Leontev, I.A. Sternin, O.S. Issers** hamda **E.F. Tarasov** kabirlarni kiritish mumkin. Persuzivlik tushunchasining lisoniy talqini, Persuzivlik (lotincha persuasio – «ishontirish», «ko'ndirish») nutqiy ta'sirning adresat ongida muayyan qarash, baho yoki xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan lingvopragmatik kategoriyasidir. Ushbu hodisaning mohiyati adresatni majburlash emas, balki uni mantiqiy asoslar, dalillar hamda baholovchi vositalar orqali muallif nuqtayi nazarini ongli ravishda qabul qilishga yo'naltirishdan iborat. Shu bois persuzivlik zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ faoliyatning eng muhim pragmatik komponentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [4]. Kommunikativ faoliyatning asosini strategik rejalashtirilgan nutq tashkil etadi. [7]. Har qanday kommunikativ aktda adresant oldindan ma'lum maqsadni ko'zlaydi hamda ushbu maqsadga erishish uchun

nutqiy vositalarni tanlaydi. Mazkur jarayon kommunikativ strategiya tushunchasi bilan izohlanadi. Kommunikativ strategiya adresantning pragmatik niyatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi izchil nutqiy harakatlar tizimidir. Uning tarkibida kommunikativ niyat, kommunikativ maqsad, konvensional me'yorlar hamda kommunikativ vaziyatning barcha tarkibiy qismlari o'zaro uyg'unlashadi [1].

Persuaziv strategiya kommunikativ strategiyaning alohida turi bo'lib, uning asosiy vazifasi adresantning voqelik haqidagi tasavvurlariga ta'sir ko'rsatish orqali muallif ilgari surayotgan pozitsiyani qabul qildirishdan iborat. Bunday strategiyada matnning barcha tarkibiy qismlari yagona pragmatik maqsadga bo'ysundiriladi. Muallif tomonidan tanlangan argumentlar, baholash birliklari, terminologik vositalar hamda matnning kompozitsion tuzilishi aynan persuaziv samarani ta'minlashga xizmat qiladi [3].

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda persuaziv strategiya odatda ikki bosqichda tavsiflanadi. Birinchi bosqich umumiy strategiya bo'lib, u matnning konseptual yo'nalishini va kommunikativ maqsadini belgilaydi. Ikkinchi bosqich esa xususiy strategiyalarni qamrab oladi. Ular umumiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi alohida kommunikativ usullar va mazmuniy birliklardan tashkil topadi. Mazkur ikki bosqich o'zaro iyerarxik munosabatda bo'lib, xususiy strategiyalar umumiy persuaziv maqsadning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Persuazivlikning samaradorligi faqat alohida til birliklariga bog'liq emas. Har qanday lingvistik vosita faqat matnning umumiy pragmatik yo'nalishi, kommunikativ vaziyat va adresantning bilimlar tizimi bilan uyg'unlashgandagina persuaziv funksiyani bajaradi [8]. Shu sababli persuazivlikni alohida so'z yoki grammatik konstruksiyalarda emas, balki butun diskursning funksional-pragmatik xususiyati sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. A.V. Golodnov persuazivlikni aynan diskursni tashkil etuvchi universal funksional-pragmatik kategoriya sifatida baholaydi. Mazkur yondashuv persuazivlikni matnning barcha sathlarini

birlashtiruvchi tizim hosil qiluvchi omil sifatida ko'rsatadi [2]. Kommunikativ strategiya tarkibida umumiy strategiya, xususiy strategiyalar va ularni amalga oshiruvchi kommunikativ texnikalar o'zaro uzviy bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Ushbu uch pog'onali model persuazivlikning matnda qanday shakllanishini izohlash imkonini beradi. Konseptual darajada muallif asosiy ilmiy g'oyani belgilasa, pragmatik darajada o'quvchiga ko'rsatiladigan ta'sir yo'nalishini tanlaydi, formal-stilistik darajada esa ushbu maqsadga mos til birliklarini qo'llaydi. Natijada matnning barcha tarkibiy elementlari yagona persuaziv funksiyani bajaruvchi yaxlit tizimga aylanadi.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan persuaziv ta'sir adresantning mavjud bilimlari va ma'no hosil qilish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqdir. A.A. Leontev ta'kidlaganidek, nutqiy ta'sir yangi bilimni yetkazish, mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish yoki ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli persuaziv kommunikatsiya faqat axborot almashinuvi emas, balki adresantning kognitiv tizimini qayta tashkil etishga qaratilgan murakkab kommunikativ jarayon hisoblanadi [6].

Xulosa. Ilmiy diskursda ushbu jarayon o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Ilmiy matn, avvalo, dalillarga asoslangan mantiqiy tizim bo'lib, unda muallif ilmiy gipoteza yoki xulosani izchil argumentlar vositasida asoslaydi [9]. Natijada persuazivlik ilmiy bilimning ishonchlilikini namoyon etuvchi lingvopragmatik mexanizm sifatida yuzaga chiqadi. Bunda o'quvchi faqat yangi ma'lumotni qabul qilmaydi, balki ushbu bilimning ilmiy asoslanganligini anglaydi va uni o'zining ilmiy qarashlari tizimiga integratsiya qiladi. Shunday qilib, persuazivlik zamonaviy lingvistikada kommunikativ strategiya, argumentativ tuzilma va pragmatik ta'sirning uzviy birligida shakllanadigan murakkab diskursiv hodisa hisoblanadi. Ilmiy diskursda esa u muallif va o'quvchi o'rtasidagi ilmiy muloqotning samaradorligini ta'minlovchi, ilmiy bilimning qabul qilinishi hamda e'tirof etilishiga xizmat qiluvchi asosiy lingvopragmatik mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ключев Е.В. Речевая коммуникация. – М., 2002. – С. 18 - 19.
2. Голоднов А.В. Персуазивная стратегия текстообразования в риторическом метадискурсе // <file:///persuazivnaya-strategiya-tekstoobrazovaniya-v-ritoricheskom-metadiskurse.pdf>
3. Hoffmann M., Kessler Ch. Persuasion als Forschungsgegenstand: Vorbemerkungen zum Thema. // In: Beitrage zur Persuasionsforschung: unter besonderer Beuecksichtigung textlinguistischer und stilistischer Aspekte. – Frankfurt am M.: Peter Lang, 1998.
4. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Омск: Изд-во Омск. ун-та, 1999.
5. Гончарова Е. А. Персуазивность и способы ее языковой реализации в дискурсе рекламы // Studia Linguistica-10. Проблемы теории европейских языков: Сб. науч. тр. – СПб: Тригон, 2001.
6. Леонтьев А.А. Психолингвистические особенности языка СМИ. Психолингвистическая модель речевого поведения // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. – М., 2003. – С. 79.
7. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – М., 2003. – С. 93 – 100.
8. Amossy R. L'argumentation dans le discours. - Paris, 2021.
9. Spaëth V. «Le concept de 'langue-culture' et ses enjeux contemporains dans l'enseignement/apprentissage des langues», 2014 <https://hal-univ-paris3.archivesouvertes.fr/hal-01423725/document>

Gulasal LATIPOVA,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,
Filologiya kafedrası katta o'qituvchisi
bahramovna@gmail.ru

FILOLOGIK TADQIQOTLARDA KORPUSNING METODOLOGIK ASOSLARI TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada amaliy tilshunoslikning juda ko'p tarmoqlari korpus lingvistikasi asosida yanada ravnaq topayotgani, til jamiyatning dinamik hodisasi sifatida kishilarning ongi va nutqida o'zining ifodasini topishi hamda turkiy tillarning barchasi uchun mukammal til korpuslari yaratilib, zamonaviy avtomatlashgan lingvistik lug'atlar yaratilayotgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *til korpuslari, avtomatlashgan lingvistik lug'atlar, leksikografik tadqiqotlar, amaliy tilshunoslik, korpus.*

Аннотация: в данной статье рассматривается тот факт, что многие разделы прикладной лингвистики развиваются на основе корпусной лингвистики, что язык, как динамичное явление общества, находит свое выражение в умах и речи людей, и что создаются превосходные языковые корпуса для всех тюркских языков, а также разрабатываются современные автоматизированные лингвистические словари.

Ключевые слова: *языковые корпуса, автоматизированные лингвистические словари, лексикографические исследования, прикладная лингвистика, корпус.*

Annotation: this article discusses the fact that many branches of applied linguistics are further developing on the basis of corpus linguistics, that language, as a dynamic phenomenon of society, finds its expression in the minds and speech of people, and that excellent language corpora are being created for all Turkic languages, and modern automated linguistic dictionaries are being created.

Key words: *language corpora, automated linguistic dictionaries, lexicographic research, applied linguistics, corpus.*

Shu kunlarda amaliy tilshunoslikning juda ko'p tarmoqlari korpus lingvistikasi asosida yanada ravnaq topyapti, desak yanglishmagan bo'lamiz. Til jamiyatning dinamik hodisasi sifatida kishilarning ongi va nutqida o'zining ifodasini topadi. Ayniqsa, leksikografik tadqiqotlar XXI asrning globallashuv, integrallashuv davrida yanada takomillashib bormoqda. Shuni alohida qayd etish o'rinliki, tilning leksikografik jihatlarini doimiy ravishda kuzatib borish, unga lingvistik baho berish, tahlil qilish va yangi kirib kelayotgan so'zlarning muqobillarini aniqlash yoki standartlashtirish me'yorlariga amal qilishda kompyuter texnologiyalari yordamida mazkur masalalarni hal qilish muayyan darajada qulay sanaladi. Tilning leksik qatlami kishilar muloqotining ham og'zaki, ham yozma muloqotida aks etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tilning sofliqini saqlash, undagi jamiki leksik birliklarni avtomatik tahlil qilish, yani tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) lug'atlarni elektronlashtirish yoki

ularning raqamli resurslarini yaratish muhim sanaladi.

Korpus lingvistikasida dastlab Brown korpus, Britaniya Milliy korpusi, COCA, LOB kabi korpuslar yaratilib, ularning amaliy ahamiyatni filologiyaning turli tarmoqlari uchun joriylangan bo'lsa-da, kompyuter leksikografiyasida turkiy tillarning barchasi uchun mukammal til korpuslari yaratilib, zamonaviy avtomatlashgan lingvistik lug'atlar yaratilgan deb ayta olmaymiz.

Kompyuter lingvistikasi sohasi zamonaviy tilshunoslikning eng istiqbolli sohalardan biri sifatida korpusning amaliy ahamiyatidan to'g'ri foydalanib, til bilan bog'liq masalalarda korpusdan unumli foydalandi. Tabiiyki, bu tadqiqotlar o'zining amaliy natijasini ko'rsata oldi. Masalan, mashina tarjiması, sentiment tahlil, savol-javob tizimi, kompyuter leksikografiyasi, ontologiya va semantik texnologiya, matnni refertalash kabi qator yo'nalishlarda korpusning katta rolini ko'rish mumkin. Bugungi

kunda ChatGPT intellektual tizimining sun'iy intellektning eng yuqori ko'rinishi sifatida matn shaklidagi ma'lumotlardan foydalanib bilimlar manbasiga aylangani va istalgan mavzuda so'rovga javob bera olayotgani fan olamini hayratga solmoqda.

Kam resursli tillar deyilganda raqamli ma'lumotlar bazasi u darajada boy bo'lmagan tillar nazarda tutiladi. Korpus endilikda filologik tadqiqotlarda qator hodisalarni instrument sifatida analiz qilish uchun muhim rol o'ynayotganligi bir nechta tadqiqotlarda qayd etiladi. Xususan, korpus u darajada boy bo'lmagan, lingvistik annotatsiyalanmagan yoki janr jihatdan baravar taqsimlanmagan tillar uchun leksikografik tadqiqotlar olib borishda katta korpuslarga nisbatan ijobiy natijalar olish mumkinligi, makrostruktura (korpusning umumiy so'z sig'imi) uchun so'zlarni kengaytirib borish, ayniqsa katta hajmdagi korpusdan muayyan so'zni analiz qilishdan ko'ra kichik hajmdagi biroq ixtisoslashgan soha yoki maqsadga yo'naltirilgan korpuslardan unumli foydalanish mumkinligi D.Prinslu tomonidan olib borilgan afrika tillari misolida asoslab berilgan. Bizningcha ham, sohaviy yo'naltirilgan korpuslar garchi kichik hajmli bo'lsa-da, biroq u yoki bu so'zni aynan o'sha soha uchun o'rganishda yetarli bo'ladi.

Semina Olga korpus asosida ingliz va rus tillaridagi zoonimlarning ko'chma ma'nolarini tadqiq qilgan. Olima zoonimlarining umumiy chastotasini Britaniya milliy korpusi va rus tili milliy korpusi orqali ikkala til korpusida so'zlardan foydalanish sonining foizi sifatida

deyarli bir xil 0,285738 % va 0,385955% ekanligi, lekin u zoonim turlarining nomlari ishlatilishidagi farqlarni belgilovchi omillar ta'sirida bir-biridan farq qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

D.Biberning fikricha, lug'atshunos biror so'zni chetda qoldirmaslik uchun korpus katta hajmda bo'lishi lozimligini, shuningdek, matnlar soni shunchaki ko'p miqdorda emas, balki ular janr va uslub jihatdan teng bo'lishini ta'kidlaydi. Ana shunda turli tizimli tillarni solishtirish imkoniyati yaratilishini ta'kidlaydi.

1990-yillarda amaliy tilshunoslikda lingvistik tadqiqotlarning korpusga asoslangan tadqiqiga doir qator izlanishlar olib borildi. M. Halliday miqdoriy o'zgarish sifat o'zgarishiga olib kelishini lingvistik jihatdan asoslashga intildi. Tilshunoslar tomonidan korpusdan olinadigan ma'lumotlar lingvistik voqelik va lingvistik nazariya haqidagi bir-biriga mos va mos bo'lmagan qoidalarni statistik tahlil qilish asosida tezroq va sifatli tarzda tahlil qilish imkoniyatini korpus lingvistikasida erishish mumkinligini ta'kidlagan. Korpus lingvistikasi matn tilshunosligi borasida ham mazmunni anglashda lingvistlarning yondashuvlarini muayyan darajada o'zgartirdi. Biroq olimlarning korpus lingvistikasida olib borgan kuzatisharida matnning yaxlitligi asosida kelib chiquvchi xulosadan korpus asosida olingan natijalarning farqi nimalardan iborat ekanligini tekshirish asosiy planga ko'tarildi. Y.Tognini quyidagi jadvalni misol sifatida keltiradi: (15-rasm).

Table 2.1 A qualitative comparison of a text versus a corpus

<i>A text</i>	<i>A corpus</i>
read whole	read fragmented
read horizontally	read vertically
read for content	read for formal patterning
read as a unique event	read for repeated events
read as an individual act of will	read as a sample of social practice
instance of <i>parole</i>	gives insights into <i>langue</i>
coherent communicative event	not a coherent communicative event

Bunda matn bilan korpusning o'ziga xos jihatlari solishtirilgan. Unga ko'ra, matnda umumiylik, gorizontall tahlil, kontent uchun o'qish, yogona birlik sifatida o'qish, muayyan birlikni xohishga qarab matnni parol sifatida o'qish kommunikativ hodisani tushunish mumkinligi, korpusda esa matn fragmentlarini o'qish,

matnni vertikal holatda o'qish, formal modellarni aniqlash imkoniyatining mavjudligi, hodislarni qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy tajriba misolida matnni o'qish, tilni mantiqiy kommunikativ voqelik sifatida emas lisoniy hodisaning ichki imkoniyatlarini tahlil qilish kabi imkoniyatlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Parallel korpus yordamida mashina tarjimasi yuqori cho'qqiga ko'tarilmoqda, bunga bir qancha tadqiqotlarni dalil sifatida keltirish mumkin. Dunyo tillari orasida ko'p tilli parallel korpuslarning yaratilishi va ularning natijasida boshqa lingvist ishlanmalariga integratsiya qilinishi tillarning taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Masalan, CONCEDE (ilk bolgariya tili leksik ma'lumotlar bazasi – first lexical database) loyihasi orqali amalga oshirilgan. Bu leksik ma'lumotlar bazasi Orwell deb nomlangan ko'p tilli parallel korpus asosida shakllantirilgan. Bolgar-ingliz tili parallel korpusi Orwell romanlar tarjimasi asosidagi parallel korpus dastlabki bolgar-polyak tillaridagi parallel korpusdir. Bu korpus L.Dmitrova rahbarligidagi "Bilingval elektron lug'at yaratishda semantika va chog'ishtirma tilshunoslik" deb nomlangan loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Ta'kidlaganimizdek korpus Bolgar va polyak yozuvchilarining hikoyalari, romanlari, bolalar adabiyoti va ilmiy asarlari asosida uch million so'zdan iborat parallel va chog'ishtirma korpusdan iborat bo'lgan. Korpusning ozroq qismi internetda mavjud bo'lgan yevropa komissiyasi hujjatlaridan

tashkil topgan parallel korpuslardan iborat. Ushbu korpuslar asosida raqamli lingvistik resurs yaratish maqsad qilib qo'yilgan. Bolgar, chex, estoniya, vengriya, ruminiya tillari uchun uch ming so'zdan iborat leksik bilimlar bazasi hamda ingliz-sloveniya lug'atidan olingan besh yuz leksik resursdan iborat bo'lgan. Ushbu lingvistik resurs the Text Encoding Initiative yo'riqnomasi ostida yaratilgan. Parallel korpusdan olingan so'zlar chastotasi aniqlangandan keyin bosh so'zlar saralab olingan. Ushbu korpusda lingvistik resurs *sifat so'z* turkumlari jihatdan teglangan.

Bizga ma'lumki Korpuslar umumiy va xususiy korpuslarga bo'linadi. Umumiy korpuslar deyilganda, yozma va og'zaki matnlar uslub jihatdan teng taqsimlanib turli auditoriyani qamrab oluvchi turlariga aytiladi. Britaniya milliy korpusi, rus tili milliy korpusi, Brown korpusi, LOB va boshqa tillarda yaratilgan korpuslarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Bundan tashqari mega korpuslar ham bo'lib, ular doimiy ravishda internet ma'lumotlari hisobiga doimiy ravishda ma'lumotlari yangilanib boradi. Lingvistik tadqiqotlarda korpus turlarini, uning amaliy ahamiyatini bilish juda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prinsloo D.J. Corpus-based Lexicography for Lesser-resourced Languages – Maximizing the Limited Corpus // Lexikos 25 (AFRILEX-reeks/series 25: 2015): 285-300
2. Семина О. Ю. Вторичные значения зоонимов русского и английского языков (на материале национальных корпусов) автореф...дисс. на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Орел 2008. – Б. 27.
3. Biber D. Methodological issues regarding corpus-based analyses of linguistic variation. Literary and Linguistic Computing 5 (4), 1990. – P. 257-269.
4. The Routledge Handbook of Corpus Linguistics // What corpora are available? David Y. W. Lee, 2010 – P. 118.
5. Rundell M. The road to automated lexicography: an editor's viewpoint / Electronic Lexicography (ed. Sylviane Granger and Magali Paquot), Oxford university press, 2012. – P. 22.
6. Dimitrova L. From Electronic Corpora to Online Dictionaries (on the Example of Bulgarian Language Resources) / NLP, Corpus Linguistics, Corpus Based Grammar Research Fifth International Conference Smolenice, Slovakia, 25-27 November 2009. – P. 81.

Xulkar RAXMATOVA,

JDPU, Filologiya fakulteti,

O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: xulkarraxmatova737@gmail.com

ZID MA'NOLI SO'ZLARNI KORPUS MATERIALLARI ASOSIDA LEKSIKOGRAFIK TALQIN QILISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zid ma'noli so'zlarni korpus materiallari asosida leksikografik talqin qilish va ularni raqamli muhitga integratsiya qilish masalalari tahlil qilingan. Korpus leksikografiyasining afzalliklari, antonimlarni avtomatik teglash, kollokatsiyasi hamda ularning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va avtomatik tarjimalardagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, korpus leksikografiyasi, antonimiya, teglash (tagging), kollokatsiya, avtomatik tarjima, NLP.

Annotation: the article analyzes the lexicographical interpretation of antonyms based on corpus materials and their integration into digital environments. It highlights the benefits of corpus lexicography, automatic tagging, collocation analysis, and their role in machine translation and NLP.

Key words: corpus linguistics, corpus lexicographical analysis, antonymy, tagging, collocation, machine translation, NLP.

Аннотация: в статье анализируются вопросы лексикографической интерпретации антонимов на основе корпусных материалов и их интеграция в цифровую среду. Освещаются преимущества корпусной лексикографии, авторазметка, сочетаемость антонимов и их роль в автоматическом переводе и NLP.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, корпусная лексикография, антонимия, теггирование, коллокация, автоматический перевод, NLP.

Jahon tilshunosligida kompyuter va korpus lingvistikasi masalalariga e'tibor XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran jadallashgan bo'lsa, XXI asrga kelib ulkan hajmli raqamli ma'lumotlar bazalari – til korpuslarining yaratilishi bilan ushbu soha sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lib, til korpuslarini tuzish, ularni kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishning umumiy nazariyasi va metodologiyasini tadqiq etadi.

Ushbu sohaning asosiy tadqiqot obyekti til korpusi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda til korpusiga turli yondashuvlar asosida ta'riflar berilgan. Xususan, korpus – alohida tilning og'zaki va yozma matnlari asosidagi lingvistik ma'lumotlar majmui [1]; muayyan maqsadda yig'ilgan va tizimlashtirilgan til birliklarining yig'indisi [2]; muayyan tildagi elektron shaklda saqlanadigan, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga integratsiya qilingan yozma yoki og'zaki matnlar to'plamidir [3]. Shundan kelib chiqqan holda til korpusini belgilangan davr, xilma-xil janr, uslubiy hamda hududiy-ijtimoiy variantlarni qamrab oluvchi, maxsus dasturiy ta'minot asosida faoliyat yurituvchi elektron matnlar bazasi sifatida ta'riflash mumkin.

Bugungi kunda avtomatik tarjima sifatini oshirish, elektron lug'atchilikni takomillashtirish va lingvistik korpuslardan amaliy foydalanish axborot texnologiyalarini tilshunoslikka tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlaridan

biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, til birliklarini, xususan, zid ma'noli so'zlarni korpus materiali sifatida teglash tamoyillarini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslik va leksikografiya oldida turgan dolzarb masaladir.

Zid ma'noli so'zlarni korpus tahlili metodlari yordamida o'rganish G'arb tilshunosligida o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab izchil tadqiq etila boshlandi. J.Justeson va S.Katz tomonidan ilgari surilgan "antonimik juftliklarning bir kontekstda birga qo'llanilish tendensiyasi" gipotezasi korpus leksikografiyasiga poydevor bo'lib xizmat qildi [4]. Keyinchalik S.Jones Britaniya milliy korpusi (BNC) materiallari asosida antonimlarning matnda namoyon bo'ladigan 11 ta asosiy funksiyasini (kontrastiv, muvofiqlashtiruvchi va b.) ajratib ko'rsatdi [5]. Mazkur yondashuv leksikografik manbalarda antonimlarni nafaqat semantik qarama-qarshi birlik, balki ularning matn hosil qilishdagi diskursiv vazifalarini ham ochib berish imkonini yaratdi.

O'zbek tilshunosligida antonimiya masalalari an'anaviy yo'nalishda Sh.Rahmatullayev, R.Shukurov va N.Mamatov kabi olimlar tomonidan tizimlashtirilgan bo'lib, bu borada 1980-yilda chop etilgan "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" sohaga qo'shilgan muhim hissa hisoblanadi [6]. Biroq an'anaviy lug'atlarda misollar asosan, badiiy adabiyot matnlari bilan cheklangan bo'lib, tilshunosning lisoniy sezgisi va subyektiv tanloviga tayangan. Bugungi kunda mamlakatimizda o'zbek tili milliy korpusini yaratish, so'zlarning elektron bazasini shakllantirish va teglash

muammolari korpus lingvistikasining muhim nazariy-amaliy masalalari sifatida tadqiq etilmoqda [7].

Zid ma'noli so'zlarning leksikografik talqini an'anaviy lug'atchilikda muayyan statik qoliplarga ega bo'lsa-da, ularni korpus muhitida taqdim etish dinamik va obyektiv yondashuvni talab etadi. Korpus lingvistikasi zid ma'noli so'zlarni ulkan hajmdagi real matnlar (*big data*) tarkibida, ularning haqiqiy qo'llanilish chastotasi va birga keluvchanlik (*kollokatsiya*) xususiyatlari bilan birga tahlil qilish imkonini beradi. Korpus materiallari asosida antonimlarni tadqiq etishda quyidagi muammolarni bosqichma-bosqich hal etish talab etiladi:

Polisemiya sharoitida antonimik juftlikni aniqlash: so'zning ko'p ma'noliligi sharoitida uning har bir leksik-semantik variantiga mos keladigan korpusga asoslangan alohida antonimik juftni avtomatik ajratib olish.

Statistik va chastotaviy tahlil: muayyan antonimik juftliklarning (masalan, *yaxshi – yomon*, *boy – kambag'al*) turli uslub hamda janrlarga oid matnlarda uchrash ko'rsatkichlarini hisoblash.

Kontekstual (okkazional) antonimiyani aniqlash: an'anaviy lug'atlarda qayd etilmagan, lekin korpus matnlarida muayyan kontekstual sharoitda zidlanish munosabatiga kirishayotgan birliklarni avtomatik aniqlash.

Semantik va sintaktik teglash: korpusdagi har bir so'z shakliga leksik-semantik teglar berish orqali zid ma'noli birliklarning semantik maydonini modellashtirish hamda ularning matndagi sintaktik konstruksiyalarini ("... *emas*, *balki ...*", "*goh ...*, *goh ...*") avtomatik parser va tagger dasturlariga integratsiya qilish.

Kompyuter lingvistikasida antonimik juftliklarni aniqlash algoritmlari so'zning matniy qurshovi, ya'ni distributsiyasiga asoslanadi. Agar ikki so'z deyarli bir xil kontekstual qurshovga ega bo'lib, qarama-qarshi qutblarda joylashsa, dasturiy algoritmlar ularni zid ma'noli birliklar sifatida tasniflaydi.

Tilshunoslikda korpusga asoslangan leksikografik talqinda zid ma'noli so'zlarning qo'llanish chastotasi

muhim mezon hisoblanadi. Chastota ko'rsatkichlari asosida o'quv lug'atlarida qaysi zid ma'noli juftliklarni tanlash, ularning asosiy yoki ikkilamchi ma'nolarini ajratish mumkin bo'ladi. Bu ayniqsa, o'quvchilar uchun mo'ljallangan lug'atlarda so'zlikni optimallashtirish va faollik darajasi yuqori bo'lgan birliklarni ustuvor kiritish imkonini beradi. Zid ma'noli so'zlarning korpus materiallari asosida talqin qilinishi ularning semantik turlarini aniq belgilashga ham xizmat qiladi. Jumladan, korpus misollari asosida gradual, komplementar, konversiv antonimlarning real nutqdagi farqlari, qarama-qarshilik darajasi va ularning stilistik vazifalari aniqlanadi. Bu esa o'quv lug'atlarida antonimlik munosabatini faqat "qarama-qarshi ma'no" sifatida emas, balki tizimli semantik munosabat sifatida yoritish imkonini beradi. Shuningdek, korpus materiallari antonimlarning sintagmatik aloqalarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Zid ma'noli so'zlarning parallel konstruksiyalarda, qarama-qarshi qo'shimcha birliklar bilan yoki muayyan bog'lovchilar yordamida qo'llanishi korpus tahlili orqali aniqlanadi. Bunday ma'lumotlar lug'at maqolalarida izohni boyitish, tipik nutqiy namunalarni berish hamda antonimlarning uslubiy chegaralarini ko'rsatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Korpus materiallari asosida tuzilgan leksikografik talqin, ayniqsa, o'quv lug'atlarida didaktik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Real nutqdan olingan misollar o'quvchilarning so'z ma'nosini kontekstda anglash, zid ma'noli birliklarni to'g'ri qo'llash va ularning pragmatik funksiyasini tushunishiga yordam beradi. Bu esa o'quv lug'atini statik ma'lumotlar majmuasidan faol o'quv vositasiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zid ma'noli so'zlarni korpus materiallari asosida tadqiq etish til birliklarini teglash tamoyillarini takomillashtirishga va o'zbek tili kompyuter lingvistikasining nazariy-metodologik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, sun'iy intellekt tizimlarining o'zbek tilini tabiiy qayta ishlash (NLP) imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. – Oxford: Oxford University Press.
- 2.McEnery, T., & Wilson, A. (2001). *Corpus Linguistics: An Introduction*. Edinburgh University Press.
- 3.Захаров, В. П., & Мартыненко, Г. Я. (2014). *Корпусная лингвистика*. – Санкт-Петербург: СПбГУ.
- 4.Justeson, J. S., & Katz, S. M. (1991). Co-occurrence of antonyms in natural text. *Computational Linguistics*, 17(1), 1-19.
- 5.Jones, S. (2002). *Antonymy: A corpus-based perspective*. – London: Routledge.
- 6.Rahmatullayev, Sh., Shukurov, R., Mamatov, N. (1980). *O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi.
- 7.Mengliyev, B. va b. (2020). *O'zbek tili korpus lingvistikasi va elektron bazalarni yaratish masalalari*. – Toshkent: Fan.

Lobar DONAYEVA,

Tadqiqotchi

Ilmiy rahbar: S MUSTAFAYEVA

lboymurodova@mail.ru

HOZIRGI XITOIY TILIDA 歇后语 (JUMBOQLI IBORALAR)NING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada hozirgi xitoy tilidagi 歇后语 (xièhòuyǔ) — ikki qismli allegorik frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu birliklarni nafaqat struktur-semantik hodisa sifatida, balki **implicature, ellipsis va madaniy presuppozitsiya o'zaro integratsiyasiga asoslangan kognitiv-pragmatik diskurs birliklari** sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

Tahlil jarayonida 歇后语 larning yashirin ma'no hosil qilish mexanizmlari, ya'ni explicit va implicit qismlar o'rtasidagi pragmatik assimetriya orqali inferensial talqin jarayoni yoritildi. Shuningdek, ularning xitoy lingvomadaniy tizimi bilan bog'liqligi hazil, kinoya, baholash va evfemistik ifoda yaratishdagi funksional imkoniyatlarini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 歇后语lar zamonaviy kommunikatsiyada faol qo'llaniluvchi, dinamik rivojlanuvchi diskurs birliklari bo'lib, ular xitoy nutq madaniyatida bilvosita ifoda strategiyalarining muhim vositasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: 歇后语, lingvopragmatika, implicature, ellipsis, madaniy presuppozitsiya, xitoy frazeologiyasi, diskurs, bilvosita kommunikatsiya.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности 歇后语 (xièhòuyǔ) — двухчастных аллегорических фразеологических единиц современного китайского языка. Научная новизна исследования заключается в их интерпретации не только как традиционного фразеологического явления, но и как **когнитивно-прагматических дискурсивных единиц, основанных на взаимодействии имплицатуры, эллипсиса и культурной пресуппозиции.**

В работе анализируется механизм формирования скрытого смысла, возникающего на основе прагматической асимметрии между эксплицитной и имплицитной частями выражения. Особое внимание уделяется роли культурного контекста, обеспечивающего интерпретацию метафорических, иронических и оценочных значений данных единиц.

Результаты исследования показывают, что 歇后语 представляют собой динамические единицы дискурса, отражающие стратегии косвенной коммуникации в китайской языковой картине мира и обладающие высокой функциональной адаптивностью в современном (включая цифровой) дискурсе.

Ключевые слова: 歇后语, лингвопрагматика, имплицатура, эллипсис, культурная пресуппозиция, китайская фразеология, дискурс, косвенная коммуникация.

Annotation: this paper examines the linguopragmatic properties of 歇后语 (xièhòuyǔ), a distinctive class of two-part allegorical expressions in Modern Chinese phraseology. The novelty of the study lies in its conceptual shift from a purely structural or semantic interpretation toward an integrated cognitive-pragmatic discourse framework, where xièhòuyǔ are analyzed through the interaction of **implicature, ellipsis, and cultural presupposition.**

The study highlights the pragmatic asymmetry between the explicit first part and the implicit second part of these expressions, which enables inferential reconstruction of meaning in context-dependent communication. Particular emphasis is placed on the role of shared cultural knowledge in activating metaphorical, ironic, humorous, and evaluative interpretations.

The findings demonstrate that xièhòuyǔ function not merely as fixed idiomatic units but as dynamic discourse mechanisms encoding indirect communication strategies in Chinese linguistic culture. Moreover, they show high adaptability in contemporary digital discourse environments, where implicit and compressed communication is increasingly dominant.

Keywords: xièhòuyǔ, linguopragmatics, implicature, ellipsis, cultural presupposition, Chinese phraseology, discourse analysis, indirect communication.

Kirish. Xitoy tili dunyo tillarining eng qadimiylaridan biri bo'lib, uning frazeologik tizimi o'ta murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega. Bu tizimda alohida o'rin tutuvchi 歇后语 (xiehouyu) frazeologik birliklar o'zining noyob ikki qismli tuzilishi, chuqur madaniy ildizlari va kuchli pragmatik salohiyati bilan tilshunoslik tadqiqotlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi hozirgi xitoy tilidagi 歇后语 birliklarining lingvopragmatik mexanizmlarini aniqlash va ularning diskursdagi inferensial ishlash modelini yoritish.

歇后语 so'zma-so'z tarjimada "so'nggi qismini o'tkazib yuborilgan ibora" degan ma'noni anglatadi va bu atamaning o'zi ham ushbu birliklarning asosiy xususiyatini to'liq aks ettiradi [1]. Xitoy tili frazeologik tizimi murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, unda 歇后语 (xiehouyu) alohida lingvomadaniy birlik sifatida ajralib turadi. Ular ikki qismli strukturaga ega bo'lib, birinchi qism obrazli kod, ikkinchi qism esa semantik yechim vazifasini bajaradi. Kundalik nutqda ko'pincha faqat birinchi qism ishlatilishi natijasida ikkinchi qism implicature orqali tiklanadi. Bu hodisa ularni pragmatik nuqtayi nazardan o'rganishni dolzarb qiladi [2]. Zamonaviy xitoy tilshunosligida 歇后语larni o'rganish nafaqat frazeologik, balki pragmatolingvistik, kognitiv va lingvomadaniy yo'nalishlar nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek va rus tilshunosligida 歇后语lar asosan, frazeologik yoki semantik jihatdan o'rganilgan, biroq ularning:

- implicatura aktivatsiyasi,
- ellipsis orqali ma'no rekonstruksiya,
- madaniy presuppozitsiyaga asoslangan inferensiyasi yetarli darajada integrativ pragmatik modelda tahlil qilinmagan, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi [3].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi unda 歇后语 frazeologik birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari kompleks tahlil qilinib, ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari, implicatura (yashirin pragmatik ma'no) hosil qilish, ellipsis (shakliy qisqartirish)dan foydalanish hamda madaniy presuppozitsiya (yashirin pragmatik ma'noni tushunish uchun zarur bo'lgan xitoy madaniyatiga oid fon bilimlari)ni ifodalash mexanizmlari tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, mazkur birliklarning pragmatik ma'no hosil qilishdagi o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflangan.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot chop etilgan ilmiy manba va lug'atlar asosida olib borilgan bo'lib, deskriptiv-tahliliy, qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanilgan. 歇后语 muammosi xitoy tilshunosligida ancha keng tadqiq etilgan. Xitoy olimasi Wen Duanzheng 歇后语larni uch asosiy turga ajratadi: analogik (比喻型), ikki ma'noli fonetik o'yin asosiga qurilgan (谐音型) va bevosita ma'noni ifodalovchi (直意型) turlar [4]. Ushbu tasnif keyingi ko'plab tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. 温端政ning "歇后语词典" asari ushbu sohaning fundamental manbai sifatida tan olingan va uning tasnifi zamonaviy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi.

Yuan Bingling esa 歇后语larning kognitiv-semantik xususiyatlarini tadqiq etib, ularning metaforik va metonimik mexanizmlar asosida ishlashini asoslagan [5]. Ushbu ikki mexanizmning o'zaro ta'siri 歇后语 ma'nosini tushunishni kognitiv jihatdan murakkab, ammo madaniy kontekstda tabiiy va intuitiv qiladi. Rus tilshunosligida Xitoy frazeologiyasiga oid ishlar orasida A.V. Kotovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u 歇后语larni kengroq idiomatik tizim doirasida ko'rib chiqadi va ularning rus tilidagi ekvivalentlari masalasini o'rta qo'yadi [6].

Pragmatika nuqtai nazaridan esa J.L. Austin va J.R. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi 歇后语larning kommunikativ vazifalari tahlilida keng qo'llaniladi [7]. Bu nazariya doirasida 歇后语lar asosan, ekspressiv va direktivlikdan ko'ra ko'proq baholash, ifoda va ijtimoiy aloqani mustahkamlash vazifalarini bajaradigan til birliklari sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida xitoy tili frazeologiyasini o'rganish nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti olimlarining ishlari bu borada muhim hissa qo'shmoqda [8].

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- deskriptiv tahlil
- qiyosiy-tipologik tahlil
- kognitiv-pragmatik interpretatsiya
- lingvomadaniy tahlil

Material sifatida zamonaviy xitoy tilidagi 歇后语 korpusi va frazeologik lug'atlar tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. 歇后语larning lingvopragmatik tahlili ushbu birliklarning bir qancha muhim xususiyatlarini ko'rsatib berdi. Tahlil natijasida

歇后语lar quyidagi uch komponentli pragmatik modelga ega ekanligi aniqlandi:

(1) **Explicit layer** – obrazli tasvir;

(2) **Implicit layer** – semantik yechim;

(3) **Inferential layer** – tinglovchi tomonidan tiklanadigan implicatura.

Bu model ularning diskursda ishlash mexanizmini tushuntiradi. Masalan, “泥菩萨过河 自身难保” (Loy Budda daryodan o‘tyapti – o‘zini o‘zi saqlab qola olmaydi) iborasi o‘z muammolari bilan band bo‘lgan kishini tasvirlash uchun ishlatiladi [4]. Bu misolda birinchi qism o‘zida ramziy obraz yaratib, ikkinchi qism uchun tayyor kontekst taqdim etadi.

歇后语larning pragmatik kuchi ulardagi ellipsis hodisasida mujassamlanadi. Mazkur birliklarning nutqda ko‘pincha birinchi qism bilan cheklanishi, ya‘ni ikkinchi qismni aytmaslik an‘anasi tilshunoslikda “lingvistik ixchamlik” sifatida ta‘riflanadi va bu xususiyat ularni xitoy nutq madaniyatining o‘ziga xos belgisiga aylantiradi [2]. Bu holat tinglovchining fon bilimini faollashtirish orqali kommunikativ samarani oshiradi, ya‘ni “aytilmagan so‘z” implicature mexanizmi orqali anglashiladi, bu esa Grice kooperatsiya prinsipining o‘ziga xos namoyishi hisoblanadi [7]. Grice nazariyasiga ko‘ra, 歇后语larning ikkinchi qismining tushirib qoldirilishi *conversational implicature* hosil qiladi. Tinglovchi kontekst va umumiy madaniy bilimlar asosida yashirin ma‘noni tiklaydi.

歇后语lar o‘zlarida xitoy xalqining tarixiy xotirasi, mifologiyasi, kundalik turmushi va qadriyatlarini saqlab keladi. 歇后语lar xitoy madaniy xotirasi, mifologiyasi va tarixiy tajribasini kodlovchi birliklar bo‘lib, ular:

- hazil
- kinoya
- baholash
- evfemizm

kabi pragmatik funksiyalarni bajaradi. Masalan, “姜太公钓鱼 愿者上钩” (Jiang Taigong baliq tutmoqda, xohlaganlar qarmog‘iga ilinadi) iborasi 3000 yildan ortiq tarixiy voqeaga ishora qiladi va shu bilan birga zamonaviy nutqda “majburlab bo‘lmaydi” ma‘nosini ifodalaydi [9]. Bu esa 歇后语larni oddiy frazeologik birliklardan farqlantiruvchi lingvomadaniy o‘lcham hisoblanadi.

歇后语larning struktur-semantik xususiyatlari asosida ular an‘anaviy ravishda metaforik (比喻型), fonetik o‘yinli (谐音型) va bevosita ma‘noli (直意型) turlarga ajratiladi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan misollar ham ushbu tasnifga muvofiq guruhlashtirildi.

3.1. Metaforik 歇后语lar (比喻型)

Mazkur tur eng keng tarqalgan bo‘lib, unda birinchi qism obrazli vaziyat yoki predmetni tasvirlaydi, ikkinchi qism esa ushbu obraz orqali ifodalanayotgan ma‘noni ochib beradi. Ma‘no asosan, metafora va assotsiativ tafakkur orqali shakllanadi. Metaforik 歇后语lar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval 1. Metaforik 歇后语lar

歇后语	So‘zma-so‘z ma‘nosi	Pragmatik ma‘nosi
泥菩萨过河——自身难保	Loy Budda daryodan o‘tmoqda	O‘zini himoya qila olmaydigan kishi
猫哭耗子——假慈悲	Mushuk sichqon uchun yig‘layapti	Soxta rahm-shafqat
黄鼠狼给鸡拜年——没安好心	Suvsar tovuqni tabriklamoqda	Yashirin yomon niyat
飞蛾扑火——自取灭亡	Uchayotgan kuya olovga otilmoqda	O‘zini halokatga olib borish
老虎屁股——摸不得	Yo‘lbarsning orqa qismi	Tegib bo‘lmaydigan mavzu yoki shaxs
兔子尾巴——长不了	Quyoning dumi uzun emas	Uzoq davom etmaydigan holat
热锅上的蚂蚁——团团转	Issiq tovadagi chumoli	Juda bezovta va tashvishli holat
井底之蛙——眼界太小	Quduq tubidagi qurbaqa	Tor dunyoqarashli inson
小葱拌豆腐——一清二白	Piyoz va tofu	Mutlaqo halol va pok
泥牛入海——无消息	Loy sigir dengizga tushdi	Daraksiz yo‘qolib ketish

Ushbu birliklarda pragmatik ma‘no bevosita emas, balki obraz orqali anglashiladi. Masalan, “黄鼠狼给鸡拜年——没安好心” iborasida tabiiy ravishda tovuqning dushmani bo‘lgan suvsarning tabrigi orqali yashirin yomon niyat ifodalanadi. Bunday iboralar nutqda kinoya, baholash, tanqid va emotsional ta‘sir vositasi sifatida qo‘llanadi.

3.2. Fonetik o'yinli 歇后语lar (谐音型)

Bu turdagi birliklar xitoy tilidagi omonim va omofonlarning mavjudligiga asoslanadi. Ikkinchi qism ko'pincha talaffuzi o'xshash, ammo ma'nosi boshqa bo'lgan so'zlar bilan bog'lanadi. Shu sababli ularni tushunish uchun nafaqat til, balki fonetik bilim ham zarur. Fonetik o'yinli 歇后语lar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval 2. Fonetik o'yinli 歇后语lar

歇后语	So'zma-so'z ma'nosi	Pragmatik ma'nosi
孔夫子搬家——尽是书（输）	Konfutsiy ko'chmoqda, hammasi kitob	Doim yutqazib yurish
外甥打灯笼——照旧（舅）	Jiyan fonus ko'tarib yuribdi	Avvalgidek davom etish
和尚打伞——无法（发）无天	Rohib soyabon ushlagan	Qonun-qoidaga bo'ysunmaslik
四两棉花——谈（弹）不上	To'rt liang paxta	Bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emas
戏台上的鞭子——加码（马）	Sahnadagi qamchi	Ishni yanada kuchaytirish
寿星弹琵琶——老生常谈（弹）	Uzoq umr ko'ruvchi kishi pipa chalmoqda	Eski gapni qayta-qayta takrorlash
咸菜烧豆腐——有言（盐）在先	Tuzlangan sabzavot va tofu	Oldindan ogohlantirish berish
卖草帽的丢扁担——留神（绳）	Shlyapa sotuvchi yelka tayog'ini yo'qotdi	Ehtiyot bo'lish kerak
哥哥不在家——少来（嫂来）这一套	Aka uyda yo'q	Bunday nayrangni ishlatma
秃子打伞——无法（发）无天	Kal odam soyabon ushlagan	Haddan oshib ketish

Masalan, “孔夫子搬家——尽是书（输）” iborasida 书 (shū, kitob) va 输 (shū, yutqazmoq) so'zlarining talaffuzi bir xil bo'lgani sababli fonetik o'yin yuzaga keladi. Natijada ibora “doimo yutqazib yuruvchi inson” ma'nosini anglatadi. Ushbu turdagi 歇后语lar hazil, yumor va so'z o'yini yaratishda muhim pragmatik vazifani bajaradi.

3.3. Bevosita ma'noli 歇后语lar (直意型)

Mazkur turda birinchi va ikkinchi qismlar o'rtasidagi aloqa nisbatan ochiq va tushunarli bo'lib, majoziy transformatsiya darajasi pastroq hisoblanadi. Tinglovchi yashirin ma'noni izlashga majbur bo'lmaydi. Bevosita ma'noli 歇后语lar 3-jadvalda keltirilgan.

Jadval 3. Bevosita ma'noli 歇后语lar

歇后语	So'zma-so'z ma'nosi	Pragmatik ma'nosi
姜太公钓鱼——愿者上钩	Jiang Taigong baliq ovlamogda	Majburlashsiz rozilik
八仙过海——各显神通	Sakkiz avliyo dengizdan o'tmoqda	Har kim o'z usulidan foydalanadi
打破砂锅——问到底	Choynakni sindirib bo'lsa ham so'rash	Oxirigacha surishtirish
船到桥头——自然直	Qayiq ko'priikka yetganda to'g'rilanadi	Muammo o'z vaqtida hal bo'ladi
三个臭皮匠——顶个诸葛亮	Uch etikdo'z bir Zhuge Liangga teng	Jamoaviy fikr kuchli
狗拿耗子——多管闲事	It sichqon ushlamoqda	Boshqalarning ishiga aralashish
竹篮打水——一场空	Bambuk savat bilan suv tashish	Mehnatning behuda ketishi
画蛇添足——多此一举	Ilunga oyoq chizish	Keraksiz ish qilish
擀面杖吹火——一窍不通	Xamir tayoqchasi bilan olov puflash	Hech narsani tushunmaslik
老鼠过街——人人喊打	Sichqon ko'chadan o'tmoqda	Hamma yomon ko'radigan shaxs

Masalan, “画蛇添足——多此一举” iborasida ortiqcha harakat qilish g'oyasi birinchi qismdagi voqea orqali juda aniq ifodalangan. Shu sababli uning pragmatik talqini murakkab kognitiv operatsiyalarni talab qilmaydi. Bunday birliklar ko'pincha nasihat, baholash va umumlashtirish funksiyalarini bajaradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 歇后语lar oddiy frazeologik birlik emas, balki **inferensial diskurs instrumentlari** hisoblanadi.

Ularning kommunikativ samaradorligi uch omilga asoslanadi:

1. obrazli metaforik kodlash
2. ellipsis orqali qisqartirish
3. madaniy presuppozitsiyaga tayanish

Bu omillar birgalikda yuqori darajadagi pragmatik zichlikni hosil qiladi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u hozirgi xitoy tilidagi 歇后语 birliklarining lingvopragmatik mexanizmlarini ochib berish orqali ularni tarjimashunoslik amaliyotida to'g'ri talqin qilish va ekvivalent tanlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, bu birliklarning implicit ma'no, ellipsis va madaniy presuppozitsiyaga asoslanganligi tarjimada faqat leksik emas, balki pragmatik ekvivalentlikni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari xitoy tili o'qitish jarayonida 歇后语larni o'rgatishda kognitiv-pragmatik yondashuvni qo'llash, ya'ni talabalarda yashirin ma'noni inferensiya orqali tiklash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish xitoy va o'zbek madaniy kommunikatsiyasini chuqurroq tushunishga, bilvosita ifoda strategiyalarini anglashga hamda interkultural muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pragmatik nomuvofiqliklarning oldini olishga imkon yaratadi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi xitoy tilidagi 歇后语 (xiehouyu) jumboqli iboralar murakkab struktur-semantik tuzilishga ega bo'lgan, kuchli lingvopragmatik salohiyatga ega frazeologik birliklar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 温端政. 歇后语词典 [Wen Duanzheng. Jumboqli iboralar lug'ati]. – Шанхай: Шанхайское лексикографическое издательство, 2004. 876 с.
2. 曹先擢, 苏培成. 汉字形义分析字典 [Cao Xianzhu, Su Peicheng. Xitoy ierogliflarining shakl va ma'no tahlili lug'ati]. – Пекин: Пекинский университет, 1999. 542 с.
3. Расулов Р.Р. Хитой тили фразеологиясини ўрганишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: ТДШИ нашриёти, 2018. 112 б.
4. 温端政. 中国歇后语大全 [Wen Duanzheng. Xitoy jumboqli iboralarining to'liq to'plami]. – Пекин: 语文出版社, 2008. 1230 с.
5. 袁宾灵. 歇后语的认知语义研究 [Yuan Bingling. Jumboqli iboralarining kognitiv-semantik tadqiqi]. – Шанхай: 复旦大学出版社, 2012. 234 с.
6. Котов А.В. Фразеология китайского языка: структура, семантика, прагматика. – Москва: Восточная литература, 2015. 318 с.
7. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
8. Юсупова Г.Н. Хитой тилидаги фразеологик birliklarнинг лингвомаданий хусусиятлари // Шарқшунослик. 2020. №3. Б. 45–52.
9. 王勤. 汉语熟语论 [Wang Qin. Xitoy tilining turg'un birikmalari haqida]. – Шанхай: 上海辞书出版社, 2006. 456 с.
10. Li Wei. Multilingualism and Language Change in the Chinese Digital Context // Journal of Sociolinguistics. 2022. Vol. 26. No. 2. P. 134–158.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, **metaforik 歇后语lar eng mahsuldor va keng qo'llaniladigan guruh** bo'lib, ular nutqda emotsional-ekspressivlik, baholash va kinoyaviy ifoda yaratishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Fonetik o'yin asosidagi birliklar esa xitoy tilining fonologik imkoniyatlaridan foydalanib, asosan, **hazil, so'z o'yini va ironik effekt** hosil qilishga xizmat qiladi. Bevosita ma'noli 歇后语lar esa kommunikatsiyada **didaktik, umumlashtiruvchi va axloqiy baholovchi funksiyalarni** bajarishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. 歇后语lar uch qatlamli pragmatik model asosida ishlaydi (explicit–implicit–inferensial).
2. Ularning asosiy mexanizmi implicature aktivatsiyasidir.
3. Ellipsis kommunikativ iqtisod va inferensiyaning kuchaytiradi.
4. Madaniy presuppozitsiya ularning to'liq tushunilishini ta'minlaydi.
5. Ular zamonaviy diskursda dinamik pragmatik birliklar sifatida faol qo'llaniladi.

Umuman olganda, 歇后语lar xitoy xalqining tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va obrazli tafakkurini o'zida mujassam etgan muhim lingvomadaniy birliklar bo'lib, ular zamonaviy nutqiy amaliyotda ham faol qo'llanilmoqda va raqamli kommunikatsiya sharoitida yangi pragmatik funksiyalar bilan boyib bormoqda. Shu sababli ularni lingvopragmatik va kognitiv jihatdan o'rganish kelgusida ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Ziyoda YUNUSOVA,
Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

FE'LLARNING SEMANTIK MA'NOVIY GURUHLARI TASNIFI (O'ZBEK VA YAPON TILIDAGI "AKERU-UCHMOQ" FE'LI ASOSIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada fe'llarning semantik-ma'noviy guruhlariga tasniflanishi o'zbek tilidagi "ochmoq" hamda yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe'llari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur fe'llarning asosiy va ko'chma ma'nolari, semantik tuzilishi, valentlik xususiyatlari hamda turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanish imkoniyatlari o'rganiladi. Tahlil davomida "ochmoq" va "akeru" fe'llarining eshik, deraza, idish, quti kabi predmetlarni ochish ma'nosi bilan bir qatorda, yo'l ochish, tadbirni boshlash, muassasa tashkil etish, sirni oshkor qilish hamda muayyan holatni yuzaga keltirish kabi semantik ko'rinishlari yoritiladi. Qiyosiy tahlil o'zbek va yapon tillaridagi ushbu fe'llar o'rtasida umumiy semantik belgilar mavjudligi bilan birga, ularning grammatik shakllanishi, obyekt bilan munosabati va ko'chma ma'nolarni ifodalashida muayyan farqlar kuzatilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *fe'l semantikasi, semantik-ma'noviy guruh, leksik-semantik variant, polisemiya, "ochmoq" fe'li, 「開ける」 (akeru) fe'li, birikuvchanlik.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the semantic classification of verbs, using the Uzbek verb *ochmoq* ("to open") and the Japanese verb 「開ける」 (*akeru*, "to open") as examples. It examines their primary and figurative meanings, semantic structures, valency properties, and usage in various communicative contexts. In addition to denoting the opening of objects such as doors, windows, containers, and boxes, the analysis explores other semantic realizations of these verbs, including opening a way, launching an event, establishing an institution, revealing a secret, and bringing about a particular state. The comparative analysis demonstrates that although the Uzbek and Japanese verbs share several common semantic features, they differ in their grammatical realization, relationships with objects, and expression of figurative meanings.

Key words: *verb semantics, semantic classification, lexical-semantic variant, polysemy, Japanese verb 「開ける」 (akeru), lexical combinability.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительный анализ классификации глаголов по семантико-смысловым группам на примере узбекского глагола «ochmoq» («открывать») и японского глагола 「開ける」 (*akeru* – «открывать»). Рассматриваются их основные и переносные значения, семантическая структура, валентностные свойства и особенности употребления в различных речевых ситуациях. Наряду со значением открывания таких предметов, как дверь, окно, сосуд или коробка, анализируются семантические варианты данных глаголов, выражающие открытие пути, начало мероприятия, учреждение организации, раскрытие тайны и создание определённого состояния. Сопоставительный анализ показывает, что при наличии общих семантических признаков между рассматриваемыми глаголами наблюдаются определённые различия в их грамматическом оформлении, отношениях с объектом и способах выражения переносных значений.

Ключевые слова: *семантика глагола, семантико-смысловая группа, лексико-семантический вариант, полисемия, глагол 「開ける」 (akeru), сочетаемость.*

Kirish. Fe'l tilning eng muhim va semantik jihatdan murakkab so'z turkumlaridan biri bo'lib, u harakat, holat, jarayon, o'zgarish va munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Fe'llarning ma'no tuzilishi muayyan xalqning borliqni idrok etish usuli, tafakkur tarzi hamda milliy-madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli turli tizimga mansub tillardagi fe'llarni semantik jihatdan qiyosiy o'rganish nafaqat ularning leksik va grammatik xususiyatlarini, balki til egalari dunyoqarashidagi umumiylik va farqlarni ham aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, ko'p ma'noli fe'llarning asosiy va hosila ma'nolarini, semantik kengayish mexanizmlarini hamda kontekstual xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbek va yapon tillari geneologik hamda tipologik jihatdan alohida til tizimlariga mansub bo'lsa-da, ularning grammatik qurilishida ayrim o'xshashliklar mavjud. Har ikkala til agglutinatativ xususiyatga ega bo'lib, grammatik ma'nolar, asosan, asosga turli qo'shimcha yoki yordamchi shakllarni biriktirish orqali ifodalanadi. Shunga qaramay, mazkur tillarda fe'lning leksik-semantik tuzilishi, grammatik kategoriyalari, valentligi va nutqdagi qo'llanish me'yorlari bir-biridan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilidagi "ochmoq" va yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe'llarining qiyosiy tahlili har ikki tilda harakatning konseptuallashtirilishi va lisoniy ifodalanishidagi o'ziga xosliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

"Ochmoq" o'zbek tilida faol qo'llanadigan, keng semantik imkoniyatlarga ega polisemantik fe'llardan biridir. Uning dastlabki ma'nosi yopiq, berk yoki to'silgan narsani ochiq holatga keltirish harakatini anglatadi: eshikni ochmoq, derazani ochmoq, qutini ochmoq. Biroq nutq jarayonida ushbu fe'lning ma'no doirasi sezilarli darajada kengayib, yo'l ochmoq, sirni ochmoq, hisob ochmoq, majlisni ochmoq, tashkilot ochmoq, mavzuni ochib bermoq, ko'nglini ochmoq

kabi birikmalarda turli mavhum, ijtimoiy, ruhiy va intellektual jarayonlarni ifodalaydi.

Yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe'li ham, avvalo, biror yopiq predmetni ochish yoki uning ochiq holatga o'tishiga sabab bo'lish ma'nosini anglatadi. Masalan, 「ドアを開ける」 (doa o akeru – eshikni ochmoq), 「窓を開ける」 (mado o akeru – derazani ochmoq) kabi birikmalarda ushbu fe'l aniq jismoniy harakatni bildiradi. Shu bilan birga, yapon tilida u joy bo'shatish, masofa qoldirish, teshik hosil qilish, idishni ochish yoki muayyan faoliyat uchun makon yaratish kabi ma'nolarda ham qo'llanadi. Biroq o'zbek tilidagi "ochmoq" fe'lining barcha ko'chma ma'nolari yapon tilida aynan 「開ける」 orqali berilmaydi. Masalan, tadbir yoki majlisni ochish ma'nosida 「開会する」 (kaikai suru), do'kon yoki muassasa ochish ma'nosida 「開店する」 (kaiten suru) yoxud 「開設する」 (kaisetsu suru), sirni ochish ma'nosida esa 「明らかにする」 (akiraka ni suru) kabi boshqa leksik vositalardan foydalanilishi mumkin. Bu holat ikki tilda bir xil tushunchaning turlicha leksik-semantik chegaralanishini ko'rsatadi. Yapon tilida yozilishi va ma'nosi bilan farqlanadigan 「開ける」 (akeru – biror narsani ochmoq yoki bo'sh joy qoldirmoq) hamda 「明ける」 (akeru – tun tugab, tong otmoq; muayyan muddat yakunlanmoq) shakllarini farqlash zarur. Ular talaffuz jihatidan bir xil bo'lsa-da, semantik mazmuni, ieroglif bilan ifodalanishi va birikuvchanlik xususiyatlari bilan o'zaro tafovutlanadi. Mazkur farq yapon tilidagi omonimik va polisemantik munosabatlarni to'g'ri talqin qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi "ochmoq" fe'li esa ayrim hollarda ushbu ma'nolarning bir qismini kontekst yoki turg'un birikmalar orqali ifodalashi mumkin.

Adabiyotlar metodologiyasi

Fe'llarning semantik tasnifi Ch.Fillmor, B.Levin, R.Jekendof va A.Vejbitskaya tadqiqotlarida semantik vaziyat, birikuvchanlik, konseptual tuzilma hamda ma'no komponentlari asosida yoritilgan. O'zbek tilshunosligida A.Hojiyev,

Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov va M.Mirtojiyev fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari, ko'p ma'noliligi hamda ma'no taraqqiyotini tadqiq etgan. Yapon tilshunosligida esa S.Kuno, M.Shibatani, T.Kageyama va Y.Hasegava fe'llarning semantik-sintaktik tuzilishi, valentligi va o'timli-o'timsiz munosabatlarini o'rgangan.

Tadqiqot materiallari o'zbek va yapon tillarining izohli hamda tarjima lug'atlari, badiiy va publitsistik matnlardagi misollardan shakllantirildi. Ishda tavsifiy, komponent, kontekstual va qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali "ochmoq" va 「開ける」 (akeru) fe'llarining bosh va hosila ma'nolari, semantik komponentlari hamda birikuvchanlik xususiyatlari aniqlandi. Qiyosiy tahlilda "eshikni ochmoq – ドアを開ける" kabi to'liq, "yo'l ochmoq – 道を開ける/切り開く" kabi qisman va "majlisni ochmoq – 開会する" kabi funksional muqobillik holatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tahlillar. O'zbek tilidagi "ochmoq" va yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe'llarining asosiy umumiy semasi yopiq yoki to'silgan obyektни ochiq holatga keltirishdan iborat. "Eshikni ochmoq – ドアを開ける", "derazani ochmoq – 窓を開ける" kabi birikmalarda ushbu fe'llar to'liq semantik muqobillik hosil qiladi. Har ikkala holatda ham subyektning obyektga ta'siri va buning natijasida yuz beradigan holat o'zgarishi ifodalanadi.

O'zbek tilidagi "ochmoq" fe'lining barcha ma'nolari yapon tilida 「開ける」 orqali ifodalanmaydi. Masalan, "joy ochmoq" ma'nosida 「空ける」, "majlisni ochmoq" da 「開会する」, "do'kon ochmoq" da 「開店する」, "hisob ochmoq" da 「口座を開設する」, "sirni ochmoq" da esa 「秘密を明かす」 birliklari ishlatiladi. Demak, o'zbek tilida bitta fe'l vositasida ifodalangan ma'nolar yapon tilida bir necha mustaqil leksik birliklarga taqsimlanadi. Yapon tilida talaffuzi bir xil bo'lgan 「開ける」, 「空ける」 va 「明ける」 fe'llari yozilishi hamda semantik

xususiyatlari bilan farqlanadi. 「開ける」 yopiq narsani ochishni, 「空ける」 joyni bo'shatish yoki oraliq qoldirishni, 「明ける」 esa tun yoki muayyan muddatning tugashini ifodalaydi. O'zbek tilida esa ushbu ma'nolarning ayrimlari "ochmoq" fe'li yoki u bilan bog'liq birikmalar yordamida berilishi mumkin. Tahlil natijalari "ochmoq" fe'lining semantik doirasi 「開ける」 fe'liga nisbatan kengroq ekanini ko'rsatadi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida o'zbek tilidagi "ochmoq" va yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe'llarining asosiy semantik yadrosi yopiq, berk yoki to'silgan obyektни ochiq holatga keltirishdan iborat ekanligi aniqlandi. Bu ma'no "eshikni ochmoq – ドアを開ける", "derazani ochmoq – 窓を開ける" kabi birikmalarda to'liq namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ham fe'l subyektning obyektga bevosita ta'sirini, obyektning dastlabki holati o'zgarishini va harakatning muayyan natija bilan yakunlanishini bildiradi. Demak, mazkur fe'llarning prototipik semantik modeli "yopiq holat → tashqi ta'sir → ochiq holat" ketma-ketligiga asoslanadi.

Yapon tilida esa o'zbek tilidagi "ochmoq" fe'liga xos ma'nolar bir necha alohida leksik birliklar o'rtasida taqsimlangan. 「開ける」, asosan, eshik, deraza, quti, idish kabi yopiq obyektlarni ochish hamda teshik hosil qilish ma'nolarida qo'llanadi. Joyni bo'shatish yoki oraliq qoldirishda 「空ける」 (akeru), tun yoki muayyan vaqt davrining yakunlanishini ifodalashda 「明ける」 (akeru), tadbirni boshlashda 「開会する」 (kaikai suru), muassasa yoki hisob tashkil etishda 「開設する」 (kaisetsu suru), sirni oshkor qilishda esa 「明かす」 (akasu) fe'llari ishlatiladi. Bu holat yapon tilida semantik farqlar leksik jihatdan nisbatan aniq chegaralanganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida "ochmoq" va 「開ける」 o'rtasidagi semantik munosabatlarning uch darajasi aniqlandi. Birinchi daraja – to'liq muqobillik bo'lib, u bevosita jismoniy harakatni ifodalovchi "eshikni ochmoq – ドアを開ける" kabi birikmalarda kuzatiladi.

Ikkinchi daraja – qisman muqobillik bo‘lib, “yo‘l ochmoq – 道を開ける / 道を切り開く” misolida harakatning konkret yoki ko‘chma xususiyatiga qarab turli yaponcha birliklar tanlanadi. Uchinchi daraja – funksional muqobillik bo‘lib, “majlisni ochmoq – 開会する” yoki “sirni ochmoq – 秘密を明かす” kabi holatlarda ma‘no saqlanadi, biroq tarjimada boshqa leksik birlik qo‘llanadi.

Yapon tilidagi 「開ける」 (akeru – ochmoq), 「空ける」 (akeru – bo‘shatmoq) va 「明ける」 (akeru – tun yoki muddat tugamoq) fe‘llari talaffuz jihatidan bir xil bo‘lsa-da, ieroglif yozuvi, ma‘nosi va birikuvchanligi bilan o‘zaro farqlanishi aniqlandi. Mazkur holat yapon tilida yozuv belgilarining semantik farqlash vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa bunday ma‘nolar alohida grafik belgilar bilan emas, balki kontekst, yordamchi birliklar va so‘z birikmalari orqali farqlanadi.

Natijalar ikki tilda fe‘l semantikasining rivojlanish mexanizmlarida ham tafovut mavjudligini ko‘rsatdi. O‘zbek tilidagi “ochmoq” fe‘lining ma‘no taraqqiyotida metaforik va metonimik ko‘chish faol ishtirok etadi. Jismoniy yopiqlikning bartaraf etilishi “sirni ochish”, “ko‘nglini ochish”, “yo‘l ochish” kabi mavhum jarayonlarni ifodalashga asos bo‘ladi. Yapon tilida ham bunday ko‘chishlar mavjud, biroq ko‘plab hosila ma‘nolar maxsus fe‘l yoki “ot + する” modelidagi birikmalar bilan ifodalanadi. Shu

bois ikki fe‘lni to‘liq ekvivalent deb baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Xulosa. O‘zbek tilidagi “ochmoq” va yapon tilidagi 「開ける」 (akeru) fe‘llarining qiyosiy-semantik tahlili ushbu birliklar ko‘p ma‘noli bo‘lib, turli ma‘noviy guruhlarda qo‘llanishini ko‘rsatdi. Har ikki fe‘lning asosiy ma‘nosi yopiq holatdagi predmetni ochish harakatini ifodalasa-da, nutq jarayonida ular imkoniyat yaratish, faoliyatni boshlash, to‘siqni bartaraf etish va ma‘lum bir holatni yuzaga keltirish kabi ko‘chma ma‘nolarni ham anglatadi.

Tahlil natijasida “ochmoq” fe‘lining o‘zbek tilida nisbatan keng semantik imkoniyatlarga ega ekanligi, yapon tilida esa uning ayrim ma‘nolari vaziyat va obyekt xususiyatiga qarab 「開く」 (hiraku), 「開ける」 (akeru), 「空ける」 (akeru) kabi turli fe‘llar orqali ifodalanishi aniqlandi. Bu holat o‘zbek tilida bir fe‘l doirasida birlashgan ma‘nolarning yapon tilida leksik-semantik jihatdan farqlanishini ko‘rsatadi. Ularning ma‘nosini faqat lug‘aviy muqobillik asosida emas, balki kontekst, obyekt turi, harakatning yo‘nalishi va kommunikativ vaziyatni hisobga olgan holda talqin qilish lozim. Tadqiqot natijalari o‘zbek–yapon tarjimashunosligi, qiyosiy tilshunoslik, leksikografiya va yapon tilini o‘qitish amaliyotida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили: дарслик. – Тошкент: Университет, 2006. – 464 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.
3. Jacobsen W. M. The Transitive Structure of Events in Japanese. – Tokyo: Kurosio Publishers, 1992. – 284 p.
4. Kageyama T. Bunpō to Gokeisei [Grammar and Word Formation]. – Tokyo: Hituzi Syobo, 1993. – 395 p.
5. Majtczak T. Origin of Transitive-Intransitive Verb Pairs in Japanese // Studia Etymologica Cracoviensia. – 2001. – Vol. 6. – P. 109–125.

Axmad RAXMATOV,
Buxoro davlat universiteti Nemis va fransuz filologiyasi kafedrası
katta o'qituvchisi. Buxoro, O'zbekiston
axmadraxmatov84@gmail.com

NEMIS TILI ZAMON SHAKLLARINING MATNDAGI MA'NODOSHLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada nemis tili zamon shakllarining matndagi ma'nodoshligi, ularning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari hamda kontekst ta'sirida yuzaga keladigan semantik o'zgarishlari tahlil qilinadi. Nemis tilidagi zamon shakllarining oppozitsiyalari, neytrallashish hodisalari, aksessiya va omissiya jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, perfekt, preterit, pluskvamperfekt, prezens va futur zamon shakllarining funksional-semantik imkoniyatlari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *nemis tili, zamon kategoriyasi, zamon shakllari, paradigmatica, sintagmatika, semantik oppozitsiya, neytrallashish, aksessiya, omissiya, perfekt, preterit, futur.*

Аннотация: в статье анализируется синонимия временных форм немецкого языка в тексте, их парадигматические и синтагматические особенности, а также семантические изменения, возникающие под влиянием контекста. Рассматриваются оппозиции временных форм, процессы нейтрализации, акцессии и оmissions. На основе языкового материала раскрываются функционально-семантические особенности форм Präsens, Präteritum, Perfekt, Plusquamperfekt, Futur I и Futur II.

Ключевые слова: *немецкий язык, категория времени, временные формы, парадигматика, синтагматика, семантическая оппозиция, нейтрализация, акцессия, оmissия, перфект, претерит, футурум.*

Annotation: this article examines the synonymy of German tense forms in textual discourse, focusing on their paradigmatic and syntagmatic characteristics as well as semantic shifts occurring under the influence of context. Particular attention is paid to the oppositions of tense forms, the processes of neutralization, accession, and omission. The functional and semantic properties of Präsens, Präteritum, Perfekt, Plusquamperfekt, Futur I, and Futur II are analyzed on the basis of linguistic evidence.

Key words: *German language, tense category, tense forms, paradigmatics, syntagmatics, semantic opposition, neutralization, accession, omission, Perfekt, Präteritum, Futur.*

Kirish. Nemis tilida zamon shakllarining ma'nosi faqat grammatik vositalar bilan emas, balki kontekst va sintaktik qurilish orqali ham namoyon bo'ladi. Shu sababli zamon shakllarining paradigmatic imkoniyatlari nutq jarayonida turlicha voqelanib, ularning funksional-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Zamon shakllari paradigmatic imkoniyatining sintagmatikadagi muntazam voqelanishi turli variantlarni hosil qiladi. Paradigmatikada miqdori cheklangan zamon shakllariga sintagmatikada ularning turli-tuman qo'llanishi to'g'ri keladi. Shu yo'l bilan miqdori cheklangan mantiqiy belgilar va ularning tilda o'z aksini topishi, ifodalanishi orasidagi ziddiyat, tafovut hal etiladi.

Zamon shakllari sistemasida paradigmaticada aniq aks etadigan oppozitsiya qatorlari hosil bo'ladi. Kontekstdagi sintaktik va leksik vositalar, shuningdek, shakl yasaladigan so'zlar ta'sirida qarama-qarshi a'zolarining farqlovchi belgilari neytrallashishi mumkin. Bunday holda muayyan

zamon shakllarining ma'nosi o'zaro yaqinlashadi [J.Erben, 1987, 178–179].

Nemis tilida zamon shakllari olti a'zoli oppozitsiyani hosil qiladi [G.Helbig, J.Buscha, 1996, 500–501]. Oppozitsiya preterital, prezental va futur zamon qatorlari orasida ham, qator ichida ham kuzatilishi mumkin. Qarama-qarshi a'zolarining oppozitsiyasini zamon shakllari o'zaro bir yoki bir necha *farqlovchi semantik belgi* asosida qarama-qarshi qo'yilgan jadvalda yaqqol tasvirlash mumkin (jadval 3). Chizmadagi shartli ifodalar: FSB – farqlovchi semantik belgi; Perf. – perfektlik; IB – ish-harakatning boshlanishi; IO – ish-harakatning oxiri; OR – oldin ro'y berganlik; BV – bir vaqtlik; KS – keyin sodir bo'lish. (+) ishorasi farqlovchi semantik belgi shaklning o'zi bilan ifodalanishini bildiradi; (–) ishorasi bu belgini shakl ifodalamasligini bildiradi; (+/–) ishorasi shaklning o'zi bu belgining bor-yo'qligini anglatmasligini, biroq ma'lum sharoitda ulardan bittasini ifodalay olishini bildiradi.

Jadval 1.

Zamon qatorlari	Zamon shakllari	Ushbu zamon qa-torining hisoblash nuqtasi bilan mutanosiblashgan FSB	Nutq momenti bilan muvofiqlashgan FSB				
		Perf.	IB	IO	OB	BV	KS
Preterital	Plusquamperfekt	+	+	+	+	–	–
	Präteritum	–	+	+	+	–	–
Prezent	Perfekt	+	+/-	+	+	–	–
	Präsens	–	+/-	–	–	+	–
Futural	Futurum 1	–	–	–	–	–	+
	Futurum 2	+	–	–	–	–	+

Endi jadvalni qisqacha izohlaymiz.

1. “Perfektlik” farqlovchi semantik belgisi ikki subsema – oldin bo‘lganlik va bog‘liqlikni o‘z ichiga oladi. Bog‘liqlikning o‘zi ham ikki xil bo‘lishi mumkin. Buni V.A.Jerebkov perfektiv bog‘liqlik (masalan: Ich bin gekommen→Ich bin da) va imperfektiv bog‘liqlik (masalan: Ich habe gearbeitet→Ich arbeite nicht mehr) deb ataydi [1970, 96–97].

Ko‘rinadiki, ish-harakatning ko‘rsatilgan momentdan bevosita qanchalik oldin yoki keyin sodir bo‘lishi emas, balki aynan shu moment bilan bog‘liqligi muhim. Shuning uchun denotatni nutq momentidan ancha uzoq davr ajratib turgan hollarda ham bog‘liqlik haqida gapirish lozim. Masalan: Kolumbus hat Amerika entdeckt [V.A.Jerebkov, 1970, 96–97]. Bog‘liqlikni bunday tushunish perfektivlikni aktuallikning bir ko‘rinishi sifatida tushunishga yaqinlashadi.

2. Ish-harakatning *boshlanishi* va *oxiri* farqlovchi semantik belgilari aspektual emas, temporal ma’noda tushuniladi. Bunda ushbu belgilarning zamon shakli paradigmatic ma’nosida nutq momentiga nisbatan borligi yoki yo‘qligi nazarda tutiladi.

3. Zamon qatorlarida ish-harakatning *boshlanishi* belgisiga nisbatan muayyan izchillik va o‘xshashlik kuzatiladi. Har bir qatorning ikkala zamon shakli bu belgini bir xilda ifodalaydi. Preterital qatordagi zamon shakllari bu belgini ifodalaydi (+ ishorasi), futural qatordagi shakllar ifodalamaydi (– ishorasi), prezent qatorda shakllarning o‘zi bu belgini ko‘rsatmaydi, u faqat kontekst ta’sirida namoyon bo‘ladi yoki bo‘lmaydi(+/- ishorasi). Biroq perfektiv va prezentsda bu farqlovchi semantik belgi turlicha namoyon bo‘ladi, uning ifodalanishi mazkur zamon shakllarda bir xil emas. *Ich schreibe an der Tafel* gapi nutq momentidan oldin boshlanib, nutq momentida

davom etayotgan ish-harakatni yoki nutq momentining o‘zida boshlangan ish-harakatni ifodalaydi. Perfektivdagi +/- ishorasi esa **ehe**, **bis**, **bevor** bog‘lovchili gaplarda kam bo‘lsa-da, uning qo‘llanishi mumkinligini bildiradi.

Jadval u yoki bu zamon shaklining qanday semantik belgilarga egaligini, uning boshqa zamon shakllariga qaysi farqlovchi semantik belgilar asosida qarama-qarshi qo‘yilishini yaqqol ko‘rsatadi. Chizmada zamon shakllari sistemasining mutanosiblik va muvozanati unsurlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, sistemada zamon shakllari *perfektivlik* semantik belgisini ifodalashiga ko‘ra mutanosib ekanligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, pluskvamperfektiv, perfektiv va futural 2 zamon shakllarini an’anaviy grammatikada bekorga *perfektiv* zamon shakllari deb nomlanmaganligi ayon bo‘ladi [E.Hentschel, H.Weydt, 1994, 88–89]. Bu shakllarning hammasi o‘z zamon qatorining hisoblash nuqtasidan (Betrachtzeit) oldin sodir bo‘lgan va u bilan bog‘langan ish-harakatni ifodalaydi [R. Brons-Albert, 2004, 34].

Jadvalda zamon shakllari orasida ham, zamon qatorlari orasida ham oppozitsiya mavjudligini ko‘rish mumkin. Zamon qatorlari ekvipolent oppozitsiya hosil qiladi, chunki har bir qator o‘ziga xos belgiga ega: preterital qator OR (oldin ro‘y berganlik) belgisiga, futural qator KS (keyin sodir bo‘lish) belgisiga, prezent qator BV (bir vaqtlik) va OR (oldin ro‘y berganlik) belgilariga ega. Prezent qatorining IB va IO belgilariga ko‘ra boshqa qatorlarga munosabati shunday ekvipolent oppozitsiyani tashkil qiladi, har bir qatorda bu belgilarni ifodalashda o‘ziga xoslik kuzatiladi.

Perfektiv/noperfektivlik privativ oppozitsiyasi barcha qatarga yoyiladi va nemis tili zamon sistemasining o‘ziga xos xususiyatini tashkil qiladi [Th.Gloning, 2007, 302–303].

Zamon qatorlari ichida *prezental qator* unda perfektlik/noperfektlik privativ oppozitsiyasidan tashqari yana uchta privativ oppozitsiya kuzatilishi bilan ajralib turadi, bular IO, OR, va BV belgilariga ko'ra oppozitsiyalardir. Natijada preterital qatorning ikkala shakli o'tgan zamon shakli bo'ladi (OR belgisi ifodalangan), futural qatorning ikkala shakli esa kelasi zamon shaklida bo'lsa (KS belgisi ifodalangan), prezental qatorda faqat prezens shakli hozirgi zamon shakli ko'rinishini oladi (BV belgisi ifodalangan), perfekt shakli esa, IO va OR belgilari ifodalanganligi sababli, o'tgan zamon shakllari guruhiga kiritilishi kerak.

Biroq OR (oldin ro'y berganlik) belgisi perfektda plyuskvamperfektdagiga nisbatan boshqacha mazmuniy xususiyatga ega. Ushbu farq bu holatga nisbatan belgilanadigan nutq momentining vazifalaridan kelib chiqadi. Preterital va futural qatorlarga nisbatan nutq momenti faqat farqlash vazifasini bajaradi.

Nutq momentining shu vazifasi tufayli zamon o'qida o'tgan, hozirgi va kelasi zamon qismlari, ya'ni o'ziga xos mo'ljal olish o'qlari (osi orientatsii) paydo bo'ladi. Hozirgi zamonning mo'ljal olish o'qi nutq momentiga mos keladi. Nazarimizda, nemis tadqiqotchilari K. Matsel va B. Ulvestad bu holatni uch zamon nuqtasi (uch zamon ko'rinishi: Sprechzeit, Betrachtzeit, Aktionszeit)ning o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi chizma yordamida muvaffaqiyatli tasvirlagan: Sprechzeit – nutq momenti, Betrachtzeit – mo'ljal olish o'qi, Aktionszeit – fe'l ifodalagan ish-harakat zamoni [K.Matzel, B.Ulvestad, 2002, 299–300]:

Präsens	Sprz.	Perfekt	Sprz.
	Betz.		Betz.
	Aktz.		Aktz.

Perfekt va prezensdagi Sprechzeit va Betrachtzeit (nutq momenti va mo'ljal olish o'qi) ning o'zaro munosabatini qiyoslasak, ular zamonda mos kelishi yaqqol ko'rinadi. Prezens va perfekt bu xususiyatiga ko'ra boshqa qatorlarning zamon shakllaridan farqlanib turadi: prezens va perfekt bilan ifodalangan ish-harakat mo'ljal olish o'qi orqali nutq momenti bilan o'ziga xos tarzda bog'langan. Prezens nutq momenti bilan bir vaqtdagi, u uchun aktual bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Perfekt esa nutq momentidan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi, biroq uning natijasi zamon jihatidan *nutq momenti* bilan bog'langan bo'ladi. Aktuallikning bu ko'rinishi tilshunoslikda mo'ljal olish o'qi va nutq momentining mos kelishi (Überkoppelung) tufayli amalga oshadigan [2005, 72 –73] ish-harakat natijasi sifatida o'rganiladi [G.Grewendorf, 2004, 230]. Bunda nutq momentida prezental qatorning zamon mo'ljalchisi vazifasi namoyon bo'ladi. Nutq momenti bu vazifasini prezensga nisbatan ham, perfektda nisbatan ham bajaradi. Bu holat perfektning boshqa o'tgan zamon shakllari orasidagi g'oyat o'ziga xos o'rnini belgilab beradi [P.Klotz, 2006, 119].

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nemis tili zamon shakllari o'rtasidagi ma'nodoshlik kontekst, leksik vositalar va grammatik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlarning o'zaro uyg'unligi zamon shakllarining funksional imkoniyatlarini kengaytirib, ularning matndagi semantik va uslubiy vazifalarini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жеребков В.А. Опыт описания грамматической категории времени в системе немецкого глагола // Ученые записки Калининского гос. Пед. Инс. -та.- Т.72. Вып. 3. – Калинин, 1970. С.90-132.
2. Matzel K., Ulvestad B. Futur 1 und futurisches Präsens // Sprachwissenschaft. – Heidelberg, 2002. – N 7. – S. 283–328
3. Grewendorf, Günter. Besitzt die deutsche Sprache ein Präsens? // Pragmatik in der Grammatik / G. Stickel (Hg.). – Düsseldorf, 2004. – S. 224–242
4. Admoni W.G. Grammatischer Sprachbau als Gestaltungssystem und allgemeine Grammatiktheorie. – L.: Nauka, 1988. 320 S.
5. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. - 6., neu bearbeitete Auflage. Herausgegeben von der Dudenredaktion. Bd.4. – Mannheim - Leipzig – Wien - Zürich, 1998. 912 S.

Ozodaxon USMONOVA,
 Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ozodausmonova054@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI VA TARJIMAVIY EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlarning kognitiv-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarning konseptual mazmuni, semantik tuzilishi, freym xususiyatlari hamda tarjimadagi ekvivalentlik darajasi o'rganilib, iqtisodiy diskursdagi funksional jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *kognitiv semantika, iqtisodiy termin, terminologik konsept, freym, konseptual tahlil, qiyosiy tilshunoslik, iqtisodiy diskurs, tarjimashunoslik, ekvivalentlik.*

Annotation: this article provides a comparative cognitive-semantic analysis of economic terms in Uzbek and English. The study examines the conceptual content, semantic structure, frame features, and equivalence levels of terms in translation, highlighting their functional characteristics in economic discourse.

Key words: *cognitive semantics, economic term, terminological concept, frame, conceptual analysis, comparative linguistics, economic discourse, translation studies, equivalence.*

Аннотация: в статье проводится сравнительный когнитивно-семантический анализ экономических терминов в узбекском и английском языках. Исследуются концептуальное содержание, семантическая структура, фреймные особенности и степень эквивалентности терминов при переводе, а также их функциональные характеристики в экономическом дискурсе.

Ключевые слова: *когнитивная семантика, экономический термин, терминологический концепт, фрейм, концептуальный анализ, сопоставительное языкознание, экономический дискурс, переводоведение, эквивалентность.*

Kirish. Globallashuv sharoitida iqtisodiy terminologiyaning izchil rivojlanishi hamda turli tillardagi iqtisodiy bilimlarning integratsiyalashuvi terminlarni qiyosiy va kognitiv nuqtayi nazardan o'rganishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlarning semantik tuzilishi, konseptual mazmuni va tarjimaviy ekvivalentligini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda terminologiya tadqiqotlarida an'anaviy struktur-semantik yondashuv bilan bir qatorda kognitiv tilshunoslik tamoyillariga asoslangan tadqiqotlar ham keng rivojlanmoqda. Bunday yondashuv terminni oddiy lug'aviy birlik emas, balki inson tafakkurida shakllangan konseptual bilimning til vositasidagi ifodasi sifatida talqin qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlarning kognitiv-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning konseptual tuzilishi, freym modeli hamda tarjimaviy ekvivalentlik darajasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlar an'anaviy leksik-semantik yondashuv asosida emas, balki kognitiv-semantik nuqtayi nazardan, ya'ni terminlarning konseptual mazmuni, freym tuzilishi va tarjimaviy ekvivalentlik darajasi

asosida kompleks ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy terminlarning konseptual sohalarga ajratilishi hamda ularning tillararo muvofiqlik darajasini aniqlash mezonlari taklif etildi.

Asosiy qism. O'zbekcha va inglizcha iqtisodiy terminlarni qiyosiy tahlil qilishda asosiy birlik sifatida alohida so'z emas, **terminologik konsept** qabul qilindi. Buning sababi shundaki, ikki tildagi shaklan o'xshash yoki so'zma-so'z tarjima qilingan birliklarning tushunchaviy mazmuni har doim ham to'liq mos kelmaydi. Masalan, **davlat qarzi** termini ingliz tilida *state debt, government debt* yoki *public debt* variantlari orqali ifodalanishi mumkin. Mazkur variantlarning tanlanishi matnning institutsional yo'nalishi hamda davlat moliyasi tizimidagi qo'llanish xususiyatiga bog'liq. Shu bois qiyosiy tahlilda terminning tashqi shaklidan ko'ra, u ifodalagan konseptning mazmuniy chegaralari ustuvor mezon sifatida qabul qilindi.

Qiyosiy tahlilning ikkinchi birligi **lug'aviy definitsiya** hisoblanadi. O'zbek tilidagi terminning lug'atdagi ta'rifi asosida uning konseptual yadrosi va farqlovchi semantik belgilari aniqlanib, keyinchalik ular ingliz tilidagi muqobil terminning iqtisodiy mazmuni bilan taqqoslandi. Masalan, **bozor qiymati** terminida "muayyan vaqtda bozorda shakllangan qiymat" belgisi konseptning markaziy

komponentini tashkil etadi. Ingliz tilidagi *market value* terminida ham obyektning bozor sharoitida shakllangan bahosi asosiy semantik belgi hisoblanadi. Shu sababli mazkur terminologik juftlik konseptual jihatdan yuqori darajadagi ekvivalentlikka ega deb baholandi.

Uchinchi qiyoslash birligi **terminning strukturaviy modelidir**. O'zbek tilida aniqlovchi komponent odatda, aniqlanishdan oldin joylashadi: **bozor narxi, davlat qarzi**. Ingliz tilida ham ushbu terminlar *market price* va *government debt* shaklida atributiv model orqali ifodalanadi. Biroq **iqtisodiyotning real sektori** termini ingliz tilida *real sector of the economy* ko'rinishida predlogli konstruksiya vositasida ifodalanadi. Bu holatda konseptual mazmun saqlanib qolgan bo'lsa-da, grammatik model o'zgaradi.

To'rtinchi qiyoslash birligi **terminning iqtisodiy diskursdagi funksiyasidir**. Har bir terminning qaysi iqtisodiy subyekt, jarayon, munosabat yoki holatni ifodalashi aniqlandi. Jumladan, **bozor talabi** iqtisodiy ehtiyoj va xarid qobiliyatini, **davlat moliyaviy nazorati** nazorat faoliyatini, **davlat qimmatli qog'ozlari** moliyaviy instrumentni, **iqtisodiyotni erkinlashtirish** esa institutsional islohot jarayonini anglatadi. Shuning uchun terminlarni tasniflashda ularning tashqi shakliga emas, balki konseptual vazifasi va funksional xususiyatlariga tayanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Konseptual soha, semantik yadro va freym tarkibi terminlarning kognitiv mazmunini ochib bersa, strukturaviy, funksional va pragmatik mezonlar ularning tuzilishi hamda iqtisodiy diskursdagi vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi. Ekvivalentlik va tarjimaviy mezonlar esa o'zbekcha va inglizcha terminlarning muvofiqlik darajasi hamda tarjimada qo'llaniladigan usullarni belgilash imkonini beradi.

Mazkur mezonlarning kompleks qo'llanilishi terminlarni faqat alifbo tartibida yoki mavzuviy guruhlariga ajratish bilan cheklanmaydi. Aksincha, ular har bir terminning iqtisodiy bilimlar tizimidagi o'rni, ichki konseptual tuzilishi hamda boshqa tilda qay darajada adekvat ifodalanishini aniqlash imkonini yaratadi. Shu asosda tadqiqotning keyingi qismida tanlangan 15 ta iqtisodiy terminning kognitiv-semantik tuzilishi, freym modeli va o'zbekcha-inglizcha ekvivalentlik darajalari jadvallar hamda mualliflik tahlili asosida yoritildi.

Belgilangan tasnif mezonlari iqtisodiy terminlarni alohida lug'aviy birliklar sifatida emas, balki yaxlit konseptual tizimning tarkibiy elementi sifatida o'rganish imkonini berdi. Chunki terminning iqtisodiy mazmuni faqat lug'atdagi izohi bilan belgilanmaydi; u iqtisodiy subyektlar, obyektlar, jarayonlar va ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradi. Masalan, **bozor muvozanati** tushunchasini

talab, taklif va narx o'rtasidagi munosabatlardan, **davlat qarzi** tushunchasini esa kreditor, qarz miqdori, muddat va qaytarish majburiyatidan ajratgan holda to'liq tavsiflash mumkin emas. Demak, terminning mazmunini aniqlashda uning semantik yadrosi bilan bir qatorda, u faollashtiradigan bilimlar tizimi, ya'ni freym ham hisobga olinishi zarur.

O'zbekcha terminlarning ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tahlili ham aynan shu tamoyil asosida amalga oshirildi. Bunda terminlarning tashqi shakli yoki komponentlarining so'zma-so'z mosligi asosiy mezon sifatida olinmadi. Aksincha, ikki tildagi birliklarning ayni bir iqtisodiy konseptni qay darajada ifodalashi, ularning semantik hajmi, funksional vazifasi va institutsional qo'llanish doirasi taqqoslandi. Natijada ayrim terminlarda shakliiy va mazmuniiy mutanosiblik to'liq saqlanishi, boshqa hollarda esa bitta o'zbekcha termin uchun bir nechta inglizcha variant mavjudligi aniqlandi. Shu asosda tanlangan 15 ta iqtisodiy termin konseptual yadro, freym tarkibi, inglizcha muqobil va tillararo muvofiqlik darajasi bo'yicha tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, iqtisodiy terminlar kognitiv-semantik jihatdan uchta asosiy konseptual sohaga birlashadi.

Birinchi konseptual soha **bozor munosabatlarini** ifodalovchi terminlarni qamrab oladi. Unga **bozor muvozanati, bozor narxi, bozor qiymati, bozor segmenti** va **bozor talabi** terminlari kiradi. Ushbu birliklar bozor freymining asosiy elementlarini ifodalaydi. Mazkur freymda sotuvchi va xaridor asosiy ishtirokchilar, tovar yoki xizmat iqtisodiy obyekt, talab va taklif harakatlantiruvchi mexanizm, narx hamda muvozanat esa iqtisodiy munosabatlarning natijaviy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur guruh terminlarida o'zbekcha va inglizcha birliklar o'rtasidagi konseptual muvofiqlik yuqori darajada ekani aniqlandi. Xususan, **bozor narxi – market price, bozor qiymati – market value** va **bozor segmenti – market segment** juftliklari nafaqat strukturaviy, balki semantik jihatdan ham deyarli to'liq mos keladi. Biroq **bozor narxi** va **bozor qiymati** terminlarini sinonim sifatida talqin qilish mumkin emas. Birinchisi real ayirboshlash narxini, ikkinchisi esa bozor sharoitida baholangan iqtisodiy qiymatni anglatadi.

Ikkinchi konseptual soha **davlat moliyasi va davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki** bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Ushbu guruhda davlat nazorat qiluvchi subyekt, qarz oluvchi, emitent yoki monopol huquq egasi sifatida namoyon bo'ladi. **Davlat qarzi, davlat qarz majburiyati** va **davlat qimmatli qog'ozlari** mazmunan yaqin bo'lsa-da, ularning konseptual chegaralari turlicha. **Davlat qarzi** davlatning umumiy moliyaviy majburiyatlarini, **davlat qarz majburiyati** ushbu qarzni qaytarish bo'yicha huquqiy-

moliyaviy majburiyatni, **davlat qimmatli qog'ozlari** esa davlat tomonidan mablag' jalb qilish instrumentini anglatadi. Mazkur guruhda qisman va variantli ekvivalentlik holatlari ko'proq uchraydi. Bu davlat moliyasi va huquqiy institutlarning mamlakatlarga ko'ra farqlanishi bilan izohlanadi. Masalan, **davlat qarzi** termini uchun *public debt* va *government debt* variantlari qo'llaniladi. Ayrim matnlarda ular o'zaro almashishi mumkin bo'lsa-da, *public debt* odatda, kengroq institutsional mazmunga ega. Shu sababli tarjimada matnning institutsional konteksti albatta hisobga olinishi zarur.

Uchinchi konseptual soha **iqtisodiy tizimning tuzilishi va rivojlanish yo'nalishlarini** ifodalovchi terminlarni qamrab oladi. Bu guruhdagi terminlar muayyan iqtisodiy obyektni emas, balki iqtisodiyotning holati, tarkibi yoki rivojlanish jarayonlarini ifodalaydi. Jumladan, **iqtisodiyotni erkinlashtirish** institutsional jarayonni, **iqtisodiyotning ochiqligi** iqtisodiy tizimning tashqi iqtisodiy aloqalarga tayyorlik darajasini, **iqtisodiyotning real sektori** iqtisodiyotning tarkibiy qismini, **Islom iqtisodiyoti** esa alohida iqtisodiy-huquqiy modelni anglatadi.

1-jadval

O'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlarning konseptual va tarjimaviy ekvivalentlik tahlili

No	O'zbekcha termin	Inglizcha termin	Konseptual soha	Muvofiqlik
1	Bozor narxi	Market price	Bozor	To'liq
2	Bozor qiymati	Market value	Bozor	To'liq
3	Bozor segmenti	Market segment	Bozor	To'liq
4	Bozor talabi	Market demand	Bozor	To'liq
5	Bozor muvozanati	Market equilibrium	Bozor	To'liq
6	Davlat qarzi	Government/Public debt	Davlat moliyasi	Variantli
7	Davlat qarz majburiyati	Government debt obligation	Davlat moliyasi	Qisman
8	Davlat qimmatli qog'ozlari	Government securities	Davlat moliyasi	To'liq
9	Davlat moliyaviy nazorati	State financial control	Davlat moliyasi	Qisman
10	Davlat monopoliyasi	State monopoly	Davlat siyosati	To'liq
11	Iqtisodiyotning ochiqligi	Economic openness	Tizim	To'liq
12	Iqtisodiyotni erkinlashtirish	Economic liberalization	Tizim	To'liq
13	Iqtisodiyotning real sektori	Real sector of the economy	Tizim	Qisman
14	Islom iqtisodiyoti	Islamic economy	Tizim	To'liq
15	Iqtisodiy o'sish	Economic growth	Tizim	To'liq

Tahlil natijalariga ko'ra, tanlangan 15 ta iqtisodiy terminning 60 foizida to'liq, 27 foizida qisman, 13 foizida esa variantli ekvivalentlik kuzatildi. Mazkur natijalar iqtisodiy terminlarning katta qismi o'zbek va ingliz tillarida umumiy konseptual asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, shakliy o'xshashlik har doim ham mazmuniy tenglikni anglatmaydi. Ayniqsa, davlat moliyasi, iqtisodiy boshqaruv va tartibga solish bilan bog'liq terminlarda institutsional hamda funksional tafovutlar tarjima muqobilini tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari iqtisodiy terminlarning kognitiv modeli va konseptual tuzilishini aniqlash tarjima sifatini oshirish, ikki tilli terminologik lug'atlar yaratish hamda iqtisodiy diskursni standartlashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yondashuvni moliya, bank, soliq va investitsiya terminologiyasiga tatbiq etish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Fillmore C. J. *Frame Semantics*. In: *Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. P. 111–137.
3. Langacker R. W. *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2008.
4. Evans V., Green M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
5. Кубрякова Е. С. *Начала когнитивной науки о языке*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.

Kamola RIZAeva,
Toshkent davlat texnika universiteti
“Chet tillari” kafedrasida katta o‘qituvchisi
E-mail: krizaeva149@gmail.com
ORCID: 0009-0000-3077-7601

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MEDIADISKURSNING FUNKSIONAL-STILISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi mediadiskursning funksional-stilistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mediadiskursning zamonaviy ommaviy axborot vositalaridagi o‘rni, uning kommunikativ vazifalari hamda leksik, grammatik, stilistik va pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan til birliklari, ekspressiv vositalar, baholovchi birliklar va manipulyativ strategiyalar o‘zaro taqqoslangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda mediadiskurs jamiyatga axborot yetkazish bilan bir qatorda jamoatchilik fikrini shakllantirish, baholash, ishontrish va ta‘sir ko‘rsatish funksiyalarini ham bajaradi. Biroq ushbu funksiyalarni ifodalashda ingliz va o‘zbek tillarining milliy-madaniy hamda stilistik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: *mediadiskurs, funksional stilistika, publitsistik uslub, pragmatika, kommunikativ strategiya, manipulyatsiya, ommaviy axborot vositalari, diskurs tahlili, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье проводится сравнительный функционально-стилистический анализ медиадискурса в английском и узбекском языках. Рассматриваются коммуникативные функции медиадискурса, его лексические, грамматические, стилистические и прагматические особенности. Особое внимание уделяется анализу языковых средств, оценочной лексики, экспрессивных конструкций и манипулятивных стратегий, используемых в современных средствах массовой информации. Исследование показывает, что медиадискурс выполняет не только информационную, но и воздействующую, оценочную и убеждающую функции, при этом способы их языковой реализации обусловлены национально-культурными особенностями каждого языка.

Ключевые слова: *медиадискурс, функциональная стилистика, публицистический стиль, прагматика, коммуникативная стратегия, манипуляция, средства массовой информации, английский язык, узбекский язык.*

Annotation: the article presents a comparative functional and stylistic analysis of media discourse in English and Uzbek. It examines the communicative functions of media discourse together with its lexical, grammatical, stylistic, and pragmatic features. Particular attention is paid to expressive language, evaluative vocabulary, persuasive techniques, and manipulative strategies employed in contemporary mass media. The findings indicate that media discourse performs not only an informative function but also persuasive, evaluative, and ideological functions. At the same time, the linguistic realization of these functions reflects the national and cultural characteristics of each language.

Key words: *media discourse, functional stylistics, publicistic style, pragmatics, communicative strategy, persuasion, media language, discourse analysis, English, Uzbek.*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internet nashrlari, televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot platformalarining keng ommalashuvi natijasida mediadiskurs zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb

tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mediadiskurs faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, jamoatchilik fikrini boshqarish, mafkuraviy ta‘sir ko‘rsatish va madaniy qadriyatlarni targ‘ib etishning muhim kommunikativ mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Til va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatni

o'rganish funksional stilistika, pragmatik lingvistik, diskurs tahlili va mediatilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turli tillardagi mediadiskursni qiyosiy jihatdan o'rganish milliytilning kommunikativ imkoniyatlarini, publitsistik uslubning rivojlanish tendensiyalarini hamda axborot uzatish strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi mediadiskursni funksional-stilistik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mediadiskurs lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, u ommaviy kommunikatsiya sharoitida yaratiladigan va tarqatiladigan matnlar hamda ularning kommunikativ faoliyatini qamrab oluvchi murakkab diskurs turi hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat til birliklari tizimiga, balki kommunikativ vaziyat, auditoriya, muallif pozitsiyasi, mafkuraviy maqsad va pragmatik omillarga ham bevosita bog'liq. Shu sababli mediadiskursni faqat matn sifatida emas, balki ko'p qatlamli kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilish zarur. Ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalari, xususan BBC, *The Guardian*, *The New York Times* va *Reuters* kabi xalqaro nashrlar axborotni neytral, ixcham va faktlarga asoslangan uslubda yetkazishga intiladi. Bunda sarlavhalarining qisqaligi, informativ leksika, statistik ma'lumotlardan foydalanish va analitik bayon uslubi ustunlik qiladi. Shu bilan birga, baholovchi leksika va ekspressiv vositalar orqali muallifning pragmatik maqsadi ham amalga oshiriladi.

O'zbek tilidagi mediadiskurs esa milliy-madaniy qadriyatlar, rasmiy uslub elementlari va publitsistik ifoda vositalarining uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Gazeta.uz, Kun.uz, Daryo.uz kabi internet nashrlarida axborot berish bilan bir qatorda o'quvchini ishonitirish, ijtimoiy faollikka undash va milliy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi kommunikativ maqsadlar ham kuzatiladi. Shuning uchun ingliz va o'zbek tillaridagi mediadiskursning funksional-stilistik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish har ikki tilning kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi mediadiskursning funksional-stilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy ommaviy axborot vositalarida qo'llanilayotgan kommunikativ strategiyalarni lingvistik nuqtayi nazardan tavsiflashdan iborat.

Tilshunoslikda **diskurs** tushunchasi matnning faqat lingvistik tuzilishi bilan emas, balki uning yaratilish sharoiti, kommunikativ vaziyati, ishtirokchilari, maqsadi hamda ijtimoiy-madaniy omillari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etiladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda diskurs matndan kengroq tushuncha sifatida qaralib, u kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan til birliklari va ularning pragmatik vazifalarini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan mediadiskurs ommaviy axborot vositalarida yaratiladigan va keng auditoriyaga mo'ljallangan matnlar tizimi sifatida e'tirof etiladi. Mediadiskursning shakllanishida gazeta va jurnal maqolalari, televideniye va radio eshittirishlari, internet nashrlari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar hamda multimediya platformalari muhim o'rin egallaydi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida mediadiskursning funksional imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Endilikda ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va muayyan mafkuraviy g'oyalarni targ'ib etuvchi kommunikativ institut sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Funksional stilistika nuqtayi nazaridan mediadiskurs publitsistik uslubning zamonaviy shakli hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi voqelik haqida tezkor, ishonchli va ta'sirchan axborot yetkazishdan iborat. Shu bilan birga, mediadiskurs axborot berish bilan cheklanmay, auditoriyani ishonitirish, baholash, muayyan ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish va kommunikativ ta'sir ko'rsatish vazifalarini ham bajaradi. Shuning uchun mediadiskursda informativlik, ekspressivlik va pragmatik yo'naltirilganlik bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mediadiskursning funksional xususiyatlari, avvalo, uning kommunikativ maqsadi bilan belgilanadi. Har qanday media matni muallifning muayyan kommunikativ niyatini ifodalaydi. Ushbu niyat axborot berish, hodisalarni sharhlash, muayyan voqeaga baho berish yoki auditoriyani ma'lum qarorga undash shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Demak, mediadiskurs til vositalarining tanlanishi va ularning qo'llanish usullariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan pragmatik hodisa hisoblanadi. Mediadiskursning stilistik xususiyatlari uning leksik, grammatik va sintaktik tuzilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Leksik jihatdan zamonaviy media matnlar terminologik birliklar, xalqaro so'zlar, neologizmlar,

siyosiy va iqtisodiy leksika hamda emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi mediadiskursda qisqa, aniq va mazmunan zich ifodalardan foydalanish ustunlik qiladi. O'zbek mediadiskursida esa axborot bilan bir qatorda muallifning munosabati va milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi til birliklari ham keng qo'llanadi. Sintaktik jihatdan ingliz mediadiskursi sodda va ixcham gap qurilishiga intiladi. Axborotning tez va aniq qabul qilinishini ta'minlash maqsadida qisqa gaplar, faol nisbat (Active Voice), nominal konstruksiyalar va sarlavhalarda fe'ning qisqartirilgan shakllari keng qo'llaniladi. O'zbek mediadiskursida esa murakkab qo'shma gaplar, izohlovchi konstruksiyalar hamda mantiqiy izchillikni ta'minlovchi bog'lovchi vositalar nisbatan ko'proq uchraydi. Pragmatik jihatdan mediadiskurs auditoriyaga ma'lum ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Shu sababli matnlarda baholovchi leksika, metafora, epitet, ritorik savollar, iqtiboslar, statistik ma'lumotlar va ekspert fikrlaridan faol foydalaniladi. Ushbu vositalar axborotning ishonchligini oshirish bilan birga o'quvchining e'tiborini jalb qilish hamda uning voqelikka nisbatan munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbek mediadiskursida esa sarlavhalar ko'pincha o'quvchi e'tiborini jalb qilishga qaratilgan ekspressiv vositalar bilan boyitiladi. Masalan, **Yangi islohotlar**

iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim qadam bo'ldi yoki **Yoshlar kelajak bunyodkorlari sifatida e'tirof etildi** kabi sarlavhalarda baholovchi birliklar va emotsional ifoda vositalari faol qo'llanadi. Bu esa o'zbek publitsistik uslubining baholovchi va targ'ibot funksiyasi kuchliroq ekanligini ko'rsatadi. Grammatik jihatdan ingliz mediadiskursida sodda gaplar, faol nisbat va nominal konstruksiyalar ustunlik qiladi. O'zbek mediadiskursida esa murakkab gaplar, izohlovchi sintaktik birliklar va sabab-oqibat munosabatlarini ifodalovchi bog'lovchilar ko'proq uchraydi. Mazkur farq har ikki tilning grammatik tizimi va publitsistik an'analari bilan izohlanadi. Pragmatik jihatdan ingliz mediadiskursi ko'proq faktlarga tayangan holda o'quvchining mustaqil xulosa chiqarishiga imkon beradi. O'zbek mediadiskursida esa muallif pozitsiyasi ochiqroq ifodalanadi, baholash va tavsiflash elementlari faol qo'llaniladi. Bu holat milliy kommunikativ madaniyatning o'ziga xos jihatlari aks ettiradi. Funksional-stilistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek mediadiskurslari umumiy kommunikativ vazifalarni bajarsa-da, ularning til vositalarini tanlash va stilistik tashkil etish tamoyillari turlicha namoyon bo'ladi. Mazkur farqlar til tizimi, milliy madaniyat va ommaviy axborot vositalarining kommunikativ strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshabayeva D.M. The Discourse Analysis of Media Text. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. © 2018 International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 9 No. 2 July 2018.
2. Tohirovich Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyeti. – T.: Universitet, 2006
3. Umurzaqov A.M. Ijtimoiy reklamalar jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida// NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 4–son
4. X.Xamidova "Medialingvistika novaya paradigma v izuchenii yazika SMI"/gumanitar fanlar 1-son (789)/2018-yil.
5. Rizaeva, K. R. (2014). Economic Development of Uzbekistan: Export Promotion Policies in the condition of the global financial-economic crisis. Europäische Fachhochschule, (3), 162-165.
6. Shuxratovna, R. K. (2024, April). STABILITY OF MEDIADISCURS IN ENGLISH AND UZBEK. In International Global Conference (Vol. 1, No. 3, pp. 137-139).
7. Shuxratovna, R. K. (2024). Mediadiskurs Tools in English and Uzbek. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(4), 125-126.
8. Rizayeva, K. S. (2020). GAMES AND GAME ACTIVITIES IN ENGLISH LESSONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS COMMUNICATION SKILLS. Theoretical & Applied Science, (2), 721-723.

Fotimaxon TAJIBOYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi

FILOLOG TALABALARNING INGLIZ TILIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida takomillashtirishning konseptual-metodik tamoyillari tadqiq etiladi. Izlanishda integrativlik, amaliy yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, qiyosiylik va refleksivlik tamoyillarining o'quv jarayonidagi o'rni hamda pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Autentik resurslardan foydalanish orqali talabalarda til ko'nikmalari bilan birga madaniyatlararo sezgirlik, tanqidiy tafakkur hamda globallashtirish sharoitida samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, autentik materiallar, integrativlik, amaliy yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, qiyosiylik, refleksivlik.

Аннотация: в данной статье исследуются концептуально-методические принципы совершенствования межкультурной коммуникативной компетенции студентов-филологов на основе аутентичных материалов при обучении английскому языку. В исследовании научно обоснованы роль и педагогический потенциал принципов интегративности, практической направленности, адаптивности, компаративности и рефлексивности. Освещаются вопросы развития у студентов языковых навыков, межкультурной восприимчивости, критического мышления и способности к эффективной коммуникации в условиях глобализации.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, аутентичные материалы, интегративность, практическая направленность, адаптивность, компаративность, рефлексивность.

Annotation: this article investigates the conceptual and methodological principles of enhancing intercultural communicative competence among philology students through authentic materials in English language teaching. The study scientifically substantiates the role and pedagogical potential of the principles of integration, practicality, adaptability, comparison, and reflection in the educational process. It highlights the development of language skills alongside intercultural sensitivity, critical thinking, and the ability to communicate effectively in a globalized context using authentic resources.

Key words: intercultural communicative competence, authentic materials, integration, practicality, adaptability, comparison, reflection.

Kirish. Zamonaviy globallashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlari oliy filologik ta'lim tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish sifatiga mutlaqo yangicha talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda bo'lajak filolog kadrlarni tayyorlashda faqatgina tilning grammatik va leksik qoidalarini o'rgatish yetarli bo'lmay, balki ularda o'rganilayotgan til egalarining madaniyati, qadriyatlari hamda muloqot o'qini chuqur anglashga qaratilgan madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan lingvomatik va madaniy to'siqlarni bartaraf etish, o'zga madaniyat vakillari bilan teng huquqli hamda samarali muloqotga kirishish filolog talabalar uchun kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismini tashkil etadi.

Ushbu murakkab va ko'p qirrali vazifani hal etishda autentik materiallar, ya'ni til egalari tomonidan va asosan, ta'limiy bo'lmagan real kommunikativ maqsadlar uchun yaratilgan vositalar beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar, publitsistik maqolalar, ilmiy diskurs namunalar, audio va video resurslar, podcastlar hamda jonli nutq parchalari talabalarga ingliz tilining tabiiy qo'llanilish muhitini namoyon etadi. Autentik materiallar o'quv auditoriyasida real madaniy va lingvistik muloqot sharoitini model ko'rinishida hosil qilib, talabalarining o'quv motivatsiyasini oshiradi hamda tildan madaniy kontekstda to'g'ri foydalanish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi filologiya yo'nalishi talabalarida autentik materiallar asosida ingliz tilida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tamoyillarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish va ularning pedagogik samaradorligini asoslab berishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda tayanch bo'ladigan asosiy metodik tamoyillar hamda ularning amaliy mexanizmlari tadqiq qilinadi.

Asosiy qism. Filolog talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida shakllantirish jarayoni muayyan konseptual tamoyillarga tayanadi. Birinchi navbatda, integrativlik tamoyili o'quv jarayonida til, madaniyat, kommunikatsiya va tafakkur unsurlarining uzviy birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu tamoyil talabalarining real kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishi, rolikli muloqotlar, madaniyatlararo muloqot ssenariylari, tarjima amaliyoti hamda xalqaro ta'limiy loyihalarda amaliy qatnashishini talab qiladi. Shuningdek, amaliy yo'naltirilganlik tamoyili bilim, ko'nikma va madaniy mazmunning uyg'unlashuvi orqali nazariy bilimlarni bevosita amaliy tajribaga aylantiradi, bu esa talabalarda madaniyatlararo xatolarni kamaytirish hamda barqaror kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Autentik materiallardan foydalanish jarayonida til va madaniyatning uzviy bog'liqligi talabalarga tili o'rganilayotgan

mamlakatning ijtimoiy-madaniy kontekstini chuqurroq anglash hamda nutqiy vaziyatlarga mos va to'g'ri leksik-grammatik birliklar tanlash imkonini beradi.

Ikkinchi guruh fundamental tamoyillarga moslashuvchanlik va qiyosiylik tamoyillari kiradi. Moslashuvchanlik tamoyili vaziyatni anglash, moslashish va samarali kommunikativ natijaga erishish dinamikasiga asoslanib, talabalarni notanish madaniy kontekstlarda to'g'ri qaror qabul qilishga hamda turli madaniy muhitlarda lingvistik va ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvchan faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Qiyosiylik tamoyili esa o'z madaniyati va o'rganilayotgan til madaniyatini taqqoslash, ular o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni anglash orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv talabalarda nafaqat madaniy tafovutlarni tushunishni, balki o'z milliy madaniyatiga va o'zga madaniy qadriyatlarga nisbatan tanqidiy hamda bag'rikeng munosabatni kamolga yetkazadi. Integrativ va amaliy yondashuvlar negizida tashkil etilgan mashg'ulotlar filolog talabalarining muloqotdagi ruhiy to'siqlarini bartaraf etib, ularning mustaqil fikrlash hamda lingvistik instinkt ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, qiyosiy-qayta tahlil qilish mashqlari orqali talabalar o'z ona tili va ingliz tili madaniyatidagi o'xshashlik hamda tafovutlarni taqqoslab, xalqaro muloqot muhitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan madaniyatlararo anglashilmovchiliklarning oldini olishni o'rganadilar.

Uchinchi navbatda, refleksivlik tamoyili ta'lim jarayonining yakuniy va chuqurlashtiruvchi bosqichini belgilaydi. Bu tamoyil faoliyat, fikrlash, madaniy qarash va xulosa chiqarish zanjiri bo'ylab amalga oshib, talabalarni o'z madaniyatlararo tajribalarini va muloqot davomida yo'l qo'yilgan muloqot xatolarini xolis baholashga undaydi. Refleksiv yondashuv orqali filolog talabalar o'zlarining va o'zga madaniyat vakillarining muloqot xulq-atvorini tanqidiy tahlil qiladilar, bu esa global muloqot muhitida yuqori darajadagi madaniyatlararo sezgirlik hamda bag'rikenglikning shakllanishini ta'minlaydi. Natijada, refleksiv va moslashuvchan metodlarning tatbiq etilishi bo'lajak filologlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirib, ularda global axborot va muloqot maydonida raqobatbardoshlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Oliy ta'lim amaliyotida ushbu tamoyillarni autentik materiallar bilan birgalikda tatbiq etish muayyan ta'limiy modellar orqali amalga oshiriladi. Filologiya fakultetlarida ingliz tili darslarida gazeta va jurnal maqolalari, ilmiy-ommabop podcastlar, videoma'ruzalar hamda badiiy matnlardan foydalanish jarayonida integrativlik va qiyosiylik tamoyillariga muvofiq maxsus matn osti va matndan keyingi topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Natijada talabalar autentik manbalardagi madaniy realiyalar, idiomatik iboralar va muloqot maketlarini tahlil qilish orqali nazariy bilimlarini amaliy muloqot ko'nikmalariga aylantiradilar.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, filolog talabalarining ingliz tilida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar asosida takomillashtirish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan konseptual tamoyillar tizimiga tayanadi. Integrativlik, amaliy yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, qiyosiylik hamda refleksivlik tamoyillarining o'quv jarayoniga kompleks tatbiq etilishi talabalarining lingvistik bilimlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning madaniyatlararo muloqot va kasbiy ko'nikmalarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Autentik materiallardan maqsadli va tizimli foydalanish filologiya ta'limida tili o'rganilayotgan mamlakatning zamonaviy madaniy va ijtimoiy-siyosiy kontekstini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak filolog, tarjimon va o'qituvchilarning xalqaro mehnat bozorida hamda ilmiy-akademik hamjamiyatda yuqori darajadagi raqobatbardoshligini va kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalarining chet tillari kafedralari va o'qituvchilari uchun autentik materiallar bazasini doimiy ravishda yangilab borish va ularni yuqorida ko'rsatilgan metodik tamoyillar asosida dars jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda sun'iy intellekt hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini baholashning diagnostik mezonlarini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.
2. Fantini, A. E. (2007). *Exploring and Assessing Intercultural Competence*. Center for Social Development, Washington University.
3. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning: The state of the art. *Language Teaching*, 40(2), 97–118.
4. Kramersch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford University Press.
5. Passov, E. I. (2000). *Kommunikativnoye inoyazychnoye obrazovaniye: kontseptsiya razvitiya individualnosti narodnogo pedagoga*. – Lipetsk: LGPI.
6. Ter-Minasova, S. G. (2000). *Yazyk i mezhkulturnaya kommunikatsiya*. – Moskva: Slovo.
7. Tomlinson, B. (2012). Materials development for language learning and teaching. *Language Teaching*, 45(2), 143–179.
8. Widdowson, H. G. (1990). *Aspects of Language Teaching*. Oxford University Press.
9. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
10. Lustig, M. W., & Koester, J. (2010). *Intercultural Competence: Interpersonal Communication Across Cultures* (6th ed.). – Boston: Pearson/Alyn & Bacon.

Shamsiyabonu ISKANDAROVA,
 BuxDU tayanch doktoranti (PhD)
 e-mail: shamsiyaiskandarova@gmail.com)

JAK DERRIDA DEKONSTRUKSIYASI NAZARIYASI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqola Jak Derridaning dekonstruksiya nazariyasi va uning adabiyotshunoslikka ta'sirini tahlil qiladi. Dekonstruksiya 1960-yillarda G'arb metafizikasiga tanqid sifatida yuzaga kelib, *différance*, logotsentrizm va ikkilik qarama-qarshiliklar orqali til ma'nosining beqarorligini ko'rsatadi. Derrida asarlariga tayanib, maqolada adabiyot ma'nolar doimiy kechiktiriladigan dinamik makon sifatida qayta talqin etiladi.

Kalit so'zlar: dekonstruksiya, Jak Derrida, poststrukturalizm, adabiyot nazariyasi, *différance*, logotsentrizm, ikkilik qarama-qarshiliklar.

Аннотация: данная статья анализирует теорию деконструкции Жака Деррида и её влияние на литературоведение. Деконструкция возникла в 1960-х годах как радикальная критика западной метафизики и через такие ключевые понятия, как *différance*, критика логоцентризма и деконструкция бинарных оппозиций, демонстрирует нестабильность языкового значения. Опираясь на работы Деррида, в статье литература переосмысливается как динамическое пространство, где значения постоянно откладываются и переосмысливаются.

Ключевые слова: деконструкция, Жак Деррида, постструктурализм, теория литературы, *différance*, логоцентризм, бинарные оппозиции.

Annotation: this article analyzes Jacques Derrida's deconstruction theory and its influence on literary studies. Deconstruction emerged in the 1960s as a radical critique of Western metaphysics and, through key concepts such as difference, critique of logocentrism, and deconstruction of binary oppositions, demonstrates the instability of linguistic meaning. Drawing on Derrida's works, the article reinterprets literature as a dynamic space where meanings are continually deferred and reimagined.

Key words: deconstruction, Jacques Derrida, poststructuralism, literary theory, difference, logocentrism, binary oppositions.

Kirish. Til va ma'no o'rtasidagi munosabat XX asr adabiyot nazariyasining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. An'anaviy adabiy talqin usullari xoh ular muallif niyati, xoh formalist yaqin o'qish, xoh strukturalist semiotikaga asoslangan bo'lsin, odatda, matnlar sinchkov tahlil orqali erishish mumkin bo'lgan aniq ma'nolarni yetkazadi, deb hisoblagan. Ushbu taxmin poststrukturalizmning, xususan, fransuz faylasufi Jak Derridaning (1930–2004) inqilobiy ishlari tufayli tubdan shubha ostiga olindi.

Derridaning "dekonstruksiya" strategiyasi ilk bor 1967-yilda chop etilgan "*Grammatologiya haqida*", "*Yozuv va farq*" hamda "*Nutq va fenomen*" nomli muhim asarlarida ifodalangan bo'lib, G'arb falsafiy an'anasining "mavjudlik metafizikasi"ga keng qamrovli tanqidni taqdim etdi. Bu an'ana Derridaning fikricha, birlik, aynilik, mavjudlik va nutq kabi tushunchalarni farq, boshqalik, yo'qlik va yozuvdan muntazam ravishda ustun qo'yadi. Dekonstruksiya ushbu iyerarxiyalarni oddiygina teskari qilishni emas, balki ularning o'ziga xos beqarorligini namoyish etishni maqsad qiladi. Bu orqali ma'no matnda hech qachon to'liq mavjud emasligi, aksincha, til o'yini orqali cheksiz ravishda kechiktirilishi ko'rsatiladi.

Mazkur maqola Derridaning dekonstruksiya nazariyasi va uning adabiy tahlil uchun ahamiyatini o'rganadi. Maqola to'rt qismdan iborat. Birinchidan, dekonstruksiyaning falsafiy

asoslari – logotsentrizm tanqidi, *différance* tushunchasi va ikkilik qarama-qarshiliklarni dekonstruksiya qilishga qaratilgan. Ikkinchidan, dekonstruksiyaning adabiyotga taalluqli tomonlari, ya'ni bu yondashuv o'qish va talqin amaliyotini qanday o'zgartirayotgani ko'rib chiqiladi. Uchinchidan, dekonstruksiya va adabiy tanqid o'rtasidagi munosabat, dekonstruksiyaning usul yoki o'qish falsafasi sifatida talqin qilish masalalari tahlil etiladi. To'rtinchidan, dekonstruksiyaning zamonaviy adabiyotshunoslik uchun dolzarbligi baholanadi. Maqolaning asosiy tezi – dekonstruksiya adabiyotning yopilishga qarshilik ko'rsatish va ko'p, ko'pincha qarama-qarshi talqinlarni barqaror ushlab turish qobiliyatini tushunish uchun ajralmas manba ekanligidir.

Adabiyotlar sharhi. Logotsentrizm tanqidi va mavjudlik metafizikasi Derridaning dekonstruktiv loyihasi uning fenomenologik an'ana, xususan Edmund Husserl ijodi bilan bo'lgan munosabatidan va Martin Xaydeggerning ontologiya tarixini "destruksiya" qilish dasturini tanqidiy o'zlashtirishidan kelib chiqqan. "*Grammatologiya haqida*" asarida Derrida G'arb falsafasida "logotsentrizm" nutq (logos)ni yozuvdan ustun qo'yish deb atalgan keng tarqalgan tendensiyaning aniqlovchi. Bu ustunlik og'zaki til tafakkur va haqiqatga bevosita kirish imkonini beradi, yozuv esa faqat hosila, ikkinchi darajali ifoda bo'lib, bizni asl ma'nodan uzoqlashtiradi, degan taxminga asoslanadi.

Derridaning ta'kidlashicha, bu iyerarxiya barqaror emas, chunki nutqning o'zi allaqachon yozuv kabi tuzilgan: u ma'noning sof mavjudligiga to'sqinlik qiladigan farqlar va konvensiyalar tizimiga bog'liq. Shuning uchun logotsentrizm tagida yotgan "mavjudlik metafizikasi" ya'ni borliq, haqiqat va ma'no onga to'liq taqdim etilishi mumkin degan ishonch xayoldan boshqa narsa emas. Ma'no hech qachon oddiygina berilgan emas, balki individual nazoratdan oshib ketadigan lingvistik tizimlar orqali quriladi (Derrida, 1976).

Derrida ta'limotining markazida *différance* neologizmi turadi. Bu tushuncha barcha belgilash jarayonini tuzuvchi ikki tomonlama harakatni farq (fazoviy ajralish) va kechiktirish (vaqtinchalik orqaga surish)ni ifodalaydi. Derrida ma'no musbat atamalardan emas, balki belgilar orasidagi tizimli farq munosabatlaridan kelib chiqadi, deb ta'kidlagan. So'z o'zini boshqa so'zlardan farqlagani va nimani anglatishini to'liq mavjud qilishni kechiktirgani darajasida ma'noga ega bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir: har bir belgi boshqa belgilarga ishora qiladi va hech qanday yakuniy tayanch turg'un referent yoki transsendental belgilovchi mavjud emas (Derrida, 1982).

Différance barcha til va barcha ma'no tizimlarining mumkinlik shartidir. U ma'no hech qachon to'liq mavjud emasligini, balki doimiy harakatda, cheksiz kechiktirilgan va qayta talqinga ochiq ekanligini ta'minlaydi. Derrida *différencen*i "barcha qarama-qarshi tushunchalarining umumiy ildizi" deb ta'riflagan (Lawlor, 2021). Bu g'oya adabiy talqin uchun chuqur oqibatlariga ega: agar ma'no tizimli ravishda kechiktirilsa, hech bir o'qish yakuniy yoki mutlaq hokimiyatga da'vo qila olmaydi.

Ikkilik qarama-qarshiliklarni dekonstruksiya qilish.

Derrida G'arb metafizikasining asosiy mexanizmi sifatida ikkilik qarama-qarshiliklarni aniqladi. Mavjudlik/yo'qlik, nutq/yozuv, tabiat/madaniyat, aql/tana, to'g'ridan to'g'ri/majoziy, erkak/ayol kabi juftliklar neytral farqlar emas, balki bir atama ikkinchisidan ustun qo'yilgan iyerarxik tuzilmalar sifatida ishlaydi. Dekonstruksiya ushbu qarama-qarshiliklarni beqarorlashtirishga intiladi: ustun atama o'zining bo'ysundirilgan juftiga bog'liq ekanligini va u bilan "ifloslangan"ligini ko'rsatadi. Qarama-qarshilik mutlaq bo'linish emas, balki teskari o'girilishi va qayta shakllantirilishi mumkin bo'lgan qurilgan iyerarxiyadir. Derrida, ammo iyerarxiyani oddiygina teskari qilish – masalan, yozuvni nutqdan ustun qo'yish – qarama-qarshilik tuzilmasini o'z holicha qoldirishi haqida ogohlantiradi. Maqsad yangi iyerarxiya o'rnatish emas, balki ikkilik mantiqdan qochib qutuladigan "qaror qilib bo'lmaydigan" elementlarni ochib, qarama-qarshilikning o'zini o'rinsizlantirishdir. *Différance*, to'ldiruvchi (supplement), iz (trace) va himen (hymen) kabi qaror qilib bo'lmaydigan tushunchalarni ikkilikning bir tomoniga ham kiritib bo'lmaydi; ular metafizik tafakkurning chegaralarini ochib beradi (Derrida, 1978).

Metodologiya. Ushbu maqola dekonstruktiv o'qish usulining adabiy matnlarga qanday tatbiq

etilishi mumkinligini nazariy jihatdan o'rganadi. Metodologik jihatdan maqola Derridaning asosiy falsafiy matnlari "*Grammatologiya haqida*" (1976), "*Yozuv va farq*" (1978), "*Falsafa chegaralari*" (1982) va "*Adabiyot harakatlari*" (1992)ga tayanadi. Shuningdek, Derek Attridge, Jonatan Kaller va Barbara Jonson kabi dekonstruksiyaning yetakchi sharhlovchilari va tatbiqchilarining ishlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot strategiyasi sifatida dekonstruksiya an'anaviy tarzda "usul" sifatida emas, balki "o'qish falsafasi" yoki "matnga munosabat etosi" sifatida talqin etiladi. Dekonstruktiv o'qish matnning bir xilligini, muallif niyatini yoki yagona ma'nosini izlashdan ko'ra, uning ichki ziddiyatlariga, chekka qismlariga (margins), kinoyali iboralariga va o'z-o'ziga zid bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv adabiyotshunoslikda ilgari hukmron bo'lgan strukturalistik, formalistik va germeneytik modellardan farq qiladi (Wolfreys, 1998). Maqolada, shuningdek, dekonstruksiyaning adabiyotga tatbiqida yuzaga keladigan uslubiy muammolar masalan, talqinning cheksizligi, etik mas'uliyat va siyosiy befarqlik haqidagi ayblovlar ham ko'rib chiqiladi.

Natijalar va muhokama. Derrida butun faoliyati davomida adabiyotga doimiy e'tibor qaratdi. Russo, Malarme, Jeyms Joys, Kafka, Shekspir va Selan kabi turli davr va tillardagi adabiyot namoyandalari bilan ishladi. Derrida uchun adabiyot falsafiy dalillar uchun oddiygina illyustrativ misol emas, balki tilning ishlashi va konseptual tafakkurning chegaralarini o'rganish uchun imtiyozli makondir. Adabiy asarning o'ziga xosligi, Derrida ta'kidlaganidek, uni anglash uchun qo'llaniladigan konseptual sxemalardan qochib qutuladi, shu bilan falsafa odatda, bostirishga yoki e'tiborsiz qoldirishga moyil bo'lgan ma'no o'lchamlarini ochib beradi. "*Adabiyot harakatlari*" (Derrida, 1992) to'plamida Derek Attridge Derridaning adabiyotni muhim madaniy institut va "yozuvning o'ziga xos qiyin shakli, falsafa, siyosat va etika haqidagi fikrlashimiz uchun muqarrar oqibatlariga ega" ekanligini ta'kidlaydi (Attridge, 1992, p. 1). Adabiyot, Derrida uchun, tilning ijro etuvchi (performative), obrazli (figurative) va o'yinli jihatlarini oldingi planga chiqaradi; falsafiy nutqda ular ko'pincha chetga suriladi. Adabiyot dekonstruksiya nazariy jihatdan tasvirlaydigan ma'no beqarorligini o'zida amalga oshiradi, shuning uchun dekonstruktiv loyihaning tabiiy ittifoqchisidir (Attridge, 2004).

Dekonstruksiya adabiy matnlarga yaxlit yoki muallif niyatining ifodasi sifatida emas, balki ichki ziddiyat, ko'plik va o'z-o'ziga qarama-qarshilik sayti sifatida yondashadi. Dekonstruktiv o'qish matnning o'zi allaqachon o'zini demontaj qilganligini, uning ko'rinadigan uyg'unligi bostirishga intilgan ma'nolarni va muqobil talqinlarni ochib berishga harakat qiladi. Julian Wolfreys (1998) ta'kidlaganidek, dekonstruksiya uni tashqaridan matnlarga qo'llaniladigan dasturiy

metodologiyaga qisqartirish mumkin degan tushunchaga qarshi chiqadi. Dekonstruksiya o'rniga matn ichida allaqachon amal qilayotgan narsani ochib beradi.

Bu yondashuv adabiy tanqid uchun muhim oqibatlariga ega. U tematik birlik yoki mualliflik ma'nosini izlashdan chetga chiqib, matnning yuzaki qatlamiga, ritorik shakllariga, chekka yozuvlari va izohlariga, hamda qaror qilib bo'lmaydigan paytlariga e'tibor qaratadi. Dekonstruktiv o'qish, masalan, adabiy matn o'zining mafkuraviy da'volarini obrazli til orqali qanday buzib tashlashini yoki o'zi davom ettira olmaydigan qarama-qarshiliklarga qanday tayanishini tekshirishi mumkin. Shu yo'l bilan dekonstruksiya matnni ko'plab talqinlarga ochadi va an'anaviy tanqid ko'pincha izlaydigan yopilishga qarshilik ko'rsatadi (Rathod, 2025).

Dekonstruksiya va talqin masalasi. Derrida ishi talqinning tabiati va chegaralari haqida munozaralarni keltirib chiqardi. Agar ma'no cheksiz kechiktirilsa va hech bir o'qish yakuniy hokimiyatga da'vo qila olmasa, dekonstruksiya talqini nigilizmga yoki relativizmga olib keladimi? Derrida va uning izdoshlari bunday ayblovlarni doim rad etishgan. Dekonstruksiya matnlarning ma'nosi yo'qligini inkor etmaydi; u ma'noning turg'un, yagona yoki to'liq aniqlanishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. O'qish mas'uliyatli va qat'iy faoliyat bo'lib qoladi, lekin u o'zining vaqtinchalikligini va qayta talqinga ochiqqligini tan oladi.

Derek Attridge (2004) dekonstruksiya o'qilayotgan matnga nisbatan mas'uliyatni talab qilishini ta'kidlaydi – bu mas'uliyat matn tafsilotlariga sodiqlikni va uning ko'rinadigan niyatlaridan oshib ketadigan yoki unga zid bo'lgan narsalarga ochiqlikni o'z ichiga oladi. Bu ikki tomonlama majburiyat – diqqat bilan yaqin o'qish va ixtirokor o'qish – dekonstruktiv tanqidning eng

yaxshi namunalari tavsiflaydi. Dekonstruksiyaning amerika adabiyotshunosligida tarqalishida muhim rol o'ynagan Barbara Jonson dekonstruksiya ma'noni yo'q qilish haqida emas, balki uning ko'pligini va matnning o'z tilidagi ziddiyatlarni ochib berish haqida ekanligini ta'kidlagan (Rathod, 2025).

Xulosa. Jak Derridaning dekonstruksiya nazariyasi adabiyotshunoslikni tubdan o'zgartirdi; til, ma'no va talqin haqidagi uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan taxminlarni shubha ostiga qo'ydi. Ikkilik qarama-qarshiliklarning beqarorligini, *différance* o'yinini va logotsentrizm tanqidini ochib berish orqali dekonstruksiya adabiy matnlar turg'un ma'nolarning ombori emas, balki ma'nolar tortishuv, kechiktirish va doimiy qayta ixtiro qilinadigan dinamik makon ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu maqola dekonstruksiyaning falsafiy asoslarini kuzatdi va uning adabiyotni o'qishdagi oqibatlarini o'rgandi. Dekonstruksiya talqinga dasturiy usul emas, balki matn yuzasiga, chekka qismlarga va an'anaviy tanqid bostirishga intiladigan qaror qilib bo'lmaydigan lahzalarga e'tibor qaratadigan o'qish falsafasi ekanligi ta'kidlandi. Derrida uchun adabiyot dekonstruksiyaning imtiyozli obyekti hisoblanadi, chunki u falsafa o'zlashtirishga intiladigan til beqarorligini o'zida amalga oshiradi.

Garchi dekonstruksiya noto'g'ri tushunish va tortishuvlarga duch kelgan bo'lsa-da, uning adabiyot nazariyasiga qo'shgan hissassi saqlanib qolmoqda. U bizga o'qish ma'noni passiv qabul qilish emas, balki o'zlari ochiq va tugallanmagan matnlar bilan faol, ijodiy munosabatda bo'lish ekanligini o'rgatdi. Talqin, etika va o'qish siyosati masalalariga e'tibor kuchaygan hozirgi davrda Derrida ishi adabiyotning madaniyatdagi o'rnini tushunish uchun ajralmas manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Attridge, D. (1992). Introduction: Derrida and the questioning of literature. In J. Derrida, *Acts of literature* (pp. 1–29). Routledge.
- Attridge, D. (2004). *Reading and responsibility: Deconstruction's traces*. Edinburgh University Press.
- Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (2025). Continental philosophy: Derrida. In *Encyclopedia Britannica*. <https://www.britannica.com/topic/continental-philosophy/Derrida>
- Derrida, J. (1976). *Of grammatology* (G. C. Spivak, Trans.). Johns Hopkins University Press.
- Derrida, J. (1978). *Writing and difference* (A. Bass, Trans.). University of Chicago Press.
- Derrida, J. (1982). *Margins of philosophy* (A. Bass, Trans.). University of Chicago Press.
- Derrida, J. (1992). *Acts of literature* (D. Attridge, Ed.). Routledge. Internet Encyclopedia of Philosophy. (n.d.). *Jacques Derrida (1930–2004)*. <https://iep.utm.edu/jacques-derrida/>
- Lawlor, L. (2021). Jacques Derrida. In *Stanford Encyclopedia of Philosophy* (Fall 2021 Edition). <https://plato.stanford.edu/entries/derrida/>
- Rathod, M. M. (2025). Deconstruction and the instability of language in literature: A post-structuralist approach. *International Journal of Advance and Applied Research*, 12(3), 220–226. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15385788>
- Wolfe, J. (1998). *Deconstruction • Derrida*. St. Martin's Press.

Dilovar SULTONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi va
matnshunoslik kafedrasida 3-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: sultonovadilovar0@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-7389-5411

SOBIR SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA DINIY MOTIVLARNING BADIY-G'OYAVIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida uchraydigan diniy motivlarning badiiy-g'oyaviy talqini tahlil qilinadi. Asarda Qur'on oyatlari, Allohga hamd, Payg'ambar (s.a.v.)ga na't, duo, imon, oxirat, jannat va do'zax kabi diniy tushunchalarning syujet hamda obrazlar tizimidagi o'rni yoritiladi. Dostonning diniy-ma'rifiy mazmuni va tasavvufiy qarashlar bilan bog'liqligi ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so'zlar: *Sobir Sayqaliy, Bahrom va Gulandom, diniy motiv, tasavvuf, Qur'on, hamd, na't, imon, badiiy talqin.*

Annotation: this article analyzes the artistic and ideological interpretation of religious motifs in Sobir Sayqaliy's epic Bahrom va Gulandom. It examines the role of Qur'anic references, praise of Allah, eulogies to the Prophet, prayers, faith, the Hereafter, Paradise and Hell in the composition of the work. The article also evaluates the educational and Sufi aspects of the epic.

Key words: *Sobir Sayqaliy, Bahrom va Gulandom, religious motifs, Sufism, Qur'an, faith, artistic interpretation.*

Аннотация: в статье анализируется художественно-идейное осмысление религиозных мотивов в дастане Собира Сайкали «Бахром и Гуландом». Рассматриваются образы, связанные с Кораном, восхвалением Аллаха, пророка Мухаммада (мир ему), верой, молитвой, раем и адом, а также их роль в идейном содержании произведения.

Ключевые слова: *Собир Сайкали, Бахром и Гуландом, религиозные мотивы, суфизм, Коран, вера, художественная интерпретация.*

Kirish. XVIII asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sobir Sayqaliy yaratgan "Bahrom va Gulandom" dostoni o'zining badiiy mukammalligi bilan bir qatorda diniy-ma'rifiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Qur'oniy g'oyalar, islomiy qadriyatlar va tasavvufiy qarashlar badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Najmiddin Komilov fikricha, mumtoz Sharq adabiyotida diniy motivlar insonni ma'naviy kamolot, ezgulik va ilohiy haqiqat sari yetaklovchi asosiy badiiy vositalardan biridir[2].

Mazkur maqolaning maqsadi dostonidagi diniy motivlarning g'oyaviy-badiiy vazifasini

ochib berish va ularning asar poetikasidagi o'rnini aniqlashdir.

Asosiy qism. Kitobning avvali بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ “Bismillahir rohmamir rohim” —

deb boshlangan. So'ngra hamd, na't va salovat olam yaratilishi haqida baytlar keltirilgan:

که بسم الله الرحمن الرحيم ديب

خدائی یاد ایتاین یا کریم ديب [1, 1b]

Ki Bismillahir rahmanir rahim deb,

Xudoni yod etoyin, yo Karim, deb.

Doston an'anaviy tarzda basmala bilan boshlanib, shoir ijodini Alloh nomi bilan boshlash orqali islomiy adabiy an'anaga amal qiladi.

انگا مانند ایماس عالمده هیچ شی
ینه مانند ایماس هیچ شی ده اولهی
Anga monanad emas olamda hech shay,
Yana monand emas hech shayda ul hay.
Bu baytda Allohning yagonaligi va
tengsizligi ulug‘lanadi, ya’ni tavhid g‘oyasi
badiiy ifoda etilgan.

بهشتنی سکز و دوزخی یتی
مسلمان برله کافرگا یراتی
چو تفر اقدین تنه آدم یراتی
تئیگا روحنی همدم یراتی [1, 1b]
Bihishtni sakkizu, do‘zoxni yeti
Musulmon birla kofirga yaratti.
Chu tufroqdin tana odam yaratti,
Tanig‘a ruhni hamdam yaratti.
Shoir jannat va do‘zaxning Alloh
tomonidan yaratilganini ta’kidlab, ilohiy
qudratni madh etadi.

محمد مصطفی مشهور دور آتی
خدانینگ نور دیندور پاکذاتی [1, 2a]
Muhammad Mustafa mashhurdur oti,
Xudoning nuridindur pokizoti.
Ushbu bayt Payg‘ambar Muhammad
(s.a.v.)ga bag‘ishlangan na’t bo‘lib, uning
yuksak maqomi ulug‘lanadi.

اوشل منزله کیم اولشاه یکتن
اوقیدی نماز شام خفتن
دعآ ایلاب اوتوردی شاه برنا
خدانی یاد اتیب اول یرده تنها [1, 6b]
O’shal manzilda kim ul shoh yaktan
Ado qildi namozi shomu xuftan.
Duo aylab o’turdi shah barno
Xudoni yod etib ul yerda tanho,
Bu misralarda shahzoda Bahrom safar
chog‘ida ham namoz va duoda bardavom
ekani tasvirlanadi.

الارغه عرضه قیلدی انده ایمان
الارهم صدق ایله بولدی مسلمان [1, 22a]
Alarg‘a arza qildi anda iymon,
Alar ham sidq ila bo‘ldi musulmon.
Bahrom Sayfurni yengandan so‘ng unga
iymonni taklif qilishi va uning musulmon
bo‘lishi bayon etilgan.

تیلینکده بر خدانی ذکر ی بولسون
دلینکده آخرتتی فکری بولسون
Tilingda bir Xudoni zikri bo‘lsun,
Dilingda oxiratni fikri bo‘lsun.
Baytda inson doimo Allohni zikr etishi
va oxiratni unutmasligi lozimligi haqidagi
diniy-axloqiy g‘oya ilgari suriladi.

خدایا اندین اوزگا حورو غلمانینگ کراکمسدور
جمالین کورمسام فردوس رضوانینگ [1, 25a]
کراکمسدور

Xudoyo, andin o‘zga huru g‘ilmoning
kerakmasdur,
Jamolin ko‘rmasam, firdavs rizvoning
kerakmasdur.
Shahzoda malika Gulandomni jannat
vaslidan ham afzal ko‘rishi bayon etilmoqda.

مردم کوز دانه خالینده یتکای موردیک
بلقس وقتیم منی رشک سلیمان ایلاغای
میحراب کعبهء بت غه قچان یتکای باشیم
عیدیم اول کوندورکه بر باقماقه فرمان [1, 27b]
ایلاغای

Mardumi ko‘z donai xolinda yetkay
mo‘rdek,
Bilqisu vaqtim mani rashki Sulaymon
aylag‘ay.
Mehrobi ka‘bai butg‘a qachon yetkay
boshim,
Iydim ul kundurki bir boqmoqqa farmon
aylag‘ay.
Mazkur baytlarda Qur‘on qissalariga
ishora (talmeh) va ilohiy go‘zallik timsollari
mujassam.

خدانی یاد اتیب چاپتی نهکنی
که اولتاغدیك نهنگ به درنکنی
Xudoni yod etib chopti nahangni,
Ki ul tog‘dek nahang be darangni.

قیلیب انداق نهکنی پاره پاره
اوقوب حمدو ثنا پروردگار [1, 29b]
Qilib andoq nahangni pora-pora,
O‘qub hamdu sano parvardigora.
Qahramonning jasorati Allohga tavakkul
va ilohiy madad bilan bog‘lanib, diniy motiv
kuchaytirilgan.

دوزخ هجرینه سالیب اول مؤبد قویماسون
جنت وصلینه آغی حور رضوانیمغه ایت [1, 49a]
Do‘zax hajrina solib ul muabbad
qo‘ymasun,
Jannati vaslina olg‘ay huru rizvonimg‘a
ayt.

Shoir Allohdan do‘zax azobidan
saqlashni va jannat ne‘matlariga erishtirishni
so‘rab duo qiladi.

صفای غیغینک زندان یوسف
حیادین ایریلور دامان یوسف [1, 51b]
Safoyi g‘abg‘abing zindon Yusuf,
Hayodin ayrilur domon Yusuf.

Ushbu baytda Yusuf a.s qissasiga ishora qoʻllangan. Uning husni va iffatiga shoir maʼshuqani qiyoslaydi. Maʼshuqaning goʻzalligi ilohiy timsollar bilan yuksak badiiy darajada ulugʻlangan.

حضرت تنکری تعالیٰ دین مرادیم شول ابرور

ایلسه تقدیر اگر بولسنک نصیبیم سن مینک [1, 76b]

Hazrati tangri taolodin murodim shul

erur,

Aylasa taqdir agar boʻlsang nasibim san maning.

Baytda barcha orzu-umidlarning Alloh taqdiriga bogʻliqligi, yaʼni tavakkul gʻoyasi ifodalangan.

ایدی شهزاده کوزوم یاشی فدای مقدمینک

مستجاب اینگی خدانیدیم مسیحادی دمینک [1, 77b]

Aydi shahzoda: – Koʻzum yoshi fidoyi

maqdaming,

Mustajob etgay xudovandim Masihoday daming.

Bu yerda Masihning nafasi ilohiy moʻjiza va shifo timsoli sifatida qoʻllanib, diniy motiv qahramonning samimiy tilagi va duosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Baytda Allohning qudrati, duo va paygʻambarlar moʻjizasiga ishonch gʻoyasi badiiy tarzda ifodalangan.

محمدگا درود به نهایت

ایا ای فغفور صاحب امارت [1, 86b]

Muhammadga durud benihoyat,

–Ayo, ey Fagʻfur sohib amorat.

Ushbu baytda shoir avvalo Paygʻambar Muhammad (s.a.v.)ga cheksiz salovat va durud yoʻllaydi. Mumtoz adabiyotda asarni hamd va naʼt bilan yakunlash yoki muayyan bobni salovot bilan tugatish islomiy adabiy anʼanalarning muhim belgilaridan hisoblanadi. Annemarie Schimmelning diniy timsollar va Qurʼon qissalari badiiy ifodaning ajralmas qismi ekanini taʼkidlaydi[3].

Natija. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, dostonning deyarli barcha asosiy voqealari Allohga tavakkul, duo, imyon va ilohiy iroda gʻoyalari bilan uzviy bogʻlangan. Hamd, naʼt va diniy obrazlar asarning gʻoyaviy yaxlitligini taʼminlab, dostonda diniy motivlardan nafaqat syujetni bezash vositasi sifatida, balki qahramonlarning maʼnaviy kamolotini yoritishga xizmat qiladi. Aleksandr Knysh fikricha, tasavvufiy adabiyotda Qurʼon va paygʻambarlar qissalari badiiy ramz sifatida qoʻllanib, axloqiy va ruhiy gʻoyalarni yoritadi[4].

Xulosa. Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni diniy motivlar badiiy ifodasining yorqin namunalaridan biridir. Unda diniy tushunchalar syujetning ajralmas qismi sifatida qoʻllanilib, asarning estetik va maʼrifiy qimmatini oshirgan. Doston oʻzbek mumtoz adabiyotida diniy va tasavvufiy qarashlarning badiiy talqinini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. قصی شهزاده بهرام و ملیکه گلندام. OʻzFASHI qoʻyozmalar fondi. Inv. №: 8705.
2. Najmiddin Komilov. 2009. *Tasavvuf*. Yozuvchi.
3. Annemarie Schimmel. 1975. *Mystical Dimensions of Islam*. University of North Carolina Press.
4. Alexander Knysh. 2000. *Islamic Mysticism: A Short History*. Brill.

INGLIZ TILIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada yozuvning rivojlanishiga ijobiy va salbiy jihatdan ta'sir etuvchi bir qator omillar guruhi tahlil qilinadi. Mazkur ta'sir omillarining asosiy guruhlariga qatoriga lingvistik, kognitiv, psixologik-affektiv va pedagogik-instruksional ta'sir omillari kiradi.

Kalit so'zlar: *leksik qamrov, grammatik bilimlar, diqqat, ijro funksiyalari, kognitiv omillar, o'z qobiliyatiga ishonch, motivatsiya, qayta aloqa, yozishdan xavotir*

Аннотация: в данной статье анализируются основные классификации положительных и отрицательных факторов, влияющих на развитие письменной речи. Рассматриваемые факторы подразделяются на лингвистические, когнитивные, психологические (аффективные) и педагогико-методические группы.

Ключевые слова: *грамматические знания, внимание (концентрация внимания), исполнительные функции, когнитивные факторы, самооэффективность, мотивация, обратная связь, письменная тревожность.*

Annotation: this article analyzes several main classifications of positive and negative factors on writing development. These influential factors are divided into linguistic, cognitive, psychological-affective and pedagogic-instructional groups.

Key words: *grammatical knowledge, attention (focus), executive functions, cognitive factors, self-efficacy, motivation, feedback, writing anxiety*

Kirish. Yozuv boshqa nutq faoliyatlariga qaraganda nisbatan sekin rivojlanadi. Sababi shundaki, mazkur faoliyat turining amalga oshishi til o'rganuvchisidan nafaqat mustahkam lingvistik bilimlar ta'minoti balki katta kognitiv va psixologik tayyorgarlik talab etadi. Atoqli ta'limshunos olim Jamol Jalolov ushbu nutq faoliyati operatsiyalari bir vaqtning o'zida barcha sezgi analizatorlarining birlamchi va ikkilamchi ishtirokini taqozo qilishiga urg'u berib, uning amalga oshishini murakkab psixofiziologik faoliyat deb ta'kidlaydi [1, 288].

Yozuv faoliyat turining samarali rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotimiz yuzasida 1-bosqich filolog talabalaridan olingan diagnostik so'rovnomaga natijalariga ko'ra, ularning mazkur faoliyatda duch keladigan amaliy qiyinchiliklari sifatida quyidagilar qayd etilgan.

- Lingvistik qiyinchiliklar;
- Kognitiv qiyinchiliklar;
- Diskursiv qiyinchiliklar.

So'rovnomaga natijalari bizni yozuv faoliyatiga ta'sir qiladigan omillar guruhini nazariy o'rganib chiqish va ularning ta'sirini tahlil qilishga undadi. Ularning asosiylaridan biri bu lingvistik ta'sir omillaridir. Chunki mazkur omil nutqning grafik shaklda aks etishida birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan leksik, grammatik, orfografik va imlo kabi til ko'nikmalari haqidagi bilimlar majmuyini qamrab oladi.

Xususan, CEFR hujjatida umumiy til bilishning B2 darajasi uchun belgilab qo'yilgan "General Linguistic

Range" deskriptori til o'rganuvchisining murakkab fikrlarni ifodalashi, o'z fikrini asoslay olishi hamda nutq mazmunini rivojlantirishi uchun yetarli lingvistik resurslarga ega bo'lishi nazarda tutiladi [2]. Shunday ekan, lingvistik ta'sir omillari guruhi birliklaridan bo'lgan lug'at zaxirasi haqida to'xtalish joiz. Young-Suk Kim va b.lar ushbu omilni lingvistik xabardorlik ko'nikmasi sifatida ta'riflab, uning o'qish va yozish faoliyatining rivojlanishida hissassi borligini ta'kidlab o'tganlar [3].

Akademik leksikadan foydalanish lug'aviy bilimning biz tadqiqotimiz doirasida tahlilga tortishimiz muhim bo'lgan lingvistik tarkibiy komponentidir. Sababi shundaki, oliy ta'lim bosqichidagi til o'rganuvchisining yozma nutq faoliyatida akademik lug'at boyligi muhim zarurat bo'lib, ushbu ta'lim bosqichida talabalarda ilmiy uslubdagi matnlar yaratish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Mazkur lug'at boyligining yetarli darajada shakllanganligi talabalarga fikrlarini ilmiy kontekstlarda, aniq va mantiqiy ifodalash imkonini beradi.


Xususan, Hessah Saleh Aldayel va boshqalar tadqiqotida 41 nafar talabada akademik terminologiya bo'yicha lug'at zaxirasining yetarli emasligini samarali akademik paragraf yozishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida qayd etgan. Tadqiqot natijalari, shuningdek lingvistik omillar yozuv kompetensiyasining eng kuchli prediktori ekanligini ko'rsatgan [4].

Xususan, ayrim tadqiqotlar grammatika va yozuv sifati o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa,

boshqalari ushbu bog'liqlikning juda kam yoki statistik ahamiyatsiz ekanligini aniqlagan. Shu bilan birga, muallif o'z tadqiqoti natijalariga tayangan holda grammatik bilimlarning yozuv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab o'tgan [5].

Yana bir xorijiy tadqiqotchilardan, Grace H. Wang va Seok-Dong Wanglar grammatik mashqlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar universitet talabalarining yozish va tahrirlash ko'nikmalariga bo'lgan ishonchini oshirishi mumkinligini e'tirof etganlar. Bizning fikrimizcha, grammatik bilim yozma matnni struktura jihatdan boyitib, fikrlarni me'yoriy qoliplarda o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazib beruvchi faktor sifatida muhim ahamiyatga egadir [6].

Tadqiqotimizda e'tiborga olingan ikkinchi guruh ta'sir omillari – kognitiv omillar. Ushbu omillarning muhim turlarini quyidagi rasmda aks ettirishga harakat qildik.



1-rasm

Yozuv faoliyatiga ta'sir etuvchi kognitiv guruh omillari

Ayrim emperik tadqiqotlarga ko'ra, *ishchi xotira*ning asosiy ta'siri yozma matnning lingvistik ko'nikmalari darajasida ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha buning sababi ishchi xotiraning uzoq muddatli xotirada saqlanadigan statik lug'at birliklarini aktivlashtirish kabi birlamchi funksiyasi bilan bog'liq.

Xususan, J.Kormos va Csilla Barthalarning tadqiqotlarida ishchi xotira leksik tanlov jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida qayd etganlar [7].

Navbatdagi kognitiv omil birliklari qatoriga *ijro funksiyalari* va *diqqat nazorati* kiradi. Elise Drijbooms va boshqalar markaziy ijroning til o'rganuvchilardagi tormozlovchi va axborotni yangilash funksiyalari samarali ishlashi matn generatsiyasi ravonligini oshirib, yozma matn hajmining ortishi bilan xarakterlangan [8]. Mazkur holat ijro funksiyalarining yozuvning ravonligi va mahsuldorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Biroq ijro funksiyalarining aynan qaysi komponenti yozuv faoliyatida kuchliroq ta'sir ko'rsatishi yozuv vazifasining xususiyati (task complexity) va til bilish darajasiga (language proficiency) bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, tavsifiy

matn (descriptive essays) kontekstidagi yozuv jarayonida *kognitiv moslashuvchanlik* funksiyasi, argumentativ matnlar (argumentative essays) yozishda esa *axborotlarni yangilash ijrochisi moslashuvchanlik* funksiyasi bilan birgalikda vazifa bajarishi taqazo etilgani aniqlangan [9].

Yozma nutq faoliyatida diqqatning ahamiyati haqida qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Yanning Chen va b.lar diqqatning barqaror saqlanishi va samarali boshqarilishi yozuvchiga rejalashtirish, matn yaratish hamda tahrirlash jarayonlarida kognitiv resurslarni maqsadga muvofiq yo'naltirish imkonini berishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, diqqat resurslarining susayishi esa u yoki bu kognitiv yuklamaning ortishi yozma nutq sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan [10].

Yozuv faoliyatiga ta'sir turi bo'yicha salbiy va ijobiy psixologik-effektiv omillarga bo'linadi. Salbiy va ijobiy xususiyatiga ko'ra mazkur omillar son-sanoqsiz, ammo biz tadqiqotimiz doirasida ularning asosiy muayyan turlarinigina qamrab olishimizga to'g'ri keldi. Quyidagi rasmda mazkur klassifikatsiya bilan tanishib olishingiz mumkin.



2-rasm

Ijobiy va salbiy psixologik-effektiv omillar guruhlari.

Ijobiy psixo-effektiv omillardan biri *motivatsiya* til o'rganuvchisining o'rganish jarayonida qat'iyatli hamda mahoratli sohibi bo'lish xulq-atvori ko'rinishidir [11]. Xususan, Galang Tirta Yudha va b.lar tomonidan olib borilgan tadqiqot

natijalari motivatsiya va o'z qobiliyatiga ishonch yozuvning rivojlanishiga kombinatsiyaviy ta'sir qilgan. Izlanishda motivatsiya ikkita ichki va tashqi motivatsiya o'lchami jihatdan qaralgan bo'lib, ichki motivatsiya talabalarni yozma topshiriqlaridan zavqlanishi va topshiriqqa qiziqishi bilan, tashqi motivatsiya esa o'qituvchining ko'rsatmalarini bajarish va mukofotlar orqali yozma matn sifatiga ta'sir qilgan. Shu bilan birga, o'z qobiliyatiga ishonch (self-efficacy) hissining ta'siri esa yozuv jarayonidagi g'oya generatsiyasi va ularni tartiblash, lingvistik resurslardagi aniqlik va samarali tahrirlash jarayonlari bilan xarakterlanishi ham aynan shu tadqiqotda ta'kidlab o'tilgan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, tadqiqotchilar motivatsiya va o'z qobiliyatiga ishonch hissiyotlaridan iborat psixologik omillar konstruktini yozma nutq sifatiga samarali ta'sirini tadqiqot subyektlarining sotsio-ma'daniy va diniy xususiyatlari bilan bog'laganlar [12]. O'z qobiliyatiga ishonch omilini Albert Bandura insonning qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida o'z sa'y harakatlari amalga oshirishga bo'lgan qobiliyatlariga nisbatan ishonchi deb ta'riflagan [13].

Uchinchi muhim ijobiy psixo-effektiv omil esa faoliyatga jalb etilganlik yoki jalb etilganlik (engagement) hisoblanadi. Adabiyotlarda uning uch komponenti (emotsional, axloqiy va kognitiv) ko'p tilga olinadi. Shularning, resurslar yetishligi, murakkab grammatik strukturalar va ingliz tilidagi autentik muloqot muhitining yetishmasligi talabalarining yozuv topshiriqlariga nisbatan emotsional jalb etilganlikni va o'z fikrlarini ijodiy ifodalashni cheklab qo'yganligini tadqiq etilgan [14]. Jonathan Marine tadqiqotida faollik matn sifatiga, xususan matn sifati auditoriyadan xabardorlik, matning mantiqiy bog'langanligi, argument bayoni va fikrga dalillar keltira olish kabi rubrika bilan o'lgan, motivatsiyaga qaraganda kuchliroq ta'sir qilgan va motivatsiyaning yozuv faoliyatiga ta'siri ham aynan jalb etilganlik orqali bilvosita amalga oshgan [15].

Endigi o'rinlarda, yozuv sifatining asosiy salbiy psixo-effektiv prediktorlarini tahlilga tortish ehtiyoji seziladi. Chet tilida yozma nutq faoliyatida ta'siri jihatidan eng ko'p muhokamaga sabab bo'ladigan psixologik-effektiv omillardan biri *yozishdagi xavotir (writing anxiety)* sanaladi. Harnita Rosalia va Andi Nurul Annisaning fikriga ko'ra, chet tilini o'rganish konteksida xavotir ko'pincha lug'at boyligining kamligi, grammatik qiyinchiliklar hamda xato qilishdan tashvishlanish bilan xarakterlanib, bu holatlar talabalarining yozma topshiriqlarni bajarishga bo'lgan ishonchi va istagiga ta'sir qiladi [16].

Keyingi yozuv jarayonidagi salbiy ta'sir omili *zerikish (boredom)* sanaladi. Yozma nutq jarayonidagi ushbu salbiy psixologik-effektiv omil Chengchen Li va b.larning fikricha, berilgan topshiriq o'quvchilar tomonidan ahamiyatsiz, qiziqarsiz va ma'lum darajalarda qiyinchilikka sabab

bo'lishi taxmin qilinganda yuzaga keladi deb izohlangan [18]. Ayrim ilmiy manbalarda yozma nutq faoliyatida zerikishni yuzaga keltiradigan sabablar standart baholash mashqlarining takroriy tabiati, til bilish darajasining pastligi kabilar bilan xarakterlanadi [19,20].

Yozuv faoliyati murakkab kognitiv va psixologik jarayonlar ta'siri bilan bir qatorda pedagogik-instruksional faktorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulardan birinchisi topshiriqning murakkablik tabiati bo'lib, topshiriq "ko'rsatma berish tabiati" hamda "pedagogik mashg'ulot" tushunchalari bilan yondoshligi hamda "topshiriqning qiyinlik darajasini talabalarining qobiliyatiga moslashtirish" kabi instruksional strategiyalari negizidagi konsepsiya bo'lganligi sababli uni faktor jihatidan pedagogik-instruksional omillar guruhiga qamrab olishni joiz deb topdik [21,22].

Navbatdagi ahamiyatli pedagogik-instruksional omil o'quvchilarning yozma topshiriqlarga nisbatan *teskari aloqani (feedback)* yo'lga qo'yishdir.

Teskari aloqani taqdim etuvchi subyektiga ko'ra "*teacher feedback*" (o'qituvchi tomonidan *teskari aloqa*), "*peer feedback*" (hamkorlikdagi *teskari aloqa*), "*self-feedback*" (o'z-o'ziga nisbatan *teskari aloqa*) va "*AI feedback*" (sun'iy intellekt tomonidan *teskari aloqa*) kabi turlarga bo'linadi va yozuv faoliyatining samarali kechishida har bir tanqidiy baholash turining o'rni muhimdir.

Ta'sir omili jihatidan yaqinda qilingan tadqiqot ishlarida, jumladan hamkorlikdagi va o'qituvchining *teskari aloqa* yozma matn yaratishda *paragraflarga ajratish (paragraph organization)*, *paragraf bosh g'oyasini ifodalovchi gaplarni qo'llash (use of topic sentence)*, qo'shimcha tafsilotlar bilan boyitish va aniq xulosalash kabi asosiy natijalarni qayd etgan. Bunga qo'shimcha ravishda, mazkur *teskari aloqa* turlari yozuv faoliyati samaradorligining ijobiy psixo-effektiv prediktorlari bo'lgan o'ziga ishonch va motivatsiya hissiyotlarini oshirgan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, yozuv kompetensiyasi ko'p hollarda yakka turdagi omillar ta'sirida emas, balki bir vaqtning o'zida lingvistik, kognitiv, psixologik, pedagogik va boshqa bir qator omillar korrelatsiyasida rivojlanib boradi. Mazkur omillar tizimida *teskari aloqa* asosiy reguliator bo'lib xizmat qiladi: u til o'rganuvchisining lingvistik xatolarini tuzatishga ko'mak berishi bilan bir qatorda uning subyektiv psixologik to'siqlariga barham beradi hamda motivatsiyani qo'llab quvvatlaydi.

Tahlillar natijasidan omillar ahamiyatini tushunib olar ekanmiz yozma nutqni rivojlanishida ijobiy tomondan hissa qo'shadigan faktorlar hissasini ko'paytirish, salbiylarini esa bostirish maqsadida quyida biz taklif qilayotganimiz, vizualizatsiya texnikalarining optimal imkoniyatlarini nazariy tomondan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. *Ingliz tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2012.
2. Council of Europe. (2018). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Companion volume with new descriptors*. Council of Europe.
3. Kim, Young-Suk & Apel, Kenn & Al Otaiba, Stephanie. (2013). *The Relation of Linguistic Awareness and Vocabulary to Word Reading and Spelling for First-Grade Students Participating in Response to Intervention. Language, Speech, and Hearing Services in Schools*. 44. p.337. 10.1044/0161-1461(2013/12-0013).
4. Hessah Saleh Aldayel, Hikmah Pravitasari, Nabilanur Fadillah, Factors affecting academic writing difficulties among English as a Foreign Language (EFL) university students, *Acta Psychologica*, Volume 263, 2026, 106250, ISSN 0001-6918, <https://doi.org/10.1016/j.actpsy.2026.106250>.
5. Lee, J. Effects of linguistic and affective variables on middle school students' writing performance in the context of English as a foreign language: an approach using structural equation modeling. *Read Writ* 33, (2020), p.1239. <https://doi.org/10.1007/s11145-019-10007-2>
6. Wang, Grace & Wang, Seok-Dong. (2014). Explicit Grammar Instruction for EFL Writing and Editing: An Exploratory Study at a Korean University.
7. Kormos, Judit & Bartha, Csilla. (2026). The role of first and second language reading, first language low-level skills, and working memory in second language writing. *The Modern Language Journal*. 110. 10.1111/modl.70030
8. Drijbooms, E., Groen, M. A., & Verhoeven, L. (2015). The contribution of executive functions to narrative writing in fourth grade children. *Reading and Writing*, 28(7), 989–1011.
9. Haake, L. (2025). Does the relationship between executive functions and L2 writing depend on language proficiency? *Journal of Writing Research*, 17(1), 115-153. <https://doi.org/10.17239/jowr-2025.17.01.05>
10. Chen Y, Xu C, Hu J and Ye J-H (2026) The association between short video addiction and perceived writing competence among Chinese EFL learners: the mediating role of decreased attention control and learning burnout. *Front. Psychiatry* 17:1761069. doi: 10.3389/fpsy.2026.1761069
11. Jalil Fathi, Alireza Aghamirzaei, Interplay of mindfulness, motivation, and self-regulation in predicting L2 achievement: A mixed-methods study, *Acta Psychologica*, Volume 262, 2026, 106059, ISSN 0001-6918, <https://doi.org/10.1016/j.actpsy.2025.106059>.
12. Yudha, Galang & Margana, Margana & Pradana, Satria Adi. (2025). THE RELATIONSHIP BETWEEN SELF-EFFICACY AND MOTIVATION IN EFL WRITING: EVIDENCE FROM AN INDONESIAN ISLAMIC UNIVERSITY. *ELT Echo: The Journal of English Language Teaching in Foreign Language Context*. 10. 1. 10.24235/eltecho. v10i1.19988.
13. Zumeri, S. Albert Bandura-Self-Efficacy_ The Exercise of Control-W. H. Freeman & Co (1997).pdf.
14. Cen, X., Shakibaei, G. Enhancing creative writing through AI-powered co-creation with cognitive and emotional outcomes. *Sci Rep* 16, 4407 (2026). <https://doi.org/10.1038/s41598-025-34416-2>
15. Marine, J., Navarro, F., Parsons, S. et al. Motivation or engagement? Competing pathways to undergraduate writing performance. *Read Writ* (2026). <https://doi.org/10.1007/s11145-026-10826-0>
16. Rosalia, Harnita & Budiman, Andi. (2026). Students' emotional experiences in writing English essays: A thematic narrative analysis. *Scientific English*. 2. 100-116. 10.58712/se.v2i2.142.
17. Li, Chengchen & Li, Wei & Lu, Xiaojun. (2023). Contributions of foreign language writing emotions to writing achievement. *System*. 10.1016/j.system.2023.103074.
18. Saleh, Shoeb & Alsubhi, Abdullah. (2025). The role of techno-competence in AI-based assessments: exploring its influence on students' boredom, self-esteem, and writing development. *Language Testing in Asia*. 15. 10.1186/s40468-025-00344-1.
19. Hartono, Dang & Prima, Stefanus. (2025). Emotional Dynamics in EFL Writing: The Interplay of Proficiency, Enjoyment, and Boredom. *ENGLISH JOURNAL OF INDRA GIRI*. 9. p.199.
20. Moore, Paul. (2018). Task-based language teaching. 10.1002/9781118784235.eelt0175.
21. Lam S. F., Pak T. S., Ma Y. K. *Motivating instructional contexts // Issues in the psychology of motivation*. – 2007.
22. Robinson, P. (2001a). Task complexity, cognitive resources, and syllabus design: A triadic framework for examining task influences on SLA. In P. Robinson (Ed.), *Cognition and second language instruction* (1st ed., pp. 287–318). Cambridge University Press. [CrossRef]

Gulshoda SALOMOVA,

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti

E-mail: salomovaqulshoda2@gmail.com

TILSHUNOSLIK TERMINLARINING SEMANTIK MAYDON ASOSIDA GURUHLANISHI VA IZOHLANISHI

Annotatsiya: mazkur tezisda tilshunoslik terminlarining semantik maydon asosida guruhlanishi, ularning o'zaro ma'no munosabatlari va tizimli izohlanish tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida lingvistik terminlarning semantik yaqinlik, paradigmatic va iyerarxik aloqalar asosida tasniflanishi masalasi yoritiladi. Shuningdek, ayrim yangi terminlar misolida ularning semantik maydondagi o'rni va izohlanish xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu izlanish lingvistik terminologiya va terminografiya rivojiga, xususan, terminologik tizimlarni modellashtirish va izchil izohlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, semantik maydon, lingvistik termin, paradigmatic munosabat, iyerarxiya, semantik guruh, termin izohi

Annotaiion: this thesis analyzes the grouping of linguistic terms based on semantic fields, their interrelations, and principles of systematic interpretation. The study focuses on classifying linguistic terms according to semantic proximity, paradigmatic relations, and hierarchical structures. Additionally, the role and interpretation of selected new terms within semantic fields are examined. The research contributes to the development of linguistic terminology and terminography, particularly in modeling and systematizing terminological systems.

Key words: terminology, semantic field, linguistic term, paradigmatic relation, hierarchy, semantic grouping

Аннотация: в данной работе рассматривается группировка лингвистических терминов на основе семантического поля, их взаимосвязи и принципы системного толкования. В ходе исследования анализируется классификация терминов по семантической близости, парадигматическим и иерархическим отношениям. Также на примере новых терминов раскрываются особенности их интерпретации в рамках семантического поля. Исследование способствует развитию лингвистической терминологии и терминографии.

Ключевые слова: терминология, семантическое поле, лингвистический термин, парадигматика, иерархия

Kirish (Introduction). So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida terminologiya masalalariga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Bu holat ilmiy tafakkurning rivojlanishi, yangi lingvistik yo'nalishlarning paydo bo'lishi va fanlararo aloqalarning kengayishi bilan bog'liq. Ma'lumki, har bir fan o'ziga xos terminlar tizimiga ega bo'lib, ular orqali ilmiy tushunchalar ifodalanadi va tizimlashtiriladi. Shu jihatdan tilshunoslik terminlari ham faqat nomlash vositasi emas, balki ilmiy bilimni tartibga soluvchi muhim birliklar hisoblanadi. Hozirgi zamon tilshunosligida terminlarni alohida birlik sifatida emas, balki o'zaro bog'liq semantik tizim sifatida o'rganish keng tarqalmoqda. Bunda semantik maydon nazariyasi muhim o'rin tutadi, chunki u terminlarni ma'no jihatdan guruhlash va ularning o'zaro aloqalarini aniqlash imkonini beradi.

Tilshunoslik terminlari ko'pincha bir-biri bilan bog'liq tizimda mavjud bo'ladi. Masalan, fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika kabi sohalarga oid terminlar o'zaro chambarchas aloqada shakllanadi. Agar ular semantik maydon doirasida tahlil qilinsa, mazmunini yanada aniqroq tushunish mumkin bo'ladi. Semantik maydon asosida yondashuv terminlarni tasniflash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda izohlarni tizimlashtirishda

muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, lug'at tuzish va terminlarni standartlashtirish jarayonida foydalidir.

Mazkur tezisda tilshunoslik terminlarining semantik maydon asosida guruhlanishi va izohlanishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tilshunoslik terminlarini semantik maydon asosida guruhlash va izohlash masalasida asosiy e'tibor terminlarning ma'no tuzilishi, o'zaro aloqalari va tizimli guruhlanishiga qaratildi. Tadqiqot uchun A. Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [2], N. Mahkamov va I. Ermatovlarning "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati" [3], shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati" [5] asosiy manba sifatida olindi. Ushbu manbalardagi terminlar ichidan ma'nosi yaqin bo'lgan birliklar ajratilib, semantik maydon tamoyili asosida guruhlandi. Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy tahlil, semantik maydon tahlili va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Bu usullar terminlarning ma'nosini izohlash, ularni solishtirish va tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Terminlar fonetik, morfologik, sintaktik va leksik semantik maydonlarga ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, izohlarda tizimlilik, ya'ni

terminlarning boshqa birliklar bilan aloqasi va izohlarning to'liqligi ham o'rganildi. Natijada, semantik maydon asosida yondashuv terminlarni yanada aniq va tizimli tushunish hamda izohlashda samarali usul ekanligi aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Tilshunoslik terminlarini semantik maydon asosida guruhlash ularning mazmunini yanada aniqroq tushunish va tizimli izohlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida terminlar semantik yaqinlik asosida guruhlariga ajratilib, o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

1. Morfologik-semantik maydon doirasidagi terminlar:

Bu guruhda *“allomorf”, “agglyutinatsiya”, “morfema”, “asos”* terminlari ko'rib chiqildi.

Allomorf – Morfemaning biri o'rnida ikkinchisini ishlatib bo'lmaydigan, qurshov, sharoitga qarab tanlab qo'yiladigan morf(a)lari. Mas., -gi, -ki, -qi morfemalari o'zaro allomorf holatida, chunki har biri ma'lum fonetik shart-sharoitga ko'ra tanlab qo'yiladi, biri o'rniga ikkinchisini ishlatib bo'lmaydi: kuzgi, kechki, tashqi. Qiyos. Morfemaning varianti[2].

Agglyutinatsiya – 2 tish. So'z yasash yoki shakl yasash asosini o'zgartirmagan holda unga standart affikslarni qo'shish orqali so'z yoki shakl yasashi. Agglyutinatsiyada har bir affiks faqat bir grammatik ma'noga ega bo'ladi. Masalan, terimchilarimizga so'zidagi har bir qo'shimcha (-im, -chi, -lar, -(j)miz, -gd) o'ziga xos ma'no va vazifaga egadir[5].

Morfema – (yun. morphe - shakl) Tilning ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) leksik morfema (q.); 2) affiksmorfema(q.) Mas. Ishchi so'zida ikki morfema bor: *ish* va *chi*. *Ish* - leksik morfema, *chi* - affiksall morfema[2].

ASOS – So'zning asosiy ma'nosini ifodalovchi, mustaqil qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lgan qismi. So'zning shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qismi. qiyos. O'zak.[3]

Morfologik semantik maydon tilning morfologik tuzilishi va grammatik shakllanish jarayonlarini ifodalovchi terminlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maydon tarkibida morfema, asos, allomorf va agglyutinatsiya terminlari muhim o'rin tutadi. Ularni birlashtiruvchi umumiy sema morfemik qurilish va grammatik ma'no ifodalanishi bilan bog'liqligidir. Morfema tilning eng kichik ma'noli birligi, asos esa so'zning lug'aviy ma'nosini ifodalovchi qism hisoblanadi. Allomorf morfemaning turli fonetik ko'rinishlarini, agglyutinatsiya esa affikslarning ketma-ket qo'shilishi orqali so'z va shakl yasashini anglatadi. Mazkur terminlar o'zaro mazmunij jihatdan bog'langan bo'lib, morfologik semantik maydonning asosiy birliklarini tashkil etadi. Allomorf esa ularning ichida xususij birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa semantik maydon ichida iyerarxi (umumij-xususij) munosabat mavjudligini ko'rsatadi.

2. Sintaktik-semantik maydon doirasidagi terminlar:

Bu guruhga *“predikativlik”, “valentlik”, “ega”* terminlari kiritildi.

Predikativlik –Gap mazmunining voqelikka munosabatini til vositalari bilan ifodalanishi. Zamon, shxsson va modallik kategoriyalari predikativlikni ifodalovchi grammatik vositalar bo'lib, xabar ohangi bilan birga gapning umumij xarakterli belgilari hisoblanadi[2].

Valentlik – fe'lning boshqa sintaktik birliklarni o'ziga bog'lash qobiliyati. 2 tish. Til birliklarining, masalan, so'zning gapda boshqa so'zlar bilan o'zaro birika olish qobiliyati, imkoniyati. Valentlik nazariyasi, lug'aviy birliklarning semantik valentlari bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar, maxsus monografiya bosilib chiqdi. “O'TA”[5].

Ega – 7 tish. Ikki tarkibli gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh bo'lak[5].

Bu terminlar “gapning semantik-sintaktik tuzilishi” maydonida birlashadi. Bu yerda valentlik markazij tushuncha bo'lsa, aktant uning natijasi sifatida yuzaga keladi, predikativlik esa umumlashtiruvchi yuqori kategoriya hisoblanadi. Demak, ular o'zaro funksional va iyerarxi bog'lanishda mavjud.

3. Leksik-semantik maydon doirasidagi terminlar:

Bu guruhga *“leksema”, “onomastika”, “antroponim”* terminlari kiradi.

Leksema – (yun. lexis - ibora, nutq o'rami). Tilning lug'at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi unsiri. qiyos. So'z[3].

Onomastika – (yun. onomastika – nom qo'yish san'ati)1. Tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganuvchi bo'limi.

2. Atoqli otlar majmui(tizimi)[2].

Antroponim – (yun. anthropos - odam; opusha - nom) Kishining atoqli oti, ism[2].

4. Fonetik-semantik maydon doirasidagi terminlar:

Bu guruhga *“allofon”, “fonema”, “fleksiya”* terminlari kiradi.

Allofon – Bir fonemaga birlashuvchi har bir fona.Q. Fona. Qiyos. Fonemaning varianti[2].

Fonema – (yun. Phonema - tovush). Til moddiy tomonining eng kichik birligi, farqlovchi fonologik birliklarning barqaror yig'indisi[2].

Fleksiya – \lot. flexio – egilish, burish, o'zgarish] tish. So'z o'zgarishlarida namoyon bo'ladigan grammatik kategoriyalar majmuyi ko'rsatkichi; qo'shimchalar qo'shilishi yoki asos (negiz) dagi ba'zi tovushlarning o'rin almashinishi natijasida so'zlarning dastlabki shaklini yo'qotishi yoki o'zgartirishi. E. Kurilovich sintaktik morfemani ham ajratgan holda fleksiya va artikllarni morfema deb hisoblaydi. A. Nurmonov, Tanlangan asarlar[5].

Bu terminlar “nutqning yashirin va kontekstual ma'nolari” maydonini tashkil etadi. Presuppozitsiya

va implikatura o'zaro yaqin, lekin farqli (paradigmatik) tushunchalar bo'lsa, deiksis bu maydonni kontekst jihatdan kengaytiradi. Bu esa semantik maydonning kognitiv va kommunikativ jihatlar bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Umuman olganda, quyidagi xulosalar shakllandi:

- lingvistik terminlar alohida emas, balki semantik maydonlar doirasida yaxlit tizim sifatida mavjud;
- har bir maydonda terminlar o'zaro paradigmatik va iyerarxik munosabatda bo'ladi;
- termin mazmunini to'liq tushunish uchun uni boshqa birliklar bilan bog'liq holda ko'rish zarur;
- semantik maydon yondashuvi termin izohlarining aniqligi va tizimlilikini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari tilshunoslik terminlarini semantik maydon asosida guruhlash ularni yanada chuqurroq tushunish va tizimli izohlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida morfologik, sintaktik, leksik hamda fonetik semantik maydonlarga oid terminlar ko'rib chiqilib, ularning o'zaro ma'no va tizimiy bog'liqligi aniqlashtirildi.

Aniqlandiki, lingvistik terminlar ko'pincha alohida izohlanadi va bu ularning boshqa terminlar bilan bog'liqligini to'liq ochib bermaydi. Semantik maydon yondashuvi esa terminlarni bir butun tizim sifatida ko'rib,

ularning mazmunini aniqroq va izchilroq yoritishga imkon beradi. Bunda paradigmatik va iyerarxik aloqalarni hisobga olish izohlarning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari semantik maydon asosida tasniflash zamonaviy terminografiya va leksikografiyada muhim yo'nalishlardan biri ekanini ko'rsatdi. Bu usul izohli lug'atlar tuzish, terminologik bazalar yaratish va ilmiy tushunchalarni tartibga solishda samarali hisoblanadi.

Shu asosda quyidagi takliflar beriladi:

- 1) tilshunoslik terminlarini izohlashda semantik maydon yondashuvidan keng foydalanish;
- 2) har bir termin izohida uning boshqa terminlar bilan bog'liqligini ko'rsatish;
- 3) terminologik lug'atlarni semantik guruhlar asosida tartiblash;
- 4) termin izohlarini yagona ilmiy mezonlar asosida birxillashtirish;
- 5) elektron terminologik bazalarda semantik maydon modelini qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, terminlarni, jumladan tilshunoslik terminlarini semantik maydon asosida tahlil qilish ularning izohini yanada aniq, izchil va tizimli tarzda o'rganishga xizmat qiladi hamda ilmiy bilimlarni samarali yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
2. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.13-b,82-b,75-b,16-b,13-b,121-b,
3. Ermatov I.R., Mahkamov N. *Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati*. – Toshkent: Fan, 2013.18-b,64-b,
4. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2 tomli. – Toshkent: O'zME, 1981.
5. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 6 jildli. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2023.1-j.27-b, 5-jild, 642-b;2-jild,2-b;2-j,105-b;
6. Yevloyeva Z.I. *Русская лингвистическая терминология в эволютивном аспекте*. – Nalchik, 2006.
7. Ermatov I.R. *O'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti*. – Toshkent, 2019.

Farangiz RABBIMOVA,
Samarqand Davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
rabbimova@mail.ru



WATER KONSEPTINING FRAZEOLGIK REPREZENTALLASHUVI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilida "suv" (water) konseptining frazeologik reprezentallashuvi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda suv bilan bog'liq frazeologik birliklar kognitiv-semantik tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, tematik guruhlari va konseptual mazmuni yoritiladi. Tahlil natijasida "suv" konseptining o'zbek til ongidagi o'rni va uning frazeologizmlarda ifodalanish mexanizmlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *suv, konsept, frazeologizm, frazeologik birlik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, til ongi, o'zbek tili.*

Annotation: this article examines the phraseological representation of the concept WATER in the Uzbek language. The study analyzes water-related phraseological units from a cognitive-semantic perspective, revealing their national-cultural features, thematic groups, and conceptual content. The results determine the role of the WATER concept in Uzbek linguistic consciousness and the mechanisms of its expression in phraseologisms.

Key words: *water, concept, phraseologism, phraseological unit, cognitive linguistics, linguoculturology, linguistic consciousness, Uzbek language.*

Аннотация: в данной статье рассматривается фразеологическая репрезентация концепта «сүв» (вода) в узбекском языке. В исследовании проводится когнитивно-семантический анализ фразеологических единиц, связанных с водой, освещаются их национально-культурные особенности, тематические группы и концептуальное содержание. В результате анализа определяется место концепта «сүв» в узбекском языковом сознании и механизмы его выражения во фразеологизмах.

Ключевые слова: *вода, концепт, фразеологизм, фразеологическая единица, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, языковое сознание, узбекский язык.*

Tilshunoslikda konsept nazariyasi hozirgi kunda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik doirasida konsept insonning tafakkur va til ongidagi ma'lum bir tushuncha yoki hodisaning murakkab mental tuzilmasi sifatida qaraladi. Bu tuzilma millat tarixi, madaniyati va turmush tarzining in'ikosi bo'lib, tilning turli sathlarida, xususan, frazeologik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

"Suv" (water) konsepti jahon tillari frazeologiyasida alohida o'rin tutadi. Chunki suv insoniyat hayotining asosi, tabiiy muhitning ajralmas qismi va madaniy arxetip sifatida barcha xalqlar tasavvurida chuqur iz qoldirgan. O'zbek xalqi uchun suv nafaqat hayotiy zaruriyat, balki ma'naviy va ma'rifiy ramzdir. Bu holat o'zbek tilining frazeologik fondida yaqqol ko'rinadi: suv bilan bog'liq o'nlab frazeologik birliklar milliy mentalitetning, turmush falsafasining va xalq hikmatining betakror ifodasidir.

Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek tilida "suv" konseptining frazeologik reprezentallashuvi mexanizmlarini kognitiv-semantik tahlil asosida o'rganish hamda ushbu konseptning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Konsept nazariyasining asoschilaridan biri S.A. Askoldov (1928) konseptni fikrlash jarayonida ko'plab predmet va hodisalarni o'rnini bosuvchi mental tuzilma sifatida ta'riflagan. Keyinchalik D.S. Lixachev (1993) konsept tushunchasini kengaytirib, uni milliy madaniyat va til bilan bog'liq murakkab tuzilma ekanligini asoslab bergan. Yu.S. Stepanov (1997) esa konseptni madaniyat ko'zgusi sifatida qarab, uning uch

qatlamdan – asosiy (ya'ni bevosita ma'no), tarixi-madaniy va hissiy-baholovchi qatlamlardan iborat ekanligini ko'rsatgan.

Suv konseptining turli tillarda frazeologik reprezentallashuvi xalqaro miqyosda ham o'rganilgan. G.N. Sklyarevskaya, V.N. Teliya (1996) va A.P. Chudinov kabi rus tilshunoslari ushbu konseptning rus tilidagi ifodalanishini tadqiq qilgan. Ingliz, nemis va fransuz tillarida suv konseptini o'rganishga bag'irlangan tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ular qiyosiy-tipologik tadqiqotlar uchun muhim asos yaratdi. Frazeologik birliklarning konseptual mazmunini ochishda V.V. Vinogradovning frazeologik birliklarni tasniflash mezonlari hali ham muhimligini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, kognitiv yondashuv doirasida metafora, metonimiya va boshqa kognitiv mexanizmlar frazeologizmlarning semantik tahlilida keng qo'llanilmoqda.

O'zbek tilida "suv" konsepti keng tushunchaviy maydonni qamrab oladi. Bu maydon markazida suvning o'zi – uning fizik xossalari, shakllari va holatlariga doir tasavvurlar turadi. Periferiyasida esa suvning hayot uchun ahamiyati, insonlar va tabiat bilan munosabatlari, ramziy ma'nolari joylashgan. Frazeologik birliklar ana shu tuzilmaning turli qatamlarini aks ettiradi.

Water leksemasi o'zining ushbu asosiy ma'nosida FBlar darajasida qo'llanib, avvalo suvga xos bo'lgan xususiyatlar bilan assotsiatsiyalanuvchi quyidagi belgilarni aktualashtiradi:

a) makoniy holatlar: *beyond the seas (dengizlar ortida), be in low water, deep waters(chuqur suv), be in deep water(s), go with the current, swim down the stream, above water(suv yuzasida);*

b) oquvchanlik va harakatchanlik: *pour cold water on smb. / smth.; smooth runs the water where the brook is deep (chuqur daryo jim oqadi);*

d) katta hajm, massa: *blue waters(ochiq dengizlar), ocean of time (cheksiz vaqt), sea of troubles, free sea;*

e) harorat holatlari: *cold as ice, be in hot water, douche of cold water, pour cold water on smb. (over) smth (hafsalasini pir qilmoq).*

To'plangan frazeologik birliklar semantik jihatdan quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

a) Hayot va tiriklik ifodalovchi frazeologik birliklar: "Suv – hayot manbai", "suv kabi zarur" kabi birliklar suvning hayotiy ahamiyatini yoritadi. Bu guruhdagi frazeologizmlar suvning metonimik ma'nosi asosida shakllanib, uning hayot bilan tenglashtiruvchi funksiyasini ko'rsatadi.

b) Tozalik va pok niyatni ifodalovchi frazeologik birliklar: "Suv kabi toza", "suv yuzi yorug'", kabi birliklar suvning ma'naviy tozalik va halollik bilan bog'liq ramziy ma'nosini aks ettiradi. Bu guruhdagi birliklar o'zbek xalqining axloqiy fikrlarini ifodalashda faol qo'llaniladi.

c) Muammo va qiyinchilikni ifodalovchi frazeologik birliklar: "Suvga tushgandek jim", "suvga cho'kmoq" kabi iboralar hayotdagi qiyinchiliklar, muammoli vaziyatlarni tasvirlashda qo'llaniladi va suvning salbiy potensialini ko'rsatadi.

"Suv" konseptining frazeologik reprezentallashuvida bir nechta asosiy kognitiv mexanizmlar ishtirok etadi. 1) metafora mexanizmi eng keng tarqalgan bo'lib, "SUV - HAYOT", "SUV - VAQT", kabi konseptual metaforalar frazeologizmlarning kognitiv asosini tashkil etadi. Masalan, "ko'ngli to'lib ketdi" iborasida his-tuyg'ularning suv kabi to'lib toshishi metaforizatsiya qilingan. 2) metonimiya mexanizmi ham muhim o'rin tutadi. "Suv" o'z nomini hayotning o'ziga berish orqali metonimik kengayish ro'y beradi: suvning hayot bilan bir tamoyilda kelishi aks ettiruvchi frazeologizmlar bunga misol bo'ladi. 3) ramzlashtirish mexanizmi o'zbek frazeologiyasida suvni tozalik, halollik, saxovat ramziga aylantiradi. Bu kognitiv jarayon diniy va milliy-madaniy an'analar bilan chambarchas bog'liq. 4) antiteza mexanizmi ham faol ishlaydi: bir tomondan "toza suv" – halollik, ikkinchi tomondan "loy suv" – yolg'on va aldov ramziga aylanadi.

Aniqlangan "suvga nisbatan yuqori/past" orientatsion metaforasi kognitiv tabiatga ega bo'lib, hayot/o'lim, barqarorlik/inqiroz universal oppozitsiyasi bilan bog'lanadi. Bu insonning

asosiy jismoniy va perseptiv tajribasi bilan belgilanadi: suv yuzasidan yuqorida bo'lish nafas olish, makonda mo'ljal olish va hayotni saqlab qolish imkonini beradi, suv ostiga sho'ng'ish esa bo'g'ilish xavfi, nazoratni yo'qotish va halokat bilan assotsiatsiyalanadi. Shunga muvofiq, ingliz frazeologiyasida "yuqori" bilan bog'liq holatlarning ijobiy bahosi (*hold one's head above water, above water*) va "past" bilan bog'liq holatlarning salbiy bahosi (*under water, hit rock bottom, send to the bottom*) barqaror mustahkamlangan. Shunday qilib, makoniy vertikal insonning ijtimoiy (boy/kambag'al) maqomi va psixologik holatini (bardoshlilik/zaiflik) konseptuallashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur model, shuningdek, yuqori darajadagi abstraktlashuvni ham ko'rsatadi: dastlab tananing suvdagi jismoniy holati hayotiy vaziyatni, avvalo moliyaviy ahvolni, emotsional holatni va ijtimoiy muvaffaqiyat darajasini metaforik tavsiflashga ko'chiriladi. Bunda "nazorat qilinuvchanlik" semasi alohida rol o'ynaydi: "yuzada" bo'lish sharoitlarni boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi, "cho'kish" esa subyektivlikni yo'qotish va tashqi kuchlarga bo'ysunish sifatida talqin etiladi.

Demak, "Suv – kuch" kognitiv modeli suvning asosan salbiy bahosini reprezentatsiya qiladi. Mazkur model doirasida suv xavf, tahdid, kaos, vayronkorlik, hayotiy sinovlar va vaziyatlar ustidan nazoratni yo'qotishni anglatadi. Ayni paytda qator frazeologizmlarda ushbu metafora insonning ijobiy baholanadigan sifatlarini — chidamlilikni, qarshilik ko'rsatish qobiliyatini va to'siqlarni yenga olish mahoratini ham ochib beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, suv konseptining frazeologik birliklar darajasidagi tushunchaviy belgilari leksik birliklar darajasida aniqlangan faqat ikki tushunchaviy belgi bilan ifodalanadi, ya'ni: a) rangsiz, ta'm va hidga ega bo'lmagan suyuqlik; b) amniotik suyuqlik. Obrazli tarkibiy qism suv – bu jonli mavjudot, suv – vaqt, suv – kuch konseptual metaforalari bilan ifodalanadi. Ta'kidlash joizki, mazkur metaforalar suv konseptining qadriyaviy tarkibiy qismini shakllantiruvchi qator konseptual belgilarni ham amalga oshiradi. Qadriyaviy tarkibiy qism quyidagi konseptual belgilar bilan ifodalanadi: a) suv hayotiy zarurat va mavjudlik asosi sifatida; b) suv yaratuvchi yoki vayronkor kuchdir; d) suv — insonni yo'q qilishi mumkin bo'lgan xavf. Qadriyaviy tarkibiy qismda, shuningdek, insonning turli xususiyatlari va xulq-atvor harakatlariga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni belgilovchi konseptual belgilar ham taqdim etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Askoldov, S.A. (1928). Kontsept i slovo. Russkaya rech'. Novaya seriya, 2, 28–44.
2. Vinogradov, V.V. (1977). Ob osnovnykh tipakh frazeologicheskikh yedinit v russkom yazyke. Izbrannye trudy. Leksikologiya i leksikografiya. Moskva: Nauka. 140–161.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 242 p.
4. Stepanov, Yu.S. (1997). Konstanty: Slovar' russkoy kul'tury. Moskva: Yazyki russkoy kul'tury. 824 s.
5. Teliya, V.N. (1996). Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokul'turologicheskii aspekty. Moskva: Yazyki russkoy kul'tury. 288 s.
6. Maslova, V.A. (2001). Lingvokul'turologiya. Moskva: Akademiya. 208 s.
7. Rabbimova, F. 2024. VERBALIZATION OF WATER/FIRE CONCEPTS IN THE ENGLISH WORLD LINGUISTIC LANDSCAPE. The Multidisciplinary Journal of Science and Technology volume-4, issue-5 396-400. ISSN: 2582-4686 <http://mjstjournal.com>
8. Bhagavad Gita. Translated by Eknath Easwaran, Nilgiri Press, 1985.

Madina KAMALOVA,
Qaraqalpaqstan Respublikası 37-sanlı
mektep oqıtıwshısı



KÓRKEM SHÍGARMA TILINDE ZOOKOMPONENTLI FRAZELOGIZMLERDİŇ QOLLANÍLÍWÍ HÁM ÁHMIYETI

Annotatsiya: bul maqalada qaraqalpaq tilinde zoonim komponentli frazeologizmlerdiŇ lingvokulturologiyalıq ózgesheligi ashıp berilgen bolıp, bunda qaraqalpaq xalıqınıń sanasında hám turmısında zoonimlerdiŇ milliy mádeniy tutqan orni, til arqalı mádeniyattıń baylanısı analizlengen. Zoolingvokulturologiya - lingvokulturologiyanıń bir baǵdarı bolıp, túrli xalıqlar tilinde haywan atamaları (zoonimler) hám olar tiykarında qalıplesken til birlikleriniń milliy mádeniyat, dúnya qaras, úrp-ádet hám qádiriyatlar menen baylanıslılıǵın úyrenedi. Bul taraw tıltanıw, mádeniyat tanıw, etnografiya, folklor tanıw hám kognitivlik lingvistikanıń tutasqan jerinde rawajlanbaqta.

Tayanış sózler: *til, mádeniyat, lingvokulturologiya, frazeologizm, zoonim, milliylik.*

Аннотация: в данной статье лингвокультурологические раскрываются особенности фразеологизмов с зоонимическими компонентами в каракалпакском языке. В ней анализируются место и роль зоонимов в национальной культуре, мировоззрении и повседневной жизни каракалпакского народа, а также рассматривается взаимосвязь языка и культуры через призму использования зоонимов. **Зоолингвокультурология** — это одно из направлений лингвокультурологии, изучающее взаимосвязь названий животных (зоонимов) и языковых единиц, образованных на их основе, с национальной культурой, мировоззрением, обычаями, традициями и ценностями различных народов. Данная область развивается на стыке лингвистики, культурологии, этнографии, фольклористики и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: *язык, культура, лингвокультурология, фразеологизм, зооним, национальная специфика.*

Annotation: this article reveals the linguocultural features of phraseological units with zoonymic components in the Karakalpak language. It analyzes the role and significance of zoonyms in the national culture, worldview, and daily life of the Karakalpak people, as well as the relationship between language and culture through the use of zoonyms. Zoolinguoculturology is a branch of linguoculturology that studies the relationship between animal names (zoonyms) and the language units formed on their basis with the national culture, worldview, customs, traditions, and values of different peoples. This field has developed at the intersection of linguistics, cultural studies, ethnography, folklore studies, and cognitive linguistics.

Key words: *Language, culture, linguoculturology, phraseological unit, zoonym, national identity.*

Til – rawajlanıwshı qubılıs bolǵanlıqtan, tilde túrli aspektte izertlew máseleleri de kún sayın rawajlanıp barmaqta. Ásirese lingvokulturologiyalıq mashqalalardı tilik talqıǵa tartıw máselesi ilimpazlardı qızıqtırıp kelmekte. Lingvokulturologiya til ilimine tán bolǵan bir qatar jańa tarawlardıń biri bolǵan kommunikativ til bilimi hám tekst lingvistikası, tekstti izertlewde antropocentristlik qatnas, kognitiv til bilimi, pragmalıngvistika, psixolingvistika, sociolingvistika, lingvoúlketanıw, etnolingvistika tarawlarına tiyisli máselelerdi analiz etiw baǵdarındaǵı izertlew jumları menen tıǵız baylanıslı.

Til hám mádeniyattıń baylanıslılıǵı, mádeniyattıń tilde óz kórinisin tabıw mashqalası menen baylanıslı máselelerdiń metodologiyalıq tiykarınıń tariyxı oǵada uzaq emes, al jaqın jıllardan baslanadı. Onıń tiykarı sıpatında rus tilshileri V.V. Vorobyov, V.N. Teliya, V.A. Maslovaniń jumları xızmet atqaradı. Lingvokulturologiya tarawına XIX ásirde V. fon Gumboldt óziniń «Adamzat tiliniń kóp túrliligi hám onıń xalıqtıń ruwxıy rawajlanıwına tásiiri» kitabı menen tırnaǵın salıp, til hám millet

(ózgeshelikleriniń) qatnası haqqında aytıp ótken edi. Ásirese, onıń «túrli tiller, óziniń ózgeshelikleri, pikirlew hám sezim-tuyǵıǵa tásiirine qaray ámelde hár túrli dúnyagá kózqarastı bildiredi», «tildiń ózine tán ózgeshelikleri millettıń ózligine tásir etedi, sonıń ushın tildi tereń úyreniw tariyx hám filosofiya insanınıń ishki dúnyası menen baylanıslı túsindiriletuǵın barlıq nárseni qamtıp alıwı kerek» siyaqlı pikirleri keń taralǵan. Solay etip, ilimpaz tildiń hár túrli formalarında hár qıylı sezim-tuyǵı hám oylaw stillerin kóredi. Demek, tilde mádeniy ózinshelik kórinip turadı degen juwmaqqa keledi [1.14].

Zookomponentli frazeologizmler til biliminiń frazeologiya, etnolingvistika hám lingvokulturologiya baǵdarlarında keńnen úyrenilip kiyatırǵan máselelerden biri bolıp esaplanadı. Haywan atamaları qatnasıwında qalıplesken frazeologiyalıq birlikler xalıqtıń tariyxıy tájiriybesi, turmıs tárizi, úrp-ádetleri, milliy qádiriyatları hám dúnya haqqındaǵı kózqarasların ózinde jámlegen sebepli, olar tek ǵana til birliǵi emes, al mádeniy xabardı saqlawshı qural sıpatında da tán alınadı.

Zookomponentli frazeologizmlerdi ilimiy jaqtan úyreniw frazeologiya teoriyasınıń rawajlanıwı menen tıǵız baylanıslı. Rus til biliminde frazeologiyalıq birliklerdiń teoriyalıq tiykarları XX ásirdeń ortalarında qalıplesip, olardı izertlewde semantikalıq pútinlik, turaqlılıq hám qayta tikleniw ózgesheliklerine ayrıqsha itibar qaratıldı. Keyin ala haywan atamaları qatnasıwındaǵı frazeologiyalıq birlikler obrazlılıq, simvollıq hám milliy-mádeniy ózgeshelikleri kózqarasınan da úyrenile basladı.

Túrkiy tiller, sonıń ishinde, qaraqalpaq til biliminde de zookomponentli frazeologizmler xalıqtıń etnomádeniy miyrası sıpatında ilimpazlardı qızıqtırıp kelmekte. Bul birlikler kóshpeli turmıs tárizi, sharwashılıq mádeniyatı, ańshılıq dástúrleri hám tábiyat penen baylanıslı kózqaraslardıń tildegi sáwleleniwı sıpatında bahalanadı. Máselen, at, túye, qoy, qasqır, túlki, iyt, búrkit sıyaqlı haywanlar xalıq sanasında belgili bir simvolikalıq mánilerge ie bolıp, olar tiykarında qalıplesken frazeologizmler insannıń minez-qulqın, ruwxıy jaǵdayın hám sociallıq qatnasıqların obrazlı túrde bildiriwge xızmet etedi.

Zamanagóy lingvokulturologiyalıq izertlewlerde zookomponentli frazeologizmler konceptual tallaw obyektı sıpatında da úyrenilmekte. Bunday jantasıwda haywan obrazları belgili bir mádeniy konceplerdiń sóz benen anlatılıwı sıpatında talqılanadı. Hár bir zookomponent belgili bir xalıqtıń mentaliteti, qádiriyatları hám dúnyaqarasın sáwlelendiriwshi mádeniy kod wazıypasın atqaradı.

Sol sebepli túrli tillerdegi zookomponentli frazeologizmlerdi salıstırmalı talqılaw milliy hám ulıwmainsanıyılıq mádeniy ózgesheliklerdi anıqlaw imkaniyatın beredi.

Qaraqalpaq til biliminde de zoonim komponentli frazeologizmlerdi lingvokulturologiyalıq kóz-qarastan úyreniw áhmietli máselelerden biri bolıp, olar arqalı qaraqalpaq xalıqınıń milliy oy-pikiri, turmıs tárizi, qádiriyatları hám mádeniy miyrası kórsetiledi. Sol sebepli zoolingvokulturologiyalıq izertlewler tek ǵana tildiń leksiko-semantikalıq sistemasın emes, al xalıqtıń mádeniy yadın hám etnikalıq ózgesheligin de sáwlelendiriwde úlken ilimiy áhmietke iye. Búgingi kúnde zookomponentli frazeologizmler semantikalıq, strukturalıq, kognitivlik, pragmatikalıq hám lingvokulturologiyalıq baǵdarlarda izertlenbekte. Ásirese, olardıń milliy-mádeniy mazmunı, obrazlılıq dárejesi hám awdarma mashqalaları zamanagóy til biliminiń áhmietli máselelerinen biri bolıp esaplanadı. Sonlıqtan zookomponentli frazeologizmlerdi úyreniw til hám mádeniyat arasındǵı úzliksiz baylanıstı ashıp beriw, xalıqtıń milliy oy-pikiri hám etnikalıq ózgesheligin anıqlawda úlken ilimiy áhmietke iye. Máselen,

Jaqsı jaǵın asır, jamanın jutıp,

Jılqıń tawǵa shıqsın, asıǵıń utıp,

Pıyrim Biypatmamız qolınan tutıp,

Baxıt baǵlarına kirgeysiz qızım. (G.Dáwletova)

-degen qosıq qatarlarında qaraqalpaq xalıqınıń kóshpeli turmıs tárizi hám sharwashılıq mádeniyatı menen tıǵız baylanıslı dóregen frazeologizmlerden sanaladı. Jılqı tek ǵana transport quralı yamasa baylıqtıń ólshemi emes, al erkinlik, abadanlıq

hám jámiyetlik dárejenıń belgisi bolıp esaplangan. Jılqılardı qásterlep baǵıw sharwalardıń tiykarǵı wazıypalarından biri bolǵan. Frazeologizm quramındaǵı “Jılqısı tawǵa shıǵıw” frazeologizmini simvolikalıq mániske iye. Sebebi jılqınıń tawlı aymaqlarǵa shıǵıwı qıyın bolǵan. Bul qaraqalpaqlarda áwmeti keliw mánilerin bildirgen. Bul sózliklerde ármanı orındandı, jolı boldı degen mánilerdi bildiredi [3.56].

Lingvokulturologiyalıq kóz-qarastan, frazeologizm qaraqalpaq xalıqınıń tábiyat penen únles ómir súrgenin, sharwashılıqqa baylanıslı ámeliy tájiriyesi til birliklerinde jámlengenin kórsetedi. Onda “jılqı” túsiniǵı baylıq, ırısqa hám ómir deregin, “taw” bolsa qıyınshılıq, uzaqlıq hám qadaǵalawdı ańlatadı. Qaraqalpaq xalıqınıń turmıs tirishiliginde atlar da ayrıqsha áhmietli bolıp kelgen. At qaraqalpaq xalıqında da sharwalardıń baslı kúsh-kóligi, er jigittir joldası retinde esaplangan.

Ulıwma, túrkiy xalıqlarında at zoonimi usı sıyaqlı qásiyetleri menen salıstırılса da, real ómirde onıń turmıslıq xızmeti, ornı menen ayrıqshalanadı.

Qaraqalpaq xalıqınıń mádeniy turmısında attı báygige jiberiw, ılaq oyınlarında attan paydalanıw, attı seyislew, baplaw, at penen júrip ańshılıq islew, at shaptırıw sıyaqlı dástúrler, toy-tamashalarda xalıqqa úlken zawıq berip, dástanlardıń tilinde de at zoonimi qatnaslı usınday birlikler tereń orın alǵan.

Qaraqalpaqlarda mal sharwashılıǵı xalıqtıń tutas ómiriniń ajıralmas bir bólegi sıpatında belgili. Xalıqımız erte dáwirlerden-aq sharwashılıq kásibi menen shuǵılanıp, usı kásipke qatnaslı sózlerdi turmıstırıp túrli tarawlarında paydalanıp kelgen. Atap aytqanda: Maxmud Qashqariydiń “Devonu luǵatit turk” miynetinde de: Okvz azagi bolǵıncha buzaǵu bashi bolsa jik (DLT.91-b) – óǵızdıń ayaǵı bolǵınsha buzawdıń bası bolǵan jaqsıraq dep qollanılgan naqıl ushırasadı. Lingvokulturologiyanı mine usı xalıq sanasındaǵı simvollıq mániler qızıqtıradı.

Usı frazeologizmge mániles “eshegi jorǵalaw” frazeologizmin alıp qarayıq.

Olardıń izinen bul hayal tuwǵan eki ul bala shetneydi, “allanıń degishi bir qaramasın”, dep gúrsinedi hayal. Liykin xojalıq kúnnen-kúnge xodqa kete bergen, kisisiniń de “eshegi jorǵalap” buxgalter bolǵan (Sh.Seytov).

Bul frazema tek tildiń leksikalıq birligi emes, al qaraqalpaq xalıqınıń turmısı, dúnyatanımı hám mádeniy qádiriyatların ózinde saqlaydı. Lingvokulturologiyalıq jaqtan qaralǵanda, “eshek” obrazi qaraqalpaq xalıqınıń til sanasında qattı jumıs islewshi, biraq aqıllıq penen emes, kóbinese qaysarlıq hám qara jumıs penen baylanıstırıladı. “Jorǵalaw” bolsa, ádette atqa tán qásiyet. Sol sebepli, eshekke “jorǵalaw” háreketin baylanıstırıw tábiyǵıy emes, sonlıqtan da bul ózine tán qaraqalpaqlar turmısındaǵı sharayattı kórsetiwshi frazeologizm sanaladı. Bul frazema arqalı xalıq adamnıń áwmeti keliwin, ishi júrisip ketiwinde aytılıp keledi. Frazema ishinde metaforalıq maǵına bar: eshek – qara jumıs simvoli, jorǵalaw – joqarı qásiyet belgisi. Eki qarama-qarsı obrazdı birlestiriw arqalı ironiyalıq hám bahalawshı máni bildirilgen.

Lingvokulturologiyaliq kózqarastan bul frazema qaraqalpaq xalqınıń estetikalıq talǵamın, haywan obrazları arqalı adam minezin sipatlaw dástúrin kórsetedi. Demek, “eshegi jorǵalaw” frazeması tek til birligi emes, al xalqtıń mádeniy tájiriybesi, dúnyatanımı hám bahalaw sistemasınıń kórinisi bolıp esaplanadı.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining o’z kasbiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyatli va tizimli yondashuvni talab qiladigan dolzarb pedagogik va ijtimoiy-psixologik muammodir. Sadoqatning shakllanishi ma’naviy-ma’rifiy ishlar, psixologik tayyorgarlik, muloqot madaniyati, xodim bilan individual ishlash va ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llash kabi omillar uyg’unligida amalga oshiriladi.

² Xasanboyev J. (2016) *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 384-b.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston Respublikasida bu borada ijobiy siljishlar mavjud: “xodimbay ishlash” tizimi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, malaka oshirish kurslari, xalqaro tajribani o’rganish va ilg’or pedagogik yondashuvlarni joriy etish samarali natijalar bermoqda.

Amaliy takliflar:

Psixologik xizmatni kuchaytirish – xodimlarning psixologik barqarorligini va stressga qarshilik ko’rsatish qobiliyatini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish.

“Mentorlik” institutini rivojlantirish – tajribali xodimlarni yosh xodimlarga ustozlik qilishga jalb qilish, bu orqali kasbiy sadoqatni “avlodlar davomiyligi” va “kasbiy an’analar” asosida shakllantirish.

Tarbiyaviy ishga ilg’or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish – virtual simulyatsiyalar, ishchi vaziyatlarni modellashtirish, o’yinli mashg’ulotlar va boshqa zamonaviy usullarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimiga qo’shish.

Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimini kengaytirish – xodimlarning va ularning oila a’zolarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, uy-joy, sog’liqni saqlash, dam olish va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni ta’minlash orqali sadoqatni mustahkamlash.

Monitoring tizimini yaratish – xodimlarning kasbiy sadoqat darajasini muntazam ravishda o’lchab borish, tarbiyaviy ish samaradorligini tahlil qilish va kerakli tuzatishlarni kiritish.

Xalqaro tajribani o’rganish va tatbiq etish – ilg’or xorijiy mamlakatlarning (masalan, Buyuk Britaniya, Qozog’iston, Rossiya, Belorussiya) ichki ishlar xodimlarini tayyorlash va tarbiyalash tizimlarini o’rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. 464 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O’qituvchi, 1992. 160 b.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya 2017.320-b.
5. Tolipov O’, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O’qituvchi, 2015.275-b.
6. Xasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.384-b.
7. G’oziyev E.Umumiy psixologiya. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. 544 b.
8. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: TDPU, 2018. 288-b.
9. Yo’ldoshev J. Ta’lim yangilanish yo’lida. – Toshkent: Sharq, 2020.224-b.
10. Dewey J. (1938) *Experience and Education*. – New York: Macmillan Publishing. – 96 p.
11. Rawls J. (1971) *A Theory of Justice*. – Harvard University Press. – 607 p.
12. O’zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi Qonuni. (2016) – Toshkent, 28-b.

Bibixatisha KUNNAZAROVA,
 Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA O'QITUVCHI KASBIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik akmeologiyaning nazariy-konseptual asoslari, asosiy kategoriyalari va o'qituvchining kasbiy-shaxsiy taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik akmeologiya shaxsning kasbiy faoliyatda yuksak natijalarga erishish qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlararo yo'nalish sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv, aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning o'zaro aloqasi ochib berildi. Shuningdek, o'qituvchi kasbiy taraqqiyotining motivatsion-aksiologik, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va innovatsion komponentlari tavsiflandi. Tadqiqot natijasida pedagogik akmeologiya o'qituvchining faqat malakasini oshirishga emas, balki uning kasbiy o'zini anglashi, pedagogik mahorati, ijodkorligi, refleksiyasi va uzluksiz o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. O'qituvchining individual kasbiy taraqqiyot trayektoriyasini ishlab chiqish, akmeologik diagnostika, mentorlik, hamkasbiy hamkorlik, kasbiy portfolio va refleksiv amaliyotdan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: *pedagogik akmeologiya, akme, kasbiy taraqqiyot, pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik, refleksiya, o'zini rivojlantirish, o'qituvchi.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and conceptual foundations of pedagogical acmeology, its main categories and its significance in the professional and personal development of a teacher. Pedagogical acmeology was considered as an interdisciplinary direction that studies the laws of achieving high results in professional activity of a person. The study revealed the interrelationship of systematic, competency-based, activity-oriented, reflexive, axiological and person-oriented approaches. The motivational-axiological, cognitive, activity-oriented, reflexive and innovative components of a teacher's professional development were also described. As a result of the study, it was determined that pedagogical acmeology serves not only to improve the teacher's qualifications, but also to form his professional self-awareness, pedagogical skills, creativity, reflection and the ability to continuously develop himself. Scientific and practical recommendations were given on the development of a teacher's individual professional development trajectory, acmeological diagnostics, mentoring, peer cooperation, professional portfolio and reflexive practice.

Key words: *pedagogical acmeology, acme, professional development, pedagogical skills, professional competence, reflection, self-development, teacher.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и концептуальные основы педагогической акмеологии, её основные категории и значение в профессиональном и личностном развитии учителя. Педагогическая акмеология рассматривается как междисциплинарное направление, изучающее закономерности достижения высоких результатов в профессиональной деятельности человека. Исследование выявило взаимосвязь системного, компетентностного, деятельностного, рефлексивного, аксиологического и личностно-ориентированного подходов. Также описаны мотивационно-аксиологический, познавательный, деятельностный, рефлексивный и инновационный компоненты профессионального развития учителя. В результате исследования установлено, что педагогическая акмеология служит не только для повышения квалификации учителя, но и для формирования его профессионального самосознания, педагогических навыков, креативности, рефлексии и способности к непрерывному самосовершенствованию. Даны научно-практические рекомендации по развитию индивидуальной траектории профессионального развития учителя, акмеологической диагностике, наставничеству, сотрудничеству с коллегами, профессиональному портфолио и рефлексивной практике.

Ключевые слова: *педагогическая акмеология, акме, профессиональное развитие, педагогические навыки, профессиональная компетентность, рефлексия, саморазвитие, учитель.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati, innovatsion fikrlashi va o'z faoliyatini muntazam takomillashtirish qobiliyatiga bog'liq. Ta'lim mazmunining yangilanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va jamiyatning o'qituvchiga qo'yayotgan talablarining ortib borishi pedagog kasbiy rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

O'qituvchi kasbiy taraqqiyotini faqat davriy malaka oshirish kurslari bilan cheklab bo'lmaydi. Zamonaviy talqinda kasbiy rivojlanish o'qituvchining butun faoliyati davomida bilim, ko'nikma, qadriyat, kasbiy identifikatsiya va pedagogik amaliyotini muntazam yangilab borishini anglatadi. OECD o'qituvchining professional o'rganishi va rivojlanishini butun kasbiy faoliyat davomida kechadigan uzluksiz jarayon sifatida tavsiflaydi. Bunda individual o'rganish bilan bir qatorda hamkasblar bilan hamkorlik, tajriba almashish va maktab miqyosidagi professional o'rganish muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, pedagogika, psixologiya, akmeologiya va o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga oid ilmiy manbalarni o'rganishga asoslandi. Tadqiqot materiali sifatida akmeologiya nazariyasiga oid fundamental asarlar, pedagogik akmeologiya bo'yicha tadqiqotlar, o'qituvchi professional rivojlanishiga

oid xalqaro ilmiy hisobotlar va konseptual modellar tanlab olindi.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik akmeologiya o'qituvchi va ta'lim jarayonining boshqa subyektlari tomonidan shaxsiy-kasbiy yetuklikning yuqori darajalariga erishish qonuniyatlari, mexanizmlari, shart-sharoitlari va texnologiyalarini o'rganuvchi fanlararo ilmiy yo'nalish sifatida tavsiflanishi mumkin.

Pedagogik akmeologiyaning obyekti — o'qituvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayoni. Uning predmeti esa pedagogning kasbiy yetuklikka, pedagogik mahoratga va faoliyatning yuqori mahsuldorligiga erishish qonuniyatlari, mexanizmlari va shart-sharoitlaridan iborat.

Pedagogik akmeologiyaning asosiy maqsadi o'qituvchining kasbiy salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va uni pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishga yo'naltirishdir. Ushbu yo'nalishda o'qituvchining kasbiy rivojlanishi tashqi talablar ta'sirida yuz beradigan jarayon emas, balki uning o'zini anglash, o'zini baholash, o'zini loyihalashtirish va o'zini takomillashtirish faoliyati sifatida talqin qilinadi.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi doimo to'g'ri chiziqli shaklda kechmaydi. Ayrim pedagogik muammolar, murakkab vaziyatlar, ta'lim islohotlari yoki yangi texnologiyalar kasbiy o'zgarish uchun kuchli turtki vazifasini bajarishi mumkin. Sinergetik yondashuv o'qituvchining o'zini tashkil etuvchi va o'zini rivojlantiruvchi tizim sifatidagi xususiyatini tushuntiradi.

O'qituvchi kasbiy taraqqiyotining akmeologik komponentlari

Tahlil asosida o'qituvchi kasbiy taraqqiyotining beshta asosiy komponenti ajratildi.

Komponent	Mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar
Motivatsion-aksiologik	Kasbga munosabat, rivojlanish ehtiyoji va pedagogik qadriyatlar	Kasbiy motivatsiya, mas'uliyat, o'quvchiga hurmat
Kognitiv	Pedagogik, psixologik, metodik va fan bilimlari	Bilimlarning tizimliliigi va zamonaviyligi
Faoliyatli-amaliy	Bilimlarni pedagogik faoliyatda qo'llash	Darsni loyihalash, metod tanlash, baholash
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash	O'zini baholash, xatolardan xulosa chiqarish
Innovatsion-ijodiy	Yangilik yaratish va yangi usullarni o'zlashtirish	Tajriba, ijodkorlik, raqamli kompetentlik

Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining sust rivojlanishi umumiy kasbiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori darajadagi nazariy bilim refleksiya va metodik moslashuvchanlik

bilan uyg'unlashmasa, dars samaradorligi kutilgan darajada bo'lmasligi mumkin.

Pedagogik akmeologiya o'qituvchi kasbiy rivojlanishida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Diagnostik funksiya — pedagogning mavjud kasbiy kompetensiyalari, kuchli jihatlari, ehtiyojlari va rivojlanishdagi muammolarini aniqlaydi.

Prognostik funksiya — o'qituvchining kelajakdagi kasbiy rivojlanish yo'nalishlari va imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Loyihalash funksiyasi — individual kasbiy taraqqiyot dasturi va akmeologik trayektoriyani ishlab chiqishga imkon beradi.

Rivojlantiruvchi funksiya — kasbiy kompetensiyalar, refleksiya, ijodkorlik va o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantiradi.

Korreksion funksiya — pedagogik faoliyatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va samarasiz faoliyat modellarini o'zgartirishga xizmat qiladi.

Motivatsion funksiya — o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyat, o'zini namoyon etish va yuksak natijalarga erishishga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Refleksiv funksiya — pedagogning o'z faoliyatiga ongli munosabatini va o'zgarishlarni mustaqil boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari pedagogik akmeologiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishini oddiy bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsiy, kasbiy, axloqiy va ijodiy rivojlanishning yaxlit jarayoni sifatida tushuntirishini ko'rsatdi.

An'anaviy malaka oshirish tizimida o'qituvchi ko'pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi tinglovchi vazifasini bajaradi. Akmeologik yondashuvda esa pedagog o'z rivojlanishining faol subyekti bo'ladi. U o'zining kasbiy ehtiyojlarini aniqlaydi, maqsad

belgilaydi, rivojlanish vositalarini tanlaydi, natijalarni baholaydi va yangi vazifalarni shakllantiradi.

Samarali professional rivojlanish dasturlari faqat qisqa muddatli seminarlar yoki nazariy ma'ruzalar bilan cheklanmasligi kerak. Ilmiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanishning amaliyotga bog'langanligi, muayyan fan mazmuniga yo'naltirilganligi, faol o'rganish, murabbiylik, hamkasbiy hamkorlik, qayta aloqa va uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash bilan birga olib borilishi samaraliroq ekani ko'rsatilgan.

Xulosa. Pedagogik akmeologiya o'qituvchi kasbiy taraqqiyotidagi asosiy o'rni uning individual rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, akmeologik trayektoriyasini belgilash, kasbiy refleksiyasini rivojlantirish va yuqori natijalarga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining professional "akme"ga erishishi muayyan sertifikat, lavozim yoki malaka toifasi bilan cheklanmaydi. U pedagogning o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi, o'quvchilar rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatishi, pedagogik yangilik yaratishi, o'z tajribasini tanqidiy tahlil qilishi va kasbiy rivojlanishni uzluksiz davom ettirishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik akmeologiya tamoyillarini pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlash hamda pedagogik faoliyatning innovatsion va insonparvar xususiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bodalev, A. A. (1998). *Vershina v razviti vzroslogo cheloveka: kharakteristiki i usloviya dostizheniya*. Moskva: Flinta-Nauka.
2. Boeskens, L., Nusche, D., & Yurita, M. (2020). Policies to support teachers' continuing professional learning: A conceptual framework and mapping of OECD data. *OECD Education Working Papers*, 235. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/247b7c4d-en>
3. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute.
4. Guskey, T. R. (2002). Professional development and teacher change. *Teachers and Teaching: Theory and Practice*, 8(3), 381–391. <https://doi.org/10.1080/135406002100000512>
5. Kuzmina, N. V. (2002). *Predmet akmeologii*. Sankt-Peterburg: Politekhnik.
6. OECD. (2020). *Professional Growth in Times of Change: Supporting Teachers' Continuing Professional Learning and Collaboration*. Paris: OECD Publishing.

Munira DJURAKULOVA,

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-7520-6498>

E-mail: muniradjurakulova82@gmail.com



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTELLEKTUAL FAOLLIKNI IFODALOVCHI SHAXSIY SIFATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual faollikni ifodalovchi asosiy shaxsiy sifatlar – qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillikning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur sifatlarning o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish bosqichlari va boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, intellektual faollik, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, bilish faoliyati, kreativ fikrlash, muammoli ta'lim, intellektual faollik, bilish ehtiyoji, motivatsiya, bilimsevarlik, ziddiyat.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретико-методологические основы основных личностных качеств, отражающих интеллектуальную активность учащихся начальных классов, таких как любознательность, инициативность и самостоятельность. В исследовании раскрываются взаимосвязь этих качеств, этапы их развития, а также педагогико-психологические особенности их формирования у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: *начальная школа, интеллектуальная активность, любознательность, инициативность, самостоятельность, познавательная деятельность, креативное мышление, проблемное обучение, интеллектуальная активность, познавательная потребность, мотивация, стремление к знаниям, противоречие.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of the main personal qualities reflecting intellectual activity in primary school students, namely curiosity, initiative, and independence. The study examines the interrelationship of these qualities, the stages of their development, and the pedagogical and psychological characteristics of their formation in children of primary school age.

Key words: *primary school, intellectual activity, curiosity, initiative, independence, cognitive activity, creative thinking, problem-based learning, intellectual activity, cognitive need, motivation, love of learning, contradiction.*

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida jamiyatning har bir a'zosidan mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega va doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lgan shaxs sifatini talab qilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual faollikni ifodalovchi shaxsiy sifatlar – qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillik muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi

PF-5712-son Farmonida o'quvchilarga individual yondashuv, mustaqillik va ijodiy faollikni rivojlantirish masalalari alohida ta'kidlangan.

Qiziqish va bilish faolligi muammosining nazariy asoslari jahon pedagogikasida uzoq tarixga ega. Suqrot o'z shogirdlariga haqiqatni izlash, fikrlash orqali bilim olishga o'rgatgan bo'lsa, J.-J. Russo o'quvchini bilimga intilishga majbur qiluvchi maxsus vaziyatlar yaratish g'oyasini ilgari surgan. J. H. Pestalozzi va boshqa pedagoglar esa o'quvchi nafaqat tayyor bilimlarni olishi, balki ularni mustaqil ravishda egallashi kerakligini ta'kidlaganlar [4]. Mahalliy pedagogika fanida bu muammo Sh.S. Shorakhmetov, M.S. Salayeva, Ch.B. Abduraxmanova, M.K. Umnova, N.N. G'aybullayeva, X.R. Radjabov

va boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. Sh.S. Shorakhmetov [3] boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ijodkorlikni shakllantirish xususiyatlarini, M.S. Salayeva [1] esa tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqqan. M.K. Umnova [4] qiziqishni shakllantirishning bosqichlarini belgilab bergan bo'lsa, Radjabov va boshqalar tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilgan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada intellektual faollikni ifodalovchi uchta asosiy sifat – qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillikning o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish bosqichlari va samarali shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib beriladi.

Intellektual faollik – o'quvchining yangi bilimlarni egallash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuvni talab qiluvchi faoliyatlarga bo'lgan ichki intilishi, bilish jarayonidagi faolligi sifatida ta'riflanadi. Pedagogik adabiyotlarda intellektual faollik ko'pincha "bilish faolligi" tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. M.S. Salayeva ta'kidlaganidek, "tadqiqot har doim muammoni, ziddiyatni, bilimdagi bo'shliqni kashf etishni nazarda tutadi, bu esa o'rganish va tushuntirishni talab qiladi. Shunday qilib, u bilish ehtiyoji va izlanish motivatsiyasi bilan boshlanadi" [1, 3-bet].

Intellektual faollikning asosini tashkil etuvchi shaxsiy sifatlar – qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillik bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri o'quv faoliyatining alohida jihatlarini ifodalaydi.

M.K. Umnova qayd etganidek, qiziqish "odatda insonning o'z faoliyatiga ijobiy-baholovchi munosabati sifatida ta'riflanadi. Bilish qiziqishi esa bilim olishning muhim motivlaridan biri, shaxsning barqaror xususiyati va ta'limning samarali vositasi sifatida qaraladi" [4, 51-bet]. Qiziquvchanlik – bu yangi bilim va hodisalarga nisbatan faol qiziqish, bilishga intilish. Rivojlanish bosqichi: Qiziquvchanlik → Qiziqish → Bilish ehtiyoji. [4]. Tashabbuskorlik – bu o'quvchining faoliyatni mustaqil boshlash, yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati. Rivojlanish bosqichi: Tashabbus → Ijodiy faollik → Innovatsion yondashuv [9]. Mustaqillik – bu o'z faoliyatini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish qobiliyati. Rivojlanish bosqichi: Reproduktiv → Qisman izlanuvchan → Ijodiy [3].

Qiziquvchanlik boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. M.K. Umnovanning tadqiqotida qayd etilishicha, "o'qitishning boshida boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha qiziqishlari juda jadal rivojlanadi, ayniqsa bilish qiziqishlari, imkon qadar ko'proq bilishga bo'lgan kuchli intilish, intellektual qiziquvchanlik" [4, 52-bet]. Olimanning fikricha, bilish qiziqishlarining rivojlanishi quyidagi bosqichlardan iborat: qiziquvchanlik – qisqa muddatli, kuchli intilish; bilimsevarlik – atrofdagi voqelikka nisbatan faol munosabat; bilish qiziqishi – jismoniy va aqliy faoliyatning yangi qirralarini egallashga qaratilgan maqsadli daraja; nazariy qiziqish – kasbiy ko'nikmalar va bilimlarni egallashga yo'naltirilgan shaxsiy xususiyat [4]. Ushbu bosqichlarning boshlang'ich maktab davridagi o'ziga xosligi shundaki, dastlab (1-2-sinflar) o'quvchilarni ayrim faktlar, alohida hodisalar qiziqitirsa, keyingi yillarda "nima uchun?" va "qanday qilib?" tipidagi savollar tipik tus ola boshlaydi. Bu o'zgarish qiziquvchanlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ifodalaydi.

Mustaqillik boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu sifat o'quvchining o'z bilish faoliyatini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Sh.S. Shorakhmetov mustaqillikni shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Uning fikricha, "O'zbekistonda yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish davlat miqyosidagi masalaga aylandi. Bu borada ijodkor yoshlarni tarbiyalash ko'p jihatdan ta'lim jarayonining ijodiy tashkil etilishiga bog'liq" [3, 391-bet]. Olim an'anaviy ta'lim nazariyasida o'quvchilarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi va tafakkuriga yetarlicha e'tibor berilmaganligini ta'kidlab, "bunday ta'limda o'quvchi ijrochi, o'qituvchi topshirig'i va xohish-irodasining bajaruvchisi ro'lida qatnashadi" degan xulosaga keladi [3, 391-bet].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillikni samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur: *Birinchi shart* – muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. N.N. G'aybullayeva ta'kidlaganidek, "muammoli ta'lim o'quvchilarni izlanishga undaydi, bu esa ularning tafakkur

qobiliyatlarini oshiradi" [5, 137-bet]. *Ikkinchi shart* – loyiha faoliyatini tashkil etish. Loyiha faoliyati o'quvchilarga o'zg'oyalarini amalga oshirish, natijalarni taqdim etish va himoya qilish imkonini beradi. *Uchinchi shart* – o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Ch.B. Abduraxmanova didaktik o'yinlarni mazmunli va amaliy mashqlarga yo'naltirilgan turlarga ajratib, "mazmunli o'yinlar tanish vaziyatlarga asoslangan bo'lib, unda rollar aniq belgilangan. Amaliy mashqlar esa o'yin elementlarini o'z ichiga oladi va aniq maqsadli sharoitlarda o'tkaziladi" [2, 195-bet]. *To'rtinchi shart* – differensial va individual yondashuv. N.N. G'aybullaeva yozishicha, "shaxsga yo'naltirilgan, differensial yondashuvlar bilan boyitilgan dars jarayoni universal faoliyatga oson moslashishni ta'minlaydi" [5, 138-bet]. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur'atini hisobga oladigan yondashuv intellektual faollikni shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir. *Beshinchi shart* – ijobiy psixologik muhit yaratish. "Har bir o'quvchining muvaffaqiyatini tan olish, xatolardan qo'rqmaslikka o'rgatish va hissiy qo'llab-quvvatlash" [5, 140-bet] o'quvchilarning intellektual faolligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual faollikni ifodalovchi shaxsiy sifatlar – qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillik o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanib, o'quvchining bilish faoliyati samaradorligini belgilaydi. O'tkazilgan nazariy tahlil asosida quyidagi

xulosalarga kelindi: *birinchidan*, qiziquvchanlik boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish faoliyatining asosiy omili bo'lib, uning rivojlanish bosqichlari (qiziquvchanlik → bilimsevarlik → bilish qiziqishi → nazariy qiziqish) boshlang'ich ta'lim davrida o'ziga xos xususiyatlarga ega. 1-2-sinflarda ayrim faktlar va hodisalarga qiziqish ustunlik qilsa, 3-4-sinflarda sabab-natija bog'lanishlariga qiziqish ortadi. *Ikkinchidan*, tashabbuskorlik o'quvchining ijodiy faolligining ko'rsatkichi sifatida muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, jamoaviy ishlash va intellektual o'yinlar orqali samarali rivojlantirilishi mumkin. *Uchinchidan*, mustaqillik boshlang'ich ta'limning asosiy natijalaridan biri bo'lib, evristik topshiriqlar, ijodiy mustaqil ishlar va o'quv muammolarini hal qilish orqali shakllanadi. *To'rtinchidan*, intellektual faollikni rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari qatoriga muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, o'yinli texnologiyalar, differensial yondashuv va ijobiy psixologik muhit yaratish kiradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tizimli shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilarning qiziquvchanligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salaeva M.S., Jumanova I.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlar. // American Journal of Education and Learning. 2025. Vol.3, Issue 1. – P. 2-7.
2. Abduraxmanova Ch.B. Use of intellectual games in developing competencies of primary school students. // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. 2025. Vol.5, Issue 4. – P. 195-196.
3. Shorakhmetov Sh.S. Shoraxmetov Sh.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish // Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali "Academic Research". 2020. Vol.1, Issue 3. – P. 391-395.
4. Umnova M.K. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini rivojlantirishda qiziqishni shakllantirishning ahamiyati" // Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi. 2024. №2. – B. 50-53.
5. G'aybullaeva N.N. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos xususiyatlari va universal o'quv faoliyatiga tayyorligi" // Current Research Journal of Pedagogics. 2025. Vol.6, Issue 7. – P. 135-141.

Mohira MAVLONOVA,
 O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
 Email: nabiyevam99@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-1997-378X>



10–11-SINF O'QUVCHILARIDA PRAGMATIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLIB O'QITISHNING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada 10–11-sinf o'quvchilarida pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida psixologik omillarni hisobga olib ta'lim berishning ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, hissiy holati, muloqotga kirishuvchanligi va ijtimoiy tajribasi pragmatik kompetensiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, dialogik mashqlar va refleksiv topshiriqlardan foydalanishning samarali jihatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *pragmatik ko'nikma, pragmatik kompetensiya, psixologik omil, motivatsiya, muloqot, yuqori sinf o'quvchilari, nutqiy vaziyat.*

Annotation: this article examines the importance of taking psychological factors into account in the process of developing pragmatic skills among 10th–11th grade students. It analyzes how students' age-related characteristics, motivation, self-confidence, emotional state, communicative readiness, and social experience directly influence the formation of pragmatic competence. The article also highlights the effectiveness of using problem-based situations, role-playing activities, dialogic exercises, and reflective tasks in the teaching process.

Key words: *pragmatic skill, pragmatic competence, psychological factor, motivation, communication, upper secondary school students, communicative situation.*

Аннотация: в данной статье рассматривается значение учёта психологических факторов в процессе развития прагматических навыков у учащихся 10–11 классов. Анализируется непосредственное влияние возрастных особенностей учащихся, их мотивации, уверенности в себе, эмоционального состояния, готовности к общению и социального опыта на формирование прагматической компетенции. Кроме того, раскрываются эффективные аспекты использования проблемных ситуаций, ролевых игр, диалогических упражнений и рефлексивных заданий в процессе обучения.

Ключевые слова: *прагматический навык, прагматическая компетенция, психологический фактор, мотивация, общение, учащиеся старших классов, речевая ситуация.*

Pragmatik ko'nikma shaxsning muayyan vaziyatda til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishi, suhbatdoshning niyati va munosabatini anglay olishi hamda o'z fikrini ijtimoiy sharoitga mos tarzda ifodalash qobiliyatidir. Tilni grammatik jihatdan to'g'ri bilish har doim ham samarali muloqot qilish uchun yetarli emas. O'quvchi qachon rasmiy yoki norasmiy uslubdan foydalanish, qanday qilib iltimos qilish, fikr bildirish, rad etish, uzr so'rash yoki munozarada ishtirok etishni ham bilishi lozim.

10–11-sinf o'quvchilari o'smirlikdan yoshlik davriga o'tish bosqichida bo'ladilar. Bu davrda ularning mustaqil fikrlashi, o'zini namoyon qilish istagi, tengdoshlari bilan munosabati va kelajak kasbiga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Shu sababli pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Pragmatik ko'nikmalar o'quvchining til vositalarini bilishi bilan birga, ulardan real muloqotda vaziyatga mos foydalanish qobiliyatini ham anglatadi. Bu ko'nikmalar suhbatdoshning kommunikativ niyatini tushunish, rasmiy va norasmiy muloqotni farqlash, mos so'z va iboralarni tanlash, iltimos, taklif, maslahat, rad etish hamda uzr so'rash shakllarini to'g'ri qo'llashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, boshqalarning fikrini hurmat qilish, suhbat tartibiga rioya etish va yashirin ma'nolarni anglash ham muhimdir. Bunday ko'nikmalar yuqori sinf o'quvchilarining nutqi, ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quvchining psixologik holati muhim o'rin tutadi. Chunki muloqot jarayonida insonning bilimi bilan bir qatorda uning hissiyoti, o'ziga bo'lgan ishonchi va suhbatdoshga munosabati ham namoyon bo'ladi (1-jadvalga qarang).

Psixologik omillarning ta'siri	
Motivatsiya	O'quvchining muloqot qilishga bo'lgan ichki ehtiyoji pragmatik ko'nikmalar rivojiga ta'sir qiladi. O'quvchi topshiriqning hayotiy ahamiyatini tushunsa, unda faol ishtirok etishga intiladi. Masalan, ish suhbatidan o'tish, chet ellik mehmon bilan muloqot qilish yoki muammoli vaziyatni hal etishga qaratilgan mashqlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.
O'ziga ishonch	Ayrim o'quvchilar grammatik qoidalarni yaxshi bilsa ham, xato qilishdan qo'rqib, gapirishga qiynaladilar. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchini tanqid qilishdan ko'ra, uni qo'llab-quvvatlashi va xatolarni tabiiy o'rganish jarayoni sifatida tushuntirishi kerak. Ijoiy muhit o'quvchining muloqotdagi faolligini oshiradi.
Hissiy holat	Hayajon, uyatchanlik, qo'rquv yoki stress o'quvchining fikrini erkin bayon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi murakkab kommunikativ vazifalarga asta-sekin o'tishi maqsadga muvofiq. Avval juftlikda, keyin kichik guruhlarda, undan so'ng butun sinf oldida gapirish topshiriqlari berilishi mumkin.
Tengdoshlar ta'siri	10–11-sinf o'quvchilari uchun tengdoshlarining fikri alohida ahamiyatga ega. Guruhdagi masxara, keskin tanqid yoki salbiy munosabat o'quvchining muloqotdan chekinishiga sabab bo'ladi. Hamkorlikka asoslan-gan va o'zaro hurmat mavjud bo'lgan muhit esa pragmatik ko'nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi.
Individual farqlar	Har bir o'quvchining xarakteri, tajribasi va muloqot uslubi turlicha bo'ladi. Ekstrovert o'quvchi suhbatlar-da faol qatnashishi mumkin, introvert o'quvchi esa yozma tayyorgarlik yoki kichik guruhdagi faoliyat orqali o'z imkoniyatini yaxshiroq namoyon etadi. Shu sababli barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq va baholash usulini qo'llash har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun darslar real hayotiy vaziyatlarga yaqin tashkil etilishi lozim. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Rolli o'yinlar. O'quvchilarga xaridor va sotuvchi, ish beruvchi va nomzod, o'qituvchi va o'quvchi yoki do'stlar o'rtasidagi suhbat rollari beriladi. Bu usul turli vaziyatlarda nutq shakllarini tanlashni o'rgatadi.

Muammoli vaziyatlar. O'quvchilarga kelishmovchilikni bartaraf etish, rad javobini muloyim ifodalash yoki maslahat berish kabi vazifalar taklif etiladi. Bu orqali ular muloqot strategiyalarini mustaqil tanlaydilar.

Dialoglarni tahlil qilish. Badiiy asar, film yoki kundalik hayotdan olingan dialoglar asosida suhbatdoshlarning maqsadi, ohangi va yashirin munosabati tahlil qilinadi.

Juftlik va guruhli ishlar. Kichik guruhlarda o'quvchi o'zini erkinroq his qiladi. Bu, ayniqsa, uyatchan va o'ziga ishonchi past o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratadi.

Refleksiya. Mashg'ulot yakunida o'quvchilar qaysi iboralar samarali bo'lgani, qanday qiyinchilikka duch kelgani va keyingi safar nimani o'zgartirishi haqida fikr bildiradilar. Refleksiya o'z nutqiy faoliyatini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'qituvchi pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotni

tashkil etuvchi va psixologik muhitni boshqaruvchi shaxs hisoblanadi. U o'quvchilarni erkin fikr bildirishga undashi, xatoga nisbatan bag'rikeng munosabatni shakllantirishi va barcha ishtirokchilar o'rtasida hurmatni ta'minlashi lozim.

Baholash jarayonida faqat grammatik to'g'rilik emas, balki fikrning vaziyatga mosligi, suhbatdoshga munosabat, muloyimlik va kommunikativ maqsadga erishish darajasi ham hisobga olinishi kerak. Aks holda, o'quvchi tilni biladi, lekin uni odamlar bilan gaplashishda ishlatolmaydi. Bu esa ta'limning juda bezatilgan, ammo foydasi kam natijasiga aylanadi.

Xulosa. 10–11-sinf o'quvchilarida pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish ularning samarali muloqot qilishi, o'z fikrini vaziyatga mos ifodalashi va boshqalarning kommunikativ niyatini tushinishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda motivatsiya, o'ziga ishonch, hissiy holat, tengdoshlar ta'siri va individual xususiyatlar hisobga olinishi zarur.

Psixologik omillarga tayangan holda tashkil etilgan rolli o'yinlar, dialogik mashqlar, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlar o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini samarali rivojlantiradi. Bunday ta'lim o'quvchiga faqat til qoidalarini emas, balki mazkur qoidalaridan real ijtimoiy muloqotda o'rinli foydalanishni ham o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bachman, L. F. Fundamental Considerations in Language Testing / L. F. Bachman. — Oxford : Oxford University Press, 1990. — 408 p.
2. Brown, P. Politeness: Some Universals in Language Usage / P. Brown, S. C. Levinson. — Cambridge : Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
3. Leech, G. N. Principles of Pragmatics / G. N. Leech. — London : Longman, 1983. — 250 p.

O'ZBEK VA RUS NASRIDA AN'ANAVIY OILAVIY QADRIYATLARNING MILLIY VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek va rus nasrida an'anaviy oilaviy qadriyatlarining milliy hamda psixologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Oilaviy munosabatlar, avlodlar davomiyligi, ota-ona va farzand mas'uliyati hamda milliy urf-odatlarining qahramonlar ruhiyatidagi ifodasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek nasri, rus nasri, oilaviy qadriyatlar, milliy xususiyat, psixologizm, avlodlar munosabati.

Аннотация: в статье проводится сравнительный анализ национальных и психологических особенностей традиционных семейных ценностей в узбекской и русской прозе. Рассматриваются семейные отношения, преемственность поколений, ответственность родителей и детей, а также отражение национальных обычаев в психологии героев.

Ключевые слова: узбекская проза, русская проза, семейные ценности, национальные особенности, психологизм, взаимоотношения поколений.

Annotation: the article comparatively examines the national and psychological features of traditional family values in Uzbek and Russian prose. It explores family relationships, generational continuity, parental and filial responsibility, and the representation of national customs in the characters' psychology.

Key words: uzbek prose, Russian prose, family values, national features, psychologism, intergenerational relations.

Kirish. Oilaviy munosabatlarni badiiy-psixologik nuqtayi nazaridan tadqiq etish personajlarning tashqi xatti-harakatlarinigina emas, balki ularning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, axloqiy tanlovi, vijdoniy kurashi va o'zaro munosabatlaridagi psixologik omillarni ham aniqlash imkonini beradi. Badiiy psixologizm vositasida yozuvchi oiladagi ziddiyatning tashqi sabablaridan uning inson ruhiyatida qoldirgan izlarigacha bo'lgan murakkab jarayonni tasvirlaydi. Ichki monolog, dialog, psixologik portret, ruhiy parallelizm, xotira, sukut, muallif tavsifi va qahramonning o'z-o'zini tahlil qilishi kabi badiiy vositalar oilaviy munosabatlarning ichki mohiyatini ochishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va rus nasrini mazkur aspektda qiyosiy o'rganish ikki adabiyotdagi oilaviy munosabatlar tasvirining mushtarak hamda milliy o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Har ikki adabiyotda oila insonning ma'naviy tayanchi sifatida talqin qilinishi bilan birga, tarixiy voqealar, ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar ta'sirida murakkab sinovlarga duch keluvchi makon sifatida ham namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda qahramonlarning oila oldidagi burchi bilan shaxsiy istaklari, an'anaviy qadriyatlar bilan individual erkinlik o'rtasidagi ziddiyat ularning psixologik qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oilani mustaqil badiiy konsepsiya sifatida o'rgangan tadqiqotlar orasida I.I. Tsitsenkoning "M.A. Sholoxovning 'Tinch Don' roman-epopeyasida oila konsepsiyasi" nomli tadqiqoti mavzuga bevosita yaqinligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda oila kazaklarning etnomadaniy an'analari, avlodlar davomiyligi, turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va tarixiy taqdiri bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Melexovlar oilasi misolida oilaning insonni milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lab turuvchi muhim ijtimoiy hamda axloqiy birlik ekanligi ko'rsatiladi. Bu yondashuv oilaviy munosabatlarni qahramonning shaxsiy kechinmalari bilangina emas, balki milliy mentalitet va tarixiy

muhit bilan aloqador holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'zbek va rus nasrini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, har ikki adabiyotda oila qahramon xarakterining shakllanishi va uning ruhiy holatini ochib beruvchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Biroq oilaviy munosabatlarning mazmuni muayyan xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti, diniy-axloqiy qarashlari va turmush an'analari ta'sirida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Masalan, "Tinch Don"da Melexovlar oilasi kazaklarning yer, urug', avlod va an'anga bog'liqligi bilan tasvirlansa, o'zbek nasrida oila ko'pincha mahalla, qarindoshlik, ota-ona roziligi, or-nomus va milliy urf-odatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda badiiylashtiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual tahlil, germenevtik tahlil, psixologik tahlil va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O'zbek va rus nasrida oila va oilaviy munosabatlar masalasi adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxs va jamiyat munosabati, milliy-ma'naviy qadriyatlar, oilaviy muhit, avlodlar davomiyligi hamda qahramon ruhiyatining shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Badiiy asarlarda oila nafaqat qahramonlar hayoti kechadigan ijtimoiy-maishiy makon, balki ularning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, ruhiy kechinmalari va hayotiy tanlovlarini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, o'zbek va rus adabiyotida oilaviy munosabatlarning tasviri badiiy psixologizm, oilaviy konflikt, er-xotin va ota-ona-farzand munosabatlari, avlodlar ziddiyati, muhabbat, sadoqat, burch va mas'uliyat kabi tushunchalar asosida tadqiq etiladi. Ayniqsa, qahramonning shaxsiy istaklari bilan oilaviy va ijtimoiy talablar o'rtasidagi qarama-qarshilik uning ruhiy olamini ochib beruvchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Natijada oilaviy munosabatlarning badiiy talqini orqali muallif nafaqat alohida shaxsning psixologik holatini, balki muayyan davrga xos milliy mentalitet, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy muhitni ham yoritadi.

Rus adibi M.A. Sholoxovning “Tinch Don” roman-epopeyasi haqidagi ilmiy-adabiy munozaralar 1930-yillardayoq, asarning dastlabki jildlari nashr etilishi bilan boshlangan. Yozuvchi romanini yakunlagach, bu bahs-munozaralar yanada qizg'in tus olgan. Ayniqsa, roman-epopeyaning bosh qahramoni – Grigoriy Melexov obrazi tadqiqotchilar e'tiborini alohida jalb qilgan. 1940–1950-yillar adabiy tanqidchilari – V. Yermilov, V. Kirpotin, L. Levin, I. Lejnev, L. Yakimenko, V. Gura, Yu. Lukin – Grigoriy Melexov fojiasini “urushlar va inqiloblar davri”da xalqdan uzilib qolgan, jamiyatdan begonalashgan inson fojiasi sifatida talqin qilganlar. 1960–1970-yillarda “Tinch Don” roman-epopeyasi bosh qahramoni fojiasining mohiyatiga yangicha qarash ilgari surildi. Sholoxovshunoslar – V. Petelin, A. Xvatov, F. Biryukov, K. Priyma — Grigoriy Melexov taqdiri haqidagi mulohazalarida uning fojiasini tarixiy yangilashish fojiasi sifatida talqin qildilar.

1980-yillarda “Tinch Don”ning bosh qahramoni haqidagi qarashlar jiddiy o'zgarishga uchramadi: avvalgi, asosan mafkuraviy xarakterga ega konsepsiyalar qayta ko'rib chiqildi va to'ldirildi. Faqat 1990-yillardan boshlab adabiyotshunoslar Grigoriy Melexov obrazining yaxlitligi, unda insonparvarlik idealarining mujassamlanishi haqida fikr yurita boshladilar. Xususan, Yu.A. Dvoryashin Sholoxov ushbu qahramonda “rus dehqonlarining insoniy komillik haqidagi tasavvurlarini ifodalaganini” ta'kidlaydi [3, 108-b.].

Cho'lpon ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning asarlarida Turkiston muhiti akslanib turadi va bevosita jarayonni his qilishga, unda yashashga undaydi. Bu ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Uning asarlaridagi epizodlar ta'riflarning sodda va jozibadorligi, qo'llangan ismlar-u qahramonlarga xos bo'lgan antroponimik birliklar, onomastikdan o'rinni foydalana olishi ularning ichki dunyosini ochib bera olgan.

Endi, shu o'rinda Cho'lpon asarlarida qo'llangan ismlar, laqablar, taxalluslar va ularning asarga qay darajada badiiy bo'yoq berayotganini o'rganish uchun tilshunoslikka murojaat qilamiz. “Kecha va Kunduz”ni o'qib anglashimiz mumkinki, Chor Rossiyasi xalqning eng savodsiz, ma'lum fikrga bo'lmagan “manqurt” kimsalarga lavozim berib, ular orqali xalqni istaganlaricha idora etganlar. Mana shunday manqurt kimsalardan bir Akbarali mingboshi. Akbarali mingboshi xalqning arzi-dodini tinglab hal qilib berish u yoqda tursin, hatto o'z muammolarini ham yecholmaydi. Aslida, uni lavozimidan ozod etishmoqchi edi, biroq, nogoh u o'ldirildi. Hukumat esa bunga siyosiy tus berishga initilib, keraksiz “mato”ga aylangan kishisini podshoh va Rusiya davlatiga sodiqligini ta'kidlab, Zebini salkam turk josusiga aylantirib qo'yadi.

Xulosa. O'zbek nasrida oilaviy munosabatlar ko'proq milliy urf-odatlar, mahalla muhiti, ota-ona roziligi, qarindoshlik rishtalari va jamiyatning axloqiy talablari bilan bog'liq holda yoritiladi. Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida Zebi taqdiri misolida oiladagi hukmronlik, majburiy nikoh va ayol erkinligining cheklanishi chuqur psixologik yo'sinda tasvirlangan. Qahramonning iztiroblari faqat shaxsiy fojia emas, balki mavjud ijtimoiy muhit va eskirgan oilaviy qarashlarning oqibati sifatida talqin qilinadi.

Rus nasrida esa oilaviy munosabatlar insonning axloqiy tanlovi, shaxsiy erkinligi, muhabbat va burch o'rtasidagi ziddiyatlar bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Mixail Sholoxovning “Tinch Don” romanidagi Melexovlar oilasi misolida muhabbat, xiyonat, ota-onalik mas'uliyati, avlodlar to'qnashuvi va tarixiy voqealarning oila barqarorligiga ta'siri ochib beriladi. Grigoriy, Natalya va Aksinya munosabatlari orqali inson ruhiyatidagi ikkilanish, muhabbat va majburiyat o'rtasidagi ichki kurash badiiy-psixologik jihatdan yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon, Abdulhamid. *Kecha va kunduz: roman*. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Sholoxov M.A. *Тухий Дон: роман в четырёх книгах*. – Москва: Художественная литература, 1980.
3. Qur'onov D. *Cho'lpon nasri poetikasi*. – Toshkent: Sharq, 2004. 288-bet.
4. Куронов Д.Х. *Психологизм характеров в романе Чулпана «Ночь и день»*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992.
5. Qur'onov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-bet.
6. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
7. Umurov H. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: Sharq, 2002.
8. Boboyev T. *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
9. Asilova G.A. Влияние русской литературы на творчество Чулпана: роман «Ночь и день» // *Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика*. – 2021. – Т. 21. – Вып. 2. – С. 203–207. DOI: 10.18500/1817-7115-2021-21-2-203-207.
10. Ahmadjonova M.A. “Kecha va kunduz” romanida ayollar obrazi tasviri // *Modern Science and Research*. – 2023. – № 6. – B. 954–957.
11. Fayzullayeva S.S. Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida milliy xarakter // *Golden Brain*. – 2023. – № 33. – B. 52–54. DOI: 10.5281/zenodo.10265510.
12. Kasimova R.R., Alimova V.B. “Kecha va kunduz” asarining bilvosita va bevosita tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlar // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. – 2023. – № 2. – B. 66–72.
13. Nurmuhammadova F.S. Kecha va kunduz romanida obrazlar talqini // *Modern Science and Research*. – 2025. – Т. 4. – № 3. – B. 35–39. DOI: 10.5281/zenodo.14970467.
14. Arapjonova Z.O. “Kecha va kunduz” romanida vaqt va ruh: tarixiy-madaniy talqin // *Ilmiy maqolalar to'plami*. – 2025. – B. 2338–2340. DOI: 10.5281/zenodo.15768003.

Jamshid MATNAZAROV,
NDPI mustaqil izlanuvchisi
jamshidmatnazarov@15gmail.com
ORCID: 0009-0008-6181-6456

TALABALARNING KIBERIJTIMOIYLASHUVINI ARALASH TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kiberijtimoiylashuvini aralash ta'lim resurslari vositasida optimallashtirishning didaktik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Xalqaro ilmiy-metrik bazalar (Scopus, Web of Science) materiallarini tizimli tahlil qilish asosida kompyuter ta'limi sifatini oshirishning axborot-texnologik va uslubiy usullari aniqlangan.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, kiberijtimoiylashuv, didaktik imkoniyatlar, pedagogik loyihalash, raqamli ta'lim muhiti, dasturiy ta'minot, kompetensiya, tizimli tahlil.

Аннотация: в статье исследуются дидактические возможности оптимизации киберсоциализации студентов высших учебных заведений в условиях цифровой трансформации посредством ресурсов смешанного обучения. На основе системного анализа материалов международных наукометрических баз данных Scopus и Web of Science определены информационно-технологические и методические подходы к повышению качества компьютерно-ориентированного образования.

Ключевые слова: смешанное обучение, киберсоциализация, дидактические возможности, педагогическое проектирование, цифровая образовательная среда, программное обеспечение, компетентность, системный анализ.

Annotation: the article examines the didactic possibilities of optimizing the cyber-socialization of higher-education students through blended-learning resources under the conditions of digital transformation. Based on a systematic analysis of materials from international scientometric databases (Scopus, Web of Science), information-technological and methodological ways of improving the quality of computer education are identified.

Key words: blended learning, cyber-socialization, didactic possibilities, pedagogical design, digital educational environment, software, competence, systematic review.

Kirish. Raqamli transformatsiya davrida insoniyatning intellektual salohiyatini shakllantirish jarayonlarida kompyuter ta'limi sifatini oshirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri talabalarni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki raqamli muhitda mas'uliyatli, xavfsiz va samarali faoliyat yuritish qobiliyatlari bilan qurollantirishdan iborat. Bu yondashuvlar Hisoblash mashinalari assotsiatsiyasi (ACM) va IEEE Kompyuter jamiyati (IEEE-CS) tomonidan tayyorlangan CC2020 hisoblash o'quv dasturlari hisobot seriyasining so'nggi nashrida bayon etilgan global hisoblash ta'limi paradigmalariga mos keladi. Ushbu hujjatda nazarda tutilgan bakalavriat dasturlari orasida dasturiy ta'minot injiniringi texnologik taraqqiyotning asosiga aylanib borayotgan yetakchi fan hisoblanadi [1].

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda aralash ta'lim va raqamli ta'lim muhitida talabalarining kasbiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Xususan, K. T. Al-Sarayreh, K. Meridji va A. Abran dasturiy ta'minot injiniringi ta'limini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilib, ta'lim mazmunini texnologik rivojlanish talablariga mos ravishda yangilash zarurligini asoslab berganlar [1]. V. Yu. Bykov va M. P. Shyshkina esa ochiq ilm-fan tamoyillari asosida bulutli ta'lim va tadqiqot muhitini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritganlar [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy adabiyotlarni sistematik ko'rib chiqish (systematic review), umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Robototexnika va kiberijtimoiylashuv bilan ajralib turadigan sanoatning yangi darajasi – “Sanoat 4.0”ga o’tish axborot texnologiyalari va dasturlash sohalarida ilgari ko’rilmagan muammolar to’lqinini keltirib chiqarmoqda. Dasturiy ta’minot texnologiyalarini amaliyotda rivojlantirishning murakkabligi va tezkorligi sababli, bu sohada innovatsiyalarni qo’llash uchun asos zamonaviy texnologik jarayonlarni chuqur tushunishga va professional ko’nikmalarni egallashga qaratilishi kerak. Shubhasiz, bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalarida tegishli axborot-ta’lim muhitini shakllantirmasdan turib kerakli sinergik samaraga erishib bo’lmaydi.

Bunday muhitni loyihalashda intellektuallashtirish vositalarini, ochiq ta’lim tamoyillarini va yagona tadqiqot makonini joriy etish ustuvor vazifaga aylanadi [2]. Bu jarayonga transdistsiplinar yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq, chunki u eng umumlashgan va universal bo’lib, intizomiy parchalanish chegaralari va kamchiliklarini bartaraf etadi hamda olam va munosabatlar haqida yaxlitroq tasavvur beradi [3]. Aynan shu yondashuv asosida talabalarning kiberijtimoiylashuvi - ya’ni ularning raqamli tarmoq muhitida shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy tajriba orttirishi va o’zaro munosabatga kirishishi jarayoni – pedagogik boshqariladigan hodisa sifatida ko’rib chiqiladi.

Tadqiqotning axborot manbasi sifatida Scopus va Web of Science kabi xalqaro ilmiy-metrik ma’lumotlar bazalarida ro’yxatga olingan jahon ilmiy hamjamiyati nashrlari tanlab olindi. Muayyan mavzu bo’yicha nima va kim tomonidan aytilganligi haqida har tomonlama tasavvur hosil qilish uchun adabiyotlarni tizimli ko’rib chiqish (systematic review) usulidan foydalanildi: bu usul berilgan savolga tegishli barcha yuqori sifatli tadqiqot dalillarini aniqlash, tanlash, sintezlash va baholash imkonini beradi. Dasturiy ta’minot injiniringi sohasidagi ta’lim tendentsiyalarini o’rganishga bag’ishlangan tizimli sharh natijalari [5] o’quv qo’llanmalarini muntazam yangilab borish zaruratini ko’rsatadi.

Tahlilga tortilgan manbalar korpusi uch guruhga ajratildi. Birinchi guruh – zamonaviy ta’lim yondashuvlarini aks ettiruvchi empirik tadqiqotlar: xususan, dasturiy ta’minot injiniringi ma’ruzalarida eng ko’p qo’llaniladigan muammoli ta’lim, o’yin usullari va rolli o’yinlar orqali talabalarni jalb qilish

tendensiyalari o’yinlashtirish (gamifikatsiya) misolida o’rganildi [6]. Ikkinchi guruh – o’qitish va o’rganish jarayonining o’ziga xosligini yorituvchi sharhlar; masalan, majburiy fan sifatida kiritilgan “Dasturiy ta’minotga bo’lgan talablar” fanini o’qitishda real va amaliy muhitlarni taqdim etish samaradorligi tahlil qilindi [7]. Uchinchi guruh – tizimli sharhlarning o’zini tizimli ko’rib chiqishga qaratilgan tadqiqotlar bo’lib, ular sanoatda bajarilgan empirik ishlarning umumlashma xulosalarga qo’shgan hissasini baholaydi [8].

Model va uning dasturiy ta’minotini loyihalashda quyidagi nazariy asoslarga tayanildi: (1) ijtimoiy ta’lim nazariyasi – o’quv jarayonida ijtimoiy o’zaro ta’sir va hamkorlikning yetakchi rolini ta’kidlaydi; (2) konstruktivizm – talabalar o’z tajribasi va atrof-muhit bilan munosabati asosida bilimni faol quradi, degan qoidaga asoslanadi; (3) konnektivizm – ta’limni turli axborot manbalari o’rtasida aloqa o’rnatish jarayoni sifatida talqin qiladi; (4) kognitiv yuklama nazariyasi – o’quv materialini talabaning axborotni qayta ishlash imkoniyatiga moslashtirishni talab etadi; (5) ta’lim uchun universal dizayn – barcha talabalar, qobiliyati va o’rganish uslubidan qat’i nazar, foydalana oladigan faoliyatni loyihalash zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish metodlari qo’llanildi.

Tadqiqot natijasida aralash ta’lim resurslari vositasida talabalarning kiberijtimoiylashuvini optimallashtirishning didaktik imkoniyatlari modeli ishlab chiqildi. Model o’zaro bog’liq sakkiz komponentni qamrab oladi: 1) ijtimoiy ehtiyoj; 2) maqsad; 3) kiberijtimoiylashuv funksiyalari; 4) yondashuv turlari; 5) kiberijtimoiylashuvni rivojlantirishning metodik asoslari; 6) baholash me’zonlari; 7) natijalar monitoringi; 8) natija. Modelning boshlang’ich komponenti – jamiyatning aralash ta’lim asosida talabalar kiberijtimoiylashuvini pedagogik loyihalashga bo’lgan ijtimoiy ehtiyoji, yakuniy komponenti esa – kiberijtimoiylashuvni pedagogik loyihalash ko’nikmasiga ega bo’lgan talaba shaxsidir.

Model talabalar kiberijtimoiylashuvini o’qituvchining kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog’laydi. D. Freeman kasbiy rivojlanishni “ta’limning murakkab, o’ziga xos va individual jihatlar ustida ishlaydigan bilvosita aralashuv strategiyasi” sifatida ta’riflaydi [12]. J. C. Richards va T. S. Farrell esa uni

“o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish orqali kasbiy tushunchasini oshirishga xizmat qiluvchi uzoq muddatli jarayon” deb baholaydi [13]. Shu bois modelda o‘qituvchilar malakasini oshirish alohida funksional blok sifatida ajratilib, dunyoning tez o‘zgarishi sharoitida ta‘lim beruvchining doimiy yangilanib borishi kiberijtimoiylashuvni optimallashtirishning zaruriy sharti ekani asoslanadi.


O‘tkazilgan tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida aralash ta‘lim resurslari talabalar kiberijtimoiylashuvini optimallashtirishning muhim didaktik vositasi ekanini ko‘rsatdi. Xalqaro ilmiy-metrik bazalar materiallarini tizimli tahlil qilish kompyuter ta‘limi sifatini oshirish uchun texnologik tendensiyalarni o‘quv resurslarida aks ettirish zarurligini tasdiqladi. Ishlab chiqilgan sakkiz komponentli model kiberijtimoiylashuvni ijtimoiy ehtiyojdan yakuniy natijagacha bo‘lgan yaxlit pedagogik jarayon sifatida loyihalash imkonini beradi va unda aralash ta‘lim yetakchi shakl hisoblanadi. Modelni qo‘llab-quvvatlovchi dasturiy ta‘minot va

raqamli xizmatlar (Moodle, Zoom, Edmodo, Quizizz, Google Expeditions) hamkorlik, mas‘uliyatli raqamli fuqarolik va talaba shaxsining raqamli muhitda barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.



Xulosa. Tadqiqot natijalari aralash ta‘lim resurslari talabalarining kiberijtimoiylashuvini samarali tashkil etish va rivojlantirishning muhim pedagogik-didaktik vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan pedagogik model raqamli ta‘lim muhitida talabalarining raqamli kompetensiyalari, hamkorlik ko‘nikmalari va mas‘uliyatli raqamli fuqarolik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Moodle, Zoom, Edmodo, Quizizz kabi raqamli platformalardan maqsadli foydalanish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarining mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari oliy ta‘lim muassasalarida aralash ta‘limni takomillashtirish hamda talabalarining kiberijtimoiylashuvini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Sarayreh K. T., Meridji K., Abran A. Software engineering principles: A systematic mapping study and a quantitative literature review // Engineering Science and Technology. - 2021. - Vol. 24, No. 3. - P. 768-781.
2. Bykov V. Yu., Shyshkina M. P. The conceptual basis of the university cloud-based learning and research environment formation and development in view of the open science priorities // Information Technologies and Learning Tools. - 2018. - Vol. 68, No. 6. - P. 1-19.
3. Rostoka M., Guraliuk A., Cherevychnyi G., Vyhovska O., Poprotskyi I., Terentieva N. Philosophy of a Transdisciplinary Approach in Designing an Open Information and Educational Environment of Institutions of Higher Education // Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala. - 2021. - Vol. 13, No. 3. - P. 548-567.
4. Ouhbi S., Pombo N. Software Engineering Education: Challenges and Perspectives // Proceedings of the IEEE Global Engineering Education Conference (IEEE EDUCON). - 2020. - P. 202-209.
5. Acosta N. D., Garcia M. B., Romero J. B., Sevilano A. L., Paez N. F., Roa O. Educational trends in software engineering: a systematic review study // Proceedings of the International Congress of Innovation and Trends in Engineering (CONIITI). - 2019. doi:10.1109/CONIITI48476.2019.8960866.
6. Alhammad M. M., Moreno A. M. Gamification in software engineering education: A systematic mapping // Journal of Systems and Software. - 2018. - Vol. 141. - P. 131-150.



KICHIK TADQIQOT



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida xotin-qizlar obrazining badiiy talqini tahlil qilingan. Unda ayol obrazlarining ma'naviy-axloqiy fazilatlar, badiiy ifoda vositalari hamda g'oyaviy-estetik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, badiiy talqin, obraz, badiiy-estetik qarashlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, badiiy ifoda, o'zbek mumtoz adabiyoti.

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация образа женщины в произведениях Алишера Навои. Выделяются духовно-нравственные качества, средства художественного выражения, а также идеологическое и эстетическое значение женских образов.

Ключевые слова: женский образ, художественная интерпретация, образ, художественно-эстетические взгляды, духовно-нравственные качества, художественное выражение, узбекская классическая литература.

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of the image of women in the works of Alisher Navoi. It highlights the spiritual and moral qualities, means of artistic expression, and ideological and aesthetic significance of female images.

Key words: female image, artistic interpretation, image, artistic and aesthetic views, spiritual and moral qualities, artistic expression, Uzbek classical literature.

Alisher Navoiy xotin-qizlarga munosabatini, ularning jamiyatdagi, oiladagi o'rnini, farzandlar hayoti va kamolotidagi ahamiyatini o'z ijodiga mansub asarlarning mavzu yo'nalishi, janr tabiati, ifoda usulidan kelib chiqib turli timsollarda mahorat bilan talqin qiladi. Mumtoz adabiyotimizning o'ttizdan ortiq janrida qalam tebratgan mutafakkir ijodkorning, ayniqsa, doston janriga mansub asarlarida xotin-qizlarning tasavvuf ilmi rivojida, ilmi-fan taraqqiyotidagi, davlat boshqaruvidagi o'rnining betimsol badiiy tasvirini ko'rish mumkin.

Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulov "tafakkur nahri"ni, "besh yuksak mahobatli tog'" ga qiyoslagan "Xamsa"ning ilk dostoni "Hayrat ul-abror"ni mutolaa qilar ekanmiz, dostonning ta'limiy-irfoniy xarakteridan kelib chiqib, turli mavzularning falsafiy mohiyatidan bahs yurituvchi maqolotlar va ularga ilova qilingan hikoyatlarda xotin-qizlar timsollariga duch kelamiz. Dostonning 2-qismidan o'rin olgan Islom haqidagi maqolatda islom dinining besh ruknining asosiy shartlari bayon etiladi. Beshinchi rukn hisoblangan bayt-ul haram muqaddas Ka'ba ziyoratini ikki tarzda bosib o'tadiganlarning ta'rifi keltirilgan ekan, farzni ado etib tezda orqasiga qaytadiganlar toifasidan 2-toifa fano ahliga mansub kishilar "faqirlikni boylik" deb biladigan toifa vakillarini ustun qo'yadi. Shu hikoyatga ilova qilingan maqolatning qahramoni sifatida ayol timsoliga murojaat qiladi.

Hikoyada Bayt-ul haramning ziyoratiga shoshgan, 14 yil zahmat chekib Makkaga kirib kelgan Ibrohim Adhamga emas, Robiyayi Adaviyaga nasib etishi voqealari bayon etiladi. Zohidlik davrining ilk vakilasi sifatida Robiya Adaviya tasavvuf ilmining rivojida Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgani bilan alohida ahamiyatli. U Allohdan hech bir ta'ma – manfaat ko'zlamay, uni mutlaq sevish inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanini zohidlardan birinchi bo'lib ta'kidlagan. Uning g'oyalari keyingi avlod so'fiylari borasida keng tarqalib, Bistomiy, Ibn Farid, Ibn Arabiy va boshqa so'fiylar ta'limotining asosini tashkil etgan. Robiya Adaviya taqvodorlik, Allohni sevish na'munasi deb bilinib, avliyo sifatida ulug'lanadi. Alisher Navoiyning islomning eng muhim va eng bahsli masalalarida bu timsolning tasavvuf tarixidagi mavqeyidan o'rinli foydalangan va mavzu mohiyatining go'zal badiiy yechimiga erishgan.

Dedi Birohimki: "Ey pokrav,
Balki malak xaylidek aflok rav,
Nedin ekin buki manga yetti ranj,
Men chekibon ranju sanga bo'ldi ganj".
Robiya dedi anga: "Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyasida borch'a yo'l,
Bo'ldi ishing arzi niyoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.

Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano”.¹

Navoiyning tazkira janriga mansub avliyo (e’tiqodli, karomat, bashorat qila oladigan, dunyo, boylik bilan ishi yo’q, darveshvash inson)lar haqidagi Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham avliyolik maqomini Alloh bergan Robiya Adaviya bilan bog’liq bir nechta voqealarni keltiradi. Ularda mo’jizalari hayratlanarli, fikrlari kishini lol qoldiradigan, kishilarning ruhiy dunyosini, his-tuyg’ularini, g’am-u hasratlarini biluvchi bu karomati bisyor ayolning biri-biridan afzal xislatlarini yoritishga xizmat qildi.

Voqealarning birida ibratli faoliyati, halol-pokligi jihatidan o’z davri eranlaridan ham ustunligi qalamga olinadi. Masalan, mashhur so’fiy Sufyon Savriy roziyallohu anhu undan tez-tez shar’iy masalalarni so’rar va uning ma’ruzalariga, duolariga ixlosmand bo’lgan. (Fariddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”sida aytilishicha, o’z davrining mashhur shayxi Hasan Basriy ham majlislarida Bibi Robiya qatnashmasa va’z aytmagani ekan.) Bir kuni Sufyon Savriy roziyallohu anhu undan so’radi:

– Banda Allohu taologa qurbat topish uchun qiladigan amallaridan qaysi biri yaxshiroqdur?

Robiya dedi:

– Bu dunyoda ham, oxiratda ham Allohdan o’zgani sevmalik².

“Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiy o’ttizdan ortiq avliyo ayollarning nomlarini tazkira talablari doirasidagina keltirmay, balki ularga bo’lgan yuksak e’tiqodi va ixlosini ham bayon etadi. Ular orasida Ummu Hasson roziyallohu anho ham bor. Uning g’arib ahvoliga achinib, odamlardan yordam so’rashga undagan Sufyon Savriy “Men dunyoni Ul zotdan talab qilamanki, U zot Qodirdur va Molikdur va sarf qiluvchidir. Bunga qodir bo’lmagan zotlardan mol-dunyo so’ramayman”, – deb

1 Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 88-bet.

2 Duosi mustajob ayollar. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan ibratli hikoyatlar. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2020. 3-bet.

mulzam qilgan. Yoki har qanday duosi mustajob Ummu Muhammad roziyallohu anhu Gilonda qurg’oqchilik bo’lganda, butun el istisqo (yomg’ir so’rash) namoziga chiqib amalga oshirilmagan ishni ado qiladi.

“Barcha xaloyiq Ummu Muhammadning uyi oldiga yig’ildilar va undan yomg’ir uchun Allohga duo qilishini so’radilar.

Ummu Muhammad uyining oldini supurdi va dedi: “Ey bor Xudoyo, men supurdim, Sen suv sepgin”.

Oz fursat o’tgach, yomg’ir yog’a boshladi.”

Alisher Navoiy uchun xotin-qizlarning eng ulug’ maqomi – Onalik. Yaratuvchanlik qudrati bilan Allohning sifatlariga ega bu toifaning darajasini tazkira janrining imkoniyatlari qadar ochib berishga harakat qiladi. Kashf-u karomatlari ko’p bo’lgan Ummu Muhammad Volidayi Shayx Abu Abdulloh Hafif roziyallohu anho dengiz yo’li orqali o’g’li bilan hajga boradi. O’g’illari Shayx Abu Abdulloh Laylat ul-qadr (nur)ni ko’rishga musharraf bo’lishini Allohdan tilab duo qiladi. Vaqti fursat yetganda esa shunday ovoz eshitadi: “Ey Muhammad, ey farzand, sen istagan narsa bu yerdadur”. Shayx tomdan tushib uyga kirs, Laylat-ul qadrning nuri onasining oyog’iga tushibdi.

Hazrat Navoiy payg’ambarimizning sahih hadislariga zahirida yaratilgan “Arba’in” asarida ham bu mavzudagi hadislarining she’riy talqiniga alohida e’tibor bilan qaraydi. 37-qit’ada “Al-jannatu tahta aqdomi ummahatikum” sahih hadisining she’riy talqinini quyidagicha sharhlaydi:

Onalarning oyog’i ostidadur

Ravzayi Jannat-u jinon bog’i.

Ravza bog’i visolin istar esang,

Bo’l onaning oyog’i tufrog’i.

Bunday misollarni Navoiyning turli mavzulardagi asarlaridan istagancha keltirish mumkin. Ularning barchasida turli yoshdagi: besh yoshli qizning aql-u zakosidan tortib, Bonu (Iskandarning onasi)ning onalik mehriyachasiga bo’lgan samimiy badiiy talqinlarini ko’ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. To’la asarlar to’plami. 10 tomlik, 10-tom. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Duosi mustajob ayollar. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan ibratli hikoyatlar. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2020. 203-bet.

Mohinur BOBONAZAROVA,
 NavDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi
 magistranti

ONOR DE BALZAKNING “GORIO OTA” ROMANIDA OTA VA FARZAND MUNOSABATLARINING IJTIMOIIY-BADIIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Onor de Balzakning “Gorio ota” romani asosida ota va farzand hamda Parij hayotidagi ijtimoiy inqirozlar tahlil qilinadi. Unda Gorio ota, Anastazi, Delfina, Ejen obrazlari misolida ota mehri, farzandlik burchi, manfaatparastlik hamda insoniy xislatlarning yo'qolib borishi kabi holatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Onorde de Balzac, Gorio ota, ota va farzand munosabatlari, realizm, oilaviy qadriyatlar, jamiyat, ma'naviy tanazzul.*

Annotation: this article analyzes the father-child relationship and the social crisis of Parisian society based on Honor de Balzac's novel Father Gorio. Through the characters of Father Gorio, Anastasie, Delphine, and Eugene Rastignak, the study examines paternal love, filial duty, selfishness, and the gradual erosion of human values. The article also explores the artistic representation of family values and the moral decline of society in the novel.

Key words: *Honor de Balzac, Father Gorio, father-child relationship, realism, family values, society, moral decline.*

Аннотация: в данной статье на основе романа Оноре де Бальзака “Отец Горио” анализируются взаимоотношения между отцом и детьми, а также социальный кризис парижского общества. На примере образов Горио, Анастаси, Дельфины и Эжена Растиньяка рассматриваются отцовская любовь, сыновний (дочерний) долг, корыстолюбие и утрата человеческих ценностей. Особое внимание уделяется художественному воплощению семейных ценностей и нравственного упадка общества.

Ключевые слова: *Оноре де Бальзак, “Отец Горио”, отношения между отцом и детьми, реализм, семейные ценности, общество, нравственный упадок.*

Kirish. Jahon adabiyotida oiladagi munosabatlar turli xil adabiy yo'nalishlarda keng yoritilgan bo'lib, unda ota va farzand munosabati, ularning bir-biriga nisbatan mehri, burch va vazifasi, shuningdek, jamiyatning inson munosabatiga ta'sir ko'rsatishi badiiy jihatdan ifodalab beriladi. Fransuz adabiyotining yirik namoyandasi Onor de Balzak ijodida ham oilaviy munosabatlar va ijtimoiy hayot muammolari alohida o'rin egallaydi. Yozuvchining “Gorio ota” romani realizm adabiyotiga tegishli bo'lib, unda ota mehrining haqiqiyliigi, cheksizligi, qizlarining esa mol-dunyoga o'chligi, moddiy narsalarni insoniy tuyg'ulardan ustun qo'yishi chuqur tahlil ostiga olingan. Asarda Gorio ota obrazi orqali o'z farzandi uchun jonini ham ayamaydigan fidoyi ota, Anastazi va Delfina obrazlari misolida bemehr farzandlar hamda yosh talaba Ejen obrazi bilan jamiyat qashshoqligi yoritiladi.

Asosiy qism. Gorio ota obrazi inson qalbidagi eng nozik va eng ulug' tuyg'ulardan bo'lmish ota qalbining sofligi badiiy tarzda namoyon bo'ladi. Yozuvchi

ushbu qahramon orqali farzandlarini o'z hayoti mazmuniga aylantirgan, ular uchun barcha mol-davlatini kuyovlariga berib, o'zi nochor, kambag'al ahvolda qolgan otaning fojiali taqdirini tasvirlaydi. Shuningdek, Gorio ota nafaqat asarning bosh qahramonlaridan biri, balki Balzak o'ylagan ijtimoiy g'oyalarning markaziy timsollaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Asar boshida Gorio ota tadbirkorlik bilan shug'ullangan, o'zining mehnatkashligi va halolligi bilan katta boylik orttirgan. U jamiyatda o'z o'rniga ega, atrofdagi insonlari hurmat qiladigan shaxs bo'lgan. Turmush o'rtog'i vafotidan keyin, butun hayotini qizlariga bag'ishlagan, ularning yaxshi kiyinishi, ovqatlanishi, ilm olishi uchun qo'ldan kelgan barcha narsani qilgan, jamiyatning yuqori tabaqasiga munosib tarzda tarbiya berishga, ularga hashamatli, boy hayotni yaratib berishga harakat qilgan. Ota uchun farzandlar baxti, ularning tabassumi har doim shaxsiy manfaatlaridan, sog'lig'idan ustun turgan. Biroq otaning ushbu mehribonchiliklari o'z

qizlari tomonidan qadrlanmaydi. Anastazi va Delfina ulg'aygach, otalaridan faqat foydalanishni, uning bor mol-mulkini tortib olib, o'z foydalariga ishlatishni xohlashadi. Har safar biror bir moddiy qiyinchilikka duchor bo'lsalar, otalarini eslab qolishadi, biroq muammolari hal bo'lsa, darrov esdan chiqarib qo'yishadi-da, kiborlar hayotiga kirib ketishadi. Bu holat oilaviy munosabatlar sustlashib, moddiy manfaatlar tomon og'ib borayotganini ko'rsatib turadi. Gorio ota qizlarining qarzga botgan vaqtida yordam berish, dabdabali hayotda malikalarday yashashi, qimmat kiyimlar sotib olishi, ularning oilasi bilan nizo chiqmasligi uchun barcha jamg'armalarini sarflaydi. Natijada bir vaqtlar boy bo'lgan inson, qarigan chog'ida kuyovlari tomonidan haydalib, so'nggi yillarini beva xotin bo'lmish Voke xonimning uyida boshqa bechora, kambag'al toifadagi insonlar bilan tor uyda yashashga majbur bo'ladi. Moddiy jihatdan qashshoqlashganiga qaramay, qizlariga bor-budini sotib yoki qo'shimcha veksellar bilan yordam beradi. Ota uchun eng katta baxt – farzandlarini bir on bo'lsa-da ko'rish va ular bilan suhbatlashishdir. Afsuski, bu ikki qizi otalarini kambag'al, nochorligidan uyalib, jamiyat oldida otasi sifatida tan olishni xohlamaydilar. Bu esa Gorio ota qalbida farzand iztirobini uyg'otadi.

Yozuvchi Balzak Gorio otaning ruhiy kechinmalarini juda chiroyli psixologizmlar asosida tasvirlaydi. Ota qizlarining befarq va bemehrsizligidan qiynaladi, lekin hech qachon ularga nisbatan munosabati o'zgar olmaydi. Aksincha, qizlari har safar yordam so'rab kelganida bor imkoniyatini ishga solishga harakat qiladi. Shu jihatdan qahramonning ichki holatida ruhiy qiynoqlar sodir bo'ladi. Shu holatda kitobxon bir tomondan bosh qahramonga nisbatan salbiy fikr bildiradi, ham unga achinadi. Chunki ota uchun manfaat, sog'liq, hayot doim ikkinchi darajada bo'lib kelgan.

– Bittasi ham kelmadi! – dedi qaddini sal ko'tarib chol. – Ularning ishi bor, ular uxlab yotishibdi, kelishmaydi. O'zim ham bilardim. Farzandning nimaligini faqat o'layotganingda bilarkansan. Eh, azizim, o'g'lim, sira uylanmang, bola orttirmang! Siz ularga hayot berasiz, ular esa sizga – o'lim! Siz ularni dunyoga keltirasiz, ular sizni dunyodan siqib chiqaradilar! Kelishmas ekan! Bu menga o'n yildan beri ma'lum. Bu gapni o'zimga o'zim juda ko'p aytardim-u, ammo ishongim kelmasdi.[1: 296].

Gorio ota tomonidan aytilgan ushbu jumalarda ota farzandlariga berilgan cheksiz mehrning javobi sifatida yolg'izlikni boshdan kechirayotganini iztirob va alam bilan e'tirof etadi. Ota uchun kuchli ehtiros – otalik muhabbatidir. Aslida, bu tuyg'u insoniy fazilatlardan biri bo'lsa-da, me'yoridan oshganda ulkan fojiaga aylanar ekan. Gorio otaning kuchli muhabbati sababli, qizlarining barcha xatolarini kechiradi, ulardan kamchilik topmaydi, har qanday talab - istaklarini rad etmasdan bajaradi, shu tariqa qizlari xudbin va molparast bo'lib voyaga yetishadi. Yozuvchi bu orqali cheksiz mehr va muhabbat ham bir kun kelib, inson zarariga ishlashi mumkinligini, farzand tarbiyasida muvozanat buzilishini ta'kidlab o'tmoqchiday go'yo. Romanning boshidan oxirigacha Gorio ota obrazi bosqichma-bosqich rejalashtirilganday ko'rinadi. Avval o'z boyligidan mahrum bo'ladi, jamiyatda obro'sini yo'qotadi, so'ng esa farzandlari mehridan ham ayriladi. Balzak ushbu fojiaiy hodisalarni tobora chuqur tahlil ostiga oladi. Bunday usul uning realizm tamoyillarini yaxshi bilishi va inson xarakter- xususiyatlarini ochib berishdagi yuksak mahoratidir.

Romandagi Ejen Rastinyak obrazi eng murakkab va ijobiy qahramonlardan biri sifatida gavdalanadi. U halollik, vijdon va insonparvarlik xususiyatlariga ega bo'lib, atrofdagi insonlariga doimo yordam qo'lini cho'zadi. Balzak ushbu qahramon orqali yosh avlodning kelajagini, orzularini, hayotda yuz beradigan sinovlarini, jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ichki kurashlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Shuningdek, ushbu obraz Gorio ota qalbining so'nishiga guvoh hamda hayotdan yaxshigina saboq olgan shaxs sifatida alohida ahamiyatga ega. Rastinyak Parijga chekka viloyatdan kelgan huquqshunos talaba bo'ladi va oilasining umidlarini ro'yobga chiqarish uchun harakat qiladi. Uning oilasi qashshoqlashib qolgan, ota -onasi, singillari halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi xislatlarni yaxshi singdirishgan bo'ladi. Shu sababli u dastlab Parijning dabdabali hayotiga begona qarash qiladi, qiynaladi, lekin kiborlar orqasida muvaffaqiyat qozonishni istaydi. Yosh yigitchaning maqsadi quruq manfaat orttirish emas, balki oilasining og'ir turmushini yaxshi tomonga o'zgartirish, singillari hayoti uchun yaxshi pul berish bo'ladi. Zodagonlar dunyosiga ularga xos tarzda kirish uchun, oilasidan qarz olishga majbur bo'ladi. Bu holat Rastinyak uchun og'ir ruhiy sinov

bo'lib, yaqinlarining fidoyiligiga tan beradi va yanada ko'proq mas'uliyatli bo'lishga intiladi. Asarda Ejenning axloqiy fazilati Gorio ota bilan bo'lgan munosabatida ko'rinadi. U keksa otaga bir uyda istiqomat qiluvchi oddiy bir shaxs sifatida emas, o'z otasiga qaraganday mehr va sadoqat bilan qaraydi, uning dard-alamlarini tinglaydi, uni yupatadi va imkon qadar yordam qo'lini ham cho'zadi, insoniylik tuyg'ularidan kelib chiqqan holatda harakat qiladi. Aynan shu jihatlari bilan u Gorio otani faqat puli uchun eslaydigan qizlari Anastazi va Delfinadan tubdan farq qiladi. Romanning eng ta'sirchan voqealaridan biri, Gorio otaning fojiasi bilan bog'liqdir. Ota o'lim to'shagida yotganida faqatgina Ejen va uning do'sti g'amxo'rlik qiladi. Hatto uning qizlari yoniga kelmaydi, o'z xizmatkorlarini yuborish bilan cheklanib qoladi. Ejen qariyaning dafn marosimini ham oddiy tarzda tashkillashtirishga harakat qiladi. Bu holat uning yuksak fazilat egasi ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Yozuvchi bu orqali qon-qarindosh, farzand ham ba'zi hollarda insonga yordam bermasligini, ba'zan begona insonlar ham ulardan-da yaqin bo'lishini anglatganday bo'ladi. Ejen hayotning murakkab va tushunib bo'lmas sinovlari orqali ulg'ayadi. U Votren kabi ikkiyuzlamachi, boylik va yuqori mansabga erishish uchun har qanday qabihliklardan qaytmaydigan shaxsga duchor bo'ladi. Parij zodagonlarining qabih ishlarini ko'rib, ulardan ranjiydi, lekin hech qachon vijdonini sotmaydi. Uning kichik dunyosida maqsad va haqiqat o'rtasida jiddiy kurash tus olib, uni iztirobga soladi. Aynan shu psixologik holat qahramon xarakterini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Asardagi Anastazi de Resto va Delfina de Nusingen xonim obrazlari Gorio otaning mehsiz qizlari hamda 19- asr jamiyatining ma'naviy qiyofasini ko'rsatib beruvchi obrazlardan. Yozuvchi ushbu ikki obraz orqali mansab, boylik, dabdabali hayot ortidan yugurish insoniy xislatlarning yo'qolib borishini va

oiladagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishini chuqur psixologik yo'sinda ifodalab beradi. Ularning xarakterida farzandlik burchini unutib, tobora xudbinlashib qolayotgan shaxslarni ko'rishimiz mumkin. Anastazi Gorio otaning katta qizi bo'lib, boy oiladan bo'lmish graf de Restoga turmushga chiqadi. Aslida, unga turmushga chiqish sababi, aristokratik jamiyatga o'rnashib qolish bo'ladi. U otasini hech qachon qadrlamaydi, garchi otasi unga barcha imkoniyatlarni ortig'i bilan qilib bergan bo'lsa ham. Otasi ko'rsatayotgan mehribonchiliklarni esa, foydalanish mumkin bo'lgan moddiy bir manba deb o'ylaydi xolos.

Delfina de Nusingen xonim tashqi tomondan muloyimroq va samimiyroq ko'rinsa-da, mohiyatan opasidan uncha farq qilmaydi. U badavlat bankirga turmushga chiqqan bo'lib, jamiyatda doim yuqori o'rinda turishni istaydi. Delfina opasi Anastazining saroy muhitiga kirgani, zodagonlar tomonidan tan olingani, jamiyat unga yaxshiroq hurmat ko'zi bilan qaraganini ko'ra olmasdan, unga nisbatan ichki nafrat va raqobatni kuchaytirib yuboradi. Balzak ushbu obrazlar orqali oilalar ichida yuzaga keluvchi inqirozlarni jamiyatning moddiy ahvoli bilan bog'lab, tahlil qiladi. Ular o'rtasidagi raqobat qarindoshlik aloqalaridan emasligi, balki mavqe- mansab ekanligi ayancli holatday ko'rinadi.

Xulosa. Onor de Balzakning "Gorio ota" romani ota va farzand munosabatlarini badiiy-psixologik va ijtimoiy-fasafiy yo'sinda yoritilgan asarlardan biridir. Balzak roman voqealari orqali insoniy fazilatlar doim ustuvor bo'lishini ta'kidlaydi. Jamiyatdagi axloqiy inqirozlar eng avvalo, insonning yaqinlari bilan bo'lgan munosabatda aks ettirishini Gorio otaning fojiali taqdiri misolida ko'rsatib beradi. Shu sababli asar nafaqat 19- asr ijtimoiy holatini, balki bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan g'oyani ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Onor de Balzak. Gorio ota. – T.: Kamalak- Press, 2019.
2. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Ulug'ov A. Adabiy qahramon obrazi.

Mushtariybonu AXMEDOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi



BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA ADAPTATSIYASINI YENGILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada birinchi sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga moslashish (adaptatsiya) jarayonining psixologik, fiziologik va ijtimoiy jihatlarini atroflicha tahlil qilingan. Kichik maktab yoshidagi bolalarda adaptatsiya davrida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'yinlar hamda ota-onalar bilan hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish metodikasi yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar va dars ishlanmalari elementlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: adaptatsiya, birinchi sinf, maktabga moslashish, pedagogik texnologiya, psixologik zo'riqish, o'yinli metodlar, ota-onalar bilan hamkorlik, ijtimoiy status.

Аннотация: в статье подробно анализируются психологические, физиологические и социально-психологические аспекты процесса адаптации первоклассников к школьному обучению. Освещаются трудности, возникающие у детей младшего школьного возраста в адаптационный период, а также методика их преодоления посредством внедрения современных педагогических технологий, интерактивных игр и системы взаимодействия с родителями. Вместе с тем представлены практические рекомендации для учителей начальных классов по снижению психоэмоционального напряжения у учащихся.

Ключевые слова: адаптация, первый класс, школьная адаптация, педагогическая технология, психологическое напряжение, игровые методы, сотрудничество с родителями, социальный статус.

Annotation: article provides a comprehensive analysis of the psychological, physiological, and socio-psychological aspects of first-grade students' adaptation to school education. It highlights the difficulties encountered by young school-age children during the adaptation period and outlines methodologies for overcoming them through the integration of modern pedagogical technologies, interactive games, and a collaborative system with parents. Furthermore, practical recommendations are provided for primary school teachers to reduce the psycho-emotional tension of students.

Key words: adaptation, first grade, school adaptation, pedagogical technology, psychological tension, game-based methods, parental cooperation, social status.

Bolaning hayotida bog'cha yoki oila muhitidan maktab ta'lim tizimiga o'tish davri eng keskin va mas'uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Birinchi sinfga qadam qo'yish shunchaki yangi binoga kelish yoki yangi kiyim kiyish emas, balki bolaning ijtimoiy maqomi (statusi), kun tartibi, faoliyat turi va yetakchi motivlarining butunlay o'zgarishidir. Maktab ta'limining dastlabki oylarida bola organizmi va ruhiyati ulkan yuklamaga duch keladi. Darslarda uzoq vaqt qimirlamay o'tirish, o'qituvchining talablariga bo'ysunish, tengdoshlari bilan yangi jamoa shakllantirish va intizom qoidalariga rioya qilish boladan katta iroda va energiya talab etadi [1]. Aynan shu davrda adaptatsiya (moslashish) jarayoni kechadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar bolaning maktabga moslashish jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etilmasa, bu keyinchalik uning o'zlashtirish darajasi pastlashishiga, surunkali charchoqqa, maktab nevroziga va fanga bo'lgan qiziqishining butunlay yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun birinchi sinf o'quvchilarining adaptatsiyasini yengillashtirish bugungi kun boshlang'ich ta'limining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adaptatsiya — bu organizm va shaxsning o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayonidir. Birinchi sinf o'quvchisining adaptatsiyasi uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: bola maktabga kelgach, uning barcha a'zolari va tizimlari (ayniqsa, asab tizimi, tayanch-harakat aparati, ko'rish a'zolari) kuchaytirilgan rejimda ishlaydi [3]. Shifokor va fiziologlarning ta'kidlashicha, birinchi sinfning dastlabki haftalarida bolaning jismoniy zo'riqishi kosmonavtning parvoz paytidagi holatiga tenglashadi. Fiziologik moslashish odatda, 3 bosqichda kechadi:

→ **Oriyentirlash bosqichi (dastlabki 2-3 hafta):** Organizm barcha ichki zaxiralarini ishga soladi, tana tizimlarida kuchli reaksiya va stress kuzatiladi.

→ **Beqaror moslashuv bosqichi:** Organizm yangi sharoitga mos keladigan maqbul javob variantlarini qidira boshlaydi.

→ **Nisbatan barqaror moslashuv bosqichi:** Organizm ishchi tartibga o'tadi, yuklamalarga nisbatan reaksiyalari muvozanatlashadi.

Bu jarayonda bolaning bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok) yangi formatga o'tadi. Bog'cha yoshidagi yetakchi

faoliyat bo'lgan o'yin o'rnini endi o'qish (ta'lim) faoliyati egallaydi. Bola o'z xohish-istaklarini chetga surib, "Xohlayman" tamoyilidan "Kerak" tamoyiliga o'tishga majbur bo'ladi [3].

Bu bolaning yangi tengdoshlar jamoasiga kirib borishi,

o'qituvchi bilan munosabat o'rnatishi va maktabdagi o'z o'rnini (yangi ijtimoiy rolini) anglashidir. Pedagogik amaliyotda o'quvchilarning moslashish darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi (jad-1.)

1-jadval. Adaptatsiya darajalarining qiyosiy jadvali

Adaptatsiya darajasi	Moslashish muddati	Bolaning xulq-atvori va hissiy holati	Ta'limiy topshiriqlarni bajarishi	Jamoaga qo'shilishi
Yuqori (Yengil)	2–6 hafta	Quvnoq, xushchaqchaq, maktabga mamnuniyat bilan keladi. Stress belgilari deyarli kuzatilmaydi.	O'qituvchi talablarini aniq va mustaqil bajaradi. Topshiriqlarga qiziqadi.	Tez do'stlashadi. Sinf hayotida faol ishtirok etadi.
O'rta (Mo'tadil)	2–3 oy	Dastlabki haftalarda inijlik, charchoq kuzatilishi mumkin. Keyinchalik kayfiyati barqarorlashadi.	Topshiriqlarni o'qituvchi yoki ota-ona ko'magida bajaradi. Diqqati vaqti-vaqti bilan charchaydi.	Sinfdoxlari bilan munosabati yaxshi, lekin yetakchilikka intilmaydi.
Quyi (Og'ir / Dezadaptatsiya)	6 oygacha yoki yil davomida	Yig'loqlilik, tajovuzkorlik yoki haddan tashqari passivlik. Maktabdan qo'rqish (fobiya).	Programma materiallarini o'zlashtira olmaydi. Savollarga javob bermaydi, darsda chalg'iydi.	Jamoaga qo'shilmaydi. Ko'pincha yolg'iz qoladi yoki tengdoshlari bilan urishadi.

Birinchi sinf o'quvchisida moslashish jarayoni buzilganda dezadaptatsiya yuzaga keladi. O'qituvchi va ota-onalar ushbu holatning subyektiv va obyektiv sabablarini vaqtida aniqlashlari zarur. Dezadaptatsiyaning asosiy sabablari:

- Maktabga psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi: bolaning irodaviy sifati rivojlanmaganligi, intellektual darajasi yoshiga mos kelmasligi.
- Oilaviy tarbiyadagi xatolar: "Giperopeka" (haddan tashqari g'amxo'rlik qilib, bolani mustaqillikdan mahrum qilish) yoki diktatura muhiti.
- Kun tartibining yo'qligi: bolaning uyqu va dam olish vaqtlari tartibga solinmaganligi sababli jismoniy to'liqlash.
- Somatik zaiflik: tez-tez kasal bo'ladigan, immuniteti past bolalar maktab yuklamasini ko'tara olmaydi.
- Ijtimoiy tajribaning kamligi: bog'chaga bormagan, faqat uyda, kattalar qurshovida o'sgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmasi bo'lmaydi [1].

O'qituvchi birinchi sinflar bilan ishlashda ta'lim mazmunini emotsional va o'yinli elementlar bilan boyitishi shart. Quyida adaptatsiyani yengillashtiruvchi eng samarali metodlar keltirilgan. Birinchi sinfning dastlabki ikki oyida dars tizimini bosqichma-bosqich o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tkazish kerak. O'yin boladagi psixologik to'siqlarni olib tashlaydi.

— "Tanishuv zanjiri" o'yini: sentabrning ilk kunlarida bolalarni bir-biri bilan yaqinlashtirish uchun qo'llaniladi. O'quvchilar aylanma bo'lib turishadi va ko'ptokchani bir-biriga otib, ismlari va yoqtirgan mashg'ulotlarini aytishadi.

— "Sehrlil qoidalar" metodi: intizom qoidalarini quruq buyruqlar (shovqin qilma, tik o'tir) ko'rinishida emas, balki ertak qahramonlari tili bilan tushuntirish. Masalan, "Donishmand

Boyqush qoidasi: kim gapirmoqchi bo'lsa, qanotini (qo'lini) ko'taradi".

Ertaklar orqali bola o'zidagi qo'rquv va xavotirlarni yengib o'tadi. O'qituvchi o'quvchilarga maktabga borishdan qo'rqan, lekin keyinchalik u yerda ko'plab do'stlar orttirgan Quyuncha yoki ayiqcha haqida ertak aytib beradi. Ertak yakunida bolalar bilan birgalikda: "Quyuncha nima uchun qo'rqadi?", "Sizda ham shunday qo'rquv bo'lganmi?" kabi savollar atrofida suhbat o'tkaziladi. Bu bolaga o'z muammosida yolg'iz emasligini his qilish imkonini beradi. Rasm chizish orqali bolaning ichki kechinmalari guruh yuzasiga chiqadi: "Mening maktabim" yoki "Mening kayfiyatim" mavzusida rasm chizdirish. Rasmda qora, to'q jigarrang ranglarning ko'p ishlatilishi, obyektlarning juda kichik chizilishi bolada xavotir yuqori ekanligidan dalolat beradi. O'qituvchi va psixolog bunday bolalar bilan yakka tartibda suhbatlashishi lozim.

Birinchi sinf o'quvchisining diqqat barqarorligi \$10-15\$ daqiqadan oshmaydi. Shuning uchun har bir dars davomida 2 marta jismoniy daqiqa (fizminutka) o'tkazish majburiydir:

— *Ko'z mashqlari*: doskadagi rangli nuqtalarga qarab ko'zni harakatlantirish (ko'rish charchog'ini oladi).

— *Barmoqlar gimnastikasi*: "Biz yozdik, biz yozdik, barmoqlarimiz charchadi..." kabi she'riy mashqlar mayda motorikani rivojlantiradi va miya faoliyatini rag'batlantiradi.

Adaptatsiyaning muvaffaqiyati maktabdagi jismoniy muhitga ham bog'liq. Birinchi sinf xonasi yorug', havosi tez-tez almashib turadigan va bolani zeriktirmaydigan tarzda jihozlanishi kerak. Bu esa:

— *Xonani hududlashtirish (Zonallashtirish)*: o'quv hududi: partalar va doska joylashgan an'anaviy qism; o'yin va dam olish hududi: xonaning orqa qismida yumshoq gilamcha, bir

nechta o'yinchoqlar, rasm chizish uchun burchak tashkil etish. Moslashish qiyin kechayotgan bola tanaffusda shu burchakda o'zini xavfsiz his qiladi.

Kun tartibini ratsional tashkil etish: o'qituvchi ota-onalarga bolaning uydagi kun tartibini ham maktabga moslashtirish bo'yicha aniq memorandum berishi kerak. Birinchi sinf o'quvchisi kuniga kamida 9.5-10 soat uxlashi shart. Darsdan keyin esa kamida 1.5-2 soat ochiq havoda sayr qilishi, planshet va telefonlardan foydalanish vaqti esa kuniga 30 daqiqa bilan cheklanishi zarur.

Ota-onalar bilan hamkorlik tizimi: ota-onaning oiladagi hissiy holati va maktabga bo'lgan munosabati bolaga to'g'ridan to'g'ri yuqadi. Agar ona xavotirda bo'lsa, bola ham maktabni xavfli joy deb qabul qiladi.

O'qituvchining ota-onalar bilan ishlash strategiyasi. "Tandiq o'rniga qo'llab-quvvatlash": dastlabki oylarda ota-onalar majlisida bolalarning xatolarini hammaning oldida muhokama qilish mutlaqo ta'qiqlanadi. Faqat ijobiy o'zgarishlar va yutuqlar aytiladi. Muammolar esa individual tartibda suhbatlashiladi; **psixologik brifinglar:** ota-onalarga "Bolaga uyga vazifa bajarishda qanday yordam berish kerak?", "Nima uchun bolani boshqalarga solishtirish mumkin emas?" mavzularida seminar-treninglar tashkil etish; **kundalik muloqot daftari:** bolaning har kungi kichik

muvaffaqiyatlarini (masalan: "Bugun Muhammadali harfni juda chiroyli yozdi", yoki "Bugun Nilufar dugonasiga yordam berdi") qayd etib borish ota-onada ham, bolada ham motivatsiyani oshiradi [2].

O'qituvchining kasbiy va emotsional kompetensiyasi. Birinchi sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi — mutlaq avtoritet va ideal hisoblanadi. O'qituvchining ovoz ohangi, yuz ifodasi (mimikasi) va har bir gapi bolaning maktab yillaridagi butun taqdirini belgilab berishi mumkin.

O'qituvchi rioya qilishi kerak bo'lgan oltin qoidalar: **hech qachon shaxsiyatga tegmaslik:** bolaning yozuvini yoki harakatini tanqid qilganda, bolaning o'zini emas, faqat uning bajargan ishini baholash kerak ("Sen yomonsan" emas, "Mana bu chiziqcha biroz qiyshiq chiqibdi, kel, birgalikda to'g'rilaymiz"); **pedagogik takt va sabr:** birinchi sinf o'quvchisi bir marta aytilgan topshiriqni tushunmasligi tabiiy hol. O'qituvchi buni jahli chiqmasdan, jilmaygan holda, boshqa so'zlar bilan qayta tushuntira olishi lozim; **muvaffaqiyat vaziyatini yaratish (Situatsiya uspeha):** har bir bola, hatto eng sust o'zlashtiradigan o'quvchi ham darsda o'zining kuchli tomonini ko'rsata olishiga imkoniyat yaratish (kimdir yaxshi rasm chizadi, kimdir she'rni ifodali o'qiydi, kimdir partalarni tartibga solishda epchil) [2].

2-jadval. Tashqi belgilar (O'qituvchi nimalarga e'tibor berishi kerak?):



Shunday qilib, birinchi sinf o'quvchilarining maktab muhitiga, yangi ijtimoiy talablarga muvaffaqiyatli va og'riqsiz moslashishi faqatgina vaqtga tashlab qo'yiladigan ixtiyoriy jarayon emas. Bu — o'qituvchi, maktab psixologi va ota-onalarning birgalikdagi tizimli va maqsadli harakatini talab qiluvchi murakkab pedagogik mexanizmdir. Shuningdek, dars jarayoniga innovatsion ta'limiy o'yinlarni kiritish, bolalarning

jismoniy va ruhiy holatini hisobga olgan holda yuklamalarni to'g'ri taqsimlash, sinfda samimiy va xavfsiz muhitni yaratish orqali og'ir kechadigan adaptatsiya muddatini sezilarli darajada qisqartirish mumkin. Muvaffaqiyatli o'tgan adaptatsiya davri bolaning kelajakda komil shaxs bo'lib yetishishi, ta'limda yuqori natijalarga erishishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, R. N. (2025). Zamonaviy ta'lim sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarning o'zini baholash xususiyatlari: Muammo va yechimlar. Pedagogik mahorat va psixologik tadqiqotlar, 3(1), 45-53.
2. Nurmetova, M. S. (2024). Maktab dezadaptatsiyasini korreksiya qilishda o'yin terapiyasining o'rni. Markaziy Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 2(5), 88-94.
3. Petrova, E. V. (2025). Psychological mechanisms of child social adaptation in primary school. International Journal of Child Psychology and Behavioral Science, 9(1), 34-42.

Ra'no ABDUXAMIDOVA,

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: ranoabduxamidova0215@gmail.com

UDK: 81-114.4.

ToshDO'TAU professori, f.f.d. Xolmanova Z.T

taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZONIM KOMPONENTLI FRAZEMALARNING LISONIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli frazemalarning lisoniy-madaniy xususiyatlari chog'ishtirma aspektida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikkala tilda hayvon nomlari ishtirokida shakllangan frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasi, ularning xalq e'tiqodi, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog'liq xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ma'nodosh hamda ekvivalent zoonimik iboralarning o'xshash va farqli konnotativ xususiyatlari aniq misollar vositasida asoslangan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, zoonim komponentli frazemalar, lingvomadaniyatshunoslik, ekvivalentlik, konnotatsiyalar, milliylik, milliy mentalitet, chog'ishtirma tilshunoslik.

Annotation: this article analyzes the linguistic and cultural features of zoonymic phraseological units in the Uzbek and English languages in a comparative aspect. During the study, the national-cultural semantics of phraseological units formed with the participation of animal names in both languages, their connection with folk beliefs, lifestyle and worldview were highlighted. Also, the similar and different connotative features of synonymous and equivalent zoonymic expressions are based on concrete examples.

Key words: phraseology, phrases with zoonymic components, linguoculturology, equivalence, connotations, nationality, national mentality, comparative linguistics.

Аннотация: в данной статье в сопоставительном аспекте анализируются лингвокультурные особенности фразем с зоонимическим компонентом в узбекском и английском языках. В ходе исследования освещается национально-культурная семантика фразеологических единиц, образованных с участием названий животных в обоих языках, и их связь с народными верованиями, образом жизни и мировоззрением. Также на конкретных примерах обосновываются сходные и отличительные коннотативные особенности синонимичных и эквивалентных зоонимических выражений.

Ключевые слова: фразеология, фраземы с зоонимическим компонентом, лингвокультурология, эквивалентность, коннотации, национальная специфика, национальный менталитет, сопоставительное языкознание.

Kirish. Til kishilik jamiyatining eng qadimiy madaniy taraqqiyot mahsullaridan hisoblanib, ijtimoiy funksiyalarni bajarishi, kishilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlashi, subyektning his-tuyg'usi, emotsiyasini ifodalash bilan bir qatorda xalqning mental xususiyatlari, tafakkur darajasi, idrok qobiliyati haqidagi ma'lumotlarni ham aks ettiradi. Til birliklari, xususan, barqaror birikmalar, frazemalar xalqning madaniy va ma'naviy xazinasi bo'lib, olamning lisoniy manzarasini obrazli va ta'sirchan ifodalashi jihatidan o'ziga xosdir. Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi sifatida tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi [1: 216]. Frazeologik birliklar shunchaki grammatik qurilma emas, balki jamiyatning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, e'tiqodi hamda qadriyatlar tizimini o'zida saqlovchi lisoniy xotiradir. Zamonaviy tilshunoslikda tillarni faqat ichki struktura jihatidan emas, balki xalq madaniyati va tafakkuri bilan bog'liq holda tadqiq etish – lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslikning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Insoniyat qadimdan tabiat va hayvonot olami bilan birga yashab kelgani bois hayvonlarning xatti-harakati, fe'l-atvori va fiziologik xususiyatlarini kuzatish jarayonida o'xshatishlar hamda qiyoslashlar paydo bo'lgan. Ushbu kuzatuvlar zamirida esa zoonim komponentli frazemalar shakllangan.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida frazemalar va iboralarning semantik boyligi va leksikografik talqini B. Mengliyev, M. Xudoyberdiyeva hamda O. Boymatova kabi tadqiqotchilar tomonidan tuzilgan o'quv izohli lug'atlarida o'z aksini topgan. Ushbu lug'atlarda o'zbek tilidagi iboralarning ma'nolari chuqur tahlil qilib berilgan. G'arb tilshunosligida va ingliz tili frazeologiyasini o'rganishda iboralarning shakllanishi hamda ularning etimologik ildizlarini ochib beruvchi manbalar muhim o'rin tutadi. Xususan, J. Siefring tahriri ostida chop etilgan "Oxford Dictionary of Idioms" lug'atida ingliz tilidagi iboralarning kelib chiqishi, madaniy konteksti hamda ularning nutqda qo'llanilish xususiyatlari batafsil keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli frazemalarning lisoniy-madaniy hamda semantik xususiyatlarini yoritib berish uchun chog'ishtirma va komponentli tahlil usullaridan foydalanildi. Leksikografik manbalar va iboralar izohli lug'atlaridagi materiallarni qiyoslash orqali har ikki tildagi hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlari, ijobiy va salbiy konnotatsiyalari hamda ulardagi milliy tafakkur kodlari bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Shunisi e'tiborliki, muayyan zoonimning ramziy ma'nosi har bir madaniyatda bir xil shakllanmaydi. Geografik muhit, tarixiy taraqqiyot, xo'jalik yuritish shakli va milliy mifologiya kabi omillar har bir tildagi zoonimlar atrofida o'ziga xos assotsiatsiyalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Masalan, bir zoonim o'zbek madaniyatida ijobiy baholansa, ingliz madaniyatida salbiy bo'yoqqa ega bo'lishi yoki aksincha, bir millat uchun g'oyat muhim ramz bo'lgan jonzorot ikkinchi tilda umuman neytral mazmunga ega bo'lishi kabi holatlar uchraydi.

Masalan, o'zbek tilida "Tuyaning dumi yerga tekkanda" frazemasi mavjud bo'lib, bu hech qachon sodir bo'lmaydigan, imkonsiz hodisa yoki amalga oshmaydigan vaqtni anglatadi. Tuyaning anatomik tuzilishiga nazar tashlasak, chindan ham uning dumi juda kalta bo'lib, yerga tegmasligini ko'ramiz. O'zbek xalqining qadimiy chorvachilik, karvon yo'llari bilan bog'liq turmush tarzi hamda kuzatuvchanligi natijasida ushbu hayotiy misol tilda amalga oshmaydigan vaqt ko'rsatkichi sifatida shakllangan. Ingliz tilida ham xuddi shunday imkonsiz holatni ifodalovchi zoonomik frazemalar mavjud, biroq ingliz madaniyatida bu boshqa hayvon va hodisalar orqali tasvirlanadi. Bunda "When pigs fly"[6: 219] – "Cho'chqalar uchganda" frazemasi ma'no jihatdan eng yaqin va ko'p qo'llanadigan zoonomik ekvivalentlardan biridir.

Bu ikki misol frazemalarning shakllanishida xalqning diniy e'tiqodi va madaniy qarashlari muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Masalan, ingliz tili frazeologiyasida "pig" (cho'chqa) zoonimi turli semantik doiralarda keng qo'llaniladi: "To buy a pig in a poke"[6: 219] – o'ylab ko'rmas, tavakkal xarid qilmoq. "As happy as a pig in mud"[5: 218] – juda mamnun bo'lmoq. Bu holat Yevropa dehqonchiligi va chorvachiligida ushbu jonzorotning maishiy obyekt sifatida qadimdan mavjudligi bilan izohlanadi. Aksincha, o'zbek tilining frazeologik tizimida islomiy e'tiqod ta'sirida bu hayvon salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgani sababli u frazemalar hosil qilishda ishtirok etmaydi.

"Ilonning yog'ini yalagan"[2: 13] iborasi juda ayyor, mug'ombir, quv odamlarga nisbatan ishlatiladi. Ingliz madaniyatida ham ilon (snake) deyarli doim xiyonat va yovuzlik bilan bog'lanadi hamda bu zoonim ishlatilgan iboralar, asosan, salbiy bo'yoqqa ega.

"A snake in the grass" – yashirin dushman, xoin degan ma'noni bildirsa, "As slippery as a snake" – tutqich bermaydigan, ishonchsiz odamni ifodalashga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Ilonning yog'ini yalagan" frazemasida aks etgan ayyor, mug'ombir ma'nosi ingliz tilida tulki zoonimiga ham biriktirilgan. Bu frazemaning zoonomik muqobili sifatida "An old fox" – qari tulki frazemasini misol qilishimiz mumkin.

O'zbek tilida "ilon" zoonimi ishtirok etgan "Yer tagida ilon qimirlasa biladi" iborasi nihoyatda ziyrak, sezgir insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Ingliz tilida esa insonning o'ta sezgirliigi va ko'p narsadan boxabarligini ko'rsatuvchi iboralar uchun boshqa zoonim birliklar tanlangan. Masalan, "Have eyes like a hawk"[4: 138] (Lochindek o'tkir ko'zli bo'lmoq) – ziyrak odamlarga nisbatan, "Have ears like a bat" (Ko'rshapalakdek quloqqa ega bo'lmoq) – sezgir insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu misollardan ko'rish mumkinki, insondagi sezgirlik va ziyralik sifati har ikki tilda o'ziga xos usullar bilan frazemalarda aks etgan.

"Qo'y og'zidan cho'p olmagan" iborasi hech kimga ozor bermaydigan, yuvosh degan ma'nolarni bildiradi. O'zbek lingvomadaniyatida bu ibora ijobiy ma'noda insonning beozorligini ko'rsatish uchun ham, ba'zan salbiyroq kontekstda o'zini himoya qila olmasligini ta'kidlash uchun ham qo'llaniladi. Ingliz tilida esa bunday ma'noni beruvchi "Wouldn't say boo to a goose"[3: 33] (g'ozga ham "buu" deya olmaydi) iborasi mavjud. Bu ikkala ibora ham shaxsning "haddan tashqari yuvoshligi" degan konseptual ma'no ifodalaydi. Farqi shundaki, o'zbek xalqi ushbu xarakter xususiyatini chorvachilikdagi "qo'y" obraziga bog'lagan bo'lsa, inglizlarda bu parrandachilikdagi "g'oz" zoonimi orqali shakllantirilgan.

"Boshiga it kunini solmoq" iborasi insonning tinch hayotini izdan chiqarish, xor-u zor qilish degan ma'noni bildiradi. O'zbek xalqi turmushida it xonadonni qo'riqlovchi hayvon bo'lishiga qaramay, qiyin va azobli damni boshdan kechirish "it kunini solmoq" tushunchasida shakllangan. Qiziq jihati shundaki, ingliz tilida ham it zoonimi iboralarda salbiy konnotatsiyani, ya'ni xorlik, aziyat chekish va og'ir sharoitni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, "Lead someone a dog's life", "Treat someone like a dog" iboralarida inson qadr-qimmatining kamsitilishi va unga nisbatan yomon munosabat aynan it zoonimi orqali ochib berilgan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida o'zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli frazemalar shunchaki lisoniy birliklar emas, balki har bir xalqning turmush tarzi, e'tiqodi, geografik muhiti hamda milliy dunyoqarashini namoyon etuvchi lingvomadaniy kodlar ekanligi aniqlandi. Xususan, bir xil konseptual ma'noni (imkonsizlik yoki yuvoshlik) ifodalashda o'zbek tilida tuya va qo'y zoonimlari tanlangan bo'lsa, ingliz tilida cho'chqa va g'oz kabi boshqa milliy-madaniy obrazlar xizmat qilishi asoslandi. Shu bilan birga, ilon va it kabi zoonimlarning har ikki madaniyatda ham ayyorlik hamda og'ir hayotiy sharoitni ifodalashda universal salbiy konnotatsiyaga egaligi ko'rsatib berildi. Umuman olganda, zoonomik iboralarning chog'ishtirma tahlili tillararo tarjima amaliyoti va madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. 216-bet
2. Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 13-bet
3. Oxford Dictionary of Idioms / Ed. by Judith Siefring. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P.33
4. Oxford Dictionary of Idioms / Ed. by Judith Siefring. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P.138
5. Oxford Dictionary of Idioms / Ed. by Judith Siefring. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P.218
6. Oxford Dictionary of Idioms / Ed. by Judith Siefring. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P.219

Ibrohimjon ISMOILOV,

Student Karshi International university

Email: ismoilovibrohimjon18@gmail.com

Mokhinur RAKHMONOVA,

Lecturer of Philology and English language

At Karshi International University

UDK: 811.111'243:378.016

LINGVODIDACTIC FOUNDATIONS OF IMPLEMENTING THE BLENDED LEARNING MODEL IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AT UNIVERSITIES OF UZBEKISTAN

Annotation: this article explores the lingvodidactic foundations and practical potential of implementing the blended learning model within the higher education system of Uzbekistan, specifically focusing on English as a Foreign Language (EFL) classrooms. As global educational paradigms shift toward digitalization, integrating traditional face-to-face instruction with online learning platforms has become a necessity rather than an option.

Key words: *blended learning, lingvodidactics, EFL, higher education, digital tools, learner autonomy, educational technology, Uzbekistan.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингводидактические основы и практический потенциал внедрения модели смешанного обучения в системе высшего образования Узбекистана, в частности, на занятиях по английскому языку как иностранному (EFL). В условиях перехода глобальных образовательных парадигм к цифровизации интеграция традиционного очного обучения с онлайн-платформами стала необходимостью, а не просто вариантом.

Ключевые слова: *смешанное обучение, лингводидактика, EFL, высшее образование, цифровые инструменты, автономия обучающегося, образовательные технологии, Узбекистан.*

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o'qitish jarayonida aralash ta'lim (blended learning) modelini joriy etishning lingvodidaktik asoslari va amaliy imkoniyatlari o'rganiladi. Jahon ta'lim paradigmalari raqamlashtirish sari jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda an'anaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn ta'lim platformalari bilan integratsiyalash imkoniyat emas, balki zaruratga aylanib bormoqda.

Kalit so'zlar: *aralash ta'lim, lingvodidaktika, EFL, oliy ta'lim, raqamli vositalar, o'quvchi mustaqilligi, ta'lim texnologiyalari, O'zbekiston.*

Introduction. The modernization of the higher education system in Uzbekistan has triggered a profound transformation in teaching methodologies, particularly in the domain of foreign language acquisition. In accordance with national educational reforms aimed at fostering international integration and boosting digital literacy, English as a Foreign Language (EFL) pedagogy is shifting away from rigid, teacher-centered approaches toward more dynamic, flexible, and learner-centered frameworks. Among these contemporary methodologies, the Blended Learning model has emerged as one of the most effective strategies to bridge the gap between traditional classroom interaction and digital education.

Blended learning, fundamentally defined as the strategic combination of face-to-face classroom instruction and technologically-mediated online learning, offers a unique pedagogical advantage. It does not merely replace traditional teaching but enhances it by providing students with continuous access to authentic language

materials, interactive exercises, and collaborative digital spaces. In the context of Uzbek universities, where contact hours are structured and classroom sizes can be large, the integration of asynchronous online components allows for a more personalized pacing of language learning.

However, the successful implementation of blended learning requires a solid lingvodidactic foundation. Lingvodidactics, which investigates the laws and principles of language teaching and learning, must adapt to the digital ecosystem. This involves restructuring curriculum designs, redefining the role of the educator from a primary information source to a facilitator, and cultivating high levels of learner autonomy among students. Without a clear understanding of these foundational principles, the integration of technology risks becoming superficial, failing to produce genuine linguistic competence.

This study aims to examine the theoretical and practical dimensions of blended learning within the EFL landscape of Uzbekistan. By identifying the specific

lingvodic requirements and analyzing the current digital infrastructure and readiness of local universities, this paper seeks to provide a comprehensive framework for educators and policymakers to effectively execute blended learning models that maximize language learning outcomes.

Methods and Materials. To investigate the lingvodic efficiency of the blended learning model, a mixed-methods research design was deployed at the university level. The study was conducted over the course of one academic semester, involving a sample size of 60 second-year undergraduate students majoring in English Philology. The participants were divided into two structurally homogeneous groups: an Experimental Group (N=30) and a Control Group (N=30).

The instructional frameworks for both groups were structured as follows:

The Control Group received traditional, face-to-face classroom instruction for 4 hours per week, relying primarily on standard textbooks and physical classroom interactions.

The Experimental Group followed a blended learning framework (the Station Rotation and Flipped Classroom models). 2 hours were dedicated to in-class communicative activities, while the remaining 2 hours were shifted to asynchronous learning via a digital Learning Management System (LMS). The digital component included interactive grammar modules, authentic video analyses, and automated vocabulary flashcards (Anki).

Quantitative data gathered included pre-test and post-test scores designed to measure academic writing and speaking proficiency. Qualitative data was obtained through a 10-item Likert-scale questionnaire administered to the Experimental Group at the end of the term to evaluate student perception, digital engagement, and level of learner autonomy.

Results and Discussion. The quantitative data obtained from the comprehensive post-test demonstrated

a statistically significant improvement in the linguistic performance of the students in the blended learning environment.

The empirical findings clearly indicate that while both groups showed improvement, the Experimental Group outperformed the Control Group by an average margin of 12.8% on the final post-test. This distinct statistical variance can be attributed to the lingvodic structure of blended learning, which maximizes student-talk-time during face-to-face sessions since foundational theoretical materials are shifted to online asynchronous platforms.

Furthermore, the qualitative survey results revealed that 87% of the students in the Experimental Group reported a substantial increase in their independent learning habits, indicating a positive development in learner autonomy. The primary challenges identified during the discussion phase centered around institutional digital infrastructure, occasional technical friction with the LMS platform, and the initial psychological adjustment required for students to transition away from heavy teacher-dependence.

Conclusion. The integration of the blended learning model into the EFL curriculum of philology faculties in Uzbekistan represents a crucial evolutionary step for local higher education. By scientifically balancing synchronous classroom dynamics with autonomous digital environments, this model successfully addresses the limitations of traditional, rigid pedagogical methods.

The empirical evidence generated by this study confirms that blended learning significantly accelerates communicative competence and fosters a sustainable culture of self-directed study among undergraduate students. To ensure the scalable success of this methodology nationwide, it is highly recommended that higher education institutions invest in continuous digital training for educators and optimize localized LMS infrastructures to facilitate a seamless transition into modern digital spaces.


References:

1. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. John Wiley & Sons.
2. Tomlinson, B., & Whittaker, C. (2013). Blended Learning in English Language Teaching: Course Design and Implementation. British Council.
3. Jalolov, J. J. (2012). Chet tili o'qitish metodikasi (Foreign Language Teaching Methodology). Toshkent: O'qituvchi.



Tjad soati





O'qituvchi, muallim kasbiy faoliyati bevosita ijod bilan bog'liq jarayon. Shu bois aksariyat ustozlarimizning badiiy adabiyotga daxldor ijod namunalari bo'lishi tabiiy. Jurnalimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqqan holda, ijodkor muallimlar va o'quvchi yoshlarning ilhom namunalarini ijod soati ruknida berib borishni joiz topdik. Zero, muallimlarning tunlari uxlamasdan ilhom va tafakkur uyg'unligidagi zahmatli mehnatlari faqatgina o'zlarining daftarlari varaqlarida qolib ketmasin. Ne ajabki, muallim daftarlari bitilgan samimiy satrlar yoshlar va hamkasblari qalbida ham ilhom cho'g'larini otashlantirsa.



MA'RIFAT VA SHE'RIYATNI QALBIGA JO ETGAN FIDOYI USTOZ

“Ustozning eng buyuk mukofoti – shogirdining kamoli, ijodkorning eng oliy baxti esa yozgan satrlarining inson qalbiga yetib borishidir.”

Hayotimizda shunday insonlar borki, ularning mehnati faqat bugunni emas, balki kelajakni ham bunyod etadi. Ular o'z umrini yosh avlod tarbiyasiga, ilm-ma'rifat rivojiga va inson qalbini ezgulikka yo'naltirishga bag'ishlaydi. Bunday fidoyi insonlar haqida so'z borganda, pedagog, jurnalist va shoira **Polvonova Sayyora Ozadovna** nomini alohida hurmat bilan tilga olish mumkin. Ustozlik – bu kasb emas, balki umr mazmunidir. Shoirlik esa inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni so'z orqali ifodalash san'atidir. Sayyora Polvonova ana shu ikki ulug' yo'lni uyg'unlashtira olgan ziyolilardan biridir. U o'nlab yillar davomida ta'lim-tarbiya tizimida sidqidildan xizmat qilib, yuzlab o'quvchilarning qalbidagi ezgulik, vatanparvarlik va kitobga mehr tuyg'ularini shakllantirdi. Shu bilan birga, samimiy

she'rlari orqali kitobxonlarni insoniylik, mehr-oqibat va ma'naviy komillikka chorlab kelmoqda. Xorazmning qadimiy va betakror Shovot zaminida tavallud topgan Sayyora opa ziyolilar oilasida ulg'aydi. Oiladagi kitobsevarlik muhiti, ota-onasining ma'rifatga bo'lgan yuksak e'tibori uning hayot yo'lini belgilab berdi. Yoshligidan mutolaaga oshno bo'lgan qizaloq mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini sevib o'qidi. Har bir o'qigan asari uning tafakkurini boyitdi, qalbidagi esa she'riyatga cheksiz muhabbat uyg'otdi. Shu bois ilk she'rlari ham bolalikning beg'ubor tuyg'ulari va orzulari bilan sug'orilgan edi. Keyinchalik u O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Talabalik davri uning dunyoqarashini yanada kengaytirdi. So'zning

qudrati, publitsistikaning jamiyatdagi o'рни va badiiy ijodning mas'uliyati aynan shu yillarda uning hayotiy qarashlariga mustahkam singdi. U jurnalistikani voqealarni yoritish vositasi emas, balki inson qalbiga ezgulik urug'ini qadash imkoniyati deb bildi. Bu qarash keyinchalik uning pedagogik faoliyatida ham, ijodida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Bugungi kunda Sayyora Polvonova Toshkent shahridagi Yangi hayot tumanining 292-sonli umumta'lim maktabida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu lavozim katta mas'uliyatni talab qiladi. Chunki bugungi yoshlarning ma'naviy dunyosi, kitobxonlik madaniyati, Vatanga muhabbati va milliy qadriyatlarga sadoqatini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'рни beqiyosdir. Sayyora opa aynan shu yo'lda bor bilim va tajribasini safarbar etib kelmoqda. Uning tashabbusi bilan maktabda kitobxonlik haftaliklari, adabiy uchrashuvlar, she'riyat kechalari, ma'rifat darslari va tarbiyaviy loyihalar muntazam tashkil etiladi. Bu tadbirlar yoshlarni kitobga oshno etish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Hamkasblari uni mas'uliyatli rahbar, mehribon ustoz va samimiy inson sifatida e'tirof etishadi. Shogirdlari esa ustozining har bir nasihati va hayotiy saboqlarini minnatdorlik bilan eslaydi. Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda Sayyora Polvonova she'riyat olamida ham o'z ovozigacha ijodkor hisoblanadi. Uning she'rlarida balandparvoz iboralar emas, balki hayotning o'zi, inson qalbining kechinmalari, mehr, sog'inch, sadoqat va ezgulik aks etadi. Shoir murakkab badiiy usullardan ko'ra xalqona, sodda va samimiy ifodani afzal ko'radi. Aynan shu jihat uning ijodini kitobxonlarga yaqinlashtiradi. "Ayolni ardoqlang" she'ri ayolning jamiyat va oiladagi beqiyos o'rnini

ulug'laydi. Shoir ayolni mehr, sabr va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlaydi. "Dunyo" she'rida hayotning murakkab sinovlari haqida falsafiy mushohadalar yuritiladi. "Onajon", "Ko'zlarimga surtay", "Sen baxtli ona" kabi she'rlarida esa ona mehri, ona duosi va farzandlik burchi yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanadi. "Go'dak kulgusi" she'ri bolalarning beg'ubor olamiga bag'ishlangan bo'lsa, "Shovot bu" asari tug'ilib o'sgan yurtga bo'lgan muhabbatning samimiy ifodasidir. Bugun yurtimizda ustozlarning jamiyatdagi nufuzi tobora yuksalmoqda. Chunki taraqqiyotning poydevori ta'lim, ta'limning tayanchi esa fidoyi ustozlardir. Sayyora Polvonova ana shunday ustozlardan biri sifatida nafaqat dars beradi, balki qalblarni tarbiyalaydi. Uning har bir tashabbusi, har bir she'ri va har bir ezgu ishi insonni yaxshilikka undaydi. Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular ortidan dabdabali lavozimlar yoki balandparvoz unvonlar emas, balki ezgu amallar qoladi. Sayyora Polvonovanning hayot yo'li ham aynan shunday mazmun kasb etadi. U o'zining halol mehnati, yuksak ma'naviyati, ijodi va ustozlik faoliyati bilan ko'plab yoshlar qalbida yorug' iz qoldirib kelmoqda. Bunday ma'rifat fidoyilarining hayoti va faoliyatini keng jamoatchilikka tanitish, ularning boy tajribasini yosh avlodga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Zero, bugungi kun yoshlari ana shunday ustozlardan ibrat olib ulg'aysa, yurtimizning ma'naviy kelajagi yanada mustahkam bo'ladi. Fidoyilik, samimiyat va ma'rifatga sadoqat – Polvonova Sayyora Ozadovna hayotining bosh mezonidir. Ana shu fazilatlar esa uni ustozlik va she'riyatni birlashtirgan chinakam ziyoli sifatida e'tirof etishga to'la asos bo'ladi.

Dilrabo OZODOVA



Bonu
SARIIMOVA

ISTAGIM

VATAN

Ko'nglimda ko'z ochgan irmoqlarim bor,
Daryoga quyilmoq ular maqsadi.
Zahmatkash otamdek, mushfiq onamdek,
Xalqimning koriga qurbim yetsaydi...

Gohi yelkaladim bardoshimni jim,
Qanotim og'ridi... Qaddim og'ridi...
Ota, o'n to'qqiz yil opichlab o'tding,
Kecham bugunimdan og'irroqmidi?

Ona, sochingdagi umrim gullari,
Qara, o'zim bilan gullab boradi.
Hali men yetmagan orzum yo'llari
Vatan taqdiriga ulab boradi.

Kimlarga ishondim o'zni unutib,
Do'st deb suyanganim, oh, g'anim ekan.
Meni ardoqlagan kaftida tutib,
Asli ulg'aytirgan Vatanim ekan.

Chorla, huuuv tog'lardan kelaman oshib,
Buyur, xizimatingga men shaylanaman.
Bir kun yuragingga aylanaman men,
Mening yuragimga aylangan VATAN!!!

Ey maysa, rangingdan menga qarz ber,
Yashillikka burkay mushtoq ko'nglimni.
Kuzgacha yashaysan, mayli, fayz ber,
Yashnatmoq istayman umr yo'limni.

Oq kapalak! Oppog'im, oh, kapalak,
Yoningda bir lahza qolayin, mayli,
Ko'rkingni ayama mendan, kamalak,
Tongim nurli bo'lsin sening tufayli.

Hoy bulut! Osmonni quchgan, hoy bulut,
Olisni ko'zlagin, olisni ko'zla,
Mening yerim unut, osmonim unut,
Faqat moviy baxtning sirlarin so'zla.

Ko'zinga sho'ng'igan jilvakor yomg'ir,
Yuragimdan yuvgin hijron izlarin.
Oyning dog'idan ko'p dardlarim og'ir,
Shabnamda chayilsin tongning yuzlari.

Rayhon, iforingni qizg'onma faqat,
Jannatga eltsin-da, meni bu islar.
Ko'nglim, ezgulikka yo'g'rilsin niyat,
Chin ishqqa yetkazsin meni bu hislar.

Har mahzun qalbda baxt urug'i unsin,
Xudoyim ijobat qilsin nolaamni.
Poklanib olsin dil muhabbat uchun,
Yashnatmoq istayman butun olamni

DADAJON

Siz yaxshi insonsiz, mehribonimsiz,
Orzumand dillarni ko'targan ko'kka.
Baxt degan chashmani tortiq qilganim,
Siz axir munosib bu buyuklikka.

Yo'llar charchatmasin sizni dadajon,
Kelar yo'lingizga nurlar to'shalsin.
Men orzu qilardim go'zal dunyoda,
O'g'il va qizlarimiz sizga o'xshasin.

Shundayin fayzli uzumli hovli,
Siz borsiz hamisha ko'rki ketmaydi.
Anjirlar isida mehr gupullar,
Dunyoda mehrga nima yetmaydi.

Siz shunday mehribon ko'ngli osmonsiz,
Millionlab dardlarga topgansiz malham.
Siz shunday rohatda yashangiz toki,
Yemay yedirgansiz,
Kiymay kiydirgan!!!

Xoji ota bo'ling,
Xoji onamni,
Baxtlariga sog' bo'lingiz doim.
Umra safarlarga yetkazsin illo,
Sizlarni panohida asrab Xudoyim!!!

Kuz. Bu bog'lar ichinda qolganda yolg'iz,
Ona daraxtlarga aytganda afsun.
Azaliy dardlardan forig' bo'lganday,
Odamlar, odamlar sezmas bu hisni.

Yelkasida yuk-u, qo'llarida yuk,
Yer – padarim qilgan mehnatday halol,
Tabiat shu lahza go'yo tushib muk,
Istig'for aytadi osiylar misol.

Tun. Yog'dularga to'lgan pallada,
Zangori ko'rilar har bitta tushlar.
Yer yengillaydi vahima tinib,
Qanotida dardni tashiydi qushlar.

Betashvish odamga orttirib tashvish,
Yerga jon to'kilar ko'rmoqlik og'ir.
Osmon rahmidanmi,
Yer rahmidanmi,
Tinmayin yog'adi mehribon yomg'ir...

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Sayyora Halimova, Tadjixon Sabitova,
Maxpuza Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova,
Gulboxor Ernazarova, Komiljon Qarshiyev,
Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova,
Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov,
Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva,
Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov,
Davronova Mahfuza, Dilafruz Jabborova,
Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev,
Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva,
Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov,
Sharipboy Bobojonov, Madixabonu Pardayeva,
Xilola Ismailova, Kamola Jumayeva,
Marxabo Abdullayeva, Nigoraxon Ro'zibayeva,
Dildora Usarova, Mahkamoy Tursunova,
Farhod Nizomov, Moxira Sadullayeva,
Muhayyo Vafqoyeva, Bobomurod Mirsanov
Gulsanam Xoliqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

(93) 759-43-88, (99) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.


E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda
Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Gulnoza XOLDOROVA

ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN"
DOSTONIDAGI FARHOD BORGAN
MANZILLAR XARITASI 3

Maysara ESANOVA

NAVOIYNING MIRIY IJODIGA ADABIY TA'SIRI 6

Madina QOSIMOVA

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA AYOL OBRAZI 9

Nafisa NAZAROVA

O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA
OILAVIY QADRIYATLAR..... 11

TILSHUNOSLIK

Sarvinoz MARDONOVA

TILSHUNOSLIKDA SO'Z YASALISHINING
MUSTAQIL SATH SIFATIDAGI TALQINI 14

Muzaffar OBILOV

Dilnoza YOQUBBOYEVA
"DISKURS" TUSHUNCHASINING
LINGVISTIK TA'RIFI VA TALQINI 17

Inabat ALLAMBERGANOVA

Dilnoza SHAYXIMANOVA
QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARIDA
ANTAGONIST (SALBIY) OBRAZLAR 19

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.M. UMIROVA

USMON AZIM IDIOSTILINING KORPUS
ASOSIDAGI EVOLYUTSION TAHLILI 23

Xamza XAITOV

XALQ KULGUSINING YOZMA ADABIYOT
TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI XUSUSIDA 26

Ramil XOJAMURATOV

POETIK OBRAZNI SHAKLLANTIRISHDA
REFRENNING AHAMIYATI 28

Umidjon YIGITALIYEV

Sadoqat SOTVOLDIYEVA
POETIK MATN VOQELIK BADIY TASVIRINING
KOGNITIV IDROKIDA SHAXSNING O'RNI 31

Э.Н. ЕШНИЯЗОВА

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В ПОВЕСТИ
М.БУЛГАКОВА "СОБАЧЬЕ СЕРДЦЕ" 33

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Nafosat ZARIPBOYEVA

MEDIA KOMMUNIKATSIYADA GENDER
STEREOTIPLARNING YANGI SHAKLLARI VA
FUNKSIONAL O'ZGARISHLARI 37

Dilnoza RAXIMOVA

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA ADAPTIV-
INTEGRATIV O'QITISH YONDASHUVI VA
NOFILOLOGIK TALABALARDA YUZAGA KELADIGAN
QIYINCHILIKLAR TIZIMI 39

TADQIQOTLAR

Elbek KURBANOV

SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASINING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI:
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 42

Parizoda AXRORXO'JAYEVA

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMALARIDA
AYOLLAR OBRAZINING TIPOLOGIYASI
VA POETIKASI 44

Tursunoy JARKINOVA

BOTIRXON AKROMOV VA MIXLI SAFAROV
TADQIQOTLARIDA 60-70-YILLAR
SHE'RIYATI TALQINI 48

Xadicha MAMATQULOVA

AMERIKA VA O'ZBEK NASRIDA
HAYVON OBRAZINING SEMANTIK VA
POETIK XUSUSIYATLARI 50

Janabay MARZIYAEV

EKOLOGIK ONG, TA'LIM VA MADANIYAT -
EKOLOGIK JURNALISTIKANING ASOSIY
YO'NALISHLARI SIFATIDA 53

Fayyoz BO'RIYEVA

AQLIY FAOLIYATGA DOIR SUBSTANDART
FE'LLARNING EVALUATIV-KONNOTATIV
PARADIGMASI: BAHOLASH KATEGORIYASI
VA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYA
MEXANIZMLARI 56

Naziraxon QODIROVA

PERSUAZIVLIK TUSHUNCHASINING LISONIY VA
LINGVOPRAGMATIK TALQINI 59

Gulasal LATIPOVA

FILOLOGIK TADQIQOTLARDA KORPUSNING
METODOLOGIK ASOSLARI TADQIQI 61

Xulkar RAXMATOVA

ZID MA'NOLI SO'ZLARNI KORPUS MATERIALLARI
ASOSIDA LEKSIKOGRAFIK TALQIN QILISH
MASALALARI 64

Lobar DONAYEVA

S MUSTAFAYEVA
HOZIRGI XITOIY TILIDA 歇后语 (JUMBOQLI
IBORALAR)NING LINGVOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI 66

Ziyoda YUNUSOVA

FE'LLARNING SEMANTIK MA'NOVIY GURUHLARI
TASNIFI (O'ZBEK VA YAPON TILIDAGI
"AKERU-UCHMOQ" FE'LI ASOSIDA) 71

Axmad RAXMATOV

NEMIS TILI ZAMON SHAKLLARINING
MATNDAGI MA'NODOSHLIGI 75

Ozodaxon USMONOVA

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI IQTISODIY
TERMINLARNING KOGNITIV-SEMANTIK
TAHLILI VA TARJIMAVIY EKVIVALENTLIK
XUSUSIYATLARI 78

Kamola RIZAEVA

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA
MEDIADISKURSNING
FUNKSIONAL-STILISTIK TAHLILI 81

Fotimaxon TAJIBOYEVA

FILOLOG TALABALARINING INGLIZ
TILIDA MADANIYATLARARO MULOQOT
KOMPETENSIYASINI AVTENTIK MATERIALLAR
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING
ASOSIY TAMOIYILLARI 84

Shamsiyabonu ISKANDAROVA

JAK DERRIDA DEKONSTRUKSIYASI
NAZARIYASI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RNI 86

Dilovar SULTONOVA

SOBIR SAYQALIYNING "BAHROM VA
GULANDOM" DOSTONIDA DINIY MOTIVLARNING
BADIY-G'OYAVIY TALQINI 89

Tursunoy ORTIQOVA

INGLIZ TILIDA YOZUV
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR 92

Gulshoda SALOMOVA

TILSHUNOSLIK TERMINLARINING
SEMANTIK MAYDON ASOSIDA
GURUHLANISHI VA IZOHLANISHI 96

Farangiz RABBIMOVA WATER KONSEPTINING FRAZEOLGIK REPREZENTALLASHUVI	99
Madina KAMALOVA KÓRKEM SHÍĠARMA TILINDE ZOOKOMPONENTLI FRAZEOLGIZMLERDÍŇ QOLLANÍLÍWÍ HÁM ÁHMIYETI	101
Lapiza BIYMBETOVA I.YUSUPOV SHÍĠARMALARÍŇDA RUS TILINEN KIRGEN ÓZLESTIRMELERDÍŇ QOLLANÍLÍWÍ	104
Махмуд ФАТХУЛЛАХОДЖАЕВ О ПРОИСХОЖДЕНИИ СЛОВА НЕУКЛЮЖИЙ.....	107
Замира ВАФАЕВА ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ТЕКСТ КАК ДИДАКТИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	109
Савлат ГАФУРОВА ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ФАКУЛЬТЕТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	111
Sevinch TOSHBOYEVA THE ROLE OF FORMATIVE ASSESSMENT IN DEVELOPING ENGLISH COMMUNICATIVE COMPETENCE	113
Larina KAMILA STAGES OF LEXICALIZATION OF TERMINOLOGICAL NEOLOGISMS IN ENGLISH ACADEMIC DISCOURSE.....	116

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Sardor SAKIYEV ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING O'Z KASBIGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASH JIHATLARI	119
Bibixatisha KUNNAZAROVA PEDAGOGIK AKMEOLOGIIYANING NAZARIY- KONSEPTUAL ASOSLARI VA O'QITUVCHI KASBIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	124
Munira DJURAKULOVA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INTELLEKTUAL FAOLLIKNI IFODALOVCHI SHAXSIY SIFATLAR.....	127

Mohira MAVLONOVA 10-11-SINF O'QUVCHILARIDA PRAGMATIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLIB O'QITISHNING O'RNI.....	130
Malika QURBONOVA O'ZBEK VA RUS NASRIDA AN'ANAVIY OILAVIY QADRIYATLARNING MILLIY VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	132
Jamshid MATNAZAROV TALABALARNING KIBERIJTIMOIIYLASHUVINI ARALASH TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK IMKONIYATLARI	134

KICHIK TADQIQOT

Sevinch SA'DULLAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING BADIY TALQINI.....	138
Mohinur BOBONAZAROVA ONOR DE BALZAKNING "GORIO OTA" ROMANIDA OTA VA FARZAND MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-BADIY TALQINI.....	140
Mushtariybonu AXMEDOVA BIRINCHI SINF O'QUVCHILARINING MAKTABGA ADAPTATSIYASINI YENGILLASHTIRISH USULLARI.....	143
Ra'no ABDUXAMIDOVA Z.T. XOLMANOVA O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZONIM KOMPONENTLI FRAZEMALARNING LISONIY- MADANIY XUSUSIYATLARI	146
Ibrohimjon ISMOILOV Mokhinur RAKHMONOVA LINGVODIDACTIC FOUNDATIONS OF IMPLEMENTING THE BLENDED LEARNING MODEL IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AT UNIVERSITIES OF UZBEKISTAN	148

IJOD SOATI

Dilrabo OZODOVA MA'RIFAT VA SHE'RIYATNI QALBIGA JO ETGAN FIDOYI USTOZ.....	152
Bonu SARIMOVA VATAN. ISTAGIM. DADAJON.	154